


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Davlat va huquq tarixi va nazariyasi”  
kafedrası**

**“YANGI O'ZBEKİSTONNIG TARAQQIYOT STRATEGIYASI”  
MODULI PAPKASI**

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun

**Namangan – 2024**

Modul papka Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2024-yil  
— — — — — dagi 1-sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fani o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

## Tuzuvchi:

**E. G'apparov** Namangan davlat universiteti “Davlat va huquq tarixi  
va nazariyasi” kafedrasи dotsenti, PhD

## Taqrizchilar:

**B. Talapov** Namangan davlat universiteti “Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrasи professori, f.f.d.

**“Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrası mudiri:**

2023 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ PhD. dots. E. G'apparov

<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>
1.	Titul varog'i
2.	Mundarija
3.	Ma'ruza matnlari
4.	Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
6.	Glossariy
7.	Ilovalar: - Sillabus; - Tarqatma materiallar; - Testlar; - Baholash mezonlari;


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrasi**

**60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun**

**“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”  
fani bo'yicha**

***MA 'RUZALAR MATNI***



**NAMANGAN - 2024**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
*Namangan Davlat universiteti*

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi  
3-bosqich talabalari uchun uchun “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”  
fani bo'yicha ma'ruzalar matni

**Tuzuvchi:** **PhD, dots. E. G'apparov**

**Taqrizchi:** **f.f.d., prof. B. Talapov**

Ma'ruzalar matni “Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrasida ko'rib  
chiqilgan va tavsiya etilgan

Bayonnomma № 1 \_\_\_\_\_ 2024 yil

“Davlat va huquq tarixi va nazariyasi”  
kafedrasi mudiri: **PhD, dots. E. G'apparov**

## **Ma’ruza mavzulari va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti.**

<b>Nº</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soati</b>
1	“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanining predmeti, maqsadi va vazifasi.	2
2	Yangi O'zbekiston strategiyasi	2
3	Xalqparvar davlat	2
4	Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish	2
5	Adolatli ijtimoiy siyosat	2
6	Ma'naviy taraqqiyot	2
7	Xavfsizlik va tashqi siyosat	2
8	O'zbekiston va umumbashariy muammolar	4
	Jami	18

## **1-mavzu: “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanining predmeti, maqsadi va vazifasi.**

### **Reja:**

1. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanining predmeti.
2. Fanni o’qitishdan ko’zlangan maqsadlar.
3. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanini vazifalari.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o’zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg’un, or-no’muslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo’lishi kishilik jamiyati tajribalarida o’zining isbotini topgan. Inchinun, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligidan siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviqa tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko’ra har bir xalq o’z oldiga ulug’ va istiqbol maqsadlarni qo’yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko’rvuchi siyosatchilar, tom ma’nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo’ladigan muommolarni oldindan ilg’ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas’uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir “arxitektor”larning vujudga kelishi ham davrning taqoza bilan bog’lanadi. Trumen, Cherchil, Yaponiyada Makartur, Singapurda Li Kuan Yu, Xindistonda M.Gandi, Xitoyda Mao sze-Dunlarning uzoqni ko’ra bilishi millatning farovon kelajagini ta’minlashga erishish salohiyatlari bilan baholanadi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari ikkinchi jahon urushlari talato’plaridan so’ng xalqning orzu-umidlarini ro’yobga chiqarishda misli ko’rilmagan ommaviy safarbarlik va jasorat na’munalarini namoyon qilishi bilan barcha xalqlarga ibrat bo’ldilar.

Aytish mumkinki, Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “2023-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” o’tgan davr ichida erishilgan tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi masalalarni hisobga olib, keyingi besh va undan keyingi uzoq yillarga mo’ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi davrini ochib berdi. Bu butun mohiyati bilan O’zbekistonning eng yangi tarixida butunlay yangi sahifa ochmoqda.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to’g’ri muljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O’zbekiston ham o’z tarixinining ana shunday mas’uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident Sh Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Taraqqiyot strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g’oyaga aylanmoqda. Shu ma’noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixinining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o’rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan, o’z-o’zidan savol tug’iladi? Rivojlanish nima va u qanday ta’minlanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiylar yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta’minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi? Ta’limotlarga ko’ra, rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o’tishda tabiat va jamiyatda sodir bo’ladigan o’zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko’ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg’unligi e’tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o’sib boradi. Ya’ni u rivojlanish ob’ektning o’zida mavjud bo’lgan harakatlarga asoslanadi.<sup>1</sup> Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo’lgan “innovatsiya”lar, “konsepsiya”lar kabi g’oyalar orqali ta’minlaymiz.

Bundan tashqari har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o’zgarishdan boshlanadi. O’zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, siyosiy soholar orqali amalga oshiriladi. Ya’ni har bir sohaning miqdoriy, mazmunli, strukturaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko’rsatgichlar vujudga keladi. Lekin, har qanday o’zgarishlar rivojlanishni ta’minlamaydi. O’zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko’laming kengayishida, biron bir sohadagi son o’sishida va uni amalda ta’minlashning strukturaviy qurulmalarning vujudga kelishida namoyon bo’ladi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko’ra har bir xalq o’z oldiga ulug’ va istiqbol maqsadlarni qo’yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Shuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o’tish barcha xalqlarga xos, ammo o’tish yo’llarini tanlash, amalga oshirish va ta’minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya’ni bu maqsadlar davlatning strategik yo’nalishlarida o’z ifodasini topadi. Xo’sh shunday ekan, strategiya nima? U davlatning qanday jabhalarini qamrab oladi? Strategiya davlat va xalq manfaatlarini uyg’unlashtirishning qanday istiqbollarini belgilab beradi?

“Strategiya” tushunchasi grekcha so’zdan olingen bo’lib aslida “jang san’ati” ma’nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo’lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo’llanilmoqda. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy termenologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o’zining alohida tushuncha va kategoriyalariiga ega bo’lib;

1. O’zoqqa muljallangan rejalashtirish san’ati.
2. Boshqaruva rahbarlik mahorat san’ati.
3. Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san’ati.
4. Aholini ma’lum maqsadlar sari safarbar etish san’ati.
5. Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san’ati.
6. Taqsimlash va samaradorlikni ta’minlash san’ati kabi tushunchalarni qamrab

---

<sup>1</sup> O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. –B. 187.

oladi<sup>1</sup>.

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo’lib, u izchillik bilan va to’liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvoffaqiyatni ta’minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o’zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no’malumlik parokandaligi orqali sinovdan o’tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo’naltiruvchi g’oyalar majmuasi. Bu resurs cheklanganligini baholash orqali harakatlarning to’g’ri tanlangan yo’nalishi bilan boyitilgan donishmandlik<sup>2</sup>.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqiyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni proqnozlashtirish va bartarf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi<sup>3</sup>. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o’zaro bog’liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko’plab tushunchalarda ifodalanadi. YA’ni, “siyosat”, “doktrina”, “milliy manfaatlar”, “milliy xavfsizlik”, “modernizatsiya”, “innovatsiya”lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. SHunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta’minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo’lib hisoblanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog’liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo’lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob’ektning yo’l ko’rsatuvchisiga, mayog’iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo’yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo’yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Boshqacha aytganda: Strategiya + Taktika= Siyosatga teng<sup>4</sup>.

XX asr 50-yillardan keyingi yillarda ko’pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o’z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo’liga o’ta boshladilar. Bu vaqtida asosiy 3 taraqqiyot yo’li: 1) kapitalistik; 2) sotsialistik; 3) milliy ozodlikka erishgan davlatlarning aralash yo’nalishi haqidagi qarashlar bor edi. XX asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qathiy

---

<sup>1</sup> Bulanova Ye.A. Politika i strategiya v mexanizme gosudarstvennogo regulirovaniya sotsialno-ekonomicheskix protsessov. Vestnik Chuvashskogo universiteta. 2006 g. №3, S 148.

<sup>2</sup> Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. T.; “TASVIR”. 2018. - B 18.

<sup>3</sup> Yurina A. O strategii gosudarstvennogo upravleniye. www.odn2ru.

<sup>4</sup> Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. T.; “TASVIR”. 2018. - B 44.

qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo'llari (modellari) ancha keng ko'lam va maqsadga egaligi, ulardan birini tanlashda har bir mamlakat o'z ichki sharoitlaridan kelib chiqmog'i zarurligi mahlum bo'ldi.

Iqtisodiyot nazariyasida ayrim olimlar iqtisodiy taraqqiyot modelini davlat tuzumi desa, boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, uchinchilari esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning aniq belgilangan yo'li, deb hisoblaydi. Iqtisodiy taraqqiyot modeli, N.To'xliev va boshqa bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy munosabatlarning keng miqyosli tizimi bo'lib, u huquqiy, mahmuriy hamda xo'jalik mexanizmlari orqali boshqariladi. Bunday munosabatlarning subhekti mult egalari, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari, uyushmalar, davlat va xususiy sektor, mamlakat doirasidagi mintaqva va tarmoqlar hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot modeliga axloq va dunyoqarash, mentalitet, turmush tarzi, madaniyat kabi ijtimoiy mehyorlar mahlum darajada o'z tahsirini o'tkazadi.

Iqtisodiy taraqqiyot modeli global va milliy xarakterda bo'ladi. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning bir qator tipik global quyidagi modellari mavjud:

Osiyo taraqqiyoti modeli - jamoaning kuchli pozitsiyasi va diniy omilga asoslangan bo'lib, bu modelda undiruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi asosiy o'rinda turadi. "Osiyo arslonlari" deb ehtirop etilgan: Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Malayziya kabi mamlakatlar rivojlandi.

Mustaqillikdan meros qolgan qaloq, anhanaviy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. Bu model milliy mustaqillik sharoitida amalga oshadi. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos belgilar xo'jalik turlarining transformatsiyasi orqali yuz beradi.

1. Azaliy natura xo'jalik bozor doirasiga tortilib, tovar xo'jaligiga aylanadi va undan bozor iqtisodiyoti belgilari o'sib chiqadi.
2. Kam rivojlangan, lekin real mavjud milliy kapitalistik xo'jalik bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutadi.
3. Xorijiy kapital yaratgan xo'jalik, ishlab chiqarishning xorijiy sektori zaminida bozor iqtisodiyoti unsurlari rivoj topadi.

Osiyo modelining muhim belgisi shundaki, unga bozor munosabatlari rivojiga xos bosqichlarning hammasidan o'tilmaydi, hatto ayrimlari chetlab ham o'tiladi. Masalan, qoloq natura xo'jalik to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyotiga xos yirik fermer xo'jaligiga aylanadi.

"Yangi Yapon" yigit-qizlari bilak kuchiga va aqliga tayanadilar. CHetdan texnika, asbob-uskuna, kapital olib kelinadi. Ishchi kuchini "ajdoha"lar beradi. AQSH texnologiyasidan nusha ko'chirgan Janubiy Koreya ham tez rivojlandiki, bunda 1) ishchilarni bepul qayta o'qitish; 2) sanoat tarmoqlarini rivojlantirish; 3) subsidiya va past foizli kreditlar berish; 4) "Eksport" - iqtisodiyotning

harakatlantiruvchi kuchi” aqidasi hukmron; 5) mamlakatda bilimdon va intizomli ishchi kuchlarining yetarliligi.

1. Yevropa modelida - iqtisodiy taraqqiyotning ijtimoiy yo’naltilganligi, xususiy tashabbusning yuqori darajada rivojlanganligi, biznesni qo’llab-quvvatlash va soliq undirishning sharoitga moslashuvchan tizimi, jamiyatning texnokratik yo’nalishi, YalMda xizmat ko’rsatish sohasining yuqori hissasi ko’zga tashlanadi.

Yevropacha modelda evolyutsion yo’l orqali oddiy tovar xo’jaligidan klassik kapitalizm tomon va undan bozor iqtisodiyoti tomon boriladi. Bunda oddiy pul-tovar munosabatlarining kapitalistik shaklga ko’chishi, uning bozor iqtisodiyotiga aylana borishi orqali yuz beradi. Bu modelda bozor iqtisodiyotining yovvoyi ko’rinishlari ham kuzatiladi: o’ta tarqoqlik, tartibsizlik, o’zbilarmonchilik, shafqatsiz ekspluatatsiya, ommaning qashshoqlashuvi, g’irrom raqobat, g’ayri insoniy xatti-harakatlarga moyillik. Bu jarayon XIX asr oxirigacha hukmron bo’ldi. XX asr 30-yillardan bozor iqtisodiyotiga o’tildi, 50-yillarda shiddatli tus oldi.

2. Lotin Amerikasi modeli - hom ashyo tamoyiliga qurilib, undiruvchi sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, xufyona narkokapitalning yuqori hissasi, eksportning past, tovar va xizmatlar importining esa yuqori darajasi iqtisodiyotda mayda tovar ishlab chiqarishning sezilarli darajasi bilan tavsiflanadi.

3. Osiyo - Tinch okeani modeli (XX asr 70-80-yillarda shakllangan)ning tipik xususiyati - yuqori texnologiyaga egaligi, tabiat va inson resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ilmiy bazasining rivojlanganligidir.

4. Afrika iqtisodiy taraqqiyot modeli - tipik xom ashyo yo’nalishi, iqtisodiyotda past unumдорлик darajasi, mehnat resurslarining ortiqchaligi, aholi turmushining past darajasi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, urug’chilik, qabilalar o’rtasidagi urushlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik bilan xarakterlanadi.

5. Postsovet iqtisodiy taraqqiyot modeli - asosan MDH mamlakatlariga xos bo’lib, ularni ishlab chiqarish texnologiyasining umumiyligi xususiyati, yagona andozalar, iqtisodiyotni isloq qilishning umumiyligi vazifalari birlashtiradi. Sobiq Ittifoq respublikalarining 70 yildan ortiq birga bo’lishi iqtisodiy munosabatlarining yaqinlashuviga o’z tahsirini o’tkazmasdan qolmadı. XX asr 90-yillari boshida va o’rtalariga kelib ham mamlakatlar tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko’prog’i MDHga to’g’ri kelar edi. Ammo, keyinchalik bu tendentsiya milliy taraqqiyot modellari yetakchi o’rinni egallay olmadı. O’zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida sanoati rivojlangan mamlakatlar birinchi darajasiga ko’tarildi.

Taraqqiyotning global modellaridan tashqari dunyodagi AQSH, Angliya, Yaponiya, Germaniya kabi ayrim rivojlangan va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi modellar ham ko’zga tashlanadi.

6. “Amerika modeli”da bozor munosabati nihoyatda liberalligi bilan xarakterlanadi. Davlatchilik asoslari va demokratik tamoyillar muqaddasligi, o’z kuchiga tayanishga o’rgatiladi. «AQSH millatlar hamjamiyati” g’oyasida birlashgan davlatdir.

7. “Yapon modeli”da iqtisodiy munosabatlarda davlat yetakchi o’rinni egallaydi. 2-jahon urishida 8 mln.dan ziyod odam halok bo’lgan va jarohatlangan, 90 dan ortiq shahar, 80 dan ortiq sanoat korxonalari vayron bo’lgan. Davlat siyosiy madaniyatga ehtibor qaratdi. Iqtisodiyot xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi, ruhiyati va mentaliteti bilan yo’g’rildi. Amerika ko’magiga tayandi. Fuqaro mehnatsevarlik, intizomlilik, jamoaviylik yapon milliy xarakteri rivojlantirildi. “Bor imkoniyatlaringni ishga sol!” g’oyasiga amal qilindi. “Ahloq tarbiya” tizimiga asoslangan: 1) xarakterni shakllantirish; 2) “davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat»; 3) “fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash”ga yo’naltirildi.

8. “Shved modeli” da iqtisodiyot ijtimoiy sohaga yo’naltirilganligidir....

9. Erxard (nemis) modelida XX asr 1949-50 yillarda 2 ta islohot o’tkazilgan:

a) Pul (marka) islohati, bir kechada marka singan, kuygan, faqat banklarda ko’p miqdorda markasi borlarning 40 markasigina qoldirilgan.

b) Narx-navo islohotiga ko’ra “ochiq eshiklar” siyosati olib borilib, do’konlardagi narx-navo oshib ketgan. Chet el korxonalari bilan birga qo’shma korxonalar barpo etilib, xorijiy sarmoyalar iqtisodiyotga jalb qilingan. O’tish davrida AQSHning “Marshal shartnomasi”ga tayanib, G’arb davlatlariga ajratilgan 50 milliard dollardan qisman foydalanilgan. Erxard modeli o’zida AQSH, Angliya, Shvetsiya kabi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyot modellarining ijobjiy tomonlarini o’zida umumlashtirgan. Chetga sanoat, nooziq ovqat mahsulotlarini eksport qilish 1950-1992 yillar davrida 27 foizdan 92 foizgacha chiqarilgan. Shu davrda oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojiga sarflanib, 75-80 foizdan 27 foizgacha kamaytirilgan. Bugungi kunda Germaniya aholisi 85 mln.ga yaqin. 1990 yilda Sharqiy Germaniya (GDR) unga qo’shildi, ikkita GFR va GDR o’rtasidagi devor olib tashlandi. 1992 yilga kelib, Germaniya Potstam konferentsiyasi (1945) shartlarini bajarib, sobiq SSSR va AQSHga katta miqdorda tovon to’ladi. 1994-95 yillarda 3 mingga yaqin yaxudiyarlarning har biriga ham 3,5 ming markadan tovon puli to’ladi.

10. Turk modeli aynan Erxard modelining andozasi bo’lib, nemislardan o’zlashtirilgan. Faqat bunda Turkiya mamlakatda yengil sanoat rivojlanishiga keng ehtibor berilgan. Pul va narx-navo islohotlari olib borilgan. Bugungi kunda Turkiya o’rtta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.

11. “Xitoy modeli” da Xitoy islohotlarining “otasi” Den-Syaopin rahbarligida “Uch qadam” strategiyasi, bozor iqtisodiyotining milliy kontseptsiyasi

ishlab chiqildi. Bunga ko'ra:

- 1) 1982-1989-yillarda asosiy iqtisodiy ko'rsatkich, mamlakatning YalM 2 marta o'stirish ko'zlandi.
- 2) 1990-1999 yillarda amalga oshirilib, 4 marta ko'paytirish belgilandi.
- 3) 2000-2050 yillargacha belgilanib, aholi jon boshiga YalM 4 ming dollarga yetkazish ko'zda tutildi.

Den Syapin siyosat sohasida oqilona yo'l tutdi. U "moddiy inqilob" oqibatlarini tugatdi. U Xitoy Kompartiyasi dusturidan "3-jahon urushining muqarrarligi va zarurligi" qoidasini olib tashladi. Yadro qurolini birinchi bo'lib ishlatmaslik majburiyatini oldi. U "Bir davlat va ikki siyosiy tuzum" dasturining asoschisi. Bir vaqlar inglizlar bosib olgan Gonkongning Xitoyga qayta qo'shilishi muammosini yechib ketdi. 1997 yil 1 iyulida qo'shildi. Gonkong Buyuk Britaniyaning Osiyodagi mustamlakasi edi.

Xitoy davlati bozor iqtisodiyoti milliy kontseptsiyasiga ko'ra: 1) mamlakat iqtisodiyotining liberallahuvi; 2) xususiy lashtirish jarayoni; 3) turli mulk shakllarining paydo bo'lishi; 4) xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi yo'lga qo'yildi. Den Syapon: «mamlakat iqtisodiyotini isloh etishdan ko'zlangan maqsad - sotsialistik bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirishdir» degan edi . Xitoy aholisi 1 300 mln. kishi.

12. "Janubiy Koreya modeli" 4 bosqichdan iborat bo'ldi.

- 1) 1946-1961 yillarda Amerika tusidagi davlatchilik shakllantirildi. AQSH harbiy kuchlari ushlab turilishi bu vazifani ancha yengillashtirdi.
- 2) 1962-1975 yillarda Koreys iqtisodiy mo'jizasining otasi deb tan olingan Prezident Pak CHjon Xi nomi bilan bog'liq. Islohotning asosiy yo'nalishi chora va ehtiyojlarni qoplashga qaratilgan iqtisodiyotga emas, balki mahsulotni taklif qiladigan iqtisodiyotga qaratildi. Eksport oshdi....
- 3) 1976-1981 yillarda iqtisodiyot eksportga yo'naltirildi. Keyinchalik og'ir sanoat rivojlantirildi. 1980 yillarda sanoat ishlab chiqarishida kichik va o'rta biznes 20%dan oshmadi.
- 4) 1982-1991 yillarda iqtisodiyotni erkin qo'yish, uning ochiqligi tahminlandi. Imtiyozli kreditlar berish bekor qilindi. Davlat faqat uzoq muddatga kredit berishni kafolatladi.

Mamlakatimiz siyosiy taraqqiyot yo'lining o'zagi sifatida demokratiyani tanlab olinishi fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha fundamental asoslarni barpo qilish imkoniyatlarini ochib berdi. Zero, demokratiya g'oyasi o'z taraqqiyotining yetakchi yo'nalishi sifatida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirib borilishini taqazo etadi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyati, shakllanish qonuniyatlarini tashkil qiluvchi

eng yetakchi manbalar hisoblanadi. Yurtimizda milliy taraqqiyot modeli asosida huquqiy demokratik davlatning institutsional zaminlari:

- davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo'linishi prinsipiga asoslanishi;
- demokratik Konstitutsiyaning qabul qilinishi va qonun ustuvorligi tamoyilini ro'yobga chiqaruvchi mexanizmlarni yaratilishi;
- erkin demokratik saylov tizimini kafolatlanishi;
- davlat va jamiyat boshqaruvini amalga oshirishda ko'ppartiyaviylik tizimining yaratilishi;
- jamoat birlashmalari va nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yilishi;
- fuqarolar o'z-o'zini boshqarish institutlarini rivojlantirilishi;
- fuqarolar huquq va erkinliklarini, manfaatlari va extiyojlarini ta'minlashning samarali zaminlarini vujudga keltirilishi, fuqarolik jamiyatini shakllantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda barpo etildi.

Bularning natijasida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun eng asosiy kuch va manba bo'lib xizmat qiladigan zamonaviy huquqiy demokratik davlat asoslari rivojlantirildi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi.

Har bir davrning o'z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va xayotiy tamoyillari bo'ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealar bo'ladi.

2016 yil 4 dekabrda mamlakatimizda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, hech shubxasiz, yangi tariximizdagi ana shunday beqiyos xodisa bo'ldi.

Chunki aynan ana shu saylovda butun O'zbekiston xalqi o'zining buyuk siyosiy irodasi, xuquqiy madaniyatini namoyon etib, mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyoti, xalqimiz, farzandlarimizning yorug' kelajagi, farovon hayoti uchun ongli ravishda ovoz berdi. Demokratik talablarga to'liq mos tarzda, milliy saylov qonunchiligi va xalqaro standartlar doirasida, ochik va oshkora o'tgan saylov jarayonini 5 ta nufuzli xalqaro tashqilot va 46 ta davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi kuzatib bordi.

Yuksak saviyada o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar xarakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod sifatida ishtirok etgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi.

Toshkent shaxrida 2016 yil 14 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladı. Davlatimiz raxbari yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimiz oldida turgan eng muxim va dolzarb vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Ma'lumki, bu vazifalarga Prezidentimizning saylovoldi dasturida aloxida e'tibor qaratilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar jarayonida ular yanada boyitildi.

«Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan xolda,- dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi marosimiga bag'ishlangan nutqida, - o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni katiy amalga oshirishdan iborat. SHu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun katiyat bilan xarakat qilishimiz zarur. SHu maqsadda 2017 - 2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi».

Xaqiqatan ham, Prezidentimizning bevosita raxbarligi ostida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini ham o'z ichiga oladigan mazkur keng ko'lamli dasturiy xujjat xar tomonlama puxta ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq, uni xayotga joriy etish bo'yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur Farmonga berilgan sharhda Harakatlar strategiyasining ahamiyati alohida tasdiqlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muxokamalar olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylash- tirilgani, buning natijasida ko'plab taklif va muloxazalar kelib tushgani, xususan, «Qonun xujjatlari ta'sirini baxolash tizimi» portalida yo'lga qo'yilgan muxokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif-muloxoza asosida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqilgani qayd etiladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan raxbarlar o'z fikr-muloxazalarini bildirmoqdalar. Harakatlar strategiyasining xar bir ustuvor yo'nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muxim ahamiyatga ega bo'lib. ular quyidagilardan iborat.

*Birinchi yo'nalishda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida belgilab beriladi.* Unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, shu orqali qonun ustuvorligiga erishish asnosida jamiyatda boshqaruvning erkin va xalq xokimiyatchiligi tamoyillarini chuqurlashtirishga erishiladi. Davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, turli byurokratik to'siqlarni kamaytirish, davlat boshqaruvida keng jamoatchilikning faol ishtirokini taminlash choralarini ko'rish bo'yicha aniq g'oyalar ilgari suriladi. Ochiq jamiyat qurish, davlat va fuqaro munosabatlarini mustahkamlash va natijada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muxrlab qo'yilganidek, davlatning yagona va birdan-bir manbai xalq ekani, davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, ayni paytda xalq o'z maqsad va intilishlarini, orzu-umidlarini davlat timsolida ko'rishi kabi prinsip va qoidalarni to'liq amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

*Ikkinci yo'nalish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-xuquq tizimini yanada isloh, qilishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat.* Bunda sud xokimiyatining chinakam samaradorligini taminlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish ustuvor vazifa qilib qo'yildi.

Mazkur yo'nalishda fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini taminlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali inson manfaatlarini himoya qilish, qabul qilingan barcha qonunlarning to'la va samarali ishlashi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e'tibor beriladi. Oliy sud faoliyatini isloh qilish, uning zamonaviy, xozirgi kun talablari asosida ishlaydigan tizimini vujudga keltirish borasida yangi g'oyalar ilgari surildi. Jumladan, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish orqaliadolatli, xalqchil, fuqarolar manfaatlarini to'la himoya qila oladigan, ularning muammolarini o'z vaqtida xal qilib beradigan sud tizimini vujudga keltirish talab etiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, eng muximi, turli xuquqbazarliklarni oldini olish, ularning sodir etilmasligi choralarini ko'rish, profilaktika tizimini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, sud-xuquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, qonunga rioya qilish va qonun ustuvorligiga erishish orqali sud va sudlovning yuksak madaniyatiga erishish yo'l-yo'riqlari aniq-ravshan aks ettiriladi.

Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish orqali sud-xuquq organlarini «jazolovchi organdan fuqarolar manfaatini himoya qiladigan, ularning kundalik yumushlariga yordam beradigan, har kanday muammolarini qonun doirasida xal qilib beradigan xizmatlar organiga aylantirish» (Islom

Karimov) mexanizmining yuqori saviyada ishlashini ta'minlash bo'yicha amaliy yechim va takliflar ilgari suriladi.

*Uchinchi yo'nalish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi.* Bunda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish xisobidan ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning raqobatdoshliligin oshirish, mamlakat eksport saloxiyatini kuchaytirish bosh vazifa qilib qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, tuproq unumdorligini va ekinlar xosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir maxsulotlar yetishtirish orqali jaxon bozoriga chiqishning yangi yo'nalishlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Iktisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk xuquqini himoya qilish, mulkka egalik qilish va uning xajmini oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni yanada rivojlantirish, uni rag'batlantirish mo'ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarni ularning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer sharoiti va dexqonchilik madaniyatini nazarda tutgan xolda, xududiy extiyoj va manfaatlar nuqtai nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralarini ko'rish belgilangan.

*To'rtinchchi yo'nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'z ifodasini topgan.* Bunda aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o'rirlari yaratish, mehnat faoliyatining yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masalalariga aloxida ahamiyat berilmoqda. SHuningdek, aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, xayot sharoitlarini yaxshilash, yo'l-transport, muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali uzoq istiqbolga mo'ljallangan va munosib turmush darajasini ta'minlaydigan yuksak madaniyatli yashash sharoitiga erishish chora-tadbirlarini ko'rish eng muxim vazifa qilib qo'yilgan.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, xar tomonlama barkamol, yetuk inson - yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga aloxida e'tibor beriladi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini butun choralar bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

*Beshinchchiyo'nalish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor vazifalar bilan bog'liq bo'lib,* bunda dunyo qalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to'kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni taminlashga jiddiy e'tibor berish eng muxim vazifalardan biri sifatida

belgilangan. O'ndan ortiq diniy konfessiyalar, 130dan ziyod millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, turli e'tikod va madaniyatlarni xurmat qilish singari bag'rikenglik fazilatlarini yanada chuqurlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekiston deb atalgan umumiylar xonadonimiz, 33 millionli oilamiz istiqboli uchun diniy e'tiqodi, milliy mansubligi, kasbu kori va yoshidan qati nazar, xar bir fuqaro mas'ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruxda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan.

O'zbekistonning tashqi siyosatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suverenitetini, xududiy yaxlitligini xurmat qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini saqlash, nizolarni tinch yo'l bilan xal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro xuquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoida va normalariga asoslanib, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish bo'yicha ustuvor yo'naliшlarini ishlab chi qish muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Aytish mumkinki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliшi bo'yicha Xarakatlar strategiyasi o'tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, xozirgi kunda davrning o'zi oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalarni xisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo'ljallangan tarixiy taraqqiyotni yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, u o'zining moxiyat etibori bilan O'zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishni ta'minlaydigan strategik dasturdir.

Albatta, xalqimiz o'rtasida «Xarakatlar strategiyasi» degan nom bilan tobora mashxur bo'lib, uning hayotiga chuqur kirib borayotgan mazkur dasturning har bir yo'naliшi va bandining samarali amalga oshirilishi xar birimizning mazkur jarayonda ongli va vatanparvar fuqaro, shu yurtning fidoyi farzandi sifatida faol ishtirok etishimizga bevosita bog'liqidir. Buning uchun esa eng avvalo, Xarakatlar strategiyasining ma'no-mazmunini, uning har bir yo'naliш bo'yicha qo'yilayotgan amaliy va dolzarb vazifalarini chuqur tushunib olishimiz kerak.

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusha olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy vaziyatilari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma'lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. Shunga ko'ra, davlat strategiyasining universial formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo'lgan umumiylar ham yo'q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruhlar tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g'oyalalarida yoki davlat apparati tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkur mahsuli sifatida ochiq va

ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingen tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvoffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Ma'lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning strukturaviy mexanizmlariga muhtoj bo'ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

Har bir davr o'ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir davrning o'z ta'limoti va yondashuv tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo'l-yo'riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o'z qonuniyatlar mavjud bo'lgani kabi, favqulotda ijtimoiy o'zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqacha qilib aytganda, inqilobiya ta'sirni jamiyatning o'zi inkor qiladi. Tadrijiy ta'limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg'un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo'naltirilishi, infratuzulmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etish, mulkdorlar qatlamining o'sib borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta'minlanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ular respublikamizning bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davrida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda namoyon bo'lmoqda. Inchinun, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezidenti SHavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Bu hujjat "2023-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>1</sup> deb nomlandi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo'lgan munosabatini o'zgarganligida namoyon bo'lmoqda.

## **2-Mavzu: Yangi O'zbekiston strategiyasi. Reja:**

1. Yangi O'zbekiston orzusi.
2. Yangi O'zbekiston fenomeni.
3. Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yi 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". lex.uz.

#### 4. Yangilanayotgan O'zbekiston.

**1. Yangi O'zbekiston orzusi.** Bu yorug' dunyoga kelgan har bir inson orzumidlar bilan yashaydi, kelajak haqida turli-tuman rejalar tuzadi, xayrli niyatlar qiladi. Xuddi shunday har bir xalqning ham tinch-totuv yashash, farovon hayot, barqaror taraqqiyot bilan bog'liq orzulari bo'lishi tabiiy.

Jahon xalqlari siyosiy lug'atlarida "Amerika orzusi" "Britaniya orzusi", "Rossiya orzusi", "Yaponiya orzusi", "Xitoy orzusi" degan tushunchalar mavjudligi buni yaqqol tasdiqlaydi. Ular besabab va tasodifan shakllanmagan. Ushbu tushunchalarning har biri o'sha xalqning umumiyligi orzu-umidlari, ular yashayotgan davr va kelajakka doyr maqsad-muddaolarni ifoda etadi.

Muayyan xalq yoki hudud aholisining asrlar davomida shakllangan va umumijtimoiy orzularini ifodalaydigan bunday tushunchalar zamirida nihoyatda teran ma'no-mazmun mujassam ekani shubhasiz.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston strategiyasi xuddi shunday hayotbaxsh xususiyat kasb etmoqda, xalqimizni yorug' kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiyligi maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanib bormoqda.

O'z kuch va imkoniyatlarni bo'lgan ishonch bizni Yangi O'zbekistonni barpo etish va Yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda.

Bizning zimmamizga tushgan ana shunday ulkan, tarixiy missiyani muvaffaqiyatli ado etish, jonajon Vatanimizni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, goyat sharaflı intilishlar ulkan amaliy harakat va natijalarga aylanib bormoqda.

Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston - barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi!

Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda.

Yangi O'zbekiston orzusi ham, jahondagi milliy taraqqiyot g'oyalarini o'zida jamlagan boshqa favqulodda hodisalar kabi, asrlar davomida shakllanib va sayqallanib kelmoqda.

Bu orzuda mujassam bo'lgan xalqimizning istagi, xohish-irodasi insonparvar va taraqqiyparvar g'oyalarda o'z ifodasini topganiga qadim tariximiz guvoh. Davrlar nafasi va xalqning ehtiyoj hamda manfaatlari, intilish hamda orzu-havaslariga monand ravishda u, goh ezgulik vaadolat, goh kudratli davlat va adolatli shoh, goh komil inson va ma'rifatli jamiyat bilan bog'liq oljanob g'oyalarda namoyon bo'lgani ma'lum.

U dastlab, ko'hna davrlarda "Avesto"da o'z talqinini topgan hayotiy g'oyada mujassam edi, desak to'g'ri bo'ladi. Ayni shu orzu "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o'rin olishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa ezgulik va insonparvarlikni Himoyalash xalqimiz mentaliteti va ma'naviyatining muhim Tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylandi.

Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi.

Qadimiylar Turon hududida sak-massagetlarni ruhlantirib, dushmanlarga qarshi ayovsiz jangga boshlagan, To'marisning kuchiga kuch ko'shgan qudrat kuch xalq orzusi emasmidi?

Istilochilarning yovuz qo'shinlariga yolg'iz qarshi chiqish uchun afsonaviy Shiroqqa, aslida esa, nomlari olis tarix sahifalarida unut bo'lgan qahramon bobolarimizga jasorat va qahramonlik hissini bergen ham ana shu manba emasmidi?

Yengilmas Aleksandr Makedonskiyga qarshi butun So'g'd va Baqtriyani safarbar qila olgan Spitamenga azmu shijoat bag'ishlagan ham xalq orzusi emasmidi?

Bu asriy orzu xalqimiz erishgan Birinchi Renessansga va ilk o'rta asrlardagi Ma'rifiy uyg'onish davriga asos bo'lgan, uning ma'naviy poydevori sifatida xizmat qilgan desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Ajdodlarimiz armonlari o'sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termizi, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalarda mujassam bo'ldi.

Bu oliy havas Mahmud Zamaxshariy va Najmiddin Kubroni uyg'otdi, ushbu buyuk allomalarning g'oyalarda, asarlari va xayrli amallarida aks etdi.

Bu azaliy intilish Jaloliddin Manguberdini tarbiyaladi, uni haqiqiy vatanparvar, yovqur bahodir shaxsga aylantirdi. Garchand u boy berilgan sultanatni asrab qololmagan bo'lsa-da, el-yurt mustaqilligi va ozodligi yo'lida kurashgan mard inson, milliy qahramon sifatida asrlar osha xalqimizning tarixiy xotirasida abadiy saqlanib qoldi.

Xalq orzusi Aziziddin Nasafiy, Abu Mu'in Nasafiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi aziz avliyo bobolarimizni tarbiyaladi, ularning kamoloti va ezgu faoliyatida o'ziga xos ma'naviy tayanch bo'ldi.

Bu orzu Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinci uyg'onish davri g'oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo'lgan adolatli jamiyat g'oyasida mujassam bo'ldi.

Aynan xalq armonini ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki kudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Xalqimizning orzu-intilishlari Mirzo Ulugbek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Ikkinci uyg'onish davrining buyuk siymolarini uyg'otdi, ularning asarlari va faoliyatida o'z talqinini topgan odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson g'oyalarda namoyon bo'ldi.

O'sha davrlarda bu orzu komillikka eltadigan iymon va e'tiqodni millat vakillari uchun muqaddas qadriyatga aylantirdi. Natijada komillik va ma'rifat sari intilish tuyg'usi xalqimiz mentalitetidan mustahkam va bir umrlik joy oldi.

Davr farzandlarini yuksak fazilatli insonlar etib tarbiyalash o'sha zamoy ma'rifatparvarlarining hayotiy va fuqarolik e'tiqodiga aylandi.

Bu orzu Mashrab va Komil Xorazmiy, Munis va Ogahiy, Berdaq va Ajiniyoz, Ahmad Donish singari ma'rifatparvarlarni uyg'otdi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodira va Dilshodi Barno, Anbar Otin asarlarida uz ifodasini topgan bilim va ma'rifatga intilish goyalarida mujassam bo'ldi.

Bu orzu Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo'lidagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi.

Bu orzu ma'naviyat va ma'rifatni odamni nafaqat komillikka, erkin va farovon turmushga yetaklovchi, balki xalqni milliy mustaqillikka eltuvchi beqiyos kuch sifatida anglab yetish imkonini berdi.

Bu ulug' orzu asrlar davomida xalqimizni ezgu amallar sari yo'llab, uning iymon-e'tiqodini g'ayriinsoniy g'oyalardan, millatni turli tahdidlardan muhofaza qilib, o'ziga xos ma'naviy qalqonga aylandi.

Shu tariqa uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida jamuljam bo'ldi.

Irodasi, shaxdu shiddati buyuk xalqimizning bunday yorug' va teran orzusi jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish uchun yuksak marralarga intilayotgan xalqimizni Uchinchi Renessans g'oyasi atrofida yanada jipslashtirmoqda. Bunga butun dunyo guvoh bo'lmoqda.

Bu yo'lida ana shunday ulkan tarixiy asoslarga, xalqimizning azmu qaroriga tayanib faoliyat olib borsak, men ishonaman, ko'zlagan maqsadimizga albatta yetamiz.

Eng muhimi, bunday ezgu fikr va intilishlar yon-atrofdagi xalqlar va davlatlarga nisbatan asossiz da'volar yoki o'z qobig'iga o'ralib olishga sabab bo'ladigan proteksionizm va izolyusionizm tamoyillaridan mutlaqo xolidir.

Aksincha, Yangi O'zbekiston orzusi vauning asosida ishlab chiqilgan strategiyada Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, butun jahon hamjamiyati, uzoq-yaqindagi davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, eng rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa'y-harakatlar mujassam.

Imom Buxoriy bobomiz o'z kitoblarida keltirgan muborak hadisda aytilganidek, "Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi". Ishonchim komilki, pok niyatlar bilan boshlagan xayrli ishlarimiz albatta ijobot bo'lgay.

Bu boradagi eng asosiy yutug'imiz - xalqimizning siyosiy tafakkuri va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, islohotlarimizga daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir.

Yangi O’zbekiston strategiyasi, olijanob niyatlarni amalga oshirish, yangi hayot qurish yo’lidagi beqiyos o’zgarishlar hammamizdan fidoyilik va buniyodkorlikni, yanada katta jonbozlikni talab etmoqda.

Bugun kelgusi yillar uchun reja va dasturlarimizni aniq belgilab olar ekanmiz, mustaqillik davrida erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, jamiyatimizning barcha sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratamiz.

Barchamiz “Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” degan yagona maqsad atrofida birlashib, mas’uliyat va javobgarlikni chuqur his etgan holda, fidokorona mehnat qilib, farzandlarimiz, kelgusi avlodlar uchun gullab-yashnagan, ozod va obod mamlakatni meros qilib qoldiramiz.

Biz Yangi O’zbekistonni mard va olijanob xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug’vor niyatni o’z oldimizga qo’yanmiz. Bu borada “Jamiyat - islohotlar tashabbuskori” degan yondashuv kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi davlatni barpo etishdek buyuk xalq harakati tobora kengaymoqda. Bunday qudratli safda bo’lishning o’zi katta baxt, katta sharafdir.

Bugun yaxshi niyatlar bilan juda katta marralarni o’zimizga belgilab olmoqdamiz. Oldimizda har qachongidan ham muhim vazifalar turibdi. Albatta, ularga erishish oson kechmaydi.

Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklarimiz ham yetarli. Biz bularning barchasini o’zimizga yaxshi tasavvur etamiz. Yo’limizda katta fob bo’lib turgan to’siqlarni yengib o’tish uchun boshlagan islohotlarimizni og’ishmasdan davom ettiramiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi davrda yanada katta safarbarlik bilan ishlashimizga to’g’ri keladi.

Hayot oldimizga yana ko’plab sinov va muammolarni ko’yishi mumkin va biz har qanday kutilmagan holatga tayyor turishimiz zarur. Lekin qanchalik sermashaqqat va murakkab bo’lmasin, demokratik islohotlar yo’lidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Oldinga, faqat oldinga qarab boramiz. Va biz bunga har tomonlama qodirmiz. Chunki bugungi xalqimiz - kechagi xalq emas. Bugungi O’zbekiston ham - kechagi O’zbekiston emas.

Shu bois, demokratik islohotlar yo’li - biz uchun yakkayu yagona va eng to’g’ri yo’ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg’or tajribalarni chuqur o’rganib, hayotimizni, ish uslubimizni takomillashtirishga harakat qilmoqdamiz.

Ta’kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo’lida yangi imkoniyatlar ochdi.

Biz bu borada mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo’lishi uchun barcha choralarini ko’rmoqdamiz. Fuqarolarimizning emin-erkin yashash, uy-joy va yer-mulkka ega bo’lish, sog’liqni saqlash, bilim olish kabi tabiiy huquq va erkinliklarini ta’minalash sohasida katta islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Biz ana shunday muhim ishlarni qat’iy davom ettiramiz. Bizning ustuvor vazifamiz - inson salohiyatini ro’yobga chiqarishga har tomonlama ko’maklashish,

uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir.

Afsuski, bugungi kunda barchamiz mazkur ijobiy jarayonga to'sqinlik qilayotgan murakkab va ziddiyatli tendensiyalar mavjudligiga guvoh bo'lib turibmiz. Buo'rinda so'z jahonda, jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo'lган makonda kurolli to'qnashuvlar kuchayib, o'zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlararo va konfessiyalararo ixtiloflar chukurlashib borayotgani, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar paydo bo'layotgani haqida bormoqda.

Ilojsiz holda o'z yurtini tashlab ketayotgan kishilar va qochoqlar soni tobora ortib borayotgani, jahonning ko'plab mintaqalarida ta'lim va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati yo'qligi, odam savdosi va majburiy mehnat, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, qashshoqlik va ochlikka barham berish bilan bog'liq muammolar murakkab tus olayotganiga dunyodagi barcha sog'lom fikrli insonlar tomoshabin bo'lib qarab turmasligi zarur.

Shu ma'noda, bizning qat'iy ishonchimizga ko'ra, jami 4,5 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Osiyo mintaqasining kelajagi ko'p jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030 yilga qadar barqaror taraqqiyot sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tayyor bo'lishga, shuningdek, inson hukuqlarini himoya qilish bo'yicha samarali mintaqaviy mexanizmni shakllantirishga bog'liq.

Biz o'z oldimizga O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib ko'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Buning uchun, avvalo, islohotlarning amaliy natijadorligini oshirish, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faol, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim.

Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha - ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'lidan adashish bo'ladi.

Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!

Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzlucksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyatning qandai noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q.

El-yurtimiz dunyoda koronavirus pandemiyasi va uning oqibatida kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz sharoitida, tahlikali bir davrda barcha sinov va

qiyinchiliklardan yanada kuchli va irodali bo'lib chiqmoqda. Xalqimiz o'zining hayoti va baxti-iqboli Vatanimizning taqdiri va kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekanini chuqur his etmoqda.

Jonajon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ydi. Erishgan natijalarimiz tarixga aylanib, oldimizda yangi-yangi o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha ulkan vazifa va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Yangi O'zbekiston orzusi amaliyatga, real voqelikka aylanmoqda. Ammo bu osonlikcha, o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Yangi jamiyatni barpo etish, avlodlarimiz uchun yorug' keljakni yaratish ehtiyoji barchamizdan ulkan mas'uliyat talab qilayotgani shubhasiz.

Eng asosiysi, xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi.

Hech shubhasiz, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lган ishonchni yanada mustahkamlab, Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo'lida birlashib harakat qilishgina bizni nurli manzillarga yetkazadi.

Bu intilishlarning ulkan amaliy ishlarga aylanib, Yangi O'zbekistonni barpo etishda har birimizning faol ishtirokimiz, chuqur mas'uliyat tuyg'usi bilan yashash bugun davr talabiga aylandi.

**2. Yangi O'zbekiston fenomeni.** Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror-bir fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o'z-o'zidan, osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi.

Shu ma'noda, har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas.

Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratii davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poidevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch goyasini ifoda etadi.

Ana shu goya asosida yurtimizda "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari" degan shior ilgari surilayotgani xam bejiz emas.

Men orzu qilgan va qat'iy intilayotgan Yangi O'zbekiston, avvalo, xalqimiz o'z milliy taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yanini, jahon hamjamiyatidan munosib o'rinnegani, bu borada oldimizda ko'plab yangi imkoniyatlar paydo bo'layotganini anglatadigan tushunchadir.

Yangi O'zbekiston - mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo'lining yuqori bosqichidir.

Yangi O'zbekiston - bu "Xalq manfaati hamma narsadan ulug'" degan ezgu g'oya amaliy ishlar bilan o'z tasdig'ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uyjoylar, zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shayotgan tarixiy bir davrdir.

Yangi O’zbekiston - “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan hal qiluvchi tamoyil amalda o’z tasdigini topayotgan mamlakat.

Yangi O’zbekiston - kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko’mak va yordam berish, mehr-oqibat ko’rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir.

Yangi O’zbekiston - jahon hamjamiyati bilan, eng avvalo, yaqin qushnilarimiz bilan do’stlik va hamkorlik eshiklari keng ochilayotgan, mamlakatimizning jozibador demokratik qiyofasi yaratilayotgan bugungi betakror zamondir.

Yangi O’zbekiston - o’zgarib, kuch-qudratga to’lib borayotgan, dunyo axdi e’tirof etayotgan yangilangan jamiyat, dunyoga yuz tutayotgan erkin bir o’lkadir.

Bularning barchasi yurtimizda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo’lishini ta’minlash eng asosiy vazifamizga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bu borada ham insoniyat to’plagan tajriba, ayniqsa, o’tgan asr o’rtalaridagi tanazzul holatidan chiqib, bugun eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o’rin olgan davlatlar erishgan yutuqlarni, ular amalga oshirgan islohotlarni o’rganish ko’plab masalalarga javob topishda qo’l kelishi mumkin.

Chindan ham, XX asr oxiriga kelib rivojlangan davlatlar darajasiga yetgan mamlakatlar sermashaqqat islohot va o’zgarishlar yo’lidan bordi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar “yangi dunyo mo’jizalari”ni yarattdi.

Bugun, bizning mamlakatimizda ham o’z umrini yashab bo’lgan eski qarashlar chekinib, yangi davr boshlandi, yangi voqelik bo’y ko’rsatmoqda. Ulkan imkoniyatlar, keng ko’lamli islohotlar davri keldi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Jamiyatimizning yangi qiyofasi” tushunchasi qotib qolgan voqelik yoki o’zgarmas aksionani anglatmaydi.

Yangi O’zbekiston tushunchasi uchun asos bo’layotgan va unda o’z aksini topayotgan eng muhim jihatlar va amaliy mezonlar quyidagilardan iborat:

- butun mamlakatimizda islohot va yangilanishlarning keng ko’lamda amalga oshirilayotgani, eng muhimi, raqobatbardosh va tashqi dunyo uchun ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makonni barpo etishga sobitqadamlik bilan kirishilgani;

- mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan bog’liq zamonaviy qarashlarga asoslanadigan yangi jamiyatni barpo etish goyasi xalqimizning barcha qatlamlari tomonidan qo’llab-quvvatlanayotgani va el-yurtimizning bu goya atrofida jipslashayotgani;

- bu tarixiy jarayonda dasturilamal bo’lib xizmat qilayotgan, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasini to’liq amalga oshirish mas’uliyati butun xalqimiz tomonidan chukur his etilayotgani;

- ushbu maqsad yo’lida aholining barcha qatlamlari, hokimiyatning vakillik va ijro organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlari keng ishga solinayotgani;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari, qadr-qimmati, ehtiyoj va manfaatlariga qaratilgani;

- “Xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va qudratli bo’ladi” degan prinsip asosida barchaning mulk huquqini hurmat qilish, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uyg’unligi tamoyili joriy etilgan kuchli fuqarolik jamiyati, konstitutsiyaviy parlament demokratiyasi, erkin bozor iqtisodiyoti mamlakatimiz va xalqimiz ravnaqining asosiga aylanayotgani;

- Yangi O’zbekistonni erkin va baxtli odamlar yashaydigan qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, bu borada mamlakatimizning dunyodagi 50 ta rivojlangan, iqtisodiyoti barqaror o’sayotgan, inson kapitali yuqori bo’lgan raqobatbardosh demokratax davlatlar qatoriga kirishini ta’minlashga harakat qilinayotgani;

- yangi jamiyatning navqiron avlodi, fuqarolik mas’uliyati va zamonavii dunyoqarashga ega bulgan barkamol yoshlar hayotga kirib kelayotgani va ularga munosib hayot sharoitlari, keng imkoniyatlar yaratilayotgani.

Bir so’z bilan aytganda, jamiyatimizning yangi qiyofasi ana shunday serqirra islohotlar jarayonida barpo bo’lmoqda, uning zamonaviy demokratik imiji bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Lekin bu osongina amalga oshmasligi, yangi jamiyat binosi bir kun yoki bir yilda tiklanib qolmasligi aniq. Inson manfaatlari ustuvor bo’ladigan erkin va farovon hayot o’z-o’zidan shakllanmasligi shubhasiz.

Takror va takror aytishga to’g’ri keladi: Yangi O’zbekiston tasodifiy hodisa, shunchaki dunyoga keladigan va o’tkinchi bir ijtimoiy voqelik emas.

Bugungi kunga kelib, ushbu tushuncha jamiyatimiz hayoti, xalqimiz qalbi va ongidan chukur joy olib, islohotlar jarayoniga katta ta’sir ko’rsatmoqda.

Shu munosabat bilan, insoniyat tarixi va xalqlar taraqqiyotiga xos bir qonuniyatni esdan chiqarmasligimiz lozim. Bunday murakkab jarayonlarda inkor, yangilanish va vorislik tamoyillari o’z ta’sirini ko’rsatadi.

Ikki yarim ming yil muqaddam buyuk Xitoy faylasufi va mutafakkiri Lao szi “Dunyoda hamma narsa o’sadi, gullaydi va o’z ildizlariga qaytadi”, deb aytgan ekan. Bu dialektik haqiqat naqadar to’g’ri ekanini vaqtningo’zi ko’rsatib turibdi.

Davr - o’tadi, odamlar - qoladi.

Insonlar orasida yangilikka intiladigan shaxslar, islohotlarga daxldorligini chukur x, is etuvchi vao’zgarishlarning omilkor ishtirokchisiga aylanadiganlar ko’pchilikni tashkil qiladi. Lekin eskilik qon-qoniga singib ketgan, butun vujudi bilan yangilikni istamaydigan konservatorlar ham saqlanib qoladi.

Afsuski, bugungi davr ham bundan mustasno emas. Bunday kimsalar islohot va yangilanishlarga ochiqdan-ochiq qarshi chiqmaydi. Balki uni ichidan yoki tashqaridan buzish, obro’sizlantirishga urinadi.

Arzimagan narsalardan, ya’ni, “pashshadan fil”, kichik bir hodisa yoki juz’iy kamchiliklardan fojia yasashga, ba’zi bir uquvsiz rahbarlarning bilib-bilmay yo’l ko’yan xatosidan butun O’zbekistonni, rahbariyatni obro’sizlantirish, islohotlar jarayonini qoralashga, uni ortga qaytarishga harakat qiladi.

Donishmand xalqimizning o'zi bu kabi urinishlarga qat'iy javob bermoqda. Yangi O'zbekiston bunday kimsalar o'ylagan yo'ldan bormaydi, islohotlar jarayoni ortga qaytmaydi!

Yaratilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmasdan, egri qadam bosadigan, el-yurtimizga isnod keltiradigan bunday kishilarning xatti-harakatlariga buyuk mutafakkir shoirimiz Zahiriddin Muhammad Bobur o'z vaqtida baho berib aytganidek: "Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur".

Bu fikrimizning mantiqiy davomi sifatida bugun jamiyatimizda "qonun - ustuvor, jinoyatga - jazo muqarrar" degan tamoyil qaror topmoqda. Tobora yangilanayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ochiqlik va oshkoraliq zamoni, keng va chuqur yangilanish davrining timsoli sifatida amalga oshirilmoqda.

"Uchinchi Renessans poydevorini yaratish" g'oyasi ham tasodifan va quruq yerda paydo bo'limgan, albatta. Yurtimizning nihoyatda boy qazilma va tabiiy resurslarga, kudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga egaligi bu boradagi hayotbaxsh rejalgarda asos berayotgani shubhasiz.

Yana bir bor ta'kidlayman: optimizda tog'dek tayanch va suyanch bo'llib turgan ko'pmillatli xalqimiz - hayot yo'llarida to'g'ri yo'l ko'rsatadigan mo'tabar nuroniylarimiz, mehnatkash, oqila opa-singillarimiz, ilg'or va zamonaviy fikrlaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'limgan azmu shijoatli yoshlarimiz bor.

Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda.

Biz ana shunday mustahkam zaminga tayanib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz.

Erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yanada dadil va ulkan qadamlar tashlashimiz shart. Chunki yurtimizdagi islohot va o'zgarishlar jarayoni, yuqorida qayd etganimdek, ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda.

Bugun natijadorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda. Bu borada yaqin kelgusi yillar alohida mas'uliyat va sinov davri bo'ladi. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi.

Bu yo'lda faqat amaliy samara bilan mustahkamlangan, o'z mevasi, hosilini berayotgan islohot odamlarning qalbiga, yuragiga kirib boradi. Va bunday islohotni, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch tuxtata olmaydi.

Eng asosiysi, islohotlarimiz natijasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila o'z kundalik hayotida his etishi kerak. Barcha bo'g'indagi rahbarlar qog'ozdag'i hisobotlar, foiz va raqamlar ortidan kuvmasdan, har qaisi fuqaro uchun, uning hayotiy ehtiyoj va orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun ishlashi shart.

Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz - ko'pmillatli butun xalqimiz bizdan rozi bo'ladi.

O'zimiz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonni yaratish uchun bu yo'ldagi har bir maqsad va vazifaga, ularni amalga oshirishga aynan shu nuqtai nazardan yondashsak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

**3. Yangi O’zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari.** O’zbekistonni, el-yurtimizni yaqindan biladigan kishilar bir haqiqatni yakdillik bilan e’tirof etadilar: o’zbek xalqi buyuk tarix va davlat, boy madaniyat yaratgan xalq. U hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo’rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, metin irodali, bag’rikeng xalqdir.

Chindan ham, barchamiz bir tanu bir jon bo’lib, yakdil va ahil bo’lib harakat qilsak, halol-pok bo’lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning shonli sahifalarini yaratishga qodir millatmiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda “Xo’sh, Yangi O’zbekistonni qanday barpo etamiz?” “Buning uchun yetarli omillar va imkoniyatlarimiz bormi?” degan savollar tobora dolzarblashib bormoqda.

Bu haqda so’z yuritganda, quyidagi fikrlarga alohida urg’u berish o’rinli, deb hisoblayman.

Avvalambor, Yangi O’zbekiston strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo’ladigan tarixiy-ma’naviy omil, ya’ni bizning eng katta boyligimiz - xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati mavjudligidir. Jahan hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma’naviy meros dunyo madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo’lib qo’shilgani ma’lum.

Aynan ana shu omil Yangi O’zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma’naviy va madaniy faoliyat, ta’lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo’lmoqda.

So’nggi yillarda milliy ma’naviyatimiz tarixida o’chmas iz qoldirgan ulug’ allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo’lyozmalarini o’rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuq sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo’lgan. Qadimdan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh, ahil va hamjihat bo’lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar.

O’zbekistondagi bag’rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo’lib yashayotgan millat va elat vakillariga o’z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o’zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg’iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda.

Dono xalqimiz “Til bilgan - el biladi”, deydi. O’z tilini hurmat qilgan ma’rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. Bu borada buyuk bobolarimiz ibrat va namuna ko’rsatganlar.

Xususan, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg’oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud

Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ulug' ajdodlarimiz o'nlab tillarni puxta bilganlari uchun ham jahon ilm-fanining yuksak cho'qqilarini zabit etganlar.

Bugungi kunda yurtimizdag'i ta'l'm maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys, hind va urdu tillari chukur o'qitilayotgani bu an'analar davom etayotganining yorqin ifodasidir. Biz yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo'lgan ulkan qiziqish va intilishlarini har doim ko'llab-quvvatlaymiz.

Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, XX asr boshida olti tilli - o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan alloma Is'hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so'zlarini eslatmoqchiman: "Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir".

Bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi xalqaro markazi qad rostlamoqda.

Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" asari o'z ahamiyatiga ko'ra muqaddas Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan mo'tabar kitob sifatida islom olamida tan olingan. Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, yosh avlodga bezavol yetkazish maqsadida biz Samarkand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etdik.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida Imom Termiziy nomidagi, Samarqandda Imom Moturidiy nomidagi ilmiy-ma'rifiy tadqiqot markazlari faoliyat olib bormoqda.

Din sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nafaqat yurtimiz, balki musulmon olamidagi nufuzli oliy ta'l'm muassasasi sifatida e'tirof etilgan.

Ta'kidlash lozimki, Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam ko'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlardagi shu yo'lda birga ishslash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz.

Yangi O'zbekistonni barpo etishning mintaqaviy va umumbashariy omillari borligi ham shubhasiz.

Ma'lumki, azaldan Buyuk ipak yo'li, Buyuk Hind savdo yollarida joylashgan Markaziy Osiyo geostrategik o'rnashuviga ko'ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi muhim jarayonlar markazida bo'lib kelgan. Bizning mintaqamiz Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan o'ziga xos ko'priq bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa ko'shgan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan. Bu yerda ulkan tabiiy

zaxiralar, katta insoniy salohiyat mavjud. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo dunyoning e'tibor markazida bo'lib, bu hududda raqobatdosh qudratl davlatlarning manfaatlari o'zaro kesishib keladi.

Bu haqda gapirganda shuni aytish lozimki, men zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda "yumshoq kuch" sifatida ta'limning rolini oshirishdagi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlayman. Bizning bu boradagi tashabbuslarimiz BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasi va Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasini qabul qilish yo'lidagi harakatimizda yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu sohadagi tajriba biz uchun o'ta muhim: "Bizni madaniyat bog'lab turadi va u insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi", degan fikrga men to'liq qo'shilaman.

Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituta tashkil qilinishi ham ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Biz xalqaro tashkilotlar bilan O'zbekistondagi mavjud me'moriy yodgorliklarni asrash yo'lidagi hamkorligimizni kengaytirishda davom etamiz. Samarqanddagi Xalqaro turizm universitetida "Madaniy turizm" kafedrasini ochdik, o'zaro hamkorlikda Toshkent shahrida "Axborot texnologiyalari - madaniy merosni saqlash yo'lida" mavzusida Osiyo forumini o'tkazdik. Madaniyat, ta'lim, innovatsiyalar, kutubxona va muzey ishi sohalaridagi qonunlarni ishlab chiqishda biz BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqdamiz.

Oldimizda YuNESKOning "Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi" nomli olti jilddan iborat kitoblarini o'zbek tiliga tarjima qilishdek muhim vazifa turibdi.

Biz olis o'tmishda O'zbekiston hududida yaratilgan, bugungi kunda jahon mamlakatlari muzeylarida saqlanayotgan osori atiqalarni o'rganishga alohida qiziqish bildirayotgan olimlardan minnatdormiz. Shular qatorida taniqli yapon arxeologi, O'zbekistonimizning do'sti bo'lgan, marhum Kato Kyudzo chorak asr davomida Surxondaryo viloyatining qadimiy Dalvarzintepa qo'rg'oni o'rnida O'zbekiston - Yaponiya qo'shma ekspeditsiyasining rahbarlaridan biri sifatida ish olib borganini minnatdorlik bilan eslaymiz.

Mazkur ekspeditsiya faoliyati natijasida 1991 yilda ikki mamlakat mutaxassislari tomonidan hamkorlikdagi Ilk ilmiy asar - "Janubiy O'zbekiston durdonalari" Fundamental katalogi nashr qilindi.

Shuningdek, professor Kato bizning taniqli olimlarimizning ko'plab asarlarini yapon tiliga tarjima qilib, O'zbekiston tarixini ommalashtirishga ham hissa qo'shdi.

Biz dunyo ahli mamlakatimizni yaqindan tanishini, xalqimizning boy tarixi va madaniyatini o'z ko'zi bilan ko'rishini istaymiz. Bu borada turizm imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Shu bois yurtimizda turizmni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz va bu o'zining natijalarini bermoqda.

Bugun O'zbekiston dunyoga ochilmoqda, jahon maydonida butun bo'y-basti bilan namoyon bo'lmoqda.

Qadimgi Baqtriyaning osori atiqalari, mashhur Amudaryo xazinasiga mansub tilla buyumlar, ilk o'rta asrlarga oid nodir so'g'd topilmalari, qadimiy Buxoro va Samarqand. Xiva va Urganch, azim Toshkent va Ho'qandi latif,

Shahrisabz va Termiz kabi tarixiy shaharlarimiz jahon sayyoohlari diqqatini tortayotgani beziz emas.

Vatanimiz zaminida saqlanib kelayotgan osori atiqalar, qimmatli obidalar, tarixiy ma'lumotlar, nodir yodgorliklar bizni jahon xalqlarining madaniyatlarini bilan chambarchas bog'laydigan turizm zanjirining oltin halqalaridir.

Tarixning ana shunday noyob durdonalari tufayli mintaqamiz madaniyati jahon xalqlari uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq bo'lishiga aminman.

Ishonchim komilki, dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz, do'stlik aloqalari va ko'pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yurtimizda yangi sivilizatsion yuksalish uchun ham xizmat qiladi.

Mamlakatimiz obro'-e'tiborining o'sishi, xalqaro maydonda bir qator tashabbuslarimizning qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi faoliyatini yanada keng va jadal olib borishi uchun yangi imkoniyat tug'dirmoqda. Biz xorijiy mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni rivojlantirish, o'zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirishga bundan buyon ham katta ahamiyat qaratamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va jahonning yetakchi davlatlari bilan strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini izchil mustahkamlab boramiz.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni jalb etishni istardim. Aholi daromadlarini oshirish, ko'shimcha ish o'rirlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak.

Bizning tashqi bozorlarga chiqaradigan mahsulotlarimizning 80 foizi Qozog'iston, Qирг'изистон va Rossiyaning tranzit yo'laklari orqali o'tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo'yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog'iston, Qирг'изистон hissasiga to'g'ri keladi.

Ochiq bozor mahsulot sifatini oshirish, tannarxni pasaytirish, yangi texnologiyalar olib kelishni talab qiladi, bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi. Shu sababli biz jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo'lishimiz lozim.

Bizga iqtisodiy integratsiya kerak! Bu borada muloqot va raqobatga tayyor bo'lish uchun esa nafaqat rahbarlar, balki tadbirkor va ishbilarmonlar, barcha bo'g'indagi menejerlar o'z ustida tinimsiz ishlashi shart.

Ana shu omillarni inobatga olib hamda Rossiya va Qozog'istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay sharoit yaratish maqsadida bugungi kunda O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Albatta, biz Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyorularimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda.

Shu o'rinda doimo yuragimda ardoqlab yurgan bir tuyg'uni izhor qilishni joiz, deb o'yayman. Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog'inaman.

Nega desangiz, olimlik - Alloh nuri tajassum etgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o'ziga ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi.

Shu boisdan bunday insonlar bilan uchrashib turganimda, ularni xush kayfiyatda, bardam va tetik, yuz-ko'zlaridan nur yog'ilib turganini ko'rganimda hamisha chuqr mammuniyat hissini tuyaman.

Biroq tan olishimiz kerakki, ular bilan muntazam uchrashib turishga, mamlakatimizda ilm-fan va uning turli sohalarini qo'llab-quvvatlash, intellektual salohiyatni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish masalalariga doim ham yetarlicha e'tibor qarata olmayapmiz. Buning uchun barcha rahbarlar qatori men ham o'zimning mas'uliyatimni yaxshi his qilaman. Shuning uchun bu masalaga yondashuvimizni tubdan o'zgartirishimiz zarur.

**4. Yangilanayotgan O'zbekiston.** Biz O'zbekistonni eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizning yangi qiyofasini yaratish g'oyasi osongina amalga oshmasligi, yangi jamiyat binosi bir kunda tiklanib qolmasligini yaxshi anglashimizni yuqorida ta'kidlab o'tdim. Darhaqiqat, orzuimizdag'i ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallar ustuvor bo'ladigan ijtimoiy makon, maqsad-muddaolarimiz timsoli bo'lган erkin va farovon hayot ham o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, albatta.

Shu sababdan ham biz 2016 yil nihoyasida davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish borasidagi eng muhim maqsad va ustuvor vazifalarimizni belgilab olishga harakat qildik.

Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik.

So'nggi besh yil mamlakatimizning har bir fuqarosi o'z kundalik hayotida teran his etayotgan beqiyos o'zgarish, yangilanish va tub islohotlar davri bo'ldi.

Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'navii jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik.

Bunda odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning mavhum kelajakda emas, balki bugun farovon yashashini ta'minlash, ularning hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishni oliy maqsad etib belgiladik.

Bu ezgu maqsadni hayotga to'liq tatbiq etish uchun 2017-2021 yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Uni amalga oshirishda biz, avvalambor, fuqarolarimiz bilan muloqot qildik, bamaslahat ish tutdik, xalqimizning aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatiga tayandik.

Faqat xalqimizning azmu shijoati, kuch-qudrati, metin irodasi, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo'lgan komil ishonchi tufayli oldimizda turgan maqsadlarimiz sari dadil qadam qo'ymoqdamiz.

Tan olish kerakki, hayotningo'zi va islohotlar shiddati mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda jamiyat va davlat hayotida yillar davomida yig'ilib qolgan vao'z yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bu muammolarni qisqa vaqt ichida yechish uchun o'zimizda iroda, qat'iylik va shijoat topa oldik.

Inson bolasi borki, orzu-umid bilan yashaydi. Davlat va jamiyat uning orzu va maqsadlari ushalishiga yordam berishi shart va zarur. Biz ana shunday davlatni - qalbimiz va ongu shuurimizdan mustahkam o'rinni olgan Yangi O'zbekistonni barpo etishga qat'iy bel bog'ladik.

Biz o'n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini "inson - jamiyat - davlat" tamoyiliga o'zgartirdik. Yurtimizda "Davlat - inson uchun" g'oyasi amal qila boshladi.

Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobjiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonasi faoliyatini yo'lga qo'yidik. Davlat tashkilotlari faoliyatida "mahallalar kesimida ishslash", "xalq ichiga kirish" uning "dardiga qulq solish", "tashvishiga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari o'rnatildi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomizning: "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan hikmatli so'zlari bizga bu borada dasturilamal bo'ldi. Ya'ni, ulug' bobomizning bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash - odamiylikning eng oliv mezonidir, xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, degan ma'nodagi fikrlari mazmunini o'zimiz uchun qaytadan kashf etdik.

Davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularning ko'lamenti kengaytirish orqali aholi uchun qulay muhit yaratish maqsadida barcha davlat idoralari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni muvofiqlashtirib va nazorat qilib boradigan yangi tuzilmalar foliyati yo'lga ko'yildi.

Davlat xizmatlari agentligini tashkil etib, xizmatlar qamrovini 157 taga yetkazishga erishdik. Aholiga kuniga o'rtacha 60 mingtadan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Milliy parlamentarizmni rivojlantirish va xalq hokimiyatini mustahkamlash, davlat boshqaruvi organlari hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan keng kulamli tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirilmoqda. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyati takomillashtirilib, ularning vakolatlari kengaytirilmoqda. Eng muhimi, ushbu tuzilmalarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini barqaror oshirishdagi mas'uliyatini kuchaytirmoqdamiz.

Davlat boshqaruvi va jamiyat kurilishi sohalarida tub yangilanishlar joriy etilmoqda. Yangi boshqaruv tizimi va zamonaviy tuzilmalar yaratildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllanmoqda.

Jamiyatda aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyatni institutlari roli, ommaviy axborot vositalarining ta'siri kun sayin oshib bormoqda.

Xalqaro saylov standartlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilinib, uning asosida 2019 yil 22 dekabrda "Yangi O'zbekiston - yangi saylovlar" shiori ostida bo'lib o'tgan saylovlarda ilk bor 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi. Saylovlarning ochiq-oshkora, xalqaro standartlar asosida o'tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlat hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi, jumladan, birinchi marta Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson hukuqlari bo'yicha byurosining to'laqonli missiyasi ishtirok etdi.

Xalqimiz hamma narsadan ustun qo'yadigan adolatni hayotimizda tom ma'noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylandi.

Qonun vaadolat ustuvorligini ta'minlash - Yangi O'zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir.

Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Sud-xuquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish ishlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud hokimiyatining fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirmoqdamiz.

Konstitutsiya va qonun normalari so'zsiz ishlashi uchun ishonchli hukuqiy kafolat yaratilmoqda.

Inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o'zgardi. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to'liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani qabul qildik. O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylangani olib borayotgan siyosatimizning yuksak xalqaro e'tirofidir.

Xalqimizning bu boradagi taraqqiyot strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning insonga, xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosabati o'zgarayotganida ham namoyon bo'lmoqda.

Sud huquq sohasi, jumladan, jinoii jazolarni liberallashtirish borasidagi islohotlarimiz ham izchil davom ettirildi. Ko'p yillar davomida saqlanib kelgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud idoralarining asosan jazolashdan iborat bo'lgan funksiyasiga chek ko'yildi. Bu esa, ajdodlarimiz azaldan amal qilib kelgan "Zulm qilma, insofli bo'l, xalq uchun adolat qo'rg'onini bunyod et", degan hayotiy tamoyiliga to'la mosdir.

Biz sud-hukuq tizimini isloh etishda shunday hayotiy talablardan kelib chiqdik. Xususan, "sudyaning ongida - adolat, tilida - haqiqat, dilida - poklik bo'lishi kerak", degan g'oyani ilgari surdik va uni amalda qaror toptirishga intilmoqdamiz.

Hibsga olingan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qynoqqa solish, ruhiy hamda jismoniy bosim o'tkazish va boshqa g'ayriinsoniy zo'ravonlikka solish holatlariga qarshi prinsipial kurash boshladik. Fuqarolarni soxta dalillar, tuhmat va bo'htonlar asosida javobgarlikka tortishdek nomaqbtl amaliyotga barham berildi.

Yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo'limgan minglab vatandoshlarimizga O'zbekiston fuqaroligi berildi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada muhim qonun hujjatlarini qabul qildik va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etdik.

Biz erkin va kuchli iqtisodiyotni Yangi O'zbekistonni barpo etishning eng muhim sharti va garovi, deb bilamiz.

Bu borada mamlakatni iqtisodiy izolyatsiya, ya'ni o'z qobig'iga o'ralib qolish holatidan chiqarish hamda demografi o'sish ko'rsatkichlariga mutanosib ravishda liberallashtirish jarayonlarini olib bormoqdamiz.

Iqtisodiy siyosatda noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek nomaqbul ish uslubiga tag-tomiri bilan barham berildi.

Yangi O'zbekistonda amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari iqtisodiy islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi.

Qisqa muddatda valyuta bozorini liberallashtirish, milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy tizimlar bilan integratsiyasini kuchaytirish, unda davlat ishtirokini kamaytirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga erishdik.

Islohotlar aholining barcha qatlamlari manfaatlari xizmat qilmoqda: tadbirkorlar o'z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda, dehqon va fermerlar, klaster ishchi-xizmatchilar o'zları yetishtirgan hosil va mahsulotning haqiqiy egasiga aylanmoqda.

Kichik va xususiy biznes sub'ektlari soni ikki barobar ko'paydi, ushbu tarmoqdagi biznes sub'ektlarining 50 foizdan ziyodi keyingi 3 yil ichida tashkil etildi. Tadbirkorlik sub'ektlariga 2016 yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p kreditlar ajratildi. Zero, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash - fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirish, o'rta sinfni mustahkamlashning eng samarali yo'lidir.

Keyingi besh yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 83 milliard AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritilishiga erishdik. Ko'plab yirik, o'rta va kichik, xususan, mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va servis sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish orqali qariyb 2,4 millionta yangi ish o'rni yaratildi.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 33 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1,3 marta o'sdi. Yalpi ichki mahsulotning qariyb 2 barobar, aholi daromadlarining 2,5 barobarga, ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorining ham sezilarli o'sishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar, yer maydonlarining to'liq xususiy klasterlarga berilgani hosildorlik  
ortishiga xizmat qilmoqda.

Turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha butunlay yangi tizim yaratdik.  
Natijada sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 3 barobarga ortdi.

Biz O'zbekistonning yangi tarixida ilk bor kambag'allikni kamaytirish

haqidagi qat'iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e'lon qildik va uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Kambag'allikni qisqartirish, aholini arzon uy-joy va ichimlik suvi bilan ta'minlash, ehtiyojmand oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'ydik.

Barcha tuman va shaharlarda, har bir mahallada ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlari bilan manzilli ishslash bo'yicha mutlaqo yangi ish usullarini - "Temir daftar" tizimini joriy etdik. Bu tizim orqali yuz minglab fuqarolarning bandligi ta'minlanmoqda, qariyb 5 millionta oiladagi muammolar hal etildi.

Ko'pdan buyon aholimizni qiyab kelayotgan uy-joy muammosini yechishga kirishdik va imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirmoqdamiz. 2017-2021 yillar davomida mamlakatimizda 140 mingta uy-joy barpo etildi.

Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. "Obod qishloq" "Obod mahalla", "Yoshlar - kelajagimiz" "Besh muhim tashabbus" kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va konsepsiyalari amalga oshirilmoqda.

Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlar natijasida aholini markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini 73 foizga yetkazdik.

Nuroniy otaxon va onaxonlarimizga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'rdik. Uyida o'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni ijtimoiy xizmat bilan qamrab olish darajasi 8,3 foizga oshirildi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi tatbiq etildi.

Sog'lijni saqlash sohasini isloh etish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktlari, tez tibbiy yordam xizmati, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha ishlarimiz o'z samarasini bermoqda.

Tez tibbiy yordam brigadalari sonini 2 marta, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot markazlari sonini 16 taga ko'paytirdik. Hududlarda 300 dan ziyod ixtisoslashgan bo'lim, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali faoliyatini yo'lga qo'ydik. Hududlardagi 1,4 mingdan ortiq davolash muassasasi to'liq ta'mirlandi, 1,8 mingta ayollar maslahatxonasi, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, tez tibbiy yordam shoxobchalari hamda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamонави xususiy klinikalar tashkil etdik.

"Ayolni e'zozlash - ezgulik va adolat mezoni", degan g'oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy hukuq va manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga ko'yildi.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini tobora kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgiladik. Mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushini 33 foizga yetkazdik. Yurtimiz bo'yicha 1,5 mingga yaqin xotin-qiz mutaxassislar turli darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlandi.

Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini qabul qildik.

Bu muhim masalada bir qator qonun xujjalari qabul qilindi. Xususan, 2019 yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risidagi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Xotin-qizlar uchun 197 ta zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh tuzishning minimal yoshi o'n sakkiz yosh etib belgilandi.

Barcha hududlarda ayollarni qiynayotgan muammolarni aniqlash bo'yicha manzilli ishlar olib borish uchgun yangi tizim - "Ayollar daftari"ni joriy etdik. So'nggi 3 yil davomida 400 ming nafarga yaqin xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Uy-joyga muhtoj opa-singillarimizga boshlang'ich badallar to'lab berildi.

Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar - Yangi O'zbekiston buniyodkorlaridir!

Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqdamiz.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Yoshlar ittifoqini tuzdik va uning samarali faoliyatini yo'lga ko'ydik. Yoshlar forumlarini o'tkazmoqdamiz. 30 iyun kuni O'zbekistonda Yoshlar kuni sifatida keng bayram qilinmoqda.

O'zbekiston Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yigit-qizlarning biznes tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o'qitish, fermerlikni ko'llab-kuvvatlash, farzandlar ta'lim- tarbiyasi, ularni sog'lomlashtirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, "Yoshlar daftari" orqali ularga ko'maklashish kabi yo'nalishlarda davlat tomonidan yoshlarni ko'llab-kuvvatlash choralari ko'rilmoxda.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog'langan ta'lim sohasida - maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari, ilmiytadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo'yicha beqiyos o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

2025 yilga borib, 3-7 yoshdagagi bolalarning 74,5 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiysi hayotga joriy etilmoqda. Bugungi kunda kichik yoshdagagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 28 foizdan 60 foizga yetkazishga, bog'chalar sonini esa 3 barobar ko'paytirib, 14,2 mingtadan oshirishga erishdik.

Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish borasidagi islohotlarni jadal davom ettirmoqdamiz. Ota-onalarning fikrini hisobga olib,

yurtimizda 11 yillik ta'limni qayta tikladik. Yangi ta'lim muassasalarini kurish, mavjudlarini ta'mirlashga e'tibor qaratmoqdamiz. Minglab maktablarda elektr energiyasi, ichimlik suvi ta'minoti, isitish tizimi yaxshilandi, oshxona, sport zallari va boshqa zarur binolar barpo etildi.

Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lган Prezident maktablari hamda ijod maktablari bo'yicha ishlar faol davom ettirilmoqda. Matematika, kimyo-biologiya va boshqa fanlarni rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qildik. Har bir tuman va shaharda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Murabbiylar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Yangicha namunadagi maktablarimizda ta'lim olayotgan o'g'il-qizlarimiz bilan uchrashganimda, hayotdagi eng katta orzuim ushalgandek his qilaman.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda, bu borada milliy hamda xalqaro darajada ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 21 oktabr - O'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilinishi jamoatchiligidir, butun xalqimiz tomonidan katta mammuniyat bilan kutib olindi.

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va yangi sifat bosqichiga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlar olib bordik. Besh yilda 50 ta yangi oliy ta'lim muassasasini tashkil etdik. Ta'limning bakalavriat, Talabaatura va sirtqi shakllari uchun kvotalarni oshirib, kechki ta'lim shaklini joriy qildik. Oliy ta'limga qabul parametrlarini 2,5 marta oshirib, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 9 foizdan 28 foizga, sohaga ajratiladigan davlat grantlari sonini 25 foizga yetkazdik.

Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya kilish va yangilash muhim vazifamizga aylandi. Shu sababli O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimini qayta tikladik va takomillashtirdik, uni to'laqonli faoliyatga qaytarish uchun zarur choralarни ko'rdik. Bir qator ilmiy-tadqiqot institatlari va markazlar faoliyatini qayta tashkil qildik, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozladik.

Bularning barchasidan yagona maqsadimiz - maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va urta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini Uchinchi Renessansning to'rt uzviy halqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyorolarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990 yildagi 67,2 yoshdan 2020 yilga kelib 74,6 yoshga yetdi, onalar o'limi bir yarim marta, bolalar o'limi esa to'rt marta kamaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlarimizda ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari faoliyat yuritmoqda.

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida ilmiytadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirish va belgilangan tartibda moliyalashtirish tartibi joriy qilindi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuqori saviyada amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o'zagini "Bag'rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili", degan tamoyil tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash borasida keng ko'lami ishlarni amalga oshirmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasini tomonidan Xalqaro do'stlik kuni deb belgilangan 30 iyul sanasini yurtimizda "Xalqlar do'stligi kuni" deb e'lon qildik va 2021 yili uni keng nishonladik. Ishonchim komilki, bu bayram ezgu an'anaga aylanib, xalqimizni jonajon Vatanimiz bayrog'i ostida yanada jipslashtirishga xizmat qiladi.

Turli yot oqimlar ta'siriga berilib, qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo'lgan 20 mingdan ziyod fuqaro maxsus hisobdan chiqarildi, 1,5 ming nafardan ortiq mahkum afv qilindi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayotda o'z o'rnini topishiga yordam berildi.

"Mehr" maxsus operatsiyalari doirasida xalqaro terrorchilik tashkilotlari safiga adashib kirib qolgan, urush dahshatlarini boshidan kechirgan yuzlab ayollar va bolalar qurolli mojarolar hududidan yurtimizga qaytarildi.

Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari qatorida, harbiy sohaning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha tizimli va strategik chora-tadbirlarni belgiladik va amalga oshirmoqdamiz. Yangi Mudofaa doktrinasini qabul qildik.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha qo'shin turlarining tuzilma va vazifalarini qayta ko'rib chiqdik va hududlarda harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatini yo'lga qo'ydik. Natijada Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga erishdik.

Yangilanayotgan O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda. O'tgan davr mobaynida tashqi siyosat sohasida xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishdik.

Mamlakatimiz o'z tarixida birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson hukuqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbaridan ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinib, qo'llab-quvvatlanmoqda.

"O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo - bosh ustuvor yo'nalish" tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqlar mustahkamlanmoqda.

Biz ko'shni Afg'oniston qo'shnichilik munosabatlarini ichki ishlarga aralashmaslik siyosatni sobitqadamlik bilan bilan do'stlik va yaxshi ko'llab-kuvvatlash hamda tamoyillariga asoslangan hayotga tatbiq etmoqdamiz.

Ushbu mamlakatda tezroq tinchlik va barqarorlik o'rnatalishi uning Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashda ishonchli ko'prik vazifasini bajarishiga xizmat qiladi.

Rossiya, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan manfaatli aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqdamiz. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Yevropa investitsiya banki bilan sheriklik aloqalari o'rnatildi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki bilan o'zaro hamkorlik samarali tus olmoqda.

Mamlakatimizdagi ijobiy o'zgarishlar, xalqaro maydondag'i qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida dunyo hamjamiyatida O'zbekistonga bo'lган qiziqish va ishonch ortmoqda, Vatanimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda, yurtimiz xalqaro indekslarda yuqorilab bormoqda.

Bugungi kunda butun insoniyat boshidan kechirayotgan global ofat - koronavirus pandemiyasi xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi.

Koronavirus pandemiyasi va unga qarshi kurash irodamizni yana bir bor sinovdan o'tkazmoqda.

O'z paytida ko'rilgan tezkor va tizimli choralarimiz natijasida ushbu xatarli kasallikning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmadi. Yurtimizda osoyishta hayot, barqaror iqtisodiy rivojlanish davom etmoqda.

Buxoro va Sardobada yuz bergen tabiiy va texnogen ofatlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar el-yurtimizning mardligi va matonati, mehr-oqibatini yana bir bor namoyon etdi.

Xalqimizning mustahkam irodasi, fidokorona mehnati, sabr-toqati, aholi va davlat organlarining birgalidagi sa'y-harakatlari tufayli barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tmoqdamiz.

Biz jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lган dolzarb masalalar va o'z yechimini kutib turgan muammolarni hal etish uchun keng ko'lamli faoliyatimizni izchillik bilan qatiy davom ettiramiz. Keyingi yillarda ham bizning ustuvor vazifamiz dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi.

Ayni paytda mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, fuqarolarimiz salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, aholimizning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalari ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jamiyatimiz xavfsizligi, chegaralarimiz daxlsizligi, tinchlik va barqarorlik, erkin va ozod hayotni ta'minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirish bundan keyin ham diqqat-e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Jonajon O'zbekistonimiz rivojlanishning yangi davriga qadam qo'ydi. Erishgan natijalarimiz tarixga aylanib, oldimizda yangi hayotiy zaruratlar va ularni amalga oshirish bo'yicha ulkan vazifa va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

Hayot oldimizga yana ko'plab sinov va muammolarni qo'yishi mumkin va biz har qanday holatga tayyor turishimiz kerak. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, demokratik islohotlar yo'lidan hech qachon ortga qaytmaymiz.

### **3-mavzu: Xalqparvar davlat**

1. "Davlat - inson uchun" tamoyili - demokratik islohotlar mezoni.
2. Davlat organlari - xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi.
3. Davlat boshqaruving sivilizatsiyaviy imkoniyatlari.
4. Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati.
5. Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti.
6. Mustaqil va odil sud tizimi.
7. Erkin va ochiq fuqarolik jamiyat.
8. Ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari.

1. "Davlat - inson uchun" tamoyili - demokratik islohotlar mezoni. Yuqorida aytilganidek, yurtimizda uzoq yillar davomida "davlat - jamiyat - inson" tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi.

Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-hukuqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat kурilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda "Davlat - inson uchuy" tamoyili asosida tashkil etilishi darkor.

Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlari, haq-hukuqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to'g'risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo'lgan ezgu goyalar ta'sirida vujudga kelgan.

Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko'hna yozma yodgorlik - "Avesto" kitobida ham inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g'oyalari muhim o'rinn tutadi, zo'ravonlik va adolatsizlik rad etiladi.

Shuningdek, Sharqning buyuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg'inoniy XII asrdayoq o'zining "Hidoya" asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to'g'risida muhim g'oyani ilgari surgan edi.

Buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan “Jomi’ ahkom as-sig’or” (“Bola huquqlari kodeksi”) asari jahon tarixidagi bolalar hukuqi bo'yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir. Unda bolalar, xususan, yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning ota-onasi oldidagi burch va majburiyatlar kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islam huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko'rsatib berilgan. Ya'ni, ushbu asar bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr - bugungi O'zbekistonda qo'yilgani hamda islam huquqshunosligida G'arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar hukuqining to'la-to'kis o'rganilib, hayotga tatbiq etilganidan darak beradi.

Ana shu muqaddas qadriyatlar bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va islohotlarimiz kun tartibiga hamohangdir.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston inson hukuqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatga, jumladan, BMTning 7 ta asosiy shartnomasi hamda 4 ta fakultativ protokoliga ko'shilgan. Ularning ijrosi yuzasidan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Insonning asosiy hukuq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda g'oyat muhim o'rinda turadi.

Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadiga aylanib bormoqda. 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning hukuq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadigan ‘hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Parlament, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, “Xalq - qonunlarning tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi” tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy-hukuqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori indeksiga ega bo'lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston xalqaro huquq sub'ekti sifatida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmokda.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini tubdan o'zgartirmoqda. Jamiyatda “Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz” degan ulug'vor maqsad umumxalq harakatiga aylandi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalişlarini, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va

shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirib borish ishlarini biz albatta davom ettiramiz.

Shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Yurtimizning inson xuquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, xukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi - bizning strategii maqsadimizdir.

Inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiysi mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyatiuchun keng sharoitlarni yaratish, inson hukuqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantrish, aholining hukuqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish bosh ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hukuqlarni himoya qilishda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlari bilan maslahatlashuvlarni utkazish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Jamiyatda jinoyatchilikning, ayniqlsa, odam savdosi, korrupsiya, qiyonoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan siyosat davom ettiriladi.

Aholining imkoniyati cheklangan, kam ta'minlangan guruxdari xukuqlarini BMTning Barqaror rivojlanish tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta'minlash, davlat va jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo'lgan shaxslar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan shaxslarni ijtimoiy ko'llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish - navbatdagi muhim vazifamizdir.

Shu bilan birga, din, so'z va fikr erkinligi, ma'lumot olish, kamsitishga yo'l ko'ymaslik, gender tenglikni ta'minlash, barchaning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlar xuquqlarini himoya qilish sohalarida xuquqni kullash amaliyotini yanada takomillashtirish buiicha tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobjiy xislatlarni o'rsgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo'rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa, jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi.

Shu bois, yurtimizda oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va boshqa yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Insonning iqtisodiy hukuqlarini ta'minlash, xususiy mulkchilik va davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirishni yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarur.

Ta'limning sifati va barcha darajadagi qamrovini oshirish, uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qitish tizimining inklyuzivligi va undan barchaning foydalana olishini ta'minlash muhim vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Shuningdek, davlatlararo munosabatlarni, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini uyg'unlashtirish, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomaviy organlarning tavsiyalarini sifatli va o'z vaqtida bajarish maqsadida innovatsion tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, biz bu borada belgilab olgan strategiyamizdan kelib chiqib, quyidagi bosh yo'naliislarni asosiy maqsad qilib qo'ymoqdamiz.

Shaxsiy va siyosiy huquqlarni himoya qilish sohasida:

- shaxsiy va siyosiy xuquqlariga oid xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirish;

- xalqaro huquq prinsiplari, normalari hamda O'zbekistonning xalqaro shartnomalari sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan keng ko'llanilishi, xalqaro huquq ustuvorligi prinsipini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish;

- sndlarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash maqsadida sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining hukuqiy asoslarini shakllantirish hamda "Xabeas korpus" institutini yanada takomillashtirish yo'li bilan inson hukuqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda sud hokimiyatining rolini oshirish;

- sud jarayonlarida tenglik va tortishuv tamoyillarini to'liq joriy qilish, advokaturani mustaqil, ishonchli huquqni himoya qiluvchi institutga aylantirish, malakaviy yuridik yordam sifatini hamda advokat kasbining nufuzini oshirish, inson hukuqlari sohasida ixtisoslashgan huquqshunoslarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- jinoyat protsessida jabrlanuvchi va guvochlarning, jumladan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvochlarning huquqlari va xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish;

- prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiq shakllarini joriy etish, prokuratura faoliyati oshkoraligni va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish;

- fuqarolarni tengsizlikning har qanday ko'rinishlaridan hamda aholining zaif qatlam vakillarini kamsitishlardan himoya qilishni ta'minlash;

- shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash huquqini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikansa istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili va madaniyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish;

- bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, voyaga yetmagan bolalarga nisbatan alohida munosabatni nazarda tutadigan odil sudlov institutlarini joriy etish, bolaning manfaatlarini birinchi navbatda ta'minlash prinsipini qonunchilik va amaliyotga yanada samaraliroq joriy etish;

- odam savdosiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, bolalar va ayollar fohishabozligi va pornografiyasining sabablari hamda omillarini aniqlashga kompleks yondashuvni shakllantirish, shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarni xalqaro standartlarga muvofiq identifikatsiya va reabilitatsiya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish;

- aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini, saylov madaniyatini oshirish, demokratii,adolatli va erkin saylovlarga oid xalqaro standartlarni hisobga olgan holda saylovlarni tashkil etish va o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish, saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

inson hukuqlari va erkinliklariga oid xalqaro standartlarni ta'minlashda, jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyat institutini hayotga tatbiq etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roli va o'rnnini oshirish;

- davlat hokimiysi tizimida parlamentning rolini kuchaytirish, mamlakat ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalarini hal etishda, shuningdek, ijro hokimiysi faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda parlamentning vakolatlarini yanada kengaytirish, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish, jumladan, havolaki qonun normalaridan voz kechib, to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi qonun normalarini qabul qilish amaliyotini kengaytirish;

- inson hukuqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini yanada kuchaytirish;

- inson huquqlari sohasida fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlash.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish hamda monitoring olib borish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida:

- O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mazmuni to'g'risida aholi hamda davlat organlari vakillarining xabardorligini oshirish;

- ma'muriy hukuqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual tartibini takomillashtirish, ushbu tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish;

- davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasining hukuqiy asoslarini mustahkamlash;

- inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini, qiyonoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni yanada takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish joylarida va boshqa yopiq muassasalarda inson hukuqlari buzilishlarining oldini olish;

- Bola hukuqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ning huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish;

- vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish yo'li bilan bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish hukuqini ta'minlash, yetim va ota-onalarning qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, bola hukuqlariga oid xalqaro standartlar qoidalarini implementatsiya qilish va mazkur sohada hukuqni ko'llash amaliyoti ustidan samarali parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish vaularga rioya etishni tizimli ravishda monitoring qilish.

Inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirish sohasida:

- inson hukuqlari va gender masalalari bo'yicha uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda qonunga hurmatni shakllantirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

- inson hukuqlari bo'yicha professional jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, jurnalistok tekshiruvlarning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

- oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni, jumladan, sudyalar va hukuqni muhofaza qilish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'kuv markazlarida, shuningdek, mакtabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda "Inson huquqlari", "Ayollar xuquqlari", "Bola huquqlari" o'quv kurslarini joriy etish;

- inson huquqlari sohasidagi fundamental va innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy- tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati, ilmiy tadqiqotlari va ishlanmalarining samaradorligini oshirish, ularning ushbu sohadagi xalqaro tadqiqotlarga integratsiyalashuvini ta'minlash, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish;

- inson huquqlari sohasida axborot tarqatish bo'yicha ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada kuchaytirish, jurnalistlar va blogerlarning axborot olish va tarqatishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirish.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlarning inson xuquqlari bo'yicha milliy institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish sohasida:

- inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi organlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'ptomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish;

- O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi, jumladan, bolalar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, migrantlarning hukuqlarini hurmat qilish va himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro hujjatlarga qo'shilishi masalalarini ko'rib chiqish.

Yangi O'zbekiston - demokratax qonunlar, yuksak huquqiy madaniyatga ega fuqarolar mamlakatidir. Bu esa, ma'muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual va xo'jalik qonunchiligini yanada erkinlashtirish, ayrim jinoiy harakatlarni kriminallashtirishdan xoli qilish, tadbirkorlik sub'ektlari javobgarligini liberallashtirish, jinoiy jazolar va ular ijrosini insonparvarlashtirish kabi masalalarni anglatadi va bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish, yuvenal yustitsiyani rivojlantirish, mulkchilik to'g'risidagi qonunchilikni tubdan takomillashtirish, dunyoda tan olingan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqiy maqomi, autsorsing mexanizmini joriy etish kabi ilg'or tajribalarni qonunchiligidan qo'shilishiga implimentatsiya qilish bu jabhaning rivojini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lган qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat'i nazar, ular uchun jazo muqarrardir.

Qiynoqlarga qarshi konvensianing Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi. "Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizm to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur.

O'zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiq qoladi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari yo'lida harakatga da'vat" tashabbusini ilgari surishuchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettiradi.

Shu bilan birga, biz inson huquqlari borasida hali ulkan yo'lning boshida turganimizni yaxshi tushunamiz va xalqaro hamkorlarimizning qo'llab-quvvatlashiga umid bildiramiz.

2. Davlat organlari - xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi.

Hozirgi vaqtida yurtimizda rivojlangan demokratik davlat va inson haq-huquqlari ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bog'liq siyosiy faoliyat va islohotlar jadal olib borilmoqda.

Ayni paytda bu mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida ro'y berayotgan yangilanish va o'zgarishlarning muqarrar tarzda odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borishi, fuqarolik institutlari nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko'proq huquqlar berilishi jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanini anglatadi.

Ushbu jarayonda davlat organlari va boshqaruv idoralari bilan birga, nodavlat tashkilotlarning yanada kengroq ishtirok etishi esa, jamiyat hayotining demokratik jarayonlar bilan bog'liq asoslari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Bu o'z navbatida, eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan o'tgan muhim ijtimoiy fenomen, ya'ni "Davlat organlari - xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi" degan tamoyilning bugungi hayotimiz, islohotlar jarayonidagi o'rni va ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Boshqacha aytganda, mazkur tamoyil dunyo davlatlarining hozirgi zamonga xos ilg'or tajribalari bilan bir necha ming yillik o'zbek milliy davlatchiligi an'analari uyg'unligining o'ziga xos ifodasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Natijada bu yo'nalishda jahon andozalariga mos keladigan va jamiyat hayotining barcha sohalari, ayniqsa, jamiyat va davlat munosabatlarining eng demokratik shakllari uchun asos bo'ladigan xalqchil tuzilmalar va zamonaviy siyosat tamoyillari shakllanmoqda.

Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishi bilan birga, boshqaruv ma'murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo'nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi.

Hozirgi davrdagi rivojlangan davlatlarning tajribasini, xalqimizning milliy davlatchilik an'analarini aks ettirgan bunday ijtimoiy-siyosiy voqelik va uning tuzilmalari jamiyat o'zgarishlari dinamikasini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu vazifani bajarishda muhim ijtimoiy omillardan biri - jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish kabi yo'nalishlar islohotlarning tarkibiy qismiga aylangani bejiz emas.

Bizning bosh maqsadimiz - yurtimizda xalk hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat.

Demokratik hukuqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti bo'lgan xalqning xohish-irodasini, uning orzu-intilish va manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari faoliyatini yo'lga ko'yish albatta, ushbu tamoyilning amalga oshishini nazarda tutadi. O'z navbatida bu, xalq bilan muloqot demokratik taraqqiyot va inson manfaatlarini ta'minlash omiliga aylanganidan dalolat beradi.

Davlat organlarining aholiga "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida xizmat ko'rsatishiga erishdik. Bu, o'z navbatida, xalqimizning

og'irini yengil qilish, ularga "davlat - fuqaro" munosabatlarida qulaylik yaratish va shaffoflikni ta'minlash maqsadida davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi tizimi ishlab chiqilganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, xizmatlar qamrovi va tezkorligini oshirish uchun davlat xizmatlari markazlari faoliyatini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish zarur.

Barcha davlat xizmatlarini inventarizatsiya qilib, ularning muddatlari, to'lov miqdorlari, shartlari va boshqa talablarini soddalashtirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Davlat idoralarining xalqimizga ko'rsatadigan xizmati - odamlarni rozi qilishning asosiy mezonidir. Shundan kelib chiqib, qaysi qishloqda, mahallada qaysi xizmatga ehtiyoj borligiga qarab, tegishli sharoit yaratish kerak. Qaysi xizmatlarni - arzonlashtirish, qaysilarini - bepul qilish masalasini tahlil etib, aholiga yengillik va qulaylik yaratish zarur.

Idoralararo integratsiya darajasini oshirish, buning uchun davlat xizmatlari uchun to'lov larning 20 foizini tashkilotlarning axborot texnologiyalari tizimini rivojlantirishga yo'naltirish, qogoz shaklidagi arxiv hujjatlarini raqamlashtirish lozim.

Elektron raqamli imzo bilan ishslash tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari portalining mobil ilovasini rivojlantirish, nogironligi bo'lgan shaxslarga to'lov larda chegirma berish vazifalari ham dolzarb turibdi.

Biz shu asnoda O'zbekistonni innovatsion, zamonaviy va samarali davlatga aylantiramiz.

Yangi O'zbekiston strategiyasi-fuqarolarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, ilg'or tashabbuslarini amalga oshirish, hayotiy muammolarini hal etish, turmush darajasini yuksaltirish, mustaqil ravishda o'z moddiy farovonligini oshirishi uchun yetarli va zarur sharoitlarni yaratish deganidir.

Davlat boshqaruvida biz uchun nisbatan yangi, lekin ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qilayotgan "Davlat xalqqa xizmat kursatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturi ishlab chiqiladi, "Davlat xizmatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi.

Davlat boshqaruvining konstitutsiyaviy asoslarini yanada samarali tashkil etish, davlat va fuqarolar o'rtasida halol munosabatlarga asoslangan, samarali ijtimoiy himoyani ta'minlovchi davlat boshqaruvini shakllantirishni talab etadi.

Davlat organlari faoliyatini samaradorlik, nomarkazlashtirish, natijalaruchun javobgarlikni his etish kabi tamoyillar asosida tashkil etish, ma'muriy boshqaruv falsafasi va madaniyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va natijadorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning davlat boshqaruvi sifati yuqori darajaga ega davlatlar qatoridan o'rin olishiga erishish zarur.

Shuningdek, davlat boshqaruvining innovatsion, zamonavii modellarini hamda menejmentning samarali usullarini hamda korporativ boshqaruv, davlat-xususiy sherikchilik va ijtimoiy hamkorlik tamoyillarini keng joriy etish, autsorsing dasturlarini hayotga tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Barcha bo'g'indagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining xalq oldidagi javobgarligi aniq belgilanib, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishda ular tomonidan sansolorlik, mas'uliyatsizlik va befarq munosabatda bo'lism holatlariga barham beriladi. Fuqarolarning ishonchini oqlamagan barcha darajadagi vazirlar, hokimlar va deputatlarni chaqirib olishning yangi mexanizmlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

“Xalq qabulxonalar”ga konstitutsiyaviy maqom berish va ular to'g'risida alohida qonun qabul qilishning vaqt keldi.

Ushbu yo'naliishdagi barcha ishlarimizning samarasi xalqimizning og'irini yengil qilish, uning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan faoliyatning naqadar to'g'ri tashkil etilgani va natijadorligiga bog'liqligini aslo unutmaslik lozim.

3. Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta'minlash ko'p jihatdan siyosiy jabhada, ayniqsa davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Biz qadimgi yunon Renessansi bir necha yuz yillar davom etgani, unda “Afina demokratiyasining oltin asri” degan davr bo'lganini yaxshi bilamiz. Donishmand faylasuf Solon boshlab bergen va alloma Suqrot zamonigacha davom etgan ushbu davrda jamoatchilik nazorati kuchli bo'lgan, demokratiya shaharchalari tashkil qilingan, qishloqlar demokratik boshqaruv asosida idora etilgan. Fuqarolarning biror-bir partiyaga a'zo bo'lismajburiyligi va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi zarurligi konstitutsiyada belgilab ko'yilgan. Arastuning “Siyosat” asarida Afina ittifoqiga a'zo bo'lgan 150 dan ortiq shahardavlatlarning konstitutsiyalari qiyoslangan va bu o'sha zamondayoq demokratiya tamoyillari qanday ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Bizning qadimi tariximizda ham boshqaruvning demokratik ildizlari mavjud bo'lganini, xalq hayotiga daxldor eng muhim masalalar qurultoy, kengash va mashvaratlar orqali hal etilganligini ko'rish mumkin.

Bugungi O'zbekiston samarali parlamentarizm instituta faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdir.

Shu bilan birga, hayotningo'zi bizdan ushbu yo'naliishda ham professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochib berishni talab etmoqda. Chindan ham, huquqni qo'llash amaliyotiga ta'sir ko'rsatmaydigan, ijro mexanizmlariga ega bo'lmanagan, ta'bir joiz bo'lsa, ‘ulik’ qonunlar kimga kerak?

Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz lozim: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lismi shart.

Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan - fuqarolardan, joylardagi Xalq deputatlari kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o'rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak.

Oliy Majlis qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalg qilishi, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi,

jumladan, Internet tarmog’ida maxsus “maydon’lar yaratishga e’tiborni oshirishi ayni muddao bo’lur edi.

Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutini parlamentning istiqbolli reja va dasturlarini ishlab chiqadigan, bu jabhadagi turli takliflarni tahlil qiladigan va zarur tavsiyalar beradigan ilmiy markazga aylantirish lozim.

Oliy Majlis qonun ijodkorligi bo'yicha, muayyan davrga mo'ljallangan milliy faoliyat dasturini qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Uni ishlab chiqish jarayonida mamlakatimizning keyingi rivojlanish bosqichida qaysi qonun yoki qanday hujjalarga ehtiyoj ko'proqligini aniqlash va parlamentimiz o'z faoliyatini ana shularni e'tiborga olgan holda rejalashtirishini bugungi hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Yana bir muhim masala - barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o'rghanish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta'sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Kuchli parlament va xalq vakillik organlari - Yangi O'zbekistonning tayanchidir.

Hokimiyat vakolatlari bo'linishi, ular o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlash prinsiplarini izchil amalga oshirish, xalq hokimiyatini, parlamentarizmni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash, siyosii partiyalarning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichda davom ettiriladi.

Davlat hokimiysi organlari tizimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining rolini yanada oshirish bilan bir qatorda, uning tarkibii bulinmalari-palatalar, qumitalar, komissiyalar va kengashlar funksiyalarini maqbullashtirish va mas'uliyatini yanada kuchaytirish zarur.

Parlament saylovlarida g'olib bo'lган siyosiy partiya yoki ularning birlashmalari tomonidan parlamentning rahbar organlari va hukumat tarkibini shakllantirish amaliyotiga to'liq o'tish vaqtি keldi, deb hisoblaymiz. Bu, o'z navbatida, ko'ppartiyaviylikni mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini oshirish, hokimiyatning vakillik organlari faoliyati samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu jarayonda ham raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog'ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko'ra, amalda bir nechta aniq muammoni hal qilib bersak, bundan foyda ko'proq bo'ladi. Eng muhimi, hayotdagи o'zgarishlarni xalqimiz bilishi, davlat hokimiysi tizimida haqiqatda ham o'z vakili borligini sezishi kerak. Bo'lmasa, barcha ishlarimiz, tadbirlarimiz zoe ketadi.

Ko'pgina rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o'rniga keraksiz qog'ozbozlik va natijasiz majlislar o'tkazish bilan ovora bo'lib qolishayotganini afsus bilan qayd etish joiz.

Yana bir jiddii kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha yetarli choralar ko'rilmayapti. Shuning uchun Hukumat boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha

faoliyatini yanada samarali tashkil etishi lozim. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini yanada optimallashtirishni nazarda tutish zarur.

Islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o’z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko’p jihatdan davlat boshqaruvidan samaradorlikka bevosita bog’liq ekan, bu boradagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- parlamentariz har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, xalq hokimiyatini yanada kuchaytirish. Menimcha, parlament saylovlarida g’alaba qozongan partiya nafaqat Bosh vazir nomzodini, balki parlament quyi palatasi Spikeri nomzodini, Hukumat tarkibini taklif etishi, “saylovlarning proporsional tizimiga” o’tish, hokimiyat organlarining hisobdorligini va ochiqligini ta’minalash maqsadida jamoat va parlament nazorati to’g’risidagi qonunlarni zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish kabi islohotlar to’g’risida o’ylab ko’rish kerak;

- qonun ijodkorligi borasidagi faoliyat sifatini tubdan oshirish, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va qonunosti hujjatlari sonini keskin qisqartirish qonun ijodkorligida “aqli tartibga solish” modeli elementlarini qo’llash zarur. Bizga to’g’ridan-to’g’ri ishlaydigan qonunlar kerak va qonunosti hujjatlari bilan umummajburiy normalar belgilashni to’xtatish zarur;

- normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minalash hamda jamoat tashkilotlarining bu boradagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilab qo’yish maqsadida “Normativ-huquqiy hujjatlarning jamoat muhokamasini tashkil etish to’g’risida” gi qonunni qabul qilish lozim;

- Xalq deputatlari kengashlari faoliyatini takomillashtirish, ularning vakolatlarini kengaytirish, eng muhimi - hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, real daromadlarning barqaror o’sishi, turmush darajasi va sifatini oshirish, mahalliy budgetni shakllantirish hamda nazorat qilish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish kerak;

- shu maqsadda xalq vakillik organlarining fuqarolar uchun ochiqligini ta’minalash, “Elektron parlament” va “Elektron Xalq kengashi deputatlari” kabi konsepsiyalarni hayotga izchil tatbiq etish lozim;

- boshqaruv sohasida ijro hokimiysi organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz darkor;

- davlat boshqaruvida bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to’siqlarni qisqartirish, bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan optimallashtirish choralarini ko’rish zarur.

Ayni paytda bugungi shiddatli zamonning ehtiyojlari barqaror bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish va tadbirdorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohalar, jumladan, tibbiyot, ta’lim va ilm-fan yo’nalishlaridagi boshqaruv, tashkiliy va muvofiqlashtirish ishlarni takomillashtirish bo'yicha ham qator islohotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad - ixcham va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruv tizimini yaratishdan iborat.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, mamlakat tashqarisida ham o'z fuqarolarining hukuqiy himoyasini kafolatlashi haqidagi konstitutsiyaviy qoidaning ijrosini so'zsiz ta'minlashi shartligi ham barchamizga ayon bo'lmosg'i zarur.

Afsuski, faqat keyingi yillardagina chet ellarda mehnat qilayotgan fuqarolarimizning hukuqlarini himoya qilish masalasiga e'tibor berila boshlandi. Ammo bu borada yaqin kelajakda amalga oshiradigan ishlarimiz ko'pligi yoddan chiqmasligi lozim.

Bugun hayotning o'zi bizdan davlat xizmati tizimini yanada samarali tashkil etish, ushbu yo'naliishda ham professional, tezkor tuzilmalarni shakllantirishni talab qilmoqda.

Shu jihatdan, islohotlarimizning maqsad- muddaolarini yaxshi anglaydigan, xalqimizning Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishiga chin dildan yordam beradigan, halol-pok kadrlarni tarbiyalash vazifasi yanada dolzarblashmoqda.

Bularning barchasi davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga doir islohotlarimizning istiqboldagi eng ustuvor yo'nalichlari nimalardan iborat ekanini anglash imkonini beradi.

4. Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati. Barchamizga ayonki, islohot-bu yangilanish va o'zgarish, ishlarning natijadorligi uchun mas'uliyatni yanada teranroq his qilish degani. Islohotlar ijobiyligi natija berishi uchun, avvalo, boshqaruv tizimi, rahbarlarimiz va odamlarimiz o'zgarishi kerak. Insonning dunyoqarashi o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi, yangilanadi va shu asnoda Yangi O'zbekiston poydevori mustahkamlandi.

Bu maqsadga erishish uchun, birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barcha yetakchilar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida tashkil etishlarini bugun hayotning o'zi kun tartibiga keskin qilib qo'ymoqda.

Afsuski, haligacha ham ko'pgina vazirlik va idoralar faoliyatida qarorlar qabul qilish haddan tashqari markazlashgan holda qolmoqda. Ba'zilarining vazifalari aniq va to'liq bajarilmasligi, amaliy faoliyatda bir- birini takrorlash holatlari mavjud.

Ko'pchilik idoralar, ayniqsa, o'rta bo'g'in rahbarlari biror-bir zarur masalani hal qilish uchun faollik va tashabbus ko'rsata olmaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlat boshqaruvini markazlashtirish amaliyotidan voz kechish zarurligi, ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish jarayonini davom ettirish kerakligini anglatadi.

Shu tufayli joylarda - tuman, shahar va viloyat hokimliklarida investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha hokim o'rindbosarlari lavozimi joriy etilgani bejiz emas.

Hududiy boshqaruv organlarining budjet mablag'larini shakllantirish, ko'shimcha zaxiralarni yaratish bo'yicha soliq, moliya va iqtisodiyot sohalari organlarining mas'uliyatini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi.

Budjet tizimini isloh qilish sohasida mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari yanada kengaytirildi. Endi har bir hudud rahbari berilgan imkoniyatlardan foydalanib, mas'uliyatni to'la o'z zimmasiga olishi, "o'z aravasini o'zi tortishi" kerak.

Shu munosabat bilan deputat va senatorlarni o'zlari saylangan hududdagi muammolar, tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o'rghanib, nazorat qilib borishga chaqiraman.

Boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida kelgusida har bir vazirlik o'z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. Vazirlar va ularning o'rnbosarlari faoliyatiga joylarda amalda qandai uzgarish bo'lganiga qarab baho beriladi.

Bosh vazir o'rnbosarlari, vazirlar, o'zlarining kuyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishslashga o'rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun mas'ul etib belgilanadi.

Davlat boshqaruv organlari va Vazirlar Mahkamasi o'rtasida o'zaro hamkorlikda ish olib borish bo'yicha prinsip va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Har bir vazirlik o'ziga ishonib topshirilgan sohada davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlashi va yakuniy natija uchun to'liq javobgar bo'lishi shart.

Vazirliklar bilan teng maqomda faoliyat olib borayotgan, hukumat va parlament bilan bevosita hamkorlik qilayotgan agentliklar, qo'mita, inspeksiya va markazlarni tegishli vazirliklarga bo'ysundirish talab etiladi.

Shuni nazarda tutgan holda, hukumatning vazifa va tarkibiy tuzilmasini yana bir bor tanqidiy qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish lozim. Bunday o'zgarishlar davlat va xo'jalik ishi sohasida deyarli bir xil vazifalarni bajarayotgan yuzdan ortiq boshqaruv organlari sonini tubdan qisqartirish imkonini beradi.

Bu yo'nalishdagi muhim o'zgarishlardan biri - xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga mas'ul bo'lgan rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha vakolatlarni tuman va shahar hokimlariga to'liq o'tkazishdan iborat bo'ldi. Tibbiyot birlashmasi, xalq ta'limi, iqtisodiyot, moliya bo'limlari, soliq inspeksiyasi va boshqa tuzilmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tuman hokimi tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani berishi mumkin. Joylarda kadrlarni tanlash, tayinlash va lavozimdan ozod etish bilan bog'liq vakolatlar qayta ko'rib chiqildi. Ayni paytda mahalliy rahbarlarga bunday keng vakolat va mustaqillik berish bilan birga, yakuniy natija uchun ularning javobgarligini tubdan oshirishimiz zarur.

Yana bir muhim vazifa - hokimlarning ijro va vakillik hokimiyyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yish bilan bog'liq. Keyingi paytda yurtimizda Xalq deputatlari kengashlarining roli, xalq noiblarining vakolatlari tubdan oshirildi. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi, deputatlik nazorati esa mustahkamlandi.

Biroq, ochiq tan olishimiz lozim, hokimlarning ham mahalliy kengashlarga, ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi eng rivojlangan davlatlarga xos demokratik prinsiplarga mos keladi, deb bo'lmaydi. Hammaga ma'lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa uz urnida tegishli qarorlar qabul qiladi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: hokimning hisobotini o'zi rahbarlik qilib kelayotgan mahalliy kengashga taqdim qilishi va tasdiqlatishi, o'z faoliyatiga o'zi baho berishi to'g'rimi? Bu tizim hokimlar va mahalliy kengashlarning o'z vazifalarini samarali bajarishiga salbiy ta'sir etayotganini zamonningo'zi ko'rsatmoqda.

Biz kelgusida bu masala bo'yicha qonunga asoslangan to'g'ri yechim topamiz. Hokimlarning hududlarni rivojlantirish, mahalliy budgetni ijro etish, kommunal muammolarni hal qilish kabi dolzarb masalalar bo'yicha faoliyati ustidan xalqimiz o'z vakillari orqali tegishli nazoratni amalga oshirishiga imkoniyat yaratib berish lozim. Ya'ni, hokimliklar va mahalliy kengashlar uchun alohida tizimlarni shakllantirish, hokimlarning hisobdorligini belgilab ko'yish bizning bu sohadagi eng muhim vazifamiz bo'lib qolishi zarur. Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas'uliyati davlat apparatini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayapti. Shuning uchun, o'ylaymanki, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

Ma'lumki, 2018 yilda Toshkent shahrida eksperiment tariqasida davlat boshqaruvining yangi tartibi joriy etilib, shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash vakolati berildi.

Toshkent - jonajon Vatanimizning poytaxti, barcha islohotlarimiz boshlanadigan, bu borada boshqa xududlarga O'rnak bo'ladigan markaz. Shunday ekan, "Toshkent shahrining poytaxtlik maqomi to'g'risida" qonun bo'lishi va u tez orada ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi zarur.

Yana bir masala - tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o'ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqligini bugungi amaliyot yaqqol ko'rsatib turibdi. Vaholanki, bizda ko'pgina tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va miqdori bir-biridan keskin farq qilsa-da, lekin ularning ish haqi deyarli bir xil.

Internet tarmog'i vositasida parlament va deputat so'rovini shakllantirish amaliyotining yo'lga qo'yilishi ham keyingi yillarning yangiligidir. Bu orqali biz aholini qiynatotgan masalalarning parlamentda ko'rib chiqilishiga erishamiz.

Bugungi kunga kelib, odamlarni tashvishga solayotgan kundalik muammolarni hal etish maqsadida deputatlar har oyning oxirgi haftasida o'z saylov okrugida bo'lishiga doyr tartib yo'lga ko'yildi. Albatta, bu ishlarni tizimli ravishda davom ettirish kerak.

Strategiyamizda nazarda tutilayotgan mazkur sohadagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- zamonaviy menejment usullarini va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, autsorsing dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlarni yanada kengroq davom ettirish lozim. Bunda biz davlat xizmatiga zamonaviy fikrlaydigan, yangicha tafakkurga ega, boshqaruvning innovatsion, yanada moslashuvchan modellarini, jumladan, loyiha modelini (Agile, Scrum, Kanban, PRINCE2 va boshqalar) ishlab chiqish va joriy etishga layoqatli yetuk mutaxassislar, siyosiy partiyalar, xususiy sektor vakillarini, kuchli xorijiy ekspertlarni jalg qilishni ko'zda tutuvchi yangi kadrlar siyosatini amalga oshirish zarurligini nazarda tutmoqdamiz;

- barcha davlat xizmatlarini BPR (Business process reengineering - Biznes jarayonlarini qayta tashkil etish) tizimi asosida soddalashtirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy axborot tizimlarini keng joriy etish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish, budget mablag'lari tasarruf qilinishining shaffofligi, davlat mulkidan foydalanishning samaradorligi va aniq maqsadga yo'naltirilgani kabi muhim ko'rsatkichlar asosida baholash;

- iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, ya'ni, davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishni cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish;

- hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyat idoralari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o'ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish, davlat xizmatlarini bevosita quyi bo'g'lnlarda ko'rsatish, mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni yanada kengaytirish;

- davlat boshqaruvi tizimining hududlar va sohalar bo'yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi borasida mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining mahalliy hokimliklardan haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, ulardagi siyosiy partiyalar guruhlari rolini yanada kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Aholimiz, fuqarolarning siyosiy-huquqiy saviyasini oshirib borish bilan hokimlarni to'g'ridan-to'g'ri saylash tizimiga o'tiladi. Hokimlarning tegishli vakillik hokimiyatini boshqarish vakolati bekor qilinadi. Shu munosabat bilan "Xalq deputatlari Kengashlari to'g'risida" va "Hokimning maqomi to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish zarur.

Bularning barchasi samarali va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi va takomillashtuvi uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

Asosiy maqsadimiz - O'zbekistonning dunyodagi davlat boshqaruvi sifati yuqori bo'lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan 30 ta davlati qatoriga kirishini ta'minlashdan iborat.

Yangi O'zbekiston strategiyasi ijro etuvchi hokimiyatni tom ma'noda xalqqa xizmat qiluvchi organga aylantirishni nazarda tutadi.

Ijroiya hokimiysi tizimini yanada maqbullashtirish, uning salohiyati va imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ma'muriy islohotlarni izchil davom ettiramiz. Shuningdek, vazirliklar, qo'mitalar va agentliklarning davlat boshqaruv organlari tizimidagi o'rni, maqomi, vakolatlari, huquqi va majburiyatlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun hujjatlarini qabul qilamiz.

Yangi O'zbekistonga xalqimizning orzu- intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch, deb biladigan, bilimdon va qat'iyatli rahbarlar zarur. Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va o'z xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilishga qaratilgan kadrlar siyosatini davom ettiramiz.

Davlat xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish hamda xodimlarning kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlari asosida xizmat pog'onalaridan ko'tarilishi, davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha shaffof mexanizmlari joriy etiladi hamda ularning aniq vazifalari belgilanadi. Menejmentning zamonaviy usullari va korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilib, autsorsing dasturlari amalga oshiriladi.

Bizning mazkur masaladagi qat'iy pozitsiyamiz shundan iboratki, davlat xizmati haqiqiy professionallar maktabi bo'lib, bu tizimda faoliyati va davlat xizmatida o'z kasbining chinakam ustalari ishlashi shart.

Yangi O'zbekistonda boshqaruvi tizimining hududlar va sohalar bo'yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi - jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy sharti va garovidir.

5. Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti. Islohotlarimiz samarasini har bir inson o'z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash lozim.

Amaldagi nazorat tizimi esa, afsuski, ko'proq formal tusga ega bo'lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo'naltirilmayapti. Shuning uchun endilikda bu borada yangicha ishlash tizimi joriy etilmoqda.

Bu borada Qonunchilik palatasi har bir qonun loyihasi bo'yicha xolis bahsmunozara va tortishuvlar minbariga, turli ijtimoiy manfaatlari o'rtasidagi kurash maydoniga, chinakam demokratiya maktabiga aylanishi zarur.

Keyingi yillarda muayyan bir sohaga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan bir nechta qonunlar o'rni, yagona kodeks qabul qilish amaliyoti qaror topmoqda. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks, Saylov kodeksi kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Ayni vaqtida hayotning o'zi, O'zbekistonning jadal taraqqiyoti bu boradagi faoliyatimizni yangi sifat bosqichiga olib chiqishni talab etmoqda. Jahondagi ilg'or tajribalar asosida partiyalar o'z siyosiy manfaatlari, o'z elektorati manfaatlarni ifoda etadigan qonunlarni qabul qilish uchun parlamentda qizg'in bahs olib borishlari kerak. Buning uchun parlamentda ko'pchilikni tashkil etadigan partiya va unga muxolifatda bo'lган partiyalar o'rtasida sog'lom raqobat bo'lishi lozim.

Albatta, Qonunchilik palatasida ham har bir fraksiya o'zini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin. Bu fraksiya qonun birinchi o'qishda ko'rib chiqilgunga

qadar mazkur masala bo'yicha qonunning muqobil tahririni kiritish hukuqiga ega ekani belgilangan. Pekin, tan olishimiz kerakki, bu institut shu paytgacha samarali ishlagani yo'q.

Bunda deputatlar tashabbus ko'rsatishi uchun o'z ustida muntazam ishlashi, har bir soha bo'yicha qabul qilingan qarorda xalq manfaatlari ta'minlanishi uchun mustahkam zamin yaratishi kerak. Saylovchilar deputatlar tashabbus ko'rsatib, muqobil fikrlarni, qatiy siyosiy irodani namoyon etishlarini kutmoqda. Chunki haqiqat bahs va tortishuvlarda tug'iladi.

Albatta, har bir deputat ma'lum bir sohaga oid qonunni qabul qilishda shu sohaning mutaxassisasi sifatida fikr yuritishga qodir bo'lishi lozim. Negaki, deputat kabul qiladigan qonun hujjatlari millionlab odamlarning, butun xalqimizning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu ta'sir ijobjiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun xalq ishonchini qozongan deputatning xato kilishga, o'z zimmasidagi yuksak mas'uliyatni unutishga sira Haqqi yo'q, deb o'ylayman.

Qadimgi Rimning mashhur shoiri Publiliy Sirning bir fikrini eslash joiz deb bilaman. "Qonunlar kuchli bo'lgan joyda, xalq ham kuchlidir", deb yozgan edi u. Darhaqiqat, xalq vakillari bo'lgan deputatlar o'z vakolatiga asoslanib, jasur, talabchan va qat'iyatli bo'lishi, fuqarolarning manfaatiga xizmat qilmaydigan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Qonun ijodkorligi borasidagi faoliyat sifatini tubdan yaxshilash, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va qonunosti hujjatlari sonini keskin qisqartirish, qonun ijodkorligida "aqli tartibga solish" modelini yanada keng ko'llash borasidagi ishlar tizimli ravishda davom ettiriladi. Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqiladi.

Har bir qonunning, ta'bir joiz bo'lsa, ko'zi, oyog'i, ijrosi bo'lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, albatta, hayotda o'zgarish bo'lishi kerak. Ayni vaqtida masalaning ikkinchi tomonini ham o'yash kerak, ya'ni parlamentga sifatsiz qonun loyihalarini kiritgani uchun avvalo, tashabbuskor idoralar va Adliya vazirligining mas'uliyatini oshirish zarur. Agar tashabbuskor idora qonun loyihasining ahamiyatini deputatlar oldida asoslab bera olmasa, Qonunchilik palatasi loyihani ko'rib chiqishni rad etishi kerak.

Ayni paytda shuni ham ta'kidlash lozimki, xalq vakillari qonunlarni qabul qilishda ularning kelgusida ishlashini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ham oldindan ko'rishi lozim. Qonunlarda belgilangan ayrim qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinmasligi - ularning amalda "ishlamay qolishi"ga olib kelmoqda bu esa, fuqarolar va tadbirkorlarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, biron-bir qonun loyihasini qabul qilishda tashabbuskor bo'lgan parlament fraksiyasining shu qonunni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqilishi ushbu masalani samarali yechishga yordam beradi.

Qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, xalqaro reytinglardagi o'rnimizni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyotini ham yanada kengaytirish lozim. Chunki, xalqaro shartnomalar va reytinglar mazmunida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'z aksini topgan.

Bu jarayonga fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar yanada kengroq jalg etiladi. Tahlillar asosida ijroga xalaqit berayotgan ortiqcha vazifa va funksiyalarni qisqartirish davom ettiriladi.

Davlat idoralaridagi ijro sifati va holatini viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari kengashlarida, respublika darajasida esa - Vazirlar Mahkamasida har oyda tanqidiy muhokama qilib borish amaliyoti yanada takomillashtiriladi, izchil va samarali tashkil qilinadi.

6. Mustaqil va odil sud tizimi. Buyuk Sohibkiron Amir Temur bobomiz Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirgan “Adolat - davlatning asosi va hukmdor - shioridir”, Alisher Navoiy bobomizning esa “Zulm qilma, insofli bo’l, xalq uchun adl qasri, ya’niadolat qo’rg’onini bunyod et , deb aytgan hikmatli so’zlarida aks etgan ulug’vor g’oyalar insonning qadr- qimmatini oliy darajaga ko’tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanmoqda.

Jamiyatimizda "Qoiun vaadolat - ustuvor" "Jinoyatga jazo muqarrar" degan muhim prinsiplarni ta’minalash, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma’noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ana shunday o’zgarishlar tufayli biz yillar davomida deyarli unutib qo’yan tartib-intizom, qonun-qoida, odamlarning haqli talablari bilan hisoblashish kabi eng muhim tamoyillar hayotimizda tobora chuqur o’rin egallamoqda.

Sud ostonasiga qadam ko’yan har bir inson O’zbekistondaadolat hukm surayotganiga to’la ishonch hosil qilishi kerak. Aks holda, buyuk nemis faylasufi Immanuil Kant aytganidek, “Adolat yo’qolgan paytda hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi”. Bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz zarur. Sudyalar qonunlarning tolmas himoyachilar,adolatning mustahkam ustunlari bo’lishi lozim.

Insonni faqat jazolash bilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalab bo’lmaydi. Buni hayotning o’zi ko’p bor isbotlagan. Insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug’diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak.

Yaqin o’n yillikda sud tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, adolatli sudlovdan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- avvalo, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligi borasidagi konstitutsiyaviy tamoyilni hayotga izchil tatbiq etish, sudlar faoliyatida xalqaro huquq va O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridagi tamoyillar va normalarning kengroq ko’llanishiga erishish;

- xususiy mulk daxlsizligini, tadbirkorlik va tadbirkorlarni ishonchli himoyalashni ta’minalashda sudlarning rolini kuchaytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning ko’chmas mulklarini buzish, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari va xususiy mulk ob’ektlarini olib ko’yish hamda tadbirkorlik sub’ektlariga berilgan litsenziyalarni bekor qilish bo'yicha qarolarning faqat sud tomonidan qabul qilinishiga erishish;

- tadbirkorlik sub’ektlarining davlat organlari harakati yoki harakatsizligi oqibatida ko’rgan zararlari borasidagi da’vo muddatlarini bekor qilish va

muddatsiz ekanligini kafolatlash maqsadida Sudlar to'g'risida" kodeks qabul qilish;

- "Xabeas korpus" institutining ko'llanish sohasini yanada kengaytirish, sud mustaqilligini ta'minlash maqsadida hukuqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlarini optimallashtirish;

- prokurorlarning maqomi, ularning mustaqilligini ta'minlash masalalari, tanlash va xizmat pog'onalaridan o'stirishning xolis mezonlari qonunda aniq belgilangan bo'lishiga erishish, hokimiyatlar bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyilidan kelib chiqib, bu boradagi uslub va mezonlarni takomillashtirish;

- viloyatlar miqyosidagi sudlarni optimallashtirish, birlashtirish, yagona sud raisi bo'ysunuvigao'tkazish. Xususan, Ma'muriy sudlar tomonidan ommaviy, moddiy huquqqa oid ishlar ham amalda ko'rib chiqilayotganini inobatga olib, ularning maqomini yanada oshirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish;

- sud buyrug'i institutini takomillashtirish, uning ayrim turlari o'rniga sudgacha hal etish mexanizmlarini joriy etish hamda boqimanda qarz dorlikni sud orqali undirish masalasi va mexanizmlarini takomillashtirish;

- sud tergovi institutini takomillashtirish, sudyalar vakolatlari va maqomini yangi talablar darajasiga olib chiqish, ularning qaror va xulosalariga nisbatan nomzodlarning shikoyat qilish huquqini yanada oshirish.

Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasida ushbu sohadagi eng ustuvor vazifamiz - O'zbekistonning dunyodagi "qonun ustuvorligi indeksi" yuqori darajada bo'lган davlatlar qatoriga kirishini ta'minlash va aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirishga yordam beradi.

Bundan keyin ham ana shu maqsadda biz insonning fundamental hukuqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlov holatini tubdan yaxshilash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Biz odamlarda sudga bo'lган ishonch va hurmatni qaytaramiz. Biz uchun sud faoliyati va mustaqillinining eng muhim mezoni - fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyalanganligi, adolatli sudlov ta'minlanganligi, yakuniy va barqaror sud qarorlarining qabul qilinganligidir. Sudyalar kengashlari faoliyatining universal prinsiplarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq.

Sudlar faoliyati ochiqligi va oshkor aligining kuchaytirilishi, "Elektron va raqamli sud" konsepsiyasining amalga oshirilishi, sudlar tomonidan o'z faoliyati haqidagi hisobotni Xalq deputatlari kengashlariga taqdim etilishi, mahalla, korxona va tashkilotlarda sayyor sud yig'ilishlari o'tkazilishi - adolatli sudning garovi bo'lishiga erishishimiz lozim.

Yangi O'zbekiston strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Maqsadimiz - sud-tergov faoliyatida fuqarolarnish huquq, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoyalash, tergov va sudning barcha bosqichlarida jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatning rolini yanada oshirishdan iborat.

Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzARB vazifasidir. Bu borada “Mustaqil advokatura konsepsiysi” ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Tergov va sudning barcha bosqichlarida advokatning roli yanada oshiriladi, Advokatlar akademiyasi faoliyati yo’lga qo’yiladi.

Advokatura va yuridik xizmatlar ko’rsatish institutlarini rivojlantirish maqsadida kuyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

- Advokatlar palatasining mustaqilligini amalda ta’minalash, uning huzurida Advokatlar akademiyasini tashkil etish, advokatning maqomini olish uchun qo’ylgan stajirovka muddati haqidagi talabni bekor qilish, adliya tizimining advokatura sohasiga aralashuvini bartaraf etish;

- advokatura institut i mustaqilligi, advokatlarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali himoyasini ta’minalash, hukuqni muhofaza qilish organlari tomonidan ularning haq-huquqlari buzilganligi to’g’risidagi shikoyatlarini ko’rib chiqilishi va tegishli baho berilishi bilan bog’liq masalalarda parlamentning roli va ahamiyatini oshirish. Shu maqsadda Oliy Majlis quyi palatasida advokatura institutini mustahkamlash komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish;

- nodavlat notariat institutini faoliyatini qayta tiklash va foliyatini keng yo’lga qo’yish, notarial harakatlarning masofadan turib, interaktiv - elektron xizmat ko’rinishidagi faoliyat sohasini kengaytirish, notariuslarning nodavlat birlashma shaklidagi hamjamiyati faoliyatini tizimli tashkil etish;

- yuridik xizmat ko’rsatish sohasini yanada takomillashtirish, “Shartnomaviy huquqiy baza va yuridik xizmat to’g’risida”gi, “Bepul yuridik yordam to’g’risida”gi qonunlarni hamda yaxlit huquqiy himoya konsepsiyasini amalga oshirish, aholi ongida advokatura va notariat institutlariga xizmat ko’rsatuvchi sub’ektlar sifatida qarashni shakllantirish, ushbu sohada xususiy sektorning rolini oshirish.

Xalqimiz azal-azaldan bolajon xalq va o’z taqdirini farazandlarining farovon hayoti bilan bog’laydi. Islohotlarimiz natijadorligi va samarasini

ta’minalashda esa, ommaviy axborot vositalarining o’rni beqiyosdir. Shunday ekan, Bolalar ombudsmani institutini yanada kuchaytirish, Bola huquqlari kodeksini qabul qilish, Media-ombudsman institutini tuzish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yaqin yillarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo’lida og’ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantiramiz.

7. Erkin va ochiq fuqarolik jamiyati. Bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish va Yangi O’zbekistonni barpo etish strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAVni qo’llab-quvvatlash jarayoni jadal bormoqda.

Bu jihatdan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini har tomonlama ko’llab-quvvatlash - samarali boshqaruvni amalga oshirishdagi ustuvor yo’nalishlardan biridir.

Mamlakatning xar tomonlama gullab-yashnashiga faqat kuchli vaadolatli fuqarolik jamiyati sharoitida erishish mumkin. Bunda barcha qarorlarni qabul

qilishda fuqarolar va ularni birlashmalarining fikrlari inobatga olinishi zarurligi nazarda tutiladi.

Ayni paytda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati institutlarining izchil kuchaytirilishi, boshqaruv funksiyalarining aksariyatini xalqning o'ziga, jamoat birlashmalariga, o'zini o'zi boshqarish organlariga, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga berish maqsadga muvofiq.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'naliшlar quyidagilardan iborat:

- davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo'lga qo'yish;

- o'rta va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo'naliшlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiylarini tahlil qilish;

- davlat organlarining fuqarolik jamiyati institatlari bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini joriy qilish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- ilmiy va ekspertlar guruhlari ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish yuzasidan tashabbus ko'rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli ravishda o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institatlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institatlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun kulay sharoitlar yaratish;

- fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini baholovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, bu ko'rsatkichlar asosida davriy va maxsus, jumladan, muqobil ma'ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg'or xalqaro tajribani o'rganishda va ushbu tajribani O'zbekiston sharoitida joriy etishda ko'maklashish.

Ushbu sohadagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin vao'rta muddatli istiqbollari va bosqichlari, ustuvor yunalishlari, vazifalarini uzimizga aniq belgilab olishimiz lozim.

Bundan maqsad - mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarini

himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishdan iboratdir.

Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hamda dolzarb masalalarini hal etishda ularning hamkorligini kuchaytirish, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarning tashabbuskorligi va faolligini ta'minlash ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, islohotlarimiz natijalari, bo'layotgano'zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma'noda, "Mahalla - jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi", desak, to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta'minlashi shart.

Mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashda bosh mezon bo'ladi.

Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini ko'paytirish, xodimlarining moddiy ta'minotini yaxshilash bo'yicha dasturni samarali amalga oshirish zarur.

Mahalla raisi va uning o'rnbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish borasida yanada ko'proq imkoniyatlar yaratishimiz kerak. Bunda mahalla raisiga mahalliy kengash majlisida ko'rilihi majburiy bo'lgan masalalarni kiritish huquqini berish lozim. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo'lga ko'yilayotgani ham bejiz emas.

Qonunchilik palatasi va Senatga, Vazirlar Mahkamasi bilan birga mahalliy ijro va vakillik organlari hamda mahalla instituta faoliyatini tubdan takomillashtirishga oid yangi qonun loyihibarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Ushbu hujjalarda hokimlar, ularning o'rnbosarlari va maslahatchilarining vakolat chegarasi, vazifa va funksiyalari aniq belgilanishi maqsadga myvofiq bo'lur edi.

Sohaga oid milliy qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyotining chuqur tahlili va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining samarali va ta'sirchan shakllarini joriy etish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini qonunda batafsil belgilab qo'yish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqish;

- mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni rivojlanishini, jamiyat institutlarining davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini, shuningdek, ularning jamiyatni sotsial-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda kelgusi besh yillikda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish;

- jamiyatda adolatni ta'minlash tamoyilini amalga oshiradigan ta'minlovchi fuqarolik institutlarining keng tarmog'ini shakllantirish maqsadida davlat

organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi bo'yicha o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ushbu yo'nalihsda ham yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish choralarini ko'rish lozim. Bizning ustuvor vazifamiz - fuqarolik jamiyati institutlarining aholining hayotiy muhim muammolarini hal qilish, mulkdorlar sinfi manfaatlarini himoyalash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish;

- o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini har tomonlama yaxshilash - to'g'ridan-to'g'ri demokratiyani amalga oshirishning asosiy yo'li ekanini e'tiborga olgan holda, jamoat boshqaruvida mahalla faoliyatining ahamiyati va samaradorligini oshirish, uni xalqqa amaliy yordam ko'rsatuvchi mustaqil, kuchli va ta'sirchan fuqarolik institutiga aylantirish zarur.

Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida Nodavlat notijorat tashkilotlar kodeksini qabul qilish, Jamoatchilik palatasini tuzish ishlari jadallashtirish lozim.

8. Ijtimoiy mas'uliyatlari ommaviy axborot vositalari. Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari sohasida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

El-yurtimiz, jamoatchiligidan matbuot nashrlari, teleradiokanallar, nashriyot va matbaa korxonalari, Internet saytlari, axborot xizmatlarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan zahmatkash jurnalist va blogerlar, noshir va muharrirlar, tarjimon va rassomlar, rejissyor va operatorlar, barcha texnik xodimlarning mashaqqatli mehnatini yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Doimo yangilik izlab, yangilikka intilib yashaydigan, jamiyatda yuz berayotgan muhim o'zgarishlar, ustuvor g'oya va tashabbuslarning ma'nomohiyatini odamlarga tezkorlik va xolislik bilan yetkazadigan, hayotning qaynoq nuqtalariga dadil kirib boradigan matbuot xodimlari mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmaqda.

Bugungi kunda OAV tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyatga aylanib bormoqda. Achchiq ran va tanqidiy materiallar joylardagi ko'plab amaldorlarga yoqmasligi, ularning tinchini va halovatini buzayotgani ham bor gap.

Oshkorlik va so'z erkinligi bu - davr talabi, bugun O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning talabi.

Xolis vaadolatli jurnalist va blogerlarning tanqidiy chiqishlari eskicha qolipda ishlaydigan rahbarlarning faoliyatidagi xato-kamchiliklarni ko'rsatib, ularni ish uslubini o'zgartirish va mas'uliyatini oshirishga majbur qilmoqda.

Bundan buyon har bir davlat organi o'z kundalik faoliyatida ommaviy axborot vositalari bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarurligini yanada teranroq anglab olishi shart.

Bu boradagi mavjud qonunchilikni liberallashtirish yo'lida tashlangan dadil qadamlarimizning dalili sifatida yaqinda Jinoyat kodeksining ommaviy axborot vositalari orqali "tuhmat" va "haqorat qilish" kabi moddalari bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish shaklidagi jazo choralarini bekor qilinganini misol sifatida keltirish mumkin.

Bundan keyin ham so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yanada kuchaytiriladi.

Ommaviy axborot vositalarida, rasmiy veb-saytlarda, ijtimoiy tarmoqlarda parlament palatalari majlislarini, har bir tadbir haqidagi axborotlarni keng va tizimli yoritishni kuchaytirish kerak. Bunday amaliyot parlament faoliyatida nafaqat ochiqlikni ta'minlashga, balki barcha davlat idoralari mas'uliyatini oshirish uchun ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda barcha darajadagi boshqaruv idoralari rahbarlarining ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar bilan muntazam uchrashib, jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalarni erkin muloqot asosida keng muhokama etishi yaxshi an'anaga aylanib bormoqda.

Biz bunday yondashuvni O'zbekistonda olib borilayotgan ochiqlik, oshkorlik va demokratik siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz hamda milliy manfaatlarimizga javob beradigan bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz.

Shu sababli ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'siri, faoliyat samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, soha xodimlarining mehnatini har tomonlama rag'batlantirish biz uchun hamisha ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy institutlar kabi O'zbekiston jurnalistikasi ham hozirgi raqamli texnologiyalar davrida yangi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Mazkur sohada yillar davomida erishilgan eng yaxshi yutuq va an'analarni saqlab qolish, xolislik va haqqoniylig prinsiplariga, qonun talablariga qat'iy rioya qilish, fuqaroning sha'ni va g'ururi, uning o'z mustaqil fikriga ega bo'lish huquqini hurmat qilish, yuksak professional jurnalistlar sizlar uchun doimo asosiy faoliyat mezoni bo'lib qolishi lozim.

O'tish davri bilan bog'liq sabablar tufayli bugungi nda bir qator bosma nashrlarning moliyaviy ahvoli murakkab bo'lib qolayotgani hammamizga yaxshi ma'lum.

Mazkur muammolarni tizimli hal etish maqsadida alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmoqda. Ushbu hujjatda bosma ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashga oid amaliy chora-tadbirlar bilan birga, sohaga bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini to'liq joriy etish, mazkur nashrlarning mazmuni va jozibadorligini yanada oshirish, ularning axborot maydonida raqobatbardosh bo'lishi uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish masalalari ko'zda tutilgan.

Ayni vaqtda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish va jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish ham oldimizda turgan muhim vazifadir.

Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'lida davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, bu

vakillarining mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratiladi.

Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkorali - Yangi Uzbekistonning sifat ko'ssatkichlaridan biriga aylandi. Bu yo'lni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va qat'iy davom ettiramiz.

Axborotlashgan jamiyatning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida yaxlit Axborot kodeksi qabul qilinadi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga davlat organlari va tashkilotlarining mansabdor shaxslari tomonidan ommaviy axborot vositalari ijodiy faoliyatiga to'sqinlik qilish, senzura o'rnatish, ularning faoliyatiga noqonuniy aralashish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o'tkazish kabi harakatlar sodir etilgani uchun javobgarlikni nazarda tutadigan moddalar kiritiladi.

Axborot sohasida ham natijadorlik bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda. Bu borada keyingi yillar barchamiz uchun alohida sinov va mas'uliyat bosqichi bo'ldi. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda OAV bizga suyanch va tayanch, o'ziga xos qanot bo'lishi lozim.

#### **4-mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish**

##### **Reja:**

1. Iqtisodiyot - jamiyat hayotining tanasi.
2. Xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish.
3. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish.
4. Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish.
5. Suv resurslari samaradorligini oshirish.
6. Hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti.
7. Turizm - O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri.
8. Raqamlı iqtisodiyot sari.

**1. Iqtisodiyot – jamiyat hayotining tanasi.** XXI asr boshlariga kelib, jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo'lмаган yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma'no-mazmuni va harakteri tubdan o'zgardi.

Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiatini tubdan o'zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda.

Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri ham shundan iborat.

Amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari - iqtisodiy islohotlarimizning o'zak masalasıdir.

Bugungi kunda va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor ahamiyatga egadir. O'tgan davr mobaynida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy iqtisodiyotning investitsiyalarga bo'lgan talabini qondirish, bozor munosabatlari sub'ektlari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Jamiyatimiz farovonligi yo'lidagi davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'naliishlari qabul qilingan dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o'zgartirishlarni chukurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashni nazarda tutadi.

Bu jarayonda ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish evaziga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Erkin konvertatsiyani ta'minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakkantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarni joriy etish yo'li o'z samaradorligini ko'rsatmoqda.

Bu jabbada soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirishga harakat qilinayotgani ham aslo bejiz emas.

Bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyami chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchlilagini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loiihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarimiz o'z natijasini bermoqda.

Yangi turlardagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobidan ularning hajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va axolining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga muhim jabha tarzida qaralmoqda.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish bilan bog'liq vazifalar ham nihoyatda muhimligini yaxshi bilamiz.

Harakatlar strategiyasining natijasi o'laroq, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining huquqiy asoslari yaratildi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilganini ta'kidlash lozim.

Makroiqtisodiy barqarorlik - iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir. Kelgusidagi iqtisodiyotning kamida 5 foizga o'sishi, budget defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 foizdan oshmasligiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

Inflyatsiyaviy targetlash doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmslik asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi.

2030 yilga borib o'rtacha yillik iqtisodiy o'sish sur'atlari 6,3-6,5 foiz, kapital ko'yilmalar 8,0-8,5 foiz, eksport 9,0-10,0 foizni tashkil etishiga erishamiz.

Foiz stavkalarini pasaytirish - iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni jalg etishni rag'batlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz. Bu vazifa, birinchi navbatda, inflyatsiyani to'xtatish va milliy moliya bozorini rivojlantirish orqali hal qilinadi.

Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, davlat qarzi to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik doimo diqqat- e'tiborimizda bo'ladi.

Mamlakatimiz budgeti barqaror va muvozanatli bo'lishi kerak. Biz bunga moliyaviy yuklama hisobidan emas, balki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va barqarorligini ta'minlash, yangi sanoat tarmoqlarini yaratish orqali erishamiz.

Bunday siyosat "qarz bo'hroni"ga tushib qolish xavfini tug'dirmasdan, ijtimoiy xarajatlarni mas'uliyat bilan rejalashtirish va uning hajmi izchil o'sishiga imkon yaratadi.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo'yicha ba'zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo'lmaydi, albatta.

Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va rivojlantirishga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlash, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni yanada takomillashtirish zarurati kabi kuyidagi vazifalarni kun tartibiga qo'yemoqda:

- makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish maqsadlari va tarkibiy islohotlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladigan iqtisodiy sikllarni boshqarishning zamonaviy prognozlashtirish modellariga asoslangan samarali tizimi va mexanizmlarini joriy etish jarayoni yanada ko'proq e'tiborni talab qilmoqda;

- kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu yo'nالishdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarini bajarishda yuksak samaradorlikka erishilmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini yanada oshirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yondashuv va tamoiillarni tuliqroq shakllantirish, iqtisodiyotning hududiy va tarmoq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash, bu jabhadagi mavjud salohiyat va "nisbiy ustunlik" mezonlaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda inson kapitali va demografik omillarni inobatga olish masalalari ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda;

- mamlakatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning yanada samaraliroq yondashuvlarini belgilab olish, tadbirkorlikni moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-kuvvatlashning maqsadga yo'naltirilgan, ayniqsa, aholini tadbirkorlikka o'qitish va kasbga o'rgatish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, shu jumladan, barcha dasturlar hisobidan ajratilayotgan mablag'larning sarflanish samaradorligini

baholash ishlarini tashkil etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarga barham berish lozim;

- mamlakat sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlari hisoblangan sohalarda mehnat unumdorligini yanada oshirish, sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirish, shuningdek, mazkur jarayonda texnik reglamentlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va samarali foydalanish masalalari ham alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, inflyatsiyani pasaytirish va barqaror narxlarni ta'minlash, budjet taqchilligini maqbullashtirish, tulov va jori balanslari maqbulligini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikasiya qilish va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Biz ishlab chiqqan rivojlanish strategiyasi defitsitsiz, ya'ni taqchilliksiz budjetga erishishni nazarda tutadi.

Butun iqtisodiyot tizimida mahsulotlar tayyorlash jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini muttasil oshirish, import o'rmini bosish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, 2026 yilgacha sanoat korxonalaridagi 51 mingdan ziyod uskunalarini zamonaviylariga almashtirish hamda shu asosda, jumladan, qo'shilgan qiymat yaratishning yagona zanjirini hosil qilish, respublikada ishlab chiqarilayotgan ip kalavaning butun hajmini qayta ishlash hisobidan to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 milliard AQSh dollariga yetkazish bilan bog'liq vazifalar dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bu borada fiskal siyosat samaradorligini oshirish, davlat xarajatlari samaradorligini va hisobdorligini yaxshilash, davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarishni samarali tashkil qilish vazifalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Biz davlatning soliq siyosatiadolatli va samarali bo'lishi, u faqat budjet to'ldirilishini ta'minlabgina qolmay, balki yangi korxonalar yaratilishi hamda soliq bazasini kengaytirishni rag'batlantirishi ham lozim, deb hisoblaymiz. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi asosidagi keng qamrovli faoliyatni yanada optimallashtirish, ushbu yo'nalishda keyingi yillardagi taraqqiyot tamoyillarini aks ettirgan "Soliq - 2030" strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Moliya bozorlarini takomillashtirish va rivojlantirish, davlat ulushiga ega banklar transformatsiyasini amalga oshirish, bank sektorida davlat ulushini qisqartirish, moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish vazifalari kelgusi yillarda ham o'z dolzarbligini saqlab qoladi.

Iqtisodiyotda yangi natija va yutuqlarga, milliy raqobatbardoshlikni oshirishga erishish uchun innovatsiyalarni keng miqyosda joriy etish zarur.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi 2030 yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlati qatoriga kirish va bu ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o'sish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, "yashil

texnologiya”larni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag’batlantirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag’batlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yangi erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va mavjud hududlar faoliyatining samaradorligini ta’minalash, eksportni rag’batlantirish hamda ko’maklashish orqali uning nomenklaturasi va geografik makonini kengaytirish ustuvor vazifalardan biridir.

Bu jahada jahoning yetakchi xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanishni ta’minalash, sarmoya jalb qilishda “iqtisodiy diplomatiya” va “biznes diplomatiya”si institutlaridan keng foydalanish, qo’shni mamlakatlar bilan savdo aylanmasini ragbatlantiruvchi mexanizmni rivojlantirish masalalari alohida e’tiborni talab qiladi.

Bizning iqtisodiy strategiyamiz iqtisodiyotga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan. Investitsiyalarning o’sish sur’atlari 10 yilda yalpi ichki mahsulotning kamida 25 foizini tashkil etishi uchun zarur sharoit yaratamiz.

Investitsiya muhitini takomillashtirish tarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya siyosati samarasini oshirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 2023-2026 yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalarini aniqlashtirish, iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish masalalari diqqat-e’tiborimizda bo’ladi.

Shu asosda yana investitsiya faoliyatini amalga oshirishning erkinligi, investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, investitsiyalar bilan bog’liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida yagona Investitsiya kodeksini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ham alohida ta’kidlash lozim.

Mamlakatni texnologik yutuqlarga erishiň makoniga aylantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishga qaratilgan Investitsiyaviy siyosat sohasidagi milliy strategiyani amalga oshirish birlamchi maqsadimizdir.

Biznes-ombudsman bilan birga yaqindan ishlaydigan Investitsiyaviy ombudsman institutini tashkil etish, xorijiy sarmoyadorlar uchun tayyor investitsion paketlarning elektron bazasini shakllantirish va taqdim etish tizimini yanada takomillashtirish kabilar ham nihoyatda dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha uning yalpi ichki mahsulotdagि ulushini ko'paytirish, yangi turdagи yuqori talabga ega xizmat turlarini rivojlantirish, qishloq va olis hududlarda talab yuqori xizmatlar qamrovini oshirish, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samarasini oshirish choralarini kurish bilan bog’liq vazifalar o’z yechimini kutmoqda.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar hamda raqobatni rag’batlantirish borasida tadbirkorlik erkinligini yanada oshirish, kichik va o’rta biznesni rivojlantirish uchun mavjud to’siqlarni bartaraf etish, ochiq iqtisodiyot va bozor raqobatini ta’minalash, korxonalarining raqobatga zid harakatlariga qarshi

kurashish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Energiya samaradorligini ta'minlash zarurati qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilarini qo'llab-quvvatlash, energiya samaradorligi standartlarini kengaytirish, zamonaviy energiya resurslari bozorini shakllantirish, ushbu sohaga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etishni talab qilmoqda.

Yerdan foydalanish va foydalanuvchilarning xuquqlarini ta'minlash sohasida yerdan foydalanishda moslashuvchanlik, shaffoflik hamda samaradorlikni oshirish, mulkchilik huquqlarini kuchaytirish, bu jabhaga zamonaviy vosita va texnologiyalarni joriy etish vazifasi ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bularning barchasini amalga oshirishda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ilmiy- texnologik hamda innovatsion tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishlar, nou-xaularni o'zlashtirish, korxonalarda innovatsiyalarning joriy qilinishi, texnologiyalar transferini ta'minlash uchun texnopolislar, texnoparklar kabi erkin iqtisodiy hududlar va ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarining yaratilishiga yo'naltirilgan qonunchilikni yaratish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur vazifalarning bajarilishi jamiyatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini kengaytirish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

**2. Xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish.** Alovida ta'kidlash lozimki, Yangi O'zbekiston modernizatsiyalashgan iqtisodiyotga tayanadi. Bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun undagi davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk hukuqlarini himoya qilish va uning rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish zarur.

Biz ushbu maqsadlarga erishish uchun, avvalo, xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdag'i to'sqinlik va cheklanishlarni bartaraf etishni ustuvor vazifa, deb hisoblaymiz.

Yangi O'zbekiston - keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir.

Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri - har bir fuqaro boy bo'lsa - davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lsa - mamlakat farovon bo'ladi.

Yangi O'zbekistonni halol mehnat qilib muvaffaqiyatga erishishni orzu qiladigan, tadbirkorlik orqali o'zi va oilasi farovonligini ta'minlashga intiladigan, Vatani va xalqiga sidqidildan xizmat qilishni istaydigan blrcha fuqarolar uchun keng imkoniyatlar mamlakatiga ailantirishimiz shart va zarur.

Fuqarolarning mehnat qilish va tadbirkorlik hisobidan daromad topish yo'lidagi sa'y-harakatlarini, tashabbuslarini ro'yobga chiqarish - barcha bo'g'indagi davlat organlarining birlamchi vazifasi bo'lib qoladi.

Pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchui tadbirkorlar davlat bilan barobar hissa qo'shdilar. Shuning uchun barchamiz ularga yelkadosh bo'lib, doimo qo'llab-quvvatlashimiz shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash asosiy vazifamiz

bo'lishi lozim. Shu bilan birga, ayrim joylarda davlat organlari tizimidagi rahbar va mutasaddilar tomonidan tadbirkorlarning mulkka doir huquqlarini buzish holatlari davom etmoqda. Bunday mansabdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha Biznes-ombudsmanga vakolat berilishi juda muhim qadam bo'ldi.

"Soliqchi - ko'makchi" tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratildi.

Endilikda bozorda teng raqobat muhitini yaratish va qonun asosida ishlaydigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlar keng joriy etiladi.

Aholi o'rtaida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlash va muvofiqlashtirish lozim.

Aholida tadbirkorlikka oid zaruriy kunikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini takomillashtirish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va nodavlat ta'lim tashkilotlarini yanada keng jalb qilish zarur.

Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida mikrokreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish ham e'tiborni talab qiladi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik kunikmasi va tajribasiga ega bo'lган aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish va uning samarali ishlashini ta'minlash lozim.

Davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish sohasida ham qator tizimli muammolar mavjud, jumladan:

- davlat mulki respublika va munitsipal mulkka tasniflanmagan, davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirishni shaffof mexanizmlar orqali amalga oshirishni nazarda tutuvchi to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunchilik hujjatlari mavjud emas;

- davlat ishtirokidagi korxonalarga egalik qilish mezonlarining mavjud emasligi sababli xususiy sektor muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan va raqobat rivojlangan sohalarda davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyat yuritishi hamda xususiylashtirishda tizimli yondashuv amalga oshirilmaganligi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiyotdagi ishtiroki yuqoriligidagi qolmoqda;

- davlat ishtirokidagi korxonalarga imtiyoz va preferensiylar berilishi va ular tomonidan davlatning tijorat va notijorat maqsadlarini bajarish mexanizmining ochiq-oshkora emasligi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalar xususiy korxonalarga nisbatan ustun mavqega ega;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublari joriy etilmaganligi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalarining xo'jalik faoliyatiga davlat boshqaruvi organlari aralashuvining yuqori darajadaligi, kuzatuv kengashi tarkibida davlat xizmatchilarining ko'pligi, motivatsiya va javobgarlikning yetarli emasligi, inson kapitali samaradorligini oshirish zaruratiga bo'lган munosabatning qoniqarsizligi oqibatida ijro etuvchi organning aksiyadorlar oldidagi mas'uliyati past darajada.

Bularning barchasi bu sohadagi ishlarimizning sifati va samarasini pasaytirayotgani, maqsad-muddaolarimizga yetish yo'lida jiddiy to'siq bo'lib turganini rad qilib bo'lmaydi, albatta.

Biz taqdim etayotgan iqtisodiy strategiyada tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish birlamchi vazifa deb belgilanadi.

Xususiy mulk daxlsizligi va uni har qanday tajovuzlardan himoya qilish, kichik biznes vakillari va tadbirkorlarga keng erkinlik berish, ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish - iqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi bo'lib qoladi.

Xususiy mulk huquqlari himoyasi va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda biznes yuritish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish bilan bog'liq vazifalar dolzarbligini saqlab qolmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash uchun yaqin kelajakda yana bir qator vazifalarni bajarishimiz zarur. Xusan, Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan miqdordagi foiz stavkasi bilan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qop-lash uchun kompensatsiya (uning belgilangan miqdorlarini saqlab qolgan holda) taqdim etish amaliyotini davom ettirish zarur.

“Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'limgan tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik berish amaliyotini yanada kengaytiramiz.

O'z mahsulotlarini eksport qiluvchilarga tovarlar to'lovlarini kechiktirib to'lash sharti bilan eksport qilinganda, ularning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun revolver kreditlarni moliyalashtirishga tijorat banklariga moliyaviy resurslar taqdim etishni davom ettirish zarur.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning 70 foizini kichik biznes loyihamariga, 30 foizini ustuvor ravishda o'zini o'zi band qilishga (tomorqadan unumli foydalanish, uy sharoitida hunarmandchilik va kasanachilikni rivoj-lantirish) yo'naltirishga ko'maklashish lozim.

Tadbirkorlikni rivojlantirish borasida quyidagi vazifalar ham diqqat markazimizda turmog'i darkor:

- O'zbekistonning “Biznesni yuritish” global raqobatbardoshlik (GCI), innovatsiyalar (GII), sanoatning raqobatbardoshligi indekslari bo'yicha dunyoning yetakchi 50 ta mamlakati qatoridan o'rinn egallashini ta'minlash;

- biznes yuritishning olis istiqbolga mo'ljallangan imkoniyatini ta'minlash, bugungi kunda tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi minglab konun xujjalari mavjudligini inobatga olib xmda davr talablaridan kelib chiqib tadbirkorlik sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida yagona “Tadbirkorlik kodeksi”ni ishlab chiqish;

- “Har bir oila - tadbirkor” g’oyasini izchillik bilan hayotga tatbiq etish, jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, mакtabdan boshlab oliv ta’lim muasassalarida ham tadbirkorlik to’g’risida darslar o’tish, to’taraklar tashkil etish, jumladan, “Tadbirkorlar akademiyasi”ni, sohaga qiziqayotgan yoshlар uchun esa konsalting markazlarini tashkillashtirish;

- hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qiluvchi infratuzilmalarni har tomonlama rivojlanish, istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini belgilash, shu maqsadda, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- tijorat banklari, lizing kompaniyalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining moliyalashtirilishini kengaytirish, garov ta’mintoni rasmiylashtirish bilan bog’liq bank kreditlari berish tartib-taomillarini soddallashtirish siyosatini davom ettirish;

- eksport-import tartib-taomillarini yanada soddallashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo'yicha davlat xaridlarini kengaytirish;

- kichik biznesning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi, eksport salohiyatini oshirish va diversifikatsiyalash, marketing tizimini isloh qilish, innovatsion va strategik boshqaruvini takomillashtirish, mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, xorijda milliy brendlarni faol ilgari surish;

- vechur korxonalar va jamg’armalar, “biznes- farishtalar” - moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsion loyihalarga sarflovchi xususiy investorlar faoliyati, “startaplar” uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- korxonalarning o’z mablag’lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiytadqiqot va innovatsion ishlarini soliq imtiyozlari orqali rag’batlantirish.

Yaqin o’n yil ichida iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz oldida yechimini kutib turgan o’ta jiddiy masala - bu past samaradorlikka barham berishdagi iborat. Shuning uchun biz yaqin besh yilda mamlakat iqtisodiyotida mehnat unumdarligini ikki barobar oshirishga erishishni o’zimizning strategik maqsadlarimizdan biri sifatida belgilab oldik.

Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo’lgan xo’jalik birlashmalari va davlat unitar korxonalari faoliyatining samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini asoslangan darajagacha qisqartirish va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash bo'yicha ishlarni tizimli ravishda davom ettiramiz.

Iqtisodiy strategiyamizning muhim bandi 2030 yilga qadar munosib haq to’lanadigan 10 millionta yangi ish o’rinlarini yaratish, kambagallikni bartaraf etish, ishsizlik darajasini 2030 yilda 5,2 foizga, inflyatsiyani esa 15,2 foizdan 4,3 foizga pasaytirishga erishamiz.

Kambag’allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil - bu insonning intilishi, o’z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo’lishi kerak. Shu maqsadda, mahallalarda aholini kasb-hunarga o’qitish bo'yicha markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o’qitilgan har bir shaxe uchun o’quv markazlariga, o’z biznesini boshlamoqchi bo’lgan fuqarolarga subsidiyalar beriladi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi.

Aholini yuqori mehnat daromadlari bilan ta'minlash, ularning ijodiy va kasbiy o'sishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ijtimoiy liftlarni shakllantirish lozim. Barcha sa'y-harakatlarimiz zamirida bitta maqsad - fuqarolarning real daromadlari va real oylik maoshlarining infliyatsiya darajasiga qaraganda tezroqo'sib borishini ta'minlash turibdi.

Kambag'allik darajasini qisqartirish ko'p jihatdan daromadlar taqsimlanishidagi tafovutni kamaytirish, ijtimoiy tabaqalashuvning xavfsizlik me'yorlaridan yuqori bo'lmasligini ta'minlash, muhtoj oilalarni o'rta daromadlilar qatoriga o'tkazish bilan bog'liqdir.

Ehtiyojmand aholi bandligini ta'minlashga Bandlikka ko'maklashish hamda Jamoat ishlari jamg'armalaridan katta mablag'lar yo'naltiriladi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak.

**3. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish.** Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyotini ta'minlash uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikasiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda nafaqat iqtisodiyotimiz rivojini, balki milliy taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ham ta'minlab bo'lmaydi.

O'zbekistonga yangi sanoatni olib kirish boshqa davlatlarga nisbatan qulay bo'lishini ta'minlaymiz. Bunda energetika sanoati va so'nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishni yangi texnologik darajaga ko'taramiz.

Biz 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 2,5 baravar ko'paytirish, milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish bo'yicha aniq maqsadli dasturlarni amalga oshiramiz.

Shuni inobatga olgan holda, keyingi yillarda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni joriy etish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikasiya qilish uchun bir qator vazifalarni bajarishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Milliy iqtisodiyot va ishlab chiqarishning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini yanada ko'paytirish hamda bu yo'nalishning samarasini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Iqtisodiy strategiyamizning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish.

Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarining aksariyati moliyaviy barqaror bo'limgani uchun davlatga og'ir yuk bo'lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Jumladan, kelgusi yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekneftgaz",

"O'zbekgidroenergo", "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliya bozoriga chiqib, davlat kafolatisiz mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tan olish kerak, mutaxassislarning bilim va malakasi, yirik korxonalarining texnik imkoniyatlari, ularni mustaqil transformatsiya qilish uchun yetarli emas. Shuning uchun elektr energetikasi, neft-gaz va kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yirik korxonalar hamda tijorat banklarini isloh qilish uchun Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda "MakKinzi", "Boston konsalting Grupp", "Rotshild" kabi xalqaro tan olingan kompaniyalar jalb etildi.

Tarkibiy islohotlarning muhim yo'nalishi - davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir.

Tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratish.

Hozirgi kunda elektr energiyasi, gaz, qimmatbaho metallar, mineral o'g'itlar, transport xizmatlari kabi yo'nalishlarda monopol bozorlar mavjud bo'lib, ularda ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy faollik va aholi daromadlari o'sgani sayin, energiya resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. Shuning uchun neft-gaz va energetika sohalaridagi islohotlarni va boshlangan yirik loyihalarini yakuniga yetkazishimiz lozim.

Bundan buyon barcha davlat xaridlari jamoatchilik va Parlament nazoratida bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishish.

Garvard universiteta tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft gaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo'llab-kuvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'riliishi lozim.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orkali iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevorini yaratish.

Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l ko'ymaslik maqsadida import sohasidagi boj to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi.

Xalqimiz xotirjam bo'lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish vaularni bozorga uzlucksiz

yetkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta'minlash ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning davlat tashqi qarzi Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi mezonlariga ko'ra xavfsiz hisoblanadi. Ayni vaqtida tashqi qarz hisobidan hududlarda amalga oshiriladigan loyihamalar bundan buyon mahalliy kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Ularning natijalari to'g'risida jamoatchilikka hisobot berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, davlat nomidan tashqi qarz olish kamaytirilib, investitsiya va infratuzilma loyihamalariga ko'proq xususiy kapital jalb etiladi. Masalan, keyingi yilda davlat-xususiy sheriklik asosida 40 dan ortiq yirik va o'rta loyihamarni amalga oshirish boshlanadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqtি-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi.

Kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu - qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish.

Bunda har gettar yerdan olinadigan daromadni kamida 5 ming AQSh dollarigacha yetkazish ustuvor vazifa hisoblanadi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga eng ilgor texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng jorii etishimiz lozim.

Avvalo, fermer va dehqonlarning yerdan manfaatdorligini oshirish kerak. Manfaatdorlik va adolat bo'lgan joyda, albatta, o'zgarish va o'sish bo'ladi. Bu borada yerdan foydalanish hukuqlarini kafolatlash va yerlarni bozor aktivlariga aylantirish masalasini ko'rib chiqish vaqtি keldi.

Barcha viloyatlarda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar markazlarida "yagona darcha" tamoyili asosida 100 dan ortiq agro xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Bu markazlar orqali yerning sifatini yaxshilash, kasalliklarga qarshi kurashish, urugliklarni tanlash bilan bog'liq muhim xizmatlar ko'rsatiladi.

Tovar va xizmatlar eksportini oshirish. Avtomobilsozlikni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarishlar, aholining keng qatlamlari foydalanishiga mo'ljallangan yengil avtomobillarning zamonaviy modellari ishlab chiqarilishini tashkil etish, yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini o'rta hisobda 75 foizga yetkazish zarur.

Atom fani, texnologiyalari va energiyasidan xavfsiz foydalanish infratuzilmasini, yadroviy va energetik mashinasozlikni, yadroviy yoqilg'i ishlab chiqarish, atom energetikasini rivojlantirish asosida, xususan, umumiyo quvvati 2,4 GVt ga teng AES inshootini bunyod etish va undan xavfsiz foydalanishni ta'minlash bo'yicha choralar belgilanadi.

Iqtisodiyotning kosmik tarmogini rivojlantirish, fazoviy va yo'ldosh texnologiyalarni, innovatsion goya va ishlanmalarni joriy etish, sputnik aloqasining milliy tarmogini, shu jumladan, davlat-xususiy sherikchiligi asosida rivojlantirishga qaratilgan ishlar jadallashtiriladi.

Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasini hayotga tadbiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurs sig’imdonligini qisqartirish, ishlab chiqarishga tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, atom energetikasini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shu asosda qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda 2026 yilga qadar elektr energiya ishlab chiqarish ulushini 20 foizdan oshirish, mamlakatni ishonchli, xavfsiz, tejamkor va samarali elektr energiyasi manbai bilan ta’minalash, ishlab chiqarish kuvvatlarini kengaytirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga 2030 yilga qadar 20 ming mVtga yetkazish lozim.

Shuningdek, farmasevtika sanoatini rivojlantirish, farmasevtik erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tashkil etish, sanoat plantatsiyalarini yaratish va dorivor o’simliklarni yetishtirish kabi maqsadli dasturlarini amalga oshirish asosida dorivor vositalar va biologik faol moddalarning ishlab chiqarilishini ta’minalash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinadi.

Kelgusida Jahon savdo tashkilotiga a’zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni faollashtirish ham ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Bu jihatdan, GSP+ tizimi doirasidagi imtiyozlarni mamlakatimizda samarali qullashga alohida e’tibor qaratilishi davr talabiga aylanganini unutmaslik darkor.

**4. Qishloq xo’jaligini jadal rivojlantirish.** Iqtisodiyot sohasidagi eng muhim vazifalarimizdan yana biri - bu agrar sohani yanada isloq qilish va modernizatsiyalashdan iborat. Qishloq xo’jaligi iqtisodiyotning eng qadimiy, hech qachon o’z o’rni va ahamiyatini yo’qotmaydigan tayanch tarmoqlaridan biridir. Lekin sayyoramizdagи global iqlim o’zgarishlari hamda mintaqamizdagи ekologik muammolar oqibatida qishloq xo’jaligida har yili ilgari ko’rilmagan yangi- yangi sinov va qiyinchiliklar paydo bo’layotgani ushbu agrar sohaga e’tiborni yanada kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag’batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo’shilgan qiymatli qishloq xo’jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo’shilgan qiymat zanjirini yaratishga ustuvor vazifalar sifatida qaraymiz.

Agrar sohadagi klasterlar va kooperatsiyalar faoliyatini har tomonlama qo’llab-quvvatlaymiz. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va iste’mol ratsionini yaxshilash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo’lib qolaveradi.

Fermer xo’jaliklarida mehnat unumdonligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo’shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash bo'yicha maxsus strategiya ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlashga harakat qilinmoqda.

Mazkur sohaga investitsiyalarni jalg qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tabiat bilan uyg'un bo'lishga intilib yashagan ajdodlarimizning tajribasiga tayanishimiz zarur. Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon qilish bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolyusiyasini hayotga tatbiq etish borasida tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim.

Ushbu sohada paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish, bo'shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, moyli ekinlarni, shuningdek, yangi intensiv bog va uzumzorlarni joylashtirish navbatdagagi vazifalarimizdan biridir.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish ishlari ham tizimli tashkil etilmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini chukur qayta ishslash, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, qadoqlash buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan qayta ishlovchi yangi korxonalarni qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yuzasidan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Hozirgi vaqtida dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masaladir.

Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga alohida e'tibor berish kerak.

Yerni haqiqiy egasiga berish, ayniqsa, mahsulot yetishtirishdan tortib, uni sotishgacha bo'lган agrobiznesning yaxlit zanjirini o'z ichiga qamrab olgan klaster modelini va kooperatsiya tizimini to'liq yaratishni davom ettiramiz.

Bugun hech bir sohada ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyatda qo'llamasdan turib taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Bu esa keng va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo'ymoqda.

Shu maqsadda agrar sohaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini tubdan oshirish, taraqqiy etgan davlatlarning nufuzli ta'lim dargohlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, urug'chilik, naslchilik va veterinariya yo'nalishidagi ilmiy muassasalar faoliyatini takomillashtirish borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, uning taraqqiyotini jadallashtirish borasida hal qilinishi zarur bo'lган muammolar ham kam emas. Jonajon

Uzbekistonimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarish vazifasi va jahonda oziq-ovqat mahsulotlariga talab oshib borayotgani agrar sohani tubdan isloh qilishni, unga bozor mexanizmlari, ayniqsa, innovatsion va tejamkor texnologiyalarni, investitsiyalarni keng jalb qilishni taqozo etmoqda.

Yaqin kelajakda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va mazkur jabhani rivojlantirishning quyidagi ustuvor vazifalari belgilab olindi:

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga alohida e'tibor berish;

- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirish orqali sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini keng joriy qilish;

- mamlakat miqyosida yer va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

- fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlashga erishish;

- qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lif va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini ko'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lif, axborot va maslahat xizmatlari tizimini yanada rivojlantirish;

- qishloq joylarni muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini takomillashtirish choralarini ko'rish.

Ushbu vazifalar bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi rivojini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora- tadbirlarni ro'yobga chiqarishimiz zarur, deb hisoblayman.

Bunda avvalo, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari huquq va manfaatlarini himoyalash, qishloq aholisi o'rtasida "Tomorqa - qo'shimcha daromad manbai" tamoyilini keng targ'ib qilish, yer egalarining bilim va tajribasini oshirishga alohida ahamiyat berish lozim.

Ushbu yo'naliishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish, intensiv bog'lar va tokzorlar yaratish, organik qishloq xo'jaligi, meva-sabzavot, oziq-ovqat, asalarichilik, baliqchilik, parrandachilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish borasidagi faoliyat ham alohida e'tiborni talab qiladi.

Ayni paytda biz qishloqlarda kichik ishlab chiqarish korxonalari tarmog'ini, qishloq xo'jaligi klasterlarini (agroklastlerlar), ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, ularga chuqur ishlov berish, transportda tashish va sotish (eksport qilish) bo'yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari ("qishloq xo'jaligi xablari") tarmog'ini rivojlantirishga oid qonunchilikni takomillashtirish va boshqa amaliy choralarni maqbul deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, qishloqda ishlab chiqarishning yangi infratuzilmasini yaratish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish, zamonaviy agrotexnologiyalar, seleksiya va urug'chilik usullarini joriy qilish, yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishda rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetish vazifalari ham ahamiyatlidir.

Qishloq xo'jaligida yanada ko'proq mahsuldorlikka erishish maqsadida hududlarda yerning ball bonitetiga qarab ekin turlarini joylashtirish, hududlarning ixtisoslashtirilishini hayotga keng joriy etish mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer, dehqon va tomorqa yer egalari manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi mazmundagi tuzilmalar tashkil etish vaular faoliyatini samarali yo'lga qo'yish soha rivojining muhim omillaridan biridir.

**5. Suv resurslari samaradorligini oshirish.** Bugungi kunda O'zbekiston oldida turgan, hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalardan yana biri - suv resurslari taqchilligi, atrof-muhit va atmosferaning ifloslanishi, tuproq qatlamining yemirilishi va cho'llanish muammolari bilan bog'liq.

Global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi jahon mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasini pasaytira boshladi. Shu boisdan barcha mamlakatlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda ham mazkur masala dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuni inobatga olgan holda, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari davlatning mudom diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Mamlakatimizda hozirgi kunda qishloq xo'jaligida 20 million gettardan ortiq, shu jumladan 3,2 million hektar sugariladigan ekin yer maydonlaridan foydalaniib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda.

Sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari hayotga tatbiq etilmoqda.

Suv resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tubdan isloh qilish, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va yer resurslarini tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini barqarorlashtirish borasida mavjud sug'orma dehqonchilik va suv resurslari salohiyatidan samarali foydalanish darajasi hamda ushbu tizimga innovatsion, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda suv resurslarini boshqarish tamoyillari va tizimini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan yangi va innovatsion loyihalarini shakllantirish va ishlab chiqish, suv xo'jaligiga xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat va nohukumat moliya tashkilotlari mablag'larini jalb qilish bo'yicha vazifalarni belgilab olganimiz.

Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlarini izchil davom ettirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning hisobini yuritish tizimini takomillashtirish barobarida suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy- texnik bazasini mustahkamlash masalalari ham kechiktirib bo'lmas vazifalar miqyosini belgilaydi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaningumumiylar suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. Bu borada BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning "Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan nuqtai nazarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz.

Suv muammosini hal qilishning mintaqqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q. O'zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri-Orol halokati, Orol fojiasi bo'yicha masalada ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rjan

aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanish borasidagi mavjud muammolarning izchil hal qilinishini ta'minlash maqsadida 2020-2030 yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiysi va Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish strategiyasi hamda "Suv kodeksi"ning ishlab chiqilishi ayni bugungi davr talabini ifodalaydi.

Bu jahhada yana suv va suvdan foydalanish sohasidagi qonun xujjatlarini tizimlashtirish va kodifikatsiyalashtirish, bunda suv resurslarini boshqarish, suvdan foydalanish va uni iste'mol qilish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etishga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni keng ko'llash, bu borada yer egalari va suv iste'molchilarini rag'batlantirish mexanizmini kengaytirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan suv resurslarini boshqarish va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini yanada optimallashtirish zarur.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqaror saqlash maqsadida irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirib borish, 2023-2030 yillarga mo'ljallangan irrigatsiyani rivojlantirish va sugariladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga doir davlat dasturini puxta ishlab chiqish va tasdiqlash zarurati yetilgan.

Bu o'z navbatida, yengil konstruksiyali plastik lotok va quvurlar hamda nasos agregatlari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish, suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirishni taqozo qiladi.

Suv omborlari tarmog'ini kengaytirish hisobidan lalmi yerlarni foydalanishga kiritish va bunda asosiy e'tiborni sel suv omborlari va sun'iy suv havzalarini qurishga qaratish hamda shu asnoda suv iste'moli sohasida bozor mexanizmlarini hamda suv xo'jaligi ob'ektlarini ekspluatatsiya qilishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Ushbu sohani modernizatsiyalashda suv resurslarini boshqarish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish va gidrotexnik inshootlarning texnik holatini yaxshilash va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan istiqbolli loyihalarini xalqaro moliya institutlarining mablag'lari hamda xorijiy grantlar hisobidan amalga oshirish ishlarini qo'llab-quvatlash zarur.

Butun mamlakat miqyosida suvni boshqarish va hisobga olish, oqilona foydalanish imkonini beruvchi sug'orish va meliorativ texnika, mashina va qurilmalarni ishlab chiqarishni tashkil qilish vazifalari dolzarbligicha qolmoqda.

Belgilangan suv olish limitlaridan tejab foydalangan, suvni iqtisod qiluvchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilgan suv iste'molchilarini rag'batlantirish hamda suv olish tartibini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish choralarini ko'rish zarur.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishga yaroqli yer osti suvlari zaxirasini ko'paytirish uchun izlash, baholash gidrogeologyk ishlarini o'tkazish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun izlanishlar olib borish, yer osti suvi iste'molchilarining yagona Davlat statistik hisobotini yuritish tartibini takomillashtirish hamda yer osti suvlardan foydalanishning monitoring tizimini yanada rivojlantirish lozim.

Mazkur chora-tadbirlarning amaga oshirilishi Yangi O'zbekistonda suv resurslaridan oqilona foydalanish amaliyotini optimallashtiradi va bu jahada ham zarur innovatsiyalarga keng yo'l ochadi.

**6. Hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti.** Biz taklif etayotgan strategiya iqtisodiy nuqtai nazardan hududlar, tumanlar, shahar va qishloqlarni barqaror rivojlantirishni ko'zlaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun viloyatlar, tumanlar va shaharlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish zarur.

Hududlar iqtisodiy taraqqiyotining strategik vazifalari quyidagilardan iborat:

- sotsial-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish miqyosini kengaytirish hisobidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

- yangi sanoat, ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobidan shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni faol rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarning mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

- subvention tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush darjasini yaxshilash maqsadida xududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Hududlarning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri-ular o'rtaida transport aloqasini ta'minlashdir. Barcha aholi punktlaridan, shahar va qishloqlarimizdan poytaxtimizga, eng yirik shaharlar va turistik markazlarga tezda kelib-ketish imkoniyatini beradigan, o'zaro bog'langan transport tarmog'i yaratiladi.

Shu bilan birga, mazkur sohada kuyidagi vazifalarni amalgalash zarur.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar shtabi faoliyatini yanada takomillashtirish;

- sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini yanada oshirish maqsadida “tuman (shahar) - viloyat - respublika” tamoyili asosida ularga amaliy vauslubiy yordam ko’rsatish hamda faoliyatini nazorat qilish bo'yicha hokimliklar, prokuratura, ichki ishlar va soliq idoralarida joriy etilgan vertikal boshqaruvtizimini takomillashtirish;

- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganish natijalari bo'yicha respublika darajasida yechiladigan muammolarni hal etishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish; har bir hududda aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha hududiy va respublika “yo'l xaritalari” ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish, ularda nazarda tutilgan tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar belgilash;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha manzilli topshiriqlar belgilash hamda ularning ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish.

Ayni paytda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini muayyan mezonlar asosida baholashga davriy va uzlucksiz tus bermog'imiz darkor. Jumladan, barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligini hisobga olish va yangi ish o'rinnari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta'minlashga alohida e'tiborni kuchaytirish zarur.

Barcha viloyatlar va tumanlarda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash hamda aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchlilagini ta'minlash muhim ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

Mamlakat miqyosida hududlariing raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularning iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilish, ishbilarmonlik muhiti sifatini yaxshilash, tadbirkorlikni doimiy qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish masalalari ham kelgusidagi strategiyamizning tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Ushbu strategiyada hududlarning moliyaviy mustaqilligiga erishish hamda bank-moliya sohasini rivojlantirish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishslash samaradorligi va ma'lumotlarning ochiqligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratiladi.

**7. Turizm - O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri.** O'zbekistonning zamонавији iqtisodiyoti - samarali ishlab chiqarish bilan birga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojiga asoslangan iqtisodiyot bo'lmosh'i zarur.

Bu muhim vazifa turizmni rivojlantirish, O'zbekistonni jahon turizmining jozibali markaziga aylantirish, yurtimizni sayyoohlar eng kup tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga kiritishni ko'zda tutadi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyoohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyoohlik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz.

Turistik industriyadagi xizmatlarga ixtisoslashgan tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, Low cost aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, soha uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi masalalar ham diqqat markazimizda bo'ladi.

Zero, bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida turizm iqtisodiyotning strategik tarmog'iga, uning o'ziga xos drayveriga aylanib ulgurgan.

Turizmning mamlakatlar yalpi ichki maxsulotidagi o'rni muttasil oshib bormoqda. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirishga intilayotgan yangi O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo'lmog'i lozim.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 8,2 ming madaniy meros ob'ektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar - Xiva shahridagi Ichon qal'a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi haqida Samarqand shahri hududida joylashgan bo'lib, YuNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda quyidagilar turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalar sifatida belgilandi:

- turizm tarmogini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;
- xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- yangi turizm yo'naliishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish.

Bugungi kunda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinalarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri - yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat.

Ma'lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020 yilda O'zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak.

Katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur.

Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'ekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak.

YuNESKOning Umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga O'zbekistondagi yangi ob'ektlarni kiritishni tezlashtirish lozim.

Yangi zamonaviy mehmonxonalarini qurishga davlat budgetidan zarur subsidiyalar ajratib, turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish zarur.

Turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'inining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida, kelajakda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish belgilab olindi:

- turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni joriy etish;
- turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish;
- transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;
- turizm bozorining turli qatlamlariga mo'ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish ;
- respublika ichida turizm xizmatlariga bulgan ehtiejni qondirishga qaratilgan turizm faoliyati sub'ektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlaydigan ichki turizmni rivojlantirish;
- O'zbekiston Respublikasi turistik mahsulotini ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash;
- quyidagilarni nazarda tutgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Shuningdek, yaqin kelajakda bu jabhadagi choralar sifatida Uzbekistonni jozibali jahon turizmi markazita aylantirish, izchillik bilan yurtimizni dunyoning 30 ta sayyoхlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlari qatoriga kiritish masalalariga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Mamlakat bo'ylab Wi-Fi hududlar sonini oshirish, biotualetlar tarmog'ini tashkil etish, ijaraga avtomobil xizmatini yo'lga qo'yish (Rent a Sar), turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish, sohaning yangi istiqbolli turlarini jadal rivojlantirish ishlarini davom ettirish zarur.

Turistik klaster, turistik zonalar, turistik industriyadagi xizmatlarni tashkil etishda tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash vazifalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

**8. Raqamli iqtisodiyot sari.** Biz taqdim etayotgan strategiyada yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga ustuvor ahamiyat beriladi.

Insoniyat tarixida tosh asri toshlar tugaganligi uchun emas, balki yangi texnologiyalar kirib kelgani natijasida barham topgan. Bugunga qadar insoniyat uchta sanoat inqilobini boshdan kechirdi.

Hozirgi davrimiz dunyoning yetakchi mamlakatlari ‘ To’rtinchi sanoat inqilobi”, “Aqli iqtisodiyot” “Innovatsion iqtisodiyot”ga o’tayotgani bilan xarakterlanadi.

Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oldi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta’minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizdan ko’prog’i uning hissasiga to’g’ri kelmoqda.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot elektron savdo va servis bilan cheklanmasdan ta’lim, sog’liqni saqlash kabi sohalarni ham qamrab olmoqda. Fuqarolarga turli xizmatlar ko’rsatish amaliyoti ham elektron hukumat platformasiga o’tkazilmoqda.

Pandemiya raqamlashtirish jarayonini yanada tezlashtirdi. Axborot texnologiyalari iqtisodiy o’sishning tom ma’nodagi “drayveri”ga aylanib bormoqda.

Bunday sharoitda yangi texnologiyalarga innovatsion asoslangan holda iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, jahon bozoridagi raqobatdoshligini yanada oshirish, uning soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyaviy faollikni kuchaytirish orqaligina istiqbolli dasturlarimizni samarali amalga oshirish mumkin. Eng muhimi, “Raqobatbardosh O’zbekiston konsepsiysi”ni ishlab chiqamiz va amalga oshiramiz.

Bir paytning o’zida, O’zbekiston ham ushbu umumjahon tendensiyasidan chetda qolayotgani yo’q. Keyingi yillarda iqtisodiyot sohasiga raqamli texnologiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor berilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot eng avvalo keng polosali Internet portlari yaratishni, optik tolali aloqa liniyalari yotqizishni taqozo qiladi. Shuni inobatga olgan holda o’tgan besh yil mobaynida bu vazifaga jiddiy e’tibor qaratildi. Birgina 2020 yilda qariyb 800 mingta keng polosali Internet portlari yaratildi va 12 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi.

Mamlakatimizda elektron tijoratning to’laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga to’siq bo’layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgandi.

Ushbu muammodarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni Internet tarmog’i orqali realizatsiya qilishchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik sub’ektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish borsida tizimli choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivoj-lantirish bo'yicha quyidagi ustuvor vazifalar mavjud:

- investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning, ya’ni turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig’imlari formatida

mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etish;

- smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtlash, kraud-fanding, ya'ni jamoaviy moliyalashtirish;

- "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, shu asosda "blokcheyn" texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash;

- kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va "blokcheyn" texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun "blokcheyn" texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

- xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish;

- raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion goyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

Mazkur vazifalarni bajarish maqsadida mamlakatimizda barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, barcha hududlarda IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni kuzda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlandi.

Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotgani, bu texnologiyalarning iqtisodiyot sektorlariga intensiv ravishda joriy qilinayotgani iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida "Raqamli iqtisodiyot-2030" strategiyasi ishlab chiqildi. Endigi vazifa ushbu strategiyada ko'zda tutilgan quyidagi tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining O'zbekistonga chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish zarur.

Bu borada taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash

uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish alohida e'tiborni talab qilmoqda.

Mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish, mobil aloqa tarmog'ini

4G va 5G texnologiyasi bo'yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchaviy avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish bilan bog'liq yo'naliishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Barcha aholi punktlari va ijtimoiy ob'ektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish, avtoTalabaal va temir yo'llari, turistik ob'ektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash, Internet tarmog'iga ulanish jarayonlarini takomillashtirish va optimallashtirish, geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarini yanada rivojlantirishimiz zarur.

Iste'molchilarga televizion signalni uzatish, yer usti televizion eshittirish, kabel televideniesi, IP-televidenie, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirishimiz lozim.

"Bulutli" hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishslash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash hamda mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishslash, himoya qilish va elektron davlat xizmatlari foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga diqqatimiz markazida turmog'i kerak.

Bozor iqtisodiyotining erkin rivojlanish imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish lozim. Shu asosda keng polosali ulanishni rivojlantirishning texnologik asosi iste'molchilarga asosiy va ko'shimcha xizmatlarni, jumladan, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish xizmatlarini, aholining hayotini qo'llab-kuvvatlashda aqlii tizimlarni joriy etishning bir qismi sifatida individual infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga bosqichma-bosqich kirishni ta'minlash uchun yagona infratuzilma yordamida multiservis tarmoqlarini rivojlantirish zarur.

Elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmogiga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish barobarida davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "xizmat sifatida dasturiy ta'minot, xizmat sifatida platforma", "xizmat sifatida infratuzilma texnologiyalarini keng joriy etish vazifasi ham dolzarblashmoqda.

Shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun iaqli" va "xavfsiz" shahar loyihamalarini izchil amalga oshirish bu borada kutilgan natijani berishi mumkin.

Bu yo'nalishda mavjud aloqa (simsiz va optik), simli va simsiz aloqa texnologiyalari va tizimlari, shuningdek, yangi geografik axborot va navigatsiya tizimlarining samaradorligini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan aloqa va navigatsiya texnologiyalarini takomillashtirish, aloqa operatorlari o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish nihoyatda muhim vazifalardan biridir.

Iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida elektron hukumatni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda mamlakat miqqosida sifatli va talab yuqori bo'lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaitirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish, tpu jumladan kursatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030 yilga qadar 90 foizga yetkazish lozim.

Elektron hukumat axborot tizimlarini ishlab chiqishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, shu jumladan ochiq kodli dasturiy ta'minotdan foydalangan holda davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak.

Iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma'lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, "ochiq ma'lumotlar"ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirishga alohida e'tibor berish darkor.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish, shu jumladan ma'muriy tartibotlarni avtomatlashtirish orqali talab qilingan ma'lumotlar va hujjatlarning sonini qisqartirish zarur.

Litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bilan bog'liq barcha tartib-taomillarni optimallashtirish va ularni real vaqt rejimida ishlovchi elektron shaklga o'tkazish dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Elektron hukumat tizimi doirasida elektron davlat xizmatlaridan aholi va tadbirdorlik sub'ektlari uchun shaxsni masofadan tasdiqlashning ko'shimcha shakl va usullarini joriy etilishini nazarda tutuvchi raqamli identifikatsiyalashni rivojlantirish diqqat- e'tiborimizda bo'lmog'i kerak.

Iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida ham bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda ayniqsa, sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarini texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish, korxona

ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobidan mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish bilan birga innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ustuvor yo'naliшlardan biriga aylanadi.

Barcha ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni ko'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-taxdil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda, 2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish, sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, "Internet buyumlar" "sun'iy intellekt" kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027 yilga kelib, apparat qismini esa 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliy lashtirish alohida diqqatni talab qiladigan vazifalardan biridir.

Kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun "aqli uy" tajribasini joriy etish zarur.

Butun mamlakat bo'ylab mavjud transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish, 2023 yilda respublikaning barcha yirik shaharlarida jamoat transportlarida yo'l haqi to'lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to'lovlar ulushini 90 foizga yetkazish, har qanday yo'lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish lozim.

Mamlakatdagi mavjud mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet tarmog'i orqali sotish bozorlarini kengaytirish, logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o'tish va ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o'lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Sug'urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug'urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish, yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish ishlari esa alohida e'tiborni talab qiladi.

Elektron tijorat va elektron to’lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish hamda xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash bilan bog’liq tadbirlar amalga oshiriladi.

Shu asnoda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet tarmog’i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalaridan ularish imkoniyatlari va ko’lamlarini oshirish bilan birga elektron tijorat va elektron to’lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to’lovlarini qabul qilish va qayta ishslash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish zarur.

Mamlakatimizda elektron tijoratning rivojida muhim rol o’ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash va texnik yangilashni ta’minalash, logistika markazlarini (fulfilment) yaratish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalarini va pochta aloqasi ob’ektlarida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish lozim.

Jismoniy shaxslarga Internet tarmog’i orqali tovarlar va xizmatlar uchun to’lovlarini to’lashni tashkil etish jarayonini osonlashtirishga imkon beradigan to’lovlar agregatorlarini rivojlantirish, transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o’z vaqtida eksport qilishni ta’minalash vazifalari ham diqqatimiz markazida bo’ladi.

Shuningdek, bitta savdo maydonchasida keng ko’lamli bank va bankdan tashqari moliyavii xizmatlarni (qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalar, sug’urta va boshqalar) taqdim etishga yo’naltirilgan moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish, tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko’rsatish ko’lamini va sifatini oshirish ehtiyoji mavjudligicha qolmoqda.

Elektron tijorat sohasida malakali kadrlar tayyorlash o’quv jarayonining darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shu jumladan chet eldag‘i yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarini jalb yetish va elektron tijorat bilan shug’ullanuvchi sub’ektlarning tovar va xizmatlar uchun to’lovlarini QR to’lovleri texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to’lovlarini qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo’lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini oshirishga alohida e’tibor berish lozim.

Raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhitni yaratish va istiqbolli “raqamli” startaplarni rivojlantirish lozim. Bunda texnoparklar va kovorking markazlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish orqali zamonaviy raqobatbardosh va eksportga yo’naltirilgan dasturiy mahsulotlar

va xizmatlarni, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqalarni amalga oshirish zarur.

Aholi o’rtasida raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish sohasida yirik IT-korxonalarini jalb qilgan holda davlat xususii sheriklik mexanizmlarini tashkil qilish hamda viloyat va shaharlarda raqamli ko’nikmalar borasidagi bo’shlqnini bartaraf etish maqsadida respublikaning barcha xududlarida ixtisoslashtirilgan o’quv markazlarini tashkil etib vertikal boshqaruvi o’quv modeli tizimini tuman va shaharlar darajalarida (IT-park filiali - o’quv markazi - maktab) joriy etish muhim vazifalarimizdan biridir.

Bu jihatdan, raqamli ko’nikmalarga ega bo’lgan aholi ulushini oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida bepul onlayn kurslarni tashkil etish, aholi o’rtasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun “Bir million dasturchi” loyihasi miqyosini kengaytirish va uni davom ettirish soha rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat boshqaruvida raqamli ko’nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, davlat xizmatchilarining axborot- kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko’nikmalari va malakalarini oshirish mexanizmini rivojlantirish va doimiy takomillashtirib borish zarur.

Ayni paytda butun mamlakat miqyosida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishslash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o’rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati), texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi.

Bunda davlat va mahalliy hokimiyat organlari raqamli rivojlanish bo’yicha ixtisoslashtirilgan bo’linmalarining mas’ul xodimlari bilan ishslash mexanizmini takomillashtirish, jumladan, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadlariga erishorra asoslangan moddiy rag’batlantirish tizimini (KPI) joriy etishga alohida ahamiyat qaratish kerak.

Ta’lim sohasida raqamli ko’nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, ta’lim pog’onasining boshlang’ich bosqichida o’quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko’nikmalarni o’zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo’ladigan keng ko’lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko’nikmalar berish bilan bog’liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi darkor.

Mamlakatimizdagagi axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarning o’quv jarayonlariga qatnashishini rag’batlantirish orqali umumta’lim maktablarida informatika fanini o’qitish metodlarini takomillashtirish, ayni paytda esa, iqtidorli IT- mutaxassislarini o’qitish, qo’llab-quvvatlash va ularni targ’ib qilish hamda mamlakatdan iqtidorli qatlama chiqib ketishining oldini olish uchun ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratish nihoyatda muhim vazifalardan biridir.

Barcha oliy ta’lim muassasalarida sohalarda “Internet buyumlar”, robototexnika, sun’ii intellekt texnologiyalarini qo’llash va o’rganish bo’iicha laboratoriylar, shuningdek, xorijiy korxonalarni ushbu sohaga jalg qilishni tashkil qilish, raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag’batlantirish, g’oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ’ib qiluvchi tanlovlар va tadbirlar (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o’tkazish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qog’oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qo’llab-quvvatlash hamda xuddi shunday yondashuvga ko’ra mavjud o’quv jarayonini raqamlashtirish doirasini muttasil kengaytirib borish lozim.

Raqamli iqtisodiyotni yaratish imkoniyatlarini oshirish maqsadida yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo’nalishini ishlab chiqish va aniqlash, raqamli tizimlar elementlari o’rtasidagi almashinuv vaqtini qisqartirish, yuqori samarali va ishonchli ma’lumotlarni saqlash tizimlari uchun yangi dasturlar yaratish bo’yicha tadqiqotlar o’tkazish muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, robototexnika komplekslari va odamlar o’zaro ta’sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma’lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o’rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, “bulutli” xizmatlarni taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta’mnot yaratish bo’yicha ilmiy ishlarni olib borish zarur.

Yirik xalqaro korxonalarning markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo’nalishidagi faoliyatda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma’muriy to’siqlarni kamaytirishga alohida diqqat qilish zarur.

Bunda ayniqsa, ayollarga va nogironligi bo’lgan shaxslarga raqamli ko’nikmalarni o’rgatish uchun davlat tomonidan yordam ko’rsatish tizimini samarali tashkil qilish, elektron xizmatlarga aholi ishonchini shakllantirish va aholining tez rivojlanayotgan raqamli imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan zarur ko’nikmalarni shakllantirish bo’yicha samarali choralarmi ko’rish lozim.

Ayni paytda, aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari (4G va boshqalar) bilan qamrab olish darajasini oshirish, shaharlar va qishloqlar o’rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish vazifasi uddalanadi.

O’z navbatida bular esa, butun mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investitsiyalar samaradorligini oshirish, aholining raqamli iqtisodiyot va elektron xukumat vositalaridan foydalanish kunikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

## **5- Mavzu: Adolatli ijtimoiy siyosat Reja:**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar.
2. Sog’liqni saqlash: muammolar va yechimlar.
3. Sog’lom turmush tarzi madaniyati: jismoniy tarbiya va sport.

4. Ta'lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar.
5. Ilm-fan - innovatsion taraqqiyot asosi.
6. Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir.
7. Yoshlar - Yangi O'zbekiston buniyodkori.

**1. Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar.** Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalihsdag'i islohotlarimizning asosiy maqsadidir.

Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik. O'zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo'yicha bunday keng ko'lamli ishlar ilgari hech qachon bo'lмаган.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

Ushbu toifani qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotimizni tiklash uchun davlat budjetidan nihoyatda katta mablag' ajratildi.

Keyingi paytda uyma-uy yurib o'rghanish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o'ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko'makka muhtoj, boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo'lgan bolalarni qishki kiyim-bosh to'plamlari, maktab formasi va o'quv qurollari bilan ta'minlash maqsadida moddiy yordam ko'rsatilmoqda.

Bizning oldimizda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zarur choralarini kurish kabi muhim vazifa turibidi.

Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor, jumladan: mamlakatimizda barcha ishsizlar ish bilan ta'minlanayaptimi? Buning uchun yana nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarning qaysi muammolari hal etilmagan? Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam - o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

Ijtimoiy sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ham yaxshi tushunamiz.

Avvalo, ijtimoiy himoyaga va doimiy yordamga muhtoj shaxslarni o'z vaqtida hisobga olish mexanizmlarini samarali ishlatish, muhtojlik belgilari paydo bo'lgan vaqtidan boshlab ularni kuzatib borish va qo'llab-quvvatlashning, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bunday shaxslarning ijtimoiy ahvolini ta'sirchan monitoring qilish, ularning turmush sharoitlarini har tomonlama baholash, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, uz vaqtida zarur yordam kursatish imkonini beruvchi tizimni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporta, ijtimoiy va boshqa infratuzilma ob'ektlaridan tekin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish bu boradagi islohotlar ta'sirchanligini oshiradi.

Xotin-qizlar va yoshlarni ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ular tadbirkorligini rivojlantirish hamda og'ir turmush sharoitida yashayotgan ayollarning ogirini yengil qilishga xizmat qiladigan samarali faoliyat mexanizmlarining to'la kuch bilan ishlamayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Nuroniyarlarni har tomonlama qo'llab- quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish, nafaqadagi otaxonlar va onaxonlarni qaddini ko'tarish hamda ularga har tomonlama yordam berish masalalarida ham kamchiliklar mavjud.

Soha rivojini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan va ortiqcha qog'ozbozlik bilan bog'liq bo'lgan ba'zi nomutanosib holatlar davlat ijtimoiy xizmati yoki yordamini taqdim etish vaqtini qisqartirish imkoniyatini bermayotganini ko'pchilik mulozimlar yaxshi biladi. Ammo shunga qaramasdan bunday noxush vaziyat davom etayotganini qanday tushunish mumkin?

Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohotlar bilan aloqador bo'lgan idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga xalal bermoqda.

Mamlakatimizning ko'plab hududlaridagi mehnat bozorida doimiy ish o'rnlari mavjud emasligi va shu bilan birga yoshlarni, xotin-qizlarni, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ham ijtimoiy sohaga doir islohotlar samarasini kamaytirmoqda.

Ushbu sohada nogironlar, boquvchisini yo'qotganlar va yordamga muhtoj aholi qatlami uchun maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi pastligi, mazkur yo'nalishda uchrayotgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish zarurati bizni albatta bezovta qilishi kerak.

Ayni paytda tibbiy-ijtimoiy muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylarida vasiylikka olingan-larning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy- ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish vazifalari ham dolzarblashmoqda.

Bu jihatdan, mamlakatimizdagi protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarining yetishmovchiligi, ba'zi hollardaularni bahosining yuqoriligi bilan bog'liq muammolar ham mavjud.

Ayni paytda tibbiy-ijtimoiy muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, "Muruvvat" va "Saxovat" internat-uylarida vasiylikka olingan-larning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy- ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish vazifalari ham dolzarblashmoqda.

Bu jihatdan, mamlakatimizdagi protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni, shu jumladan chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy standartlarini joriy qilish kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi.

Ijtimoiy soha islohotlarining yuqori samaradorligiga erishish, mavjud muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimini yanada rivojlantirish;

- idoralararo elektron hamkorlikni qo'llash vositasida o'zaro hujjat almashish jarayonini avtomatlashtirish orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotnomha va tasdiqlovchi hujjatlar sonini tubdan qisqartirish bo'yicha faoliyatni davom ettirish;

- belgilangan mezonlarga muvofiq kam ta'minlangan oilalarning ehtiyojmandlik darajasini ob'ektiv baholash, davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali qarorlarni qabul qilishda sub'ektiv yondashuvni bartaraf etishga erishish;

- aholining ehtiyojmand toifasi tarkibi o'zgarishi dinamikasi monitoringi va tahlilini yuritish, ularni baholash mezonlarini respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda takomillashtirishni davom ettirish;

- davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning yagona ma'lumot bazasini muttasil yangilab borish; manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlarning o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda xizmatlarni bepul yoki imtiyozli asosda taqdim etishi uchun ma'lumot bilan ta'minlash choralarini kuchaytirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va shu maqsadda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;

- nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha faoliyatni davom ettirish;

- tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasi va sifatini, jumladan, diagnostika, davolash va reabilitatsiyaning zamonaviy uslublarini qo'llagan holda, yuqori texnologik ixtisoslashgan tibbiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali oshirish;

- tibbiy yordam darajasi va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o'sishining sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va oldini olishni ham nazarda tutuvchi profilaktika tadbiralarini kengaytirish bo'yicha skrining tekshiruvlarining samaradorligini ko'tarish;

- tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, “Muruvvat” va “Saxovat” internat-uylarida vasiylikka olinganlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inkluziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish;

- nogironlikni belgilash va tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasida vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, tartib-taomillardan o'tishni yanada soddalashtirish.

Yana bir muhim masala - nuroni otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir.

Butun mamlakat hududida ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini yanada kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy xizmat va moddiy yordamni kengaytirish, shu jumladan, sifatli yordamchi va texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish lozim.

Bu yo'nalihdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025-yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Aholimiz uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo'limgan yashash sharoitlari yaratish - muhim vazifamizdir. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, qulay uy-joy bilan ta'minlash, aholi uchun yashash joyi atrofida ish joylari yaratish, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz. 10 yil ichida shaharlarda markazlashtirilgan suv va gaz ta'minotini kamida 90 foizga, suv-oqava tizimi bilan ta'minlashni qariyb 70 foizga yetkazamiz.

Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash - barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Bunda aholining to'liq bandligini ta'minlash va barcha uchun munosib ish o'rinalarini yaratish doimiy ravishda diqqat markazimizda bo'ladi. Bandlik darajasini yangi bosqichga ko'tarish, real ish haqining barqaror o'sishiga ko'maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik tomorqa xo'jaligi va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash hisobiga aholi bandligini ta'minlash hamda fuqarolar oilaviy budjeti daromadlarini oshirish borasidagi ishlar ham uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi va xususiy biznes bilan mashg'ul fuqarolarning zamonaviy mashinalar, uskunalar, xomashyo va materiallar xarid qilishi uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiramiz.

Yaqin o'n yilda aholi daromadlarining 2,5 - 3 marta ko'payishiga erishish, eng kam ish haqini yashash minimumi miqdori darajasiga tenglashtirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqiladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha kambag'allik darajasini 2 martaga kamaytirish choralari ko'rildi.

Samarali migratsiya siyosatini amalga oshirish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimizga har jihatdan madad berish, qonuniy manfaatlarini himoyalash bo'yicha uzluksiz ishlarni davom ettiramiz.

Kam ta'minlangan oilalarning 3 yoshgacha bo'lgan farzandlariga to'liq ovqatlanish uchun oylik naqd to'lov yoki oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlar bepul berilishi bo'yicha dastur qabul qilinadi.

Har qanday jamiyatning madaniyatlilik, bag'rikenglik va mehribonlik xususiyatlari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan shaxslar va keksalarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Nogironlikni belgilash mezonlari jahon andozalariga mos ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o'tkaziladi. Aholining muhtoj qismini protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash bo'yicha yangi tizim yaratiladi.

Mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish orqali ularning bandligiga ko'maklashish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yanada takomillashtiriladi. Bu boradagi sa'y-harakatlarimizning hukuqiy asoslari sifatida "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi kodeksi qabul qilishimiz kerak bo'ladi.

Keksalar va nuroniyalarimizni, duogo'i otaxon va onaxonlarimizni e'zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, qo'limizdan kelganicha umrlarini uzaytirish eng ulug' qadriyatlarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Bunday tabarruk insonlarga xizmat qilish, ularga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishni o'zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilaymiz.

Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha ishlarni davom ettiriladi.

Iste'mol tovarlari, jumladan, arzon narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro'yxatini kengaytirish va hajmini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda "Ijtimoiy kodeks" qabul qilish davr taqozosidir.

Bularning barchasi - ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini qo'llashga qaratilgan ishlarni faollashtirish bu jabhadagi maqsad-muddaolarga erishishga yordam berishi shubhasiz.

**2. Sog'liqni saqlash: muammolar va yechimlar.** Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bulmaydigan buyuk ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz.

Mashhur yunon tabibi Gippokratning “Tabobat - barcha ilmu hunarlar orasidagi eng buyuk ilm va ezgu kasbdir , degan so’zlari sog’liqni saqlash sohasi xodimlarining mashaqqatli va sharaflı faoliyatiga berilgan haqqoniy bahodir.

Yurtimiz hududida qadimdan ko’plab shifo maskanlari, tibbiy madrasalar faoliyat yuritgani, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz yaratgan beba ho asarlar, ularning dori-darmon tayyorlash va davolash usullari butun jahonda mashhur bo’lgani ajdodlarimizning bu soha rivojiga qanday katta e’tibor qaratganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, kasallikni davolashdan ko’ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buyuk ajdodimiz Imam Moturidiy hazratlarining “Tiriklik hikmatini sog’liqda, deb bilgin”, degan chuqur ma’noli so’zlari naqadar to’g’ri ekanini hayotning o’zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

Shu bois mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg’or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarimizni yangi bosqichga ko’tarishimiz zarur. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz o’rtasida sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish - eng ustuvor yo’nalishlardan biri bo’lishi lozim.

Barcha uchun sifatli va professional tibbiyotni yaratish - biz taqdim etayotgan strategiyaning muhim yo’nalishidir.

Kelgusi yillarda ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan tibbiyot sohasida quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashni tizimli ravishda davom ettirish eng muhim vazifalarimizdan biri bo’ladi.

Pandemiya saboqlaridan kelib chiqqan holda, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ko’lami yanada kengaytiriladi. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalarida masofaviy xizmatlarni ko’paytirish, poliklinika va kasalxonalarini elektron ish yuritishga o’tkazish choralarini ko’riladi. Shuningdek, respublika ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o’rtasida telemeditsina yo’lga qo’yilib, diagnostika va davolash uchun joylardagi imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Ona va bola sog’lig’iga e’tibor - jamiyatga, kelajakka e’tibordir.

Shu maqsadda 2021-yildan boshlab 15 yoshgacha bo’lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagи vitaminlar, bolalar uchun parazitar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatilmoqda. Bu jarayon bilan 2021 yilda - 11 million nafar, 2023 yilda - 17 million nafar aholi qamrab olinadi.

Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta’minlash orqali aholi o’rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi.

Bugungi kunda, onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagи ayollar salomatligini ta’minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari (S vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo’shimcha ta’minlash uchun davlat budgetidan

2021 yilda 26 milliard so'm ajratilishi, 2023 yildan boshlab esa ushbu xarajatlar uchun zarur mablag'larni davlat budjeta parametrlarida ko'zda tutish belgilandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida perinatal va skrining markazlari hamda birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalaridagi onalar va bolalar salomatligiga mas'ul tuzilmalar ("Ayollar maslahatxonasi", perinatal skrining xonasi, "tibbiyot brigadalari" tarkibidagi oilaviy shifokor, pediatr va boshqalar)ning homilador ayolni kompleks kuzatuvi bo'yicha o'zar o'zaro hamkorlik va muvofiqlashtirilishini ta'minlovchi yagona tizim joriy etiladi.

Bundan tashqari, homilador ayolning eng erta muddatlarda hisobga olinishi, uning har kungi holatidagi o'zgarishlarni kompleks nazorat qilib borishuchun 2021 yil yakuniga qadar yagona elektron baza yaratiladi.

Tibbiyotning birlamchi bo'g'inini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Bu borada birlamchi bo'g'inda umumiyligi amaliyot shifokori o'rniga oilaviy shifokor vaunga yordamchi sifatida 5 nafar o'rta tibbiyot xodimidan iborat tibbiy brigadalar tashkil etildi.

Har bir mahallada, eng avvalo, 5 yoshgacha bolalar, shuningdek, tug'ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi o'lganlar, qon-tomir, onkologik, endokrin kabi kasallikkarga moyilligi bo'lgan fuqarolar bilan ishslashning alohida tizimi joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro'yxati qayta shakllantirilib, ular bilan aholini kafolatli ta'minlash tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda birlamchi bo'g'in qamrovini kengaytirish maqsadida kelgusi 3 yilda 315 ta "oilaviy shifokor" punkti va 85 ta oilaviy poliklinika ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, "qishloq shifokori" dasturi doirasida olis hududlarda ish boshlaydigan mingdan ortiq vrachga 30 million so'mdan yordam puli berilib, ular xizmat uylari bilan ta'minlanmoqda.

Olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish uchun hamda ehtiyojmand aholi uchun skrining tadbirlariga xususiy shifoxonalar ham jalb etilib, ularga subsidiya ajratildi.

O'rta bo'g'in tibbiyot xodimlari – hamshira va feldsherlarning obro'si va mavqeini oshirishga alohida urg'u beramiz.

Oqqon va og'ir irsiy gematologik kasallikkarni davolash bo'yicha ishlar yuqori bosqichga ko'tariladi. Onko-gematologiya sohasi hamda davolash qiyin bo'lgan kasalliklar bo'yicha murakkab diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun davlat budgetidan yetarli mablaglar ajratilib boriladi.

O'tkir buyrak yetishmovchiligi bo'lgan barcha bemorlar bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olindi.

Shuningdek, endokrin kasallikkarni aniqlash va davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo'limlar tashkil etiladi.

Yana bir masala - aholimizning katta qismini qiyaydigan o'tkir qon-tomir kasalliklari bo'yicha 35 ta tumanlararo markaz tashkil etilmoqda. Ushbu markazlar aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam

ko'rsatish orqali o'lim va nogironlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa har yili kamida 30 ming nafar inson hayotini saqlab qolish nazarda tutilmoxda.

Sog'liqni saqlash tizimida samaradorlik va aholiga qulayliklarni oshirish bo'yicha hali ko'p ish qilish kerak. Joylarda o'tkazilgan so'rovlardan bor-yo'g'i 13 foiz aholi tibbiyotdagi ijobiy o'zgarishlarni sezayotganini aytgan xolos va ushbu sohadagi ishlar samarasining yuksalishiga imkon bermayotgan qator tizimli muammolar borligidan dalolat beradi.

Sog'liqni saqlash sohasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlarga barham berish va mavjud muammolarni bartaraf etish borasida ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish;

- tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

- jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruvi takomillashtirish;

- hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning "klaster" modelini shakllantirish, tibbiyot va farmasevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmasevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;

- tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan beggul tibbiy yordam hajmini belgilashda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish;

- tibbiy xizmatlar uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

- tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligrini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis quyish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish;

- patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

- tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, "Ona va bola" hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

- farmasevtika tarmogini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish.

Ushbu yo'nalishda davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun

qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yanada yaxshilash imkoniyatlarini ishga solishimiz lozim.

Ayniqsa, tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyat fanini rivojlantirish sohadagi yangilanishlarga keng yo'l ochadi.

Shu jumladan, tibbiyat ilmiy vata'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o'tkazish) hamda zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ishlar esaushbu sohadagi islohotlar samarasini ta'minlashga yordam beradi.

Bu jihatdan, "elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish kabi ishlar bu sohadagi muhim vazifalarimizdir.

Bizni doimo qiynaydigan, tinchlik bermaydigan orzu-niyatimiz, Yaratgandan so'raydigan eng katta tilak-iltijomiz shuki, betakror, go'zal, saxovatli Yangi O'zbekistonimizda, albatta, har tomonlama sog'lom, o'zining kuch-qudrati, barkamolligi bilan o'zgalarning havasini uyg'otadigan avlodlar yashashi kerak.

Dunyoda sog'liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan, aholini o'rtacha umr ko'rish darajasi yuqori bo'lgan eng ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifamizdir.

Mamlakat sog'liqni saqlash tizimi, aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni yanada maqbullashtirish va aholining uzoq umr ko'rishini ta'minlashga yo'naltirilgan "Aqli tibbiyat" konsepsiysi ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Muhtoj oilalarga dori-darmon, kasalxonada davolanish, jarrohlik amaliyoti uchun tibbiy xizmatlarni bepul amalga oshirish bo'yicha maxsus tizim yaratiladi.

Ushbu tizimda ona va bola sog'lig'ini saqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu borada jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish muhim o'rinn tutadi.

Mazkur yo'nalishda aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarziga jalb etamiz. Jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirokini ta'minlashga qaratilgan yirik dasturlarni amalga oshiramiz.

Bu borada tibbiyat sohasini tubdan isloh qilishning hukuqiy asoslarini kuchaytirishga qaratilgan "Sog'liqni saqlash kodeksi"ni qabul qilish davr taqozosidir.

### **3. Sog'lom turmush tarzi madaniyati: jismoniy tarbiya va sport.**

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni ragbatlantirish va qo'llab-quvvatlashga bundan buen ham katta ahamiyat berishimiz lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, eng olis tumanlarda ham zamonaviy va foydalanish uchun qulay sport infratuzilmasi barpo etilmoqda. Keyingi ikki yilda mamlakatimizda sport bilan doimiy shug'ullanadiganlar soni ikki barobar ko'paydi. Yurtimiz sportchilari turli xalqaro musobaqalarda mingdan ziyod medallarni qo'lga kiritdi, ulardan 400 dan ortig'i oltin medallardir. Hozirgi vaqtida boks, dzyudo, erkin kurash, badiiy gimnastika, ogir atletika, shaxmat va boshqa sport turlari bo'yicha O'zbekistonda shakllangan maktablar butun dunyoda ma'lumu mashhurdir.

Osiyo olimpiya kengashi tomonidan 2025 yilda Yoshlar o'rtasida Osiyo o'yinlarini Toshkent shahrida o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilingan. Bu mamlakatimizga bildirilgan katta ishonch va e'tibor, desak, to'g'ri bo'ladi. Ayni vaqtida buning mas'uliyati ham katta ekanini biz yaxshi tushunamiz. Qit'amiz miqyosidagi ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik boshlandi.

Jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish aholi salomatligini ta'minlashda muhim omildir.

Shu sababdan keyingi yillarda 70 dan ziyod jismoniy tarbiya va sport muassasasini bunyod etish, barcha bog'cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta'minlash, tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etish rejalashtirilmoqda.

Bu sohaga qaratilgan keng qamrovli ishlar natijasida aholini ommaviy sport turlariga jalb qilish orqali yillik qamrov hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida izchil chora-tadbirlar amalgalashirilayotganini e'tirof etish bilan birga, sohada qator muammolar va kamchiliklarning mavjudligi mamlakatimizdagи mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilayotganini qayd etish zarur.

Bu o'z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish masalalariga katta ahamiyat berish zarurligini anglatadi.

Bu boradagi muammolarni hal etishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish

Jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish aholi salomatligini ta'minlashda muhim omildir.

Shu sababdan keyingi yillarda 70 dan ziyod jismoniy tarbiya va sport muassasasini bunyod etish, barcha bog'cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta'minlash, tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etish rejalashtirilmoqda.

Bu sohaga qaratilgan keng qamrovli ishlar natijasida aholini ommaviy sport turlariga jalb qilish orqali yillik qamrov hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida izchil chora-tadbirlar amalgalashirilayotganini e'tirof etish bilan birga, sohada qator muammolar va

kamchiliklarning mavjudligi mamlakatimizdagi mavjud sport salohiyatidan to’liq foydalanishga to’sqinlik qilayotganini qayd etish zarur.

Bu o’z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa yoshlari o’rtasida sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish masalalariga katta ahamiyat berish zarurligini anglatadi.

Bu boradagi muammolarni hal etishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug’ullanishga va sog’lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog’lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta’minalashga qaratilgan konseptual dasturlarni amalga oshirish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlari

- o’rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishni ommalashtirish borasida keng ko’lamli ishlarni tashkillashtirish tizimini takomillashtirish;

- bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug’ullanishga jalb etish, bolalar sport ta’limi sifatini oshirish, barcha hududlarda, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda bolalar sporti ob’ektlari tarmog’ini yanada kengaytirish orqali bolalar sportini yanada rivojlantirish;

- Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o’yinlari, jahon, Osiyo championatlari va boshqa xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirokni ta’minalash uchun istiqbolli sportchilarini tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirishning, ular orasidan mamlakat terma jamoalari sifatli sport zaxirasi va tarkibini shakllantirishning samarali tizimini yaratishda O’zbekiston Milliy olimpiya qo’mitasi, sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) bilan hamkorlik qilish darajasini yangi bosqichga ko’tarish;

- mamlakatimizda professional, ommaviy sportni, shu jumladan sport o’yinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag’batlantirish va kullab-quvvatlash, ilg’or xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sport tayyorgarligi jarayoniga zamona viy texnologiyalarni joriy etish, barcha sport turlari bo’yicha milliy championatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etish, nosog’lom sport raqobatiga va taqiqlangan preparatlar ishlatalishiga qarshi tizimli choralar ko’rishni rag’batlantirish;

- jismoniy tarbiya-sog’lomlashtirish va sport tashkilotlari, ob’ektlari va inshootlarining ommaviy sport, bolalar sporti va professional sport yo’nalishlari bo’yicha moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan maksimal darajada va samarali foydalanishini ta’minalash, sport asbob-uskunalari hamda inventarlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilishini tashkil etish va kengaytirish bo’yicha takliflar tayyorlashda qatnashish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, jismoniy tarbiya-sog’lomlashtirish hamda

sport tashkilotlarini, ta'lim va sport-ta'lim muassasalarini yuqori malakali trenerlar va boshqa sport mutaxassislari bilan ta'minlash ishlarini yanada samarali tashkil qilish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro va davlatlararo aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalg etish borasidagi ishlarni tashkil qilish, ommabop sport dasturlarini tashkil etishga kumaklashish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid ommaviy adabiyotlar chop etish, oldimizda turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda sport va soglomlashtirish jarayonlarining natijadorligi Yangi O'zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog'liq ekanini anglagan holda mas'uliyat bilan harakat qilishimiz lozim.

**4. Ta'lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar.** Xalqimizda "ta'lim va tarbiya - beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta'lim tizimi prinsipiiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rinni topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrdauning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buninguchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchi muallim" deb ulug'lanadigan Aristotelning "Batan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zları, qarang, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi?

Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab mux'im farmon, qaror, konsepsiylar va dasturlar qabul qilingan. Yaqinda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi.

Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas mero hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ish- lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak. Buninguchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma'naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur.

“Oqqan daryo - oqaveradi”, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning beba ho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan mакtabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bu yo'nalishni tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilinadi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darjasasi 2 baravarga oshirilib, 100 foizga yetkaziladi.

Bu vazifa nafaqat zamonaviy bog'chalar qurish, balki oilaviy bog'chalar tizimini rivojlantirish orqali ham hal etiladi.

Biz “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug' g'oya asosida mamlakatimizda maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'taramiz. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqamiz va ijroga qaratamiz.

Xususiy maktablar tizimini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilda 60-70 foizga yetkazish - asosiy vazifamizdir.

Maktablarda “vazir soati” “tadbirkor va bankirlar sabog'i” kabi dars amaliyotlarini joriy qilish lozim. Ularda ijro organlari rahbarlari, salohiyatli tadbirkorlar, malakali bank xodimlari dars o'tishi kerak. Shuningdek, diniy ulamolarimiz ham jamoatchilikka ma'rifat, bag'rikenglik, odob va ahloq ilmlarini o'rgatishi maqsadga muvofiq.

Shu sababli biz birinchi marta umumta'lim maktablarida “Tarbiya” fanini joriy etdik. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida butungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy va metodologii: asoslarini ishlab chiqishda mana shunday beba ho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur.

Biz maktab muammosiga birinchi darajali masala, deb qarashni davom ettirishimiz lozim. Maktab - faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur.

Bunday vazifalarni bajarish uchun ta’lim tizimidagi quyidagi masalalarini hal qilishimiz lozim.

Bugun aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyat bilan bog’lanmagani, o’quv dasturlarida uzvylik yo’qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e’tirozlarga sabab bo’lmoqda. Amaldagi ta’lim standartlari hamda o’quv dasturlari asosan o’quvchini ta’limning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yo’naltirilgan bo’lib, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalasi e’tibordan chetda qolmoqda. Bunday holatlarga barham berish uchun, xorijiy ekspertlar va tajribali o’qituvchilarini keng jalb qilgan holda, umumiyligining Milliy o’quv dasturi loyihasini ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarida sinovdan o’tkazish lozim.

Shuningdek, umumta’lim maktablarida darslik va o’quv metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o’tkazish tizimi mavjud emas. Maktab darsliklarini yaratish va chop etishni tartibga solish masalasi ham dolzarb bo’lib qolmoqda.

Hozirgi paytda umumta’lim muassasalarining olii ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’milanish darajasi 87 foizni tashkil etadi. Ko’plab maktablar, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarida bir qator fanlar bo'yicha malakali o'qituvchilar yetishmayapti. Shu munosabat bilan pedagog kadrlar tayyorlash masalasi hamisha e'tiborimiz markazida turishi zarur.

O’g'il-qizlarimizni san’at dunyosiga oshno etish, yoshlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishlari, zamon talabi bo’lgan kompyuter va IT texnologiyalar sohasida bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’milangan 100 mingdan ortiq bepul to’garak faoliyati yo’lga qo'yish maqsadga muvofikdir.

Xalqimiz hamisha ustozlarni e’zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo'yib kelgan. “Ustoz otadek ulug” degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Endi ana shu so’zlarni qog’ozda emas, amalda qaror toptiradigan, o’qituvchi-muallimning qadr-qimmatini joyiga qo'yadigan payt keldi.

Afsuski, ko’p yillar davomida o’qituvchiga e’tibor borasida so’zimiz boshqa, ishimiz boshqa bo’lib keldi. Oqibatda soha xodimlari go’yoki keraksiz va himoyasiz qatlamga aylanib qoldi. Bunday nojo’ya ishlar nafaqat ta’lim sifatiga, balki soha xodimlarining o’z kasbiga bo’lgan munosabatiga ham salbiy ta’sir ko’rsatdi. Qanchadan-qancha tajribali o’qituvchilar dili og’rib, sevgan kasbini noiloj tashlab ketganini ham bilamiz.

Yaqin-yaqingacha o’qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o’quvchilar ham, to’rt oy lab Paxta yig’im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgani sir emas.

Bugungi kunda jamiyatimizda o’qituvchi va murabbiylarning qaddi, sha’ni va g’ururi tiklanayotgani barchamizni quvontiradi.

Ayni vaqtida bu o’ta muhim masala eng dolzarb vazifamiz ekanini alohida ta’kidlab, uni amalga oshirish butun jamiyatimizning burchiga aylanishini istardim.

Bugun har bir o’qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so’nggi ijobiy yangiliklarni o’quv jarayonlariga tatbiq eta

oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak.

Shu ma'noda, jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarga bo'lган hurmat-e'tiborni oshirish, muallim va ustozlarning qadri, sha'ni va g'ururini tiklash, ularni ham ma'naviy, ham moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi.

Mamlakatimizda yangi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, xorijiy universitet va institutlarning filiallari tashkil etilib, ularning soni 200 taga yetkaziladi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyati yanada kengaytiriladi. Bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo'lган, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar millim iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Viz esa bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dare berishdan iborat emas. Universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerak.

Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lган yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lган, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, butun uzlusiz ta'lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit Ta'lim kodeksini ishlab chiqish payti keldi.

Yana bir masalaga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Biz Ma'naviyatshunoslik fanining tamal toshini qo'ydik. Bu yo'nalishdagi ixtisosliklar fanlar klassifikatoriga kiritildi, ular bo'yicha ixtisoslashgan kengash tashkil etilib, dissertatsiyalar himoyasi yo'lga qo'yilmoqda. Oliy ta'lim bakalavr bosqichi uchun "Ma'naviyatshunoslik", Talabalar uchun "Kasb ma'naviyati" fanlari joriy etilmoqda.

Shu munosabat bilan, ko'pdan beri meni o'ylantirib yurgan va qariyb 40-45 yillik kuzatuвларим natijasida shakllangan bir mulohaza bilan o'rtoqlashish lozim, deb hisoblayman.

Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir "o'gay" qarash shakllanib qolgan.

Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzliksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa oliv ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo’nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o’qitish va o’rgatish bo’yicha yaxlit konsepsiya yo’q.

Afsuski, ayrim kaltabin mulozimlarning “Ijtimoiy fanlardan foyda yo’q” qabilidagi nojo’ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog’i va sifatini tushirib yuborishga yo’l qo’yildi.

Ayni paytda, bu yo’nalishda kimningdir sub’ektiv yondashuvi ta’sirida biror-bir fanni joriy etish, boshqa birini esa yo’qotish, kafedralarni qo’shish va ularda professor-o’qituvchilar sonining haddan ortib ketishi bilan bog’liq tez-tez ro’y berib turadigan “eksperimentlar”, ijtimoiy fanlar olimlari va mutaxassislari, professor- o’qituvchilarning mehnatiga muttasil skeptik munosabatda bo’lish holatlari sohaga jiddiy ziyon yetkazgan.

Aynan ana shunday holat ushbu yo’nalishning ayrim vakillarida “Biz va bizning fanlarimiz kerak emasmi, bizga ham hech narsa kerak emas. Shunchaki topshiriqlarni bajarib, fanlarimizni o’qitib va darslarimizni o’z vaqtida o’tib yursak bo’ldi” degan tasavvur shakllanishiga sabab bo’lgan.

Biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak. Tabiiy-texnik va ixtisoslik fanlari bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun asosiy omil ekani ham shubhasiz.

Ammo yangi avlodni xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini ko’zlaydigan, o’zini yurt manfaatlari bilan birga ko’radigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas’ulligini sezadigan, yetuk inson etib tarbiyalash uchun ushbu fanlarning o’zi kifoya qiladimi? Yo’q, albatta.

Biz davlat va jamiyat manfaatlari yo’lida halol mehnat qilgan, bu borada barcha ijtimoiy chaqiriq va da’vatlarga “Labbay deb javob bergan ota-onalarimiz avlodni ta’sirida tarbiyalandik. Ularni bunday avlod bo’lishida ijtimoiy fanlar tizimining o’rni va ahamiyati katta bo’lgani barchamizga ma’lum.

Aslida, bizning avlodimiz ham o’sha tizim ta’sirida shakllangan. Ota-onalarimiz avlodiga xos ma’naviy mezonlar, ijtimoiy talablarga hozirjavoblik, jamoaviylik tamoyillariga rioya qilish kabi xususiyatlar bizning avlodimizga ham o’tgan.

Bugungi kunda yoshlarni asosan, chet el andozalari, g’oyasizlik tamoyillari va ijtimoiy fanlar tizimi qariyb yo’qotilgan ta’lim ta’sirida shakllantirish tarafdarlarining ko’pchiligi yaqin kelajakda ushbu avlodning asl qiyofasi, davlat va jamiyatga munosabati qanday bo’lishi haqida yaxlit tasavvurga ega emaslar, deb o’ylayman.

Biz hali-hamon g’oyasizlikka asoslangan ta’lim va gumanitar fanlar tizimi ta’siridan “xalos” bo’lgan kelajak avlodni bilan yashaganimiz va ishlaganimiz yo’q, ya’ni u bilan bevosita yuzma-yuz kelganimiz, muloqotga kirishganimiz yo’q.

Bu haqda aniq-ravshan sotsial prognozlar ham, ma’naviy barkamol, har tomonlama yetuk, zukko va ma’rifatli avlod shakllanishi haqida kafolatlangan ekspert xulosalari ham yo’q.

Shunday ekan, ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda "Boy berilgan avlod" deya atalayotgan yoshlar avlodni bizda ham vujudga kelmaydimi?

Axir, bundan 60-70 yil ilgari, ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida chet ellarda ishlab chiqilgan va asosan, ma'naviyat va gumanitar ta'limga pul sarflash zarur emas, deb hisoblangan va mutlaq g'oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiyaning oqibatlari qanday bo'lganini ko'rib turibmiz-ku?

Bugungi global dunyoning eng asosiy muammolari bo'lган urush balosi va ekologik bo'hronlar xavfi odamzotning minglab yillik faoliyati natijasi, ya'ni asrlar davomidagi xatoliklarning tabiiy-tarixiy hosilasi ekani ma'lum. Ammo, XX asrning ikkinchi yarmida, bor-yo'g'i yigirma-o'ttiz yil davomida shakllangan hamda bugungi insoniyatning eng asosiy va shafqatsiz muammo si hisoblanadigan ma'naviy tanazzul aynan shunday tarixiy va tabiiy jarayonlar oqibati bo'lganini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Eng rivojlangan mamlakatlar ham barham bera olmayotgan ma'naviy tanazzul balosi aynan o'sha, bundan 60-70 yil ilgari ko'plab taniqli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, hayotga zudlik bilan tatbiq etilgan va insoniyatni ma'naviy g'ariblashishiga olib kelgan ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik texnologiyalarining natijasi ekani bugun ko'pchilikka ayon. Ammo o'tgan asrning 70- yillariga kelib ushbu tamoyillar ustuvor qiyofa kasb etib, ular asosidagi texnologiyalar jamiyat hayoti va odamlar tafakkurini buzib bo'lgan, ya'ni 'poezd ketib bo'lgan", jamiyat, ayniqla, yoshlar o'zgargan, ularning ongi va tafakkuriga buzg'unchi g'oyalar ta'siri o'rnashib qolgan edi. Oqibati esa ma'lum.

Ma'lumki, oliy matematika yoki yadro fizikasini to'rtinchi yoki beshinchi sinfda o'qitishdan foyda yo'q. Chunki 11-12 yoshli bolaning tafakkuri ushbu sohadagi murakkab bilimlarni qabul qilishga tayyor emas.

Ijtimoiy fanlar sohasida odob-axloq qoidalari va ma'naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlang'ich sinflardan o'rgata boshlash zarurligi ayni haqiqat.

Ammo jamiyat va davlat hayotining murakkab kategoriyalari, odamlar orasidagi nihoyatda nozik ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy munosabatlar, ayniqla, ishlab chiqarish yoki muayyan ixtisosliklar bilan bog'liq ma'naviy tamoyillar haqidagi bilimlarni shu yoshdagagi bolalar o'zlashtira olmasligi ham ayon-ku.

Shu bilan birga, ijtimoy fanlarni ta'lim bosqichlari va ixtisosliklarning talablari va tamoyillariga mosligi, o'quvchilar, bakalavrular va Talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq-ravshan tasavvurlar tugal va maqsadga muvofiq darajaga yetmagani ham ma'lum.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, o'qitish va amaliyat soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyanini ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylangan.

Shu sababli “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o’qitish tartibi va tamoyillari to’g’risida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji mavjud.

Bu jihatdan, “2023-2030 yillarda O’zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Chindan ham, bugun biz ulug’ niyatlar bilan poydevorini ko’yayotgan yangi Uyg’onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o’zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

**5. Ilm-fan – innovatsion taraqqiyot asosi.** Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko’rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz.

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o’z oldiga nafakat mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o’tish vazifasini ko’ymoqda. Ya’ni, o’z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o’zlashtirish va ilg’or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog’liq. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o’quv yurtlari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

Olimlarimiz tomonidan fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlar qo’lga kiritildi. Tabiiy fanlarning asosiy sohalari - astronomiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, farmasevtika, geologiya, seysmologiya va boshqa jabhalarda jahon miqyosida qiziqish uyg’otayotgan natijalarga erishildi. Iqtisodiyotning mineral xomashyo resurslarini chiqindisiz va samarali qayta ishlash, kuyosh energetikasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo va biotexnologiya, genetika, ekologiya, qishloq ho’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, farmakologiya, tibbiy diagnostika kabi hayotiy muhim tarmoqlarida mahalliy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar - tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O’zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda xam muhim natijalarga erishilmoqda. O’z sohasida dunyodagi eng salmoqli ensiklopediyalardan biri, Markaziy Osiyoda yagona va O’zbekistonda ilk marotaba yaratilgan “Jahon

falsafasi qomusi tayyorlanib, 2020 yilda, yangi davrning mahsuli sifatida chop etilgani ham buning yaqqol misolidir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor islohotlariga o'tishi ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo'lgan yangicha yondashuvlarga yo'l ochib berdi. Ular mamlakatimizning ilmiy salohiyatini saqlab qolish va ilmii muassasalar faoliyatini mamlakatimizning dolzarb ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo'naltirish imkonini berdi. Fundamental tadqiqotlar natijasida to'plangan yangi bilimlar olimlarning amaliy va innovatsion ishlanmalarida o'z ifodasini topmoqda.

Shu bilan birga, fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish masalasi biroz e'tiborimizdan chetda qolgani bugun yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki fundamental tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha boshqa davlatlardan sezilarli ravishda ilgarilab borayotganini ko'rib turibmiz. Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo'nalishida ko'lga kiritilgani tasodify emas. Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama ko'llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Shuningdek, Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tarmoq institutlari, ilmiy va innovatsion markazlar hamda korxonalarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash, ilm-fan va ta'lim sohalaridagi ilmiy, innovatsion faoliyatni rag'batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Endigi vazifa - nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdan iborat.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o'tish jarayoni dunyo bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o'sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda.

Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'r'in olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lisi lozim.

Bunday raqobat sharoitida iqtisodiyotda ustuvor yo'nalishlar rivojini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi tizim ishini samarali tashkil qilish eng asosiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonni 2030 yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bularning barchasi mamlakatimizda keyingi yillarda ilm-fanni rivojlantirish borasida quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida jahon tajribasida loyihaviy boshqaruv o'z samaradorligini ko'rsatayotganini inobatga olib, dasturiy maqsadli yondashuvni qo'llash hamda yangi boshqaruv vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishni yo'lga qo'yish;

- ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va zamonaviy fan yo'nalishlari bo'yicha infratuzilmalarni tashkil qilish, ilmiy tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini yangilab borish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (doktorantura) institutini moliyalashtirish kabi rejalashtirilgan chora-tadbirlarga yo'naltirish;

- ilmiy loyihalarni xususiy sektor va tarmoq tashkilotlari bilan teng sheriklikda moliyalashtirish amaliyoti kengaytiriladi, ilmiy-innovatsion

loyihalarni qo'shimcha moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institatlari, xususan Jahon bankining ilm-fanni tijoratlashtirishga ajratiladigan imtiyozli qarz mablag'lari jalb qilish;

- ilm-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy davlatlar donor tashkilotlarining grantlari, texnik ko'mak va boshqa tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalb etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi, ilm-fanning istiqbolli va yangi yo'nalishlarida (shu jumladan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika, farmasevtika, biotexnologiya, nanotexnologiyalar, energetika, muhandislik, elektronika, mexanika, mashinasozlik, genetika, astronomiya, dasturlash, sanoat dizayni, kriminalistikada) ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish;

- yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida, avvalo davlat ilmiy tashkilotlarida yangi kadrlar siyosati joriy qilinib, asosiy e'tibor kadrlar bilan ishslashning strategik boshqaruvini joriy etishga qaratish;

- mutaxassislarni qayta tayyorlash va doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida xorijiy tillarni o'rganayotgan olimlar uchun turli o'quv kurslarini tashkil qilish, mahalliy va dunyoning yetakchi universitetlari o'rtasida o'qituvchilar va talabalar bo'yicha dasturlarni amalga oshirishni ko'zda tutish;

- innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va "El-yurt umidi jamg'armasi mablag'lari hisobidan qonun hujjalarda belgilangan tartibda iqtidorli yosh olimlarning yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini tashkil etish, o'qish va malaka oshirishiga ko'maklashiladi, ularning xalqaro ilmiy- texnik konferensiyalarda va ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari, ilmiy ishlarining nashr etilishini ta'minlash;

- tadqiqotchilar va olimlar uchun professional treninglar tashkil etiladi, ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jahon andozalariga moslashtirish chorralari ko'rildi, davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilayotgan grant loyihalari doirasida qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish, xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etish, yangi mexanizm sifatida grant loyihalari doirasida fan nomzodi yoki falsafa doktori

(PhD) va fan doktorlari (DSc) tayyorlashga buyurtma berish hamda uni moliyalashtirishga ruxsat berish;

- oliv ta'lim muassasalarida bakalavriat va Talabaaturada tahsil olayotgan talabalarga ilmiy faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar va ragbatlantirish mexanizmlari yaratish, doktorantlar bilan ishlash, ular tomonidan olib borilayotgan ishlarni nazorat (monitoring) qilish, himoyagao'z vaqtida chiqishini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- ilm-fanni yanada rivojlantirish vauning zamonaviy infratuzilmasini yaratishda avvalo, ilmiy tashkilotlar va oliv ta'lim muassasalarining ilmiy laboratoriylari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanishi hamda butlovchi qismlar bilan ta'minlanishiga hamda ilmiy faoliyat infratuzilmalari (ilmiy tashkilotlar va oliv ta'lim muassasalari) doirasida milliy ilmiy laboratoriylar tarmog'i yaratilishiga alohida e'tibor berish;

- ilm-fanni rivojlantirish uchun mahallii va xorijiy olimlarga markazlarning asbob-uskunalar, tajriba-ishlab chiqarish bazalari va boshqa ilmiy resurslaridan foidalanishga keng imkoniyatlar yaratish, nodavlat loyiha va konstrukturlik tashkilotlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish va investitsiya dasturlari doirasida kullab-kuvvatlash;

- ilmiy tashkilotlar, universitetlar tarkibida ilmiy-innovatsion klasterlar, innovatsiya markazlari, konstrukturlik ustaxonalari, biznes akseleratorlar, startap akseleratorlarini tashkil qilish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, mahsulotlar marketingi bilan shug'ullanadigan alohida kompaniyalar faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida ahamiyat qaratiladi;

- xususiy sektor va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jumladan davlat boshqaruvi organlari ishtirokidagi jamg'armalar tashkil qilinishi hamda yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga erishish;

- rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ilmiy ekspertiza jarayonida "manfaatlar to'qnashuvi" omillarini cheklash maqsadida ilmiy loyihalar ekspertizasiga mas'ul tuzilma tashkil qilinib, muhokamalarga chet el mutaxassislarini jalb qilgan holda ekspertizaning to'la interaktiv platforma orqali o'tkazilishini ta'minlashiga alohida e'tibor berish va boshqalar.

Bu sohada ayniqla ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakkantirish borasida milliy ilmiy portalni yaratish, portal doirasida mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona akademik makon, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun arizalarni avtomatik tarzda topshirish va ro'yxatdan o'tkazish tizimi takomillashtiriladi.

Ayni paytda, olimlar, ilmiy-texnik axborot manbalari reytinglarini joriy etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborotning muhim rolini hisobga olgan holda ilmiy salohiyatni baholash ko'rsatkichlari to'la-to'kis joriy etiladi. Ob'ektiv miqdoriy ko'rsatkichlarning joriy etilishi xolisona moliyalashtirish uchun loyihalarni tanlab olish va natijada ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, mahalliy va jahon miqyosidagi ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan talab qilinadigan ilmiy tadqiqotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlashning tizimli jarayoni tashkil etiladi.

Bundan tashqari, mamlakatning ilmiy-texnik holati va uni yanada rivojlantirish tendensiyalari hamda so'nggi yillarda mamlakatimiz ilm-fanining sifati va miqdoriy rivojlanishini o'rganish, mahalliy ilmiy texnik salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va tahlil qilish borasida zarur choralar ko'rildi.

Ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini hamda ilmiy infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi mexanizmlarini o'rganish, ilmiy-tadqiqot dasturlarining samaradorligiga erishish va uning natijadorligini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi yangilanishlar bu sohada ham zamon talablarini e'tiborga olish, islohotlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatimiz ilm-fanining yangi qiyofasini yaratish va ushbu sohadagi o'zgarishlar dinamikasining samarali bo'lishiga erishish masalalariga yangicha qarashlar va yondashuvlarni talab qilmoqda.

**6. Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir.** Yer yuzida ongli hayot paydo bo'libdiki, odamzot muqaddas Ona siymosini, ayol zotini uluglab, sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprogi jannat bog'laridek go'zal va mo'tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Ma'lumki, muqaddas Qur'oni karimning eng katta suralaridan biri - "Niso", ya'ni, "Ayollar" deb ataladi. Alloh, taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga da'vat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq - manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rirlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama ko'llab-quvv atlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish jarayonlari islohotlar shiddatidan ortda qolayotgani ham sezilmoxda.

Ana shularni hisobga olgan holda, keyingi yillardagi O'zbekiston Respublikasining gender siyosati quyidagilarga qaratiladi:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtiroy etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratish;
- ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta'minlash;
- barcha uchun adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash;
- barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalash, odam savdosiga chek qo'yish;

- barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash;

- milliy gender statistikasini rivojlantirish;

- rejalashtirish va budgetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;

- OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta'minlash;

- barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash masalalariga xotin-qizlarni yanada kengroq jalg qilish.

Yuqoridagi ustuvor yo'nalishlarni samarali amalga oshirish maqsadida quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish zarur deb hisoblaymiz:

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

- xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini yanada oshirish;

- yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash;

- ehtiyojmand xotin-qizlarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-hukuqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishning samarali usul va vositalaridan keng foydalanish;

- barcha hududlarda xotin-qizlarning bandligini to'la-to'kis ta'minlash imkonini oshiradigan maxsus tizim yaratish va uning samarali ishlashini yo'lga qo'yish;

- xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalg etish masalalarida har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- xotin-qizlar o'rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbazarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni yechishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash borasida ishlarni tizimli tarzda olib borish.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opasingillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

Xotin-qizlarni ko'llab-quvvatlash bo'yicha tashkil etilgan respublika va husudiy jamg'armalar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayollarning biznes sohasidagi loyihibalarini qo'llab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotin-qizlar muammolarini hal etish uchun budgetdan har yili qo'shimcha ravishda 1 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirish lozim.

Buning uchun “Xalq banki” tomonidan joylarda xotin- qizlarni tadbirkorlikka o’qitish, biznesga oid namunaviy rejalarini ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam ko’rsatishning yangi tizimi joriy etiladi.

Oliy Majlis palatalari va Hukumatga xotin-qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo'yicha taklif ishlab chiqish vazifasini yuklatish ushbu ishlar samaradorligini yanada oshiradi, deb hisoblayman.

Bu borada bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi - ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash ularning hukuq va manfaatlarini ta'minlashdir.

Bu o'z navbatida, “Ayollarga ilm berish - jamiyatni ilmli, ma'rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi.

Munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimizning xuquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish barchamizning asosiy vazifalarimiz ekanini anglab olganimiz.

Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barna opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun hamma imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

**7. Yoshlar - Yangi O'zbekiston bunyodkorlari.** Yurtimiz bo'ylab 6 millionga yaqin g'ayrati baland, intiluvchan o'g'il-qizlarimiz ishtirokida Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik! shiori ostida o'tkazilgan festivallar barcha yoshlarimiz uchun yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko'rigi bo'ldi. Ushbu festivallar bundan buyon nafaqat viloyat markazlarida, balki har bir tuman va shaharda o'tkazib boriladi va ularda ko'tarilgan masalalar yechimi bo'yicha har Yili Hukumat alohida dasturlar qabul qiladi.

Albatta, yoshlikka xos shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashashi kerak.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olilianob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar mashxur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan kamolot yoshida yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz.

Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir.

Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta'lim olayotgan ko'plab o'quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Navbatdagi muhim vazifamiz - mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi avlod xorazmiy va farg'oniyalarini, beruniy va ibn sinolarini, ulug'beklar va navoiylarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Bu yo'nalishda "Beruniy izdoshlari", "Mirzo Ulug'bek vorislari", "Alisher Navoiy davomchilari" kabi ko'rik-tanlovlardan o'tkazib, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Taniqli siyosatchi, Parlamentlararo ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong boshliq rasmiy delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurganida u kishi bir fikrni afsus bilan ta'kidladi. Ya'ni, sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lган insonlar tashkil etsa-da, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekan. Oliy martabali mehmon O'zbekistonda bu ko'rsatkich 6 foizdan oshganini yuqori baholadi. Bu - katta e'tirof, albatta.

Biz g'oyat muhim yo'nalishdagi bu ishlarimizni davom ettirgan holda, Parlamentlararo ittifoq ko'magida "Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz!" degan ezgu tashabbusni amalga oshiramiz. Siyosiy yetuk va faol yosh yigit-qizlarimizni milliy parlamentimiz va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etamiz.

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu borada kuyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Har o'quv yili yakuni bilan tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida bitiruvchilar bandligini ta'minlashga oid dasturlar qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Dasturda har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, qanchasini ish bilan ta'minlash, nechta startap va tadbirdorlik loyihasini amalga oshirish belgilanishi shart. Bu bizning yoshlar bilan ishslash bo'yicha "bandlik", "innovatsiya" va "investitsiya" dasturimiz bo'lib xizmat qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari hamda sektorlar rahbarlari har haftada bir marta yoshlar bilan uchrashib, ularning g'oya, taklif va tashabbuslarini eshitib, muammollarini hal qilishga mas'ul va javobgar bo'ladi;

Oliy ma'lumot talab etadigan kasb va lavozimlar qayta kurib chiqiladi. Bugungi kunda oliy ma'lumot talab qiladigan 80 mingga yaqin bo'sh ish o'rnlari mavjud. Misol uchun, transport, geologiya, qishloq xo'jaligi madaniyat sporl-sohalarida bilim va malakasi yetarli bo'laturib, olii ma'lumoti yo'qligi uchun minglab yoiidaramiz ishga kira olmayapti.

Shu bois oliy ma'lumot talab etadigan kasb va lavozimlar qayta ko'rib chiqi6, ularning 150 tasi bo'yicha bunday talab bekor qilinadi. Bunday yengillik tufayli 10 mingdan ortiq yoshlar ishga joylashadi.

Maktablarning 10-11-sinf o'quvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb va xunarlarga o'qitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bundan buyon maktab bitiruvchisiga attestat berishda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kamida bitta kasb yeki hunarni egallash majburiy qoida bo'ladi. Bu tizim davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan birga yo'lga qo'yiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari har yili 1 sentabrga qadar maktablar kesimida 10-11-sinf o'quvchilarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasbhunarlargaga o'qitish bo'yicha ro'yxat va dasturni mahalliy kengashlarda muhokama qilib, tasdiqlaydi.

Qishloqlarda yashayotgan 230 mingdan ortiq ishsiz yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun joriy yilda 61 ming hektar yer maydonlari ajratildi. Shuningdek g'alladan bo'shagan yerlardan yana 75 ming hektari 170 ming nafar yoshlarga takroriy ekin ekish uchun berildi.

2021-yilda boshlagan yer islohotimiz doirasida paxta va g'alladan qisqaradigan maydonlarda oziq ovqat ekinlari yetishtirish uchun yerlarni 10 yil muddatga ijara berish tizimi yo'lga ko'yiladi. Shu tariqa viloyat va tuman hokimlari, sektor rahbarlari uchun yana 500 ming nafar yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Yoshlarga beriladigan imtiyozli kreditlar va lizing asosida 50 mingdan ziyod yengil konstruksiyali zamona viy avtoservis, maishiy xizmat, chakana savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalar barpo etiladi.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz. Men har gal yoshlar bilan uchrashganimda, "Ilmni qadrlang, ilmga intiling!" degan so'zlarni takrorlashdan aslo charchamayman. O'zingiz ko'ryapsiz, dunyoda o'qigan, zamona viy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda.

Yangi O'zbekiston yoshlari ham ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun biz albatta barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

Bu borada ayniqsa quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

- iqtidorli, lekin oliygohda kontrakt asosida o'qish imkoniyati bo'lмаган yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim yaratamiz.

- maktablarda o'quvchilarni kompyuterdan shunchaki foydalanuvchi emas, balki undan daromad topadigan mutaxassislar qilib tayyorlashimiz zarur.

- yosh oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Farzandlarimizga mo'ljallangan badiiy adabiyotlarni ko'paytirish va ularning mualliflarini rag'batlantirish maqsadida "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovini o'tkazish yo'lga quyiladi. Bunda mualliflarga birinchi o'rinni uchun - 100 million so'm, ikkinchi o'rinni uchun - 75 million so'm, uchinchi o'rinni uchun - 50 million so'm mukofot beriladi.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajralishlar, buzg'unchi va radikal oqimlar ta'siriga tushish holatlari davom etayotgani, davlat rahbari sifatida shaxsan meni jiddiy tashvishga solmoqda. Hozirgi vaqtida qariyb 40 ming nafar yoshlar profilaktik hisobda turgani ham xavotirimiz bejiz emasligini ko'rsatmoqda.

O'ylaymanki, Davlat boshqaruvi akademiyasida yoshlar masalasiga mutasaddi barcha rahbarlarning bilim va malakasini oshirish uchun o'quv kurslari tashkil

etilishi kerak. Ular o'z viloyati va tumanlari, maktab, kollej, texnikum, oliygochlardagi yoshlarning ma'naviy tarbiyasi uchun bevosita mas'ul bo'lib, har oyda tahliliy muhokamalar o'tkazishi va mahalliy kengashlarda hisobot berib borishi darkor.

Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash juda muhim vazifadir.

Mintaqamiz va dunyodagi vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Milliy xavfsizligimiz, tinch va osoyishta hayotimizga nisbatan taxdid va xatarlar kuchaymoqda.

Shu bois hushyorlik va ogohlikni oshirish, o'zaro hamjihatlik va birdamligimizni mustahkamlash, har qanday tahdidlarga munosib javob berishga tayyor bo'lib yashash hayotning o'tkir zaruratiga aylanmoqda.

Yosh avlodning ongini salbiy ta'sirlardan himoya qilish, adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarish o'zini vatanparvar deb hisoblaydigan har bir O'zbekiston fuqarosi, ayniqsa yoshlarning asosiy burchi bo'lib qolishi shart.

Harbiylarimizning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish maqsadida Jasorat maktabini yaratishga qaror qilgan edik. Bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi. Shu bilan birga, oliv harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlar, jumladan, "Temurbeklar maktabi" faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning muammolarini o'rganib, hal qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va sportga jalb etish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratishimiz zarur. Shu maqsadda Mudofaa vazirligi quzurida Vatan o'g'loni bolalar va o'smirlar harbiy- vatanparvarlik harakatini tashkil etish haqidagi tashabbusni ko'llab-quvvatlayman. Harakatning har bir maktabda tuziladigan otryadlari barchao'quvchilarni qamrab olib, ularni tarbiyalashda asosiy kuchga aylanishi kerak.

Shuningdek, madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim sohasida uz iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlarni yaratish hududlar hamda vazirlik va idoralar rahbarlarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi shart.

Yuqorida yoshlar bilan ishlarni tashkil etish borasida amalga oshirilgan ijobjiy ishlarni e'tirof etish bilan birga birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar saqlanib qolayotganidan dalolat bermoqda. Ularni samarali hal etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini yanada samaraliroq tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifalarini paysalga solmay bajarish;

- mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini muttasil

amalga oshirish, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsonii qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'sib kelaetgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari! shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish;

- joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat berish;

- yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik qilish;

- yoshlarga oid dasturlar, loyihibar va ilmiy tadqiqot ishlarni moliyalashtirish uchun ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalarni taqsimlash, ulardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlashga erishish;

- tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lган yoshlarning ijtimoiy-hukuqiy himoyasini tashkil etish va bandligini ta'minlash;

- iqtidorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga ta'lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtiroy etishini ta'minlash, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan ishlarni yanada samarali muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyati va iste'dodini rivojlantirishga alohida e'tibor berish;

- yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashishni yangi bosqichga ko'tarishga erishish;

- yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni samarali yo'lga qo'yishga doir vazifalarni paysalga solmay bajarilishiga erishish;

- yoshlar faoliyati bilan bog'liq sohalarga xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro moliya institutlari, donor-mamlakatlar hamda xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish;

- yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g'oyasi hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yangi ish o'rinalarini yaratish orqali ularning bandligini ta'minlash.

“BMTning Yoshlar strategiyasi”da ta’kidlanganidek, “yoshlar siyosida eng qimmatli va o’ta muhim resurslar mujassam topgan bo’lib, unga har qancha investitsiya kirlitsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo’lib qaytadi”.

Biz yoshlar siyosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko’ramiz. Yangi O’zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!

Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash engustuvor vazifalarimizdan biridir.

Yoshlarning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to’liq ro’yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o’rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buen ham bosh maqsadimiz bo’lib qolaveradi.

Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug’ ajdodlarimizning munosib vorislari bo’lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart- sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O’zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko’tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

Yangi O’zbekiston strategiyasining maqsadi yurtimizning baxtli va barkamol insonlar farovon yashaydigan, ijtimoiy adolat tamoyillari to’liq qaror topgan, dunyoning eng rivojlangan, barqaror o’sayotgan va inson kapitali yuqori bo’lgan demokratii davlatlari qatoridan joy olishini ta’minlashdir.

Buning uchun aholining barcha qatlamlariga munosib hayot darajasini va turmush sharoitlarini yaratib berish, ijtimoiy himoya tizimi samarasi, bandlik va daromadlar barqaror o’sishiga erishish, jamiyatning umumiy madaniyati, bag’rikenglik va mehribonlik fazilatlarini yanada oshirish bo’yicha olib borayotgan ezgu va savobli ishlarimizni yanada kuchaytirishni o’zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz.

## 6-Mavzu: MA’NAVIY TARAQQIYOT

### Reja:

1. Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar.
2. Yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar.
3. Ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi.
4. Yangi O’zbekiston va ma’naviy yangilanish.
5. Ma’rifatli jamiyat sari.
6. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg’unligi.

**1. Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar.** Biz Yangi O’zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anlaymiz.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi - ma’naviyatdir. Biz yangi o’zbekistonni barpo etishda

ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy vaumuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz.

Biz uchun ma’naviyat- insonlar o’tasidagio’ zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo’lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo’lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo’ladi.

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurishchun qat’iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz.

Globallashib borayotgan va ma’rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi dunyoda ma’naviy hayotimizdagi o’zgarishlar dinamikasining tadrijiy rivojlanish darajasi, unga xos umumiylar qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog’liq o’ziga xos millim xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz darkor.

Ushbu tarixiy zarurat va ob’ektiv ijtimoiy-siyosiy jarayon O’zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bugungi taraqqiyoti va istiqbolini belgilaidigan strategik tamoyillar hamda amaliy faoliyat dasturlarini yaratish vaularni hayotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg’unchi g’oyalar ta’sirida milliy o’zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya’ni, faqat uzini o’ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo’llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi taxdidlar xavfi tobora ortib bormoqda.

Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo’lgan zararli g’oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo’lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo’lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg’ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko’z yuma olmaymiz.

Chetda nima yaltiroq bo’lib ko’rinsa, o’shaning orqasidan chopish, xorijniki ekan, deb unga qulluq qilish, boshqalarga ko’r-ko’rona ergashish bizga yarashmaydi. Ayniqsa, ma’naviyat sohasida. Afsuski, keyingi paytdabuboradachetningta’siri, ta’bir joiz bo’lsa, “import”ning hajmi oshib ketmoqda.

Ma’naviy hayotimizda bo’shashish, bo’shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteta zaif bo’lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham begonalarga ko’r-ko’rona ergashmoqda. Milliy o’zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo’lmoqda, desak, to’g’ri bo’ladi.

Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim. Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat.

Korrupsiya, ta'magirlilik, byurokratiya nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotda ham oyog'imizga bolta urmoqda. Bu illatlarga qarshi keng ko'lamli kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurashmas, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas ekanmiz, bu muammolardan xalos olmasligimizni hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, hozirgi vaqtida ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilib, uni yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishga solishni davrningo'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham ular kutilgan natijani bermayapti.

Hech kimga sir emas, ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lish kishidan katta bilim va salohiyat, mahorat va tinimsiz aqliy mehnatni talab etadi. Lekin, afsuski, ko'p yillar ma'naviyat va ma'rifikat sohasi xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirishga yetarli e'tibor qaratilmadi. Endi ana shu muammoni hal etish vaqt keldi va biz bu borada muhim qadamlar ko'ymoqdamiz.

Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti.

Bu borada bog'cha, mакtab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, uzaro hamkorlik va uyg'unlikni to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi vaqtida bu fanlar rivoji, ular mansub ilmiy-amaliy va ta'lim-tarbiyaviy tizimni yangilash va optimallashtirish jarayoni zamondan ortda qolmoqda.

Aini paytda ijtimoy fanlarni ta'lim bosqichlari va ixtisosliklar talablari va tamoyillariga mosligi, o'quvchilar, bakalavrлar va Talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq tasavvurlar ham yo'q.

Bugun aholi, ayniqsa, yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singtan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o'ylashimiz lozim.

Taassufki, bu masalaga o'z vaqtida jiddiy e'tibor berilmagani tufayli yoshlar o'rtasida radikal oqimlar, yot g'oyalar ta'siriga tushish holatlari uchrab turibdi.

Yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib beryapmiz, katta-katta lavozimlarni ularga ishonib topshiryapmiz. Ularda bilim bor, iste'dod bor, lekin, ayrimlari milliy zamin, milliy ma'naviyatimizdan uzoqlashib ketgani sezilib qolmoqda. Ular o'zları o'qib kelgan xorijiy davlatlardagi tajribani tez va shoshilinch amalga oshirmoqchi bo'lyapti. Ammo, bunday natijaga o'sha davlatlar necha yuz yillar davomida erishgani haqida o'ylab ko'rmayapti.

Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Pekin, afsuski, dunyodagi, yon-atrofimizda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan va ommabop shaklda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam.

Targ’ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman. Takror aytaman: ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo’lmaydi.

Ma’naviy targ’ibotni to’g’ri yo’lga qo’yishda ommaviy axborot vositalarining qanday katta ta’sir kuchiga ega ekanini, o’ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Ammo, bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz.

Ma’naviyatsizlik va g’oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo’lishi bilan bog’liq misollarni insoniyat tarixidan ko’plab keltirish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillikning oldingi bosqichlariga xos konsepsiyanlar va dasturlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar, xavfsizlik va tashqi siyosat masalalari yetarlicha o’rin egallaydi.

Ammo ularda negadir ma’naviy-ma’rifiy sohalar, ushbu io’nalishdagi islohotlar bilan bog’liq serqirra jarayonlar yetarlicha o’z aksini topmagan.

Natija esa ma’lum, ya’ni bugungi kunga kelib ma’naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko’tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O’zbekistonning mustahkam poydevorini qo’yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning keyingi davrga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasida albatta ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida bulim ajratilishi darkor.

Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo’lgan faoliyat ko’lami va salmog’i, ahamiyati va yo’nalishlari, bu jahhada ham natijadorlikka erishi zarurati O’zbekistonning 2023-2032-yillarga mo’ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni vauni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda.

Bu muhim vazifa, o’z navbatida, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot va badiiy ijodiyot sohalarining ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotdagi ta’sirchanligini yanada oshirishga doyr ko’shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda.

Yangi O’zbekistonni barpo etish nuqtai nazaridan bunday jarayon jamiyat ma’naviy hayotining bir bosqichidan ikkinchisiga o’tish davri bo’lib, bu boradagi o’zgarishlarning bir sifat va mazmundan ikkinchi sifat va mazmunga aylanishi bilan bog’liq ishlarni tizimli va yanada samarali bajarishimiz lozim.

Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g’oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma’naviy hayotiga ta’sir ko’rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo’lmoqda.

Bunday murakkabvaziyatdaanashundaybosimgabardoshdosh bera oladigan jamiyatni shakllantirish uchun kuyidagilar hayotimizning zaruriy talablariga aylanmoqda:

- turli ma'naviy buzg'unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizdaularga nisbatan ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyalarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratish;

- jaholat, umumiy saviyaning pastligi buzg'unchi g'oyalarga ishonuvchanlik vaularning ta'siriga berilish holatlarini bartaraf qilish uchun puxta ishlangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma'naviy ta'lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishiga erishish;

- bu borada ta'lim bosqichlari, ma'naviyat va ma'rifat tizimi uchun zarur o'quv va amaliy dasturlar tuzish vaularni joriy etish;

- aholining ma'naviy-ma'rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko'tarish, ushbu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya ishlarining aniqlash, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratish;

- axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyatni takomillashtirish;

- sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbiq etish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim.

Faqatjismoniy jihatdan baquvvat insonni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo insonni hamjismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish goyat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan nozik, qaltis sharoitda, hozirgi tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Biz taqdim etayotgan strategiyaning maqsadi milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir.

Shu munosabat bilan "Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat" konsepsiysi vauni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi. Bu, avvalo, milliy-g'oyaviy asoslarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning ma'naviy yuksalishiga erishish deganidir. O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirish va boyitishni anglatadi.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash - davr talabidir.

Shu maqsadda ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotdagi ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan dasturlar qabul qilamiz. Ijodkor ziyyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, uy-joy sharoitlarini yaxshilash

va qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatimizning muhim yo'naliishlari deb bilamiz.

Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshiriladi. Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantiramiz. Mamlakatimiz xududlarining madaniy yuksalish, xalq xunarmandchiligin qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq va samarali chora tadbirlar belgilanadi.

**2. Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar.** Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqaror taraqqiyot va xalqlarning tadrijiy rivojlanishiga rahna soladigan turli tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar tobora dolzarblashib bormoqda.

Bu, o'z navbatida, yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin va hur fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati nihoyatda muhim masalaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Azaliy milliy qadriyatlаримиз, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir.

Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelaetgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning taxdili ular aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotganini ko'rsatmoqda.

Barchamiz guvohmiz - bugun dunyo misli ko'rilmagan sur'atlar bilan keskin o'zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko'plab ijobiy jarayon yuz bermoqda. Ayni vaqtida odamlarning qalbi va ongini egallahga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda.

Afsuski, bugungi kunda ma'naviy ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakatimizdagи yangilanish sur'atlari, jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablaridan ortda qolmoqda.

Xalqimizning tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, millim va diniy qadriyatlаримизга qarshi qaratilgan, milliy o'zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbos qilishga yo'naltirilgan taxidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish, qo'llash ishlari ham talab darajasida emas.

Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi "jozibador" tasvirlar va media mahsulotlar tarqalishining oldini olishga qaratilgan ishlarning natijadorligi sezilmayapti.

Shu sababli biz mamlakatimizda ma'nnaviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak.

Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatları kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi.

Ma'lumki, karantin davrida barcha madaniy-ko'ngilochar tadbirlarni to'xtatib turishga majbur bo'ldik. Albatta, bu odamlar ruhiyatiga salbiy ta'sir etganini inkor etib bo'lmaydi. Mana shunday sharoitda xalqning ko'nglini ko'tarish - san'at ahlining muqaddas burchidir.

Yoshi ulug' insonlar yaxshi biladi, ilgari teatrlar chekka qishloqlargacha gastrologa chiqib, tomosha ko'rsatardi. Bu uchrashuvlar haqiqiy bayramga aylanib ketardi. Usha an'analarni davom ettirish zarurligiga, xalqimiz o'rtasida bunga ehtiyoj katta ekaniga joylarda aholi vakillari bilan muloqot paytida ko'p marta ishonch hosil qilmoqdamiz.

Ma'nnaviy targ'ibotni to'g'ri yo'lga ko'yishda ommaviy axborot vositalarining qanday katta ta'sir kuchiga ega ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz. Ammo, afsuski, bu kuchdan hamma vaqt ham samarali foydalana olmayapmiz.

Mana, o'zingiz ko'rib turibsiz, biz jamiyatimizda demokratiya, ochiqlik, oshkorlik, erkinlik muhitini yaratyapmiz va bu yo'lni qat'iy davom ettiramiz, so'z va ijod erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish masalasi bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi. Faqat axborot maydonida faoliyat ko'rsatayotgan jurnalist va blogerlardan iltimosimiz shuki, bu borada qabul qilingan qonun talablari hammaga birdek barobar ekanini esdan chiqarmaslik zarur.

Unutmaslik kerakki, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o'z vaqtida berib borilishi ayrim kimsalar tarqatayotgan yolg'on ma'lumotlarning oldini oladi. Buning uchun vazirlik va idoralarda tashkil etilgan axborot xizmatlari faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Hurmatli ziyorilarimiz mamlakatimizning bugungi nafasi, tub o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini xolis va ta'sirchan tarzda xalqimizga yetkazishda faol va tashabbuskor bo'ladilar, deb ishonaman.

Alovida ta'kidlab aytmoqchimanki, agar kimki ma'nnaviyat masalasi - bu faqat Ma'nnaviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz, bizning ishongan tog'imiz bo'lgan ilg'or ziyorilarimiz, barcha barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir.

Bu haqiqatni hammamiz chuqur tushunib,o’z faoliyatimizni shu asosda olib borsak, men ishonaman, ma’naviy-ma’rifiy sohada o’z oldimizga qo’yan vazifalarni albatta muvaffaqiyatli ado etamiz. Va bu natijalar boshqa sohalardagi yutuqlarimiz uchun ham, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun ham mustahkam asos bo’lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo’nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda.

Ayni paytda ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish masalalari yanada dolzarblashmoqda.

Yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma’naviy makonni va xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish bo'yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko'tarish va bu boradagi faoliyat tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma’naviyat va ma’rifat sohasida davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari, keng ko’lamli islohotlarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ishlarini samarali va tizimli tashkil qilish;

- oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o’rganish va sog’lomlashtirishga qaratilgan faoliyatni tizimli tashkil etish, “mahalla - tuman - viloyat - respublika” prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

- “Jaholatga qarshi - ma’rifat” g’oyasi asosida jamiyatda uzlusiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ’ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo’nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni o’z vaqtida amalga oshirish choralarini ko’rish;

- aholi, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi, ularni g’oyaviy jihatdan qaram qilishga yo’naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o’z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha har bir yil uchun aniq chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- oilaviy qadriyatlarga bepisand va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsiz qarash kabi illatlarga barham berishga yo’naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog’idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o’rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g’oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

- aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli amalga oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroficha tahlil qilish va baholash asosida butun mamlakatimiz miqyosidagi faoliyat samarasini oshirishga erishish;

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- ma'naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalarini amaliyatga samarali tatbiq qilinishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirishni yangi bosqichga ko'tarish;

- targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish tartibini yaratish va uni amaliyatda qo'llash mexanizmini takomillashtirish;

- ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyatga tizimli jorii etish.

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi turli faoliyat shakllari samarasini oshirish orqali jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu shiddatkor jarayonni yanada optimallashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish bilan bog'liq vazifalar ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyaz va urf- odatlarga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish ham diqqatimiz markazida bo'ladi, albatta.

**3. Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi.** Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifikatga, aholi barcha qatlamlarining axloqii tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzlusiz ta'lim tizimi aholimizning beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruratga aylanmoqda.

Aynan ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikkada'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli lishga undaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, maktab, oliv ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni,o'zaro hamkorlik vauyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, unda har bir mas'ul idoraning vazifasi va bирgalikda amalga oshiradigan chora-tadbirlarini aniq belgilab qo'yish zarur.

Yana bir muhim masala. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hokimlar hududiy kengashlar raislarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi shart.

Ma'naviy targ'ibot ishlarini har bir mahallada, ta'bir joiz bo'lsa, "mahallabay" usulida tashkil etmas ekanmiz, bu borada aniq natija bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunda har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiradigan ishlarimizni aniq belgilab olishimiz va jamoatchilik bilan bирgalikda ish olib borishimiz kerak.

Bu borada, ayniqsa, "Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy tamoyili asosida har bir mahallaga professor- o'qituvchilar va taniqli ziyyolilarning jalb etilayotgani, ularning bu ishga mas'uliyat va kuyunchaklik bilan yondashishiga erishish muhim ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari joylardagi hokimlar bilan bирgalikda bunday jonkuyar domlalarni munosib rag'batlantirib borish choralarini ko'rishi kerak.

Biz "Har bir nuroniy - besh nafar yoshga murabbiy" tamoyili bo'yicha muhtaram oqsoqollarimiz, kayvoni onaxonlarimizni tarbiyasi og'ir, ma'navii ko'makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktirib quiishga qaratilgan ibratli tashabbusni qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz.

Albatta, katta tajribaga ega bo'lgan nuroniyalarimiz o'zlarining hayotiy o'gitlari bilan yoshlarimizga to'g'ri io'l ko'rsatsa, buning foydasi katta bo'ladi. Ana shu ishlarni amalga oshirish uchun "Ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturi da ta'lim tizimi, mahalla, nuroniy, xotin-qizlar, yoshlar hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlarining vazifasi aniq belgilab qo'yilayotgani kutilgan natijani beradi.

Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azmu shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o'rganish hamda yoshlarimiz o'rtasida targ'ib etish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi taniqli olim va ijodkorlarni jalb etgan holda, "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi turkumida tarixiy-badiiy risolalarni tezroq tayyorlab, ko'proq adadda nashr etishni yo'lga qo'yishi lozim.

Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo’lgan tarix fani ham bundan mustasno emas.

Tarixga oid ilmiy-tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o’tmishimizdagi ko’pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixii qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Bir haqiqatni barchamiz chukur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo’lmaydi.

Ma’lumki, el-yurtimiz o’zining qadimiy o’tmishi davomida qancha-qancha unutilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta’kidlash kerakki, Vatanimiz hududida mavjud bo’lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon-u g’alaba yoki mag’lubiyat bo’ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo’ladimi - barcha-barchasi xalqimiz bosib o’tgan murakkab tarixiy yo’lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o’rganishimiz zarur.

O’tmishdagi yutuq va g’alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag’lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalqo’zining taraqqiyot yo’li va kelajagini to’g’ri belgilay oladi.

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O’zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim.

O’zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirish, xorijda va yurtimizda uni o’rganish bo’yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish - dolzarb vazifadir.

Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o’rtasida kitobxonlik darajasini oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Albatta, keyingi yillarda “Besh muhim tashabbus” doirasida bu yo’nalishda ko’p ishlarni amalga oshirdik. Pekin bugun ularni yangi bosqichga ko’tarishni vaziyatning o’zi talab etmoqda.

Yoshlarimizga zamonaviy ta’lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini to’g’ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g’oyalar ruhida tarbiyalash haqida jiddiy o’ylashimiz lozim.

Afsuski, bu masalaga o’z vaqtida jiddiy e’tibor bermaganimiz tufayli yoshlar o’rtasida radikal oqimlar ta’siriga tushish holatlari uchrab turibdi.

Dunyoga buxoriylar, beruniylar, termiziylar, moturidiylar, xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergen jonajon Vatanimiz yoshlari ulug’ ajdodlariga munosib bo’lib ulg’ayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.

Biz mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun avvalo uning beshta muhim ustuni va halqasini belgilab oldik. Shu halqaning eng muhim bo'g'ini, hech shubhasiz, ijodkor ziyojolarimiz, xususan, ma'naviyat vakillaridir. Ular jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirishga xizmat qilayotgan hayotbaxsh g'oyalarni amalga oshirishda barchaga, ayniqsa, yoshlarga o'rnak bo'lishlari zarur.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashqil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Biz ilm-ma'rifatni keng ma'noda tushunamiz. Shu sababli yurtimizda dunyoviy ta'lim dargohlari bilan birga diniy maktab va madrasalar, ilmiy-ma'rifiy markazlar tashkil etilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida ko'p asrlik ma'rifat xazinasini o'zida mujassam etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilayotgani buning yaqqol misolidir.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbliji va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib kolmoqda. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliyl dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur.

Yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiyy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish darkor.

Ushbu yo'nalihsdag'i ishlarimiz samarasini oshirish uchun yana ko'plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo'lajak va yosh onalarga e'tiborni kuchaytirish;
- bolalarni go'dakligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha eng muhim yo'nalihslarni belgilash;
- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish.

Navbatdagi dolzarb vazifa-joylarda, xususan, mahallalarda, xotin - qizlar o'rtasida olib borilayotgan ma'rifiy-tarbiyaviy ishlar samaradorligini kuchaytirish bilan bog'liq.

Shy ma'noda, necha yuz iillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizning

bebaho ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turadigan muhim masala bo'lib qolmoqda.

Buning uchun, takror aytaman, jamiyatimizni ma'navii tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlarni, tahliliy va targ'ibot materiallarini tayyorlash usulini, ularning metodologik asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Muxtasar aytganda, biz butun jamiyatdagi ma'rifat tizimini, ta'lim muassasalarini chinakam ma'naviyat va madaniyat o'chog'iga, barkamol avlodni tarbiyalash maskaniga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

**4. Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish.** Butungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas.

Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'ylaydi, bu borada amaliy choralarни ko'radi. Aks holda, u hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi.

Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalgalashda oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani uzlusiz rivojlantirishimiz zarur.

Sir emaski, hozirgi vaqtida aksariyat odamlar "mafcura" degan so'zga biroz hadiksirab qaraydi, uni demokratik jamiyatga begona deb hisoblaydi. Lekin biz mafcura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz.

Shu munosabat bilan ta'kidlab aytmoqchiman: biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi avvalo insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi.

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g'oya va ma'naviy yangilanish yo'nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi.

Afsuski, mazkur jabhada olib borilayotgan muayyan ishlar bilan birga, bir qator muammolar ham ko'zga tashlanmoqda.

Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy ta'siri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini g'oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda va bu tashvishli hol, albatta. Ushbu masalalarni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar esa, tor doirada amalga oshirilmoqda. Ularning ba'zilari hozirgi hayot voqeligi va uning talablaridan uzilib qolgani, ayrimlarining natijalari amaliyotga suet joriy etilyotgani ham kutilgan samarani bermayapti.

Shu bilan birga, fikrlar xilma-xilligi sharoitida, aholining turli tabaqalari vakillarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanish va islohotlar samarasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, milliy goya asosidagi umumiy yondashuv va tasavvurlar yetarlicha shakllanmagan. Turli mafkuraviy poligonlar ta'sirida yuz berayotgan xatarli jarayonlar mohiyatini anglash darajasi pastligi, bu haqda zarur bilim va yaxlit tasavvurning shakllanmagani esa, ushbu yo'nalishdagi

tahdidlarga qarshi kurash va jamiyatimizni goyasizlashish xavfidan sakdashga qaratilgan ishlarni takomillashtirish vazifasini o'rtaga qo'yamoqda.

Shuningdek, milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy profilaktikaning zamonaviy usul va vositalari ta'sirchanligini ta'minlaydigan, azaliy qadriyatlarimiz, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbob qilishga yo'naltirilgan buzg'unchi g'oyalalar va yot mafkuralarga qarshi faoliyatni hozirgi davr talablari darajasida tashkil etishga yordam beradigan samarali mexanizm shakllanmagan. Fuqarolar ongi va tafakkuridagi sifat o'zgarishlarining islohotlar sur'atlari va ehtiyojlariga hamohangligini ta'minlashga mas'ul davlat tashkilotlari, fuqarolik institatlari, OAV va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning ta'sirchan tizimi mavjud emasligi esa bu sohadagi ishlarmizning qoniqarsizligini ko'rsatmoqda.

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlik tarbiyasi, xalqimizning ezgu ideallari va oljanob maqsadlariga sadoqat g'oyalari shior darajasidagina qolib, milliy g'oyaning jahon tajribasidan o'tgan umuminsoniy qonuniyatlarini va O'zbekistonga xos zamonaviy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari joriy etilmagan. Yurtimizdag'i yangilanish jarayonlari va islohotlarga daxldorligini chukur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o'z o'rni va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo'lدا faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga ega bo'lgan zamonaviy shaxslarni tarbiyalashning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu esa sohada jiddiy bo'shliq mavjudligini yana bir marotaba isbotlamoqda.

Yana bir muhim jihat. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o'rtasidagi sog'lom muvozanatni to'liq ta'minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega va xalqimiz ma'naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, azaliy an'ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo'l qo'yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma'nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmining ta'siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan, uzlucksiz ta'lim tizimida milliy g'oya turkumidagi fanlarga yetarlichcha e'tibor berilmayotgani yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Shu jihatdan, jahonning eng ilg'or mamlakatlari allaqachon o'tgan va samarali tajriba to'plagan, ularning taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan g'oyaviy yangilanish bosqichining O'zbekistonga xos quyidagi ustuvor yo'nalishlari va dolzarb vazifalariga alohida e'tibor qaratishimiz kerak:

- mamlakatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishda g'oyaviy-ma'naviy omillar ta'sirini oshirish;
- jamiyatimizda yangi ma'naviy makonni barpo etish hamda xalqimizda dunyoviy tafakkur tamoyillarini kuchaytirish;
- turli tahdidlarga bardoshli davlat va rivojlangan fuqarolik jamiyatni qurishning mafkuraviy tamoyillarini mustahkamlash;

- fuqarolarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash.

Takror aytishga to'g'ri keladi, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar tuqnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari bashariyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba'zi hududlarda sun'iy ravishda beqaror vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatlar avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishini unutmasligimiz lozim.

Mana igundai o'ta tahlikali sharoitda hammamiz sezgir va ogoh bo'lishimiz, avvalo, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarimizni o'ylab yashashimiz kerak. Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlаримиз о'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur.

Bugungi kunda aksariyat odamlar, avvalambor, rahbarlar, davlat xodimlarining bilimsizligi, saviyasining pastligi, zamondan orqada qolayotgani, jadid bobolarimiz "jaholat" deb atagan illat islohotlar yo'lidagi jiddiy to'siq bo'lib qolmokda. Buni ham ochiq tan olishimiz lozim.

Biz ta'lim tizimiga, o'qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki jaholatga qarshi - ma'rifat, g'oyaga qarshi - g'oya bilan kurashish zarur, degan tamoyil hamon dolzarb bo'lib kelmoqda. Lekin Vatan, xalq taqdiri o'rtada turganda, nafaqat g'oya, kerak bo'lsa, qonun ham o'z kuchini ko'rsatishi shart.

Bugungi shiddatli, murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki hozirgi kunda bolalarimizni ota-onas, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda" Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta kurolga, zo'ravonlik, yovuzlik "virusi"ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamic.

Bularning barchasi biz uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangrashi zarur.

Biz - g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqimiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha - bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylanadirishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin.

Aynan ana shunday fazilatlarimizga tayanib, biz boshqalarga ergashuvchi emas, aksincha, doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib kelganmiz. Bilim, ma'rifat,

madaniyat bilan boshqalarga o'rnak bo'lganmiz. Bu - bizning qon-qonimizga, zotu surriyodimizga singib ketgan, milliy qadriyatimizga aylangan fazilat.

Afsuski, keyingi paytda ma'naviy hayotimizda bo'shashish, bo'shliq paydo bo'lgani tufayli ba'zi yoshlari yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham yetti yet begonalarga ko'r-ko'rona ergashmoqda.

Yoshlar tarbiyasida jamoatchilikning roli susayib borayotgani barchamizni tashvishga solishi lozim. Ilgari "Bir bolaga yetti mahalla - ota-onas", degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo, mahalla ahli, kayvoni keksalar, ziyorilar o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib bekorchi yuradigan yoshlari, oilaviy ajrimlar kam bo'lardi. Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi.

Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf - bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi.

Siyosatshunoslar o'rtasida: "Sen uxlaganingda, dushman uyg'oq bo'ladi", degan gap bor.

Ayniqsa, hozirgi zamonda, dunyodagi ilg'or xalqlar katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'aflatga botib, "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi.

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyasini farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog'chadan va maktabdan boshlab singdirishimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o'rganish kerak.

Mening qat'iy ishonchimga ko'ra, jamiyatda ta'limning nufuzini oshirish va yoshlarning kamolotga intilishini rag'batlantirish - bu barqaror va izchil taraqqiyotga erishish kafolatidir. Bularning barchasi, hech shubhasiz, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni zo'ravonlik va radikalizmning salbiy ta'siridan himoya qilishda yordam beradi.

Shu munosabat bilan barchamiz uchun quyidagi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi:

- aholi, ayniqsa, yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;

- ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun "Uchinchi Renessans sari" degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini takomillashtirish;

- maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini kullash;

- mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida barchamizda birgalikda kurashish, oila, muktab va mahalla hamkorligini mustahkamlashimiz va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish;

- barcha bo'g'indagi rahbarlar, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar tashkilotlari, ijodkor ziyolilarimiz, diniy ulamolar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, butun jamiyatuchun bu vazifa vijdon ishiga aylanishiga erishish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'naliqidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish;

- aholining g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi olib borilayotgan kurash samaradorligini oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatishda "oyina. uz elektron portali imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga mustaqillik g'oyalariiga, milliy an'analarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yurtimizda keyingi paytda ushbu yo'naliqidagi bo'yicha yangi tizim yaratilmoqda. Bu esa fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning zamonaviy, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etishda munosib ishtirokini ta'minlash omildir.

**5. Ma'rifatli jamiyat sari.** Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma'rifatli jamiyat to'g'risidagi g'oyalari, orzu-umid va armonlari, o'ylaymanki, ko'pchiligidan yaxshi tanish. Bu haqda ko'p gapirmasdan, birgina Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarini eslash kifoya.

Ajdodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz.

Ayni vaqtida yana bir haqiqatni ham esdan chiqarmasligimiz kerak. Eng katta, beba ho boyligimiz bo'lgan tinchlikka rahna solish, turli xalqlar o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishgaurinayotgan kuchlar ham, afsuski, yo'qemas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda, avvalo, doimiy hushyorlik va ogohlilik, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bunday xavf-xatarlarga qarshi faqat kuch ishlatish usullari bilan emas, balki, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish lozim.

Dunyoda ma'naviy tahdidlarning, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolimmoqda. Bunday xatarlarning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim.

Albatta, hayot bor ekan, uning o'tkir talablari, muammolari bo'lган va bundan keyin ham bo'ladi. Lekin har kanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, ilm va ma'rifat zarur. Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chukur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak.

Ma'rifatli jamiyatni barpo etishning dolzarb masalalariga hozirjavob bo'lisch, bu boradagi ishlarda mas'uliyatni doimo chukur his qilib yashash bugungi davr talabi bo'lib qoladi.

Bizning eng asosiy yutug'imiz - ko'pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagи voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir.

Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga mas'uliyat hissi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymokda. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti chuqur qaror topmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda.

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishda quyidagi omillarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish;

- davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamlı islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish;

- talaba yoshlar va professor-o'qituvchilarda Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hissini mustahkamlashga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlari hamda ma'naviy- ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;

- ushbu yo'nalishda ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummiliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazish zarur.

Albatta, xalqaro maydonda munosib o'rın egallash yo'lida zamonaviy innovatsion g'oyalilar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan islohotlarni amalga oshirish milliy taraqqiyot strategiyamizning ustuvor jihatidir.

**Yangi O'zbekiston - ma'rifatparvar davlat.** Ushbu sohada amalga oshirgan ishlarimiz jamiyatimizni yangi bosqichga ko'tarish, yuksak marralarni egallash, Uchinchi Renessans poydevorini qurishga xizmat qilayotgani hozirning

o'zida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish-pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash bo'lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir.

**6. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.** Hozirgi vaqtida dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millatchilik, diniy ziddiyatlar bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimizning buniyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Yanada ogoh va sergak bo'lish, eng asosiy boyligimiz bo'lган va biz xaqli ravishda faxrlanadigan ko'pmillatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani deb biladigan xar bir insonning muqaddas burchidir.

Ma'lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteta asosini tashkil etadi.

Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiyligi uyimiz - jonajon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratii davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda.

Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Etniko'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 140 ga yaqin milliy madaniy markaz yetakchi rol o'ynamoqda. Ular o'ziga xos madaniyati, tili, urf-odat va an'analarini, xalq xunarmandchiliginи rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro

boyitishiga, har birimizda ko'pmillatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda.

Ammo, bularning barchasi Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida erishgan dastlabki natijadir. Kelgusida bu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun biz oldimizga quyidagi maqsadlarni qo'yamoqdamiz:

- jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldidagi tengligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil etish;

- millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar rivojining muttasil monitoringini yo'lga qo'yish;

- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish;

- yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida o'tkazilayotgan millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, ma'ruzalar va boshqa tadbirlarning samarasini oshirish;

- millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarni o'rganish va ularni hal etishda xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida ana shu tajribadan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- millatlararo totuvlikni mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish, shuningdek, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha ta'sirchan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- millatlararo munosabatlar sohasidagi ishlar holatini joylarga chiqib tizimli o'rganishni tashkil etish, shu yo'nalishda qabul qilingan konsepsiya va "yo'l xaritasi"ni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, shuningdek, vazirlik va idoralar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish;

- chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish va millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyatni institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilano'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

- millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchuy kushimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

- jamiyatda ko'pmillatli katta oila his-tuyg'usini, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada

mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqligi ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash;

- millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakatimiz hududida va undan tashqarida fuqarolarning xukuqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-kuvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini yuksaltirish;

- O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarini, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Biz uchun eng muhim bo'lган ana shu masalaga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz, jumladan, milliy madaniy markazlar faoliyatini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur barcha ishlarni bajaramiz.

Ma'lumki, hozirgi vaqtida yurtimizda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligini ta'minlash, ularning bu boradagi huquqlarini himoya qilish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko'lami va miqyosi tobora kengayib borayotgan bunday amaliy ishlarimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ekani ayniqsa e'tiborlidir.

Biz xalqimiz, avvalo yosh avlodimiz, shuningdek, jahon jamoatchiligiga islam dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Islom dini - avvalo, tinchlik va do'stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma'rifat dinidir. Mana shu oliy haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlaymiz. Muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi.

Yurtimiz zaminida kechgan birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlarining ko'plab yorqin namoyandalari islam va jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shganlarini alohida qayd etmoqchiman.

Diniy bag'rikenglik azal-azaldan o'zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari pravoslav xristianlari hamda boshqa din va mazhab vakillariga mehr-shafqat va xayr-saxovat ko'rsatib, beg'araz yordam va ko'mak bergenlar.

Bugungi osuda hayotimizning qadriga yetish, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar o'rtasidagi bag'rikenglikni, fuqarolar orasidagi o'zaro xurmat, mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash barchamizning asosiy burchimizdir.

Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur", degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Bag'rikenglik va o'zaro xurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarining xuquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l ko'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoga manzur bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish taklifi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma'naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa ko'shganlarini tasdiqlovchi ilmiy natijalarini ko'rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish - biz uchun asosiy maqsaddir.

Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlар o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiyalar uchun teng va kulay sharoit yaratishga qaratilgan siyosat bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

## 7- Mavzu: Xavfsizlik va tashqi siyosat

### Reja:

1. Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati.
2. Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat - ustuvor vazifamiz.
3. BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.
4. Markaziy-Janubiy Osiyo va O'zbekiston taraqqiyoti.

**1. Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati.** Mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini har tomonlama mustahkamlash hududlarimiz daxlsizligi, jamiyatimizdagi xavfsizlik va barqarorlik, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgan, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda bu masalalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni inobatga olgan holda, biz Yangi O'zbekistonni barpo etishning dastlabki davridayoq tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashni faoliyatimizning ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida belgilab oldik. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, bu boradagi vazifalar turkumiga quyidagilar kiritildi:

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlarining jangovar kudrati va qobiliyatini oshirish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va mutanosib ravishda qarshi harakatlarni tashkil etish;

- fuqarolar, mnllatlar va konfessiyalararo tinchlik v a totuvlikni mustahkamlash;
- atrof-tabiiy muhit, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Mazkur vazifalarni ro'yobga chiqarishning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida keyingi yillarda bir qancha qaror va farmonlar, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi.

Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, chegaralarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyamiz shakllantirildi.

Aynan milliy armiyamiz mamlakatimizda erkin, ozod va farovon hayot bunyod etish, demokratax islohotlarni samarali amalga oshirish yo'lida ishonchli kafolat bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda harbiy boshqaruvning samarali tizimi shakllantirildi, harbiy tuzilmalarining tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko'rib chiqildi, qo'shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlash bo'yicha o'ta muhim loyihalar amalga oshirildi. Qurolli Kuchlar tarkibida turli ko'shinlarning o'zaro muvofiq holda va hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash yo'lida muhim chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Tariximizda birinchi marta o'z mohiyatiga ko'ra noyob tizim - harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa kudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon berdi. Eng muhimi, u "Armiya va xalq - bir tanu bir jondir" degan hal qiluvchi tamoyilni amalda ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimi prinsipial jihatdan mutlaqo yangi asosga o'tkazildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagи harbiy xizmatchilar umumiy sonining atigi 0,6 foizini tashkil etardi. Ofitserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor-yo'g'i uchta harbiy mutaxassislik bo'yicha olib borilar edi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida ko'shimcha ravishda yangi, zamonaviy harbiy ta'lim muassasalari tashkil etildi, kursantlarni o'qitish tizimi esa ko'p tarmoqli asosda yo'lga qo'yildi.

Yuqori bo'g'in ko'mondonlik ofitserlarini tayyorlash hamda mudofaa qurilishi sohasida ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bo'yicha eng zarur vazifalar samarali hal etilmoqda. Bu borada, ayniqsa, Qurolli Kuchlar akademiyasi g'oyat muhim o'rinnegallab kelmoqda.

Shuningdek, armiyaning asosiy tayanchi bo'lgan serjantlar korpusini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ilg'or xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan Serjantlar tayyorlash maktablarida ta'lim 26 ta yo'naliш va mutaxassislik bo'yicha olib borilmoqda.

Fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish tizimini isloh qilish bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Muddatli xarbiy xizmat bir yil etib belgilandi, harbiy xizmatchilarining ijtimoiy-maishiy sharoitlari, oziq-ovqat ta'minoti tubdan yaxshilandi. Muddatli harbiy xizmatni o'tab, rezervga bo'shatilgan yoshlarning ishga joylashishi va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi bilan bog'liq imtiyozlar tizimi belgilandi. Bularning barchasi harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit shakllanib, yoshlar o'rtasida harbiy xizmatning nufuzi keskin oshishida muhim omil bo'ldi.

Ana shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida fuqarolarning safarbarlik chaqiruv rezervi shaklidagi harbiy xizmatni o'tashini nazarda tutadigan o'ziga xos noyob tizim yaratildi. Bu tizimda yoshlar nafaqat zarur harbiy tayyorgarlikdan o'tadi, balki jismoniy va ma'naviy jihatdan chiniqadi. Ular o'zlarining fuqarolik mas'uliyati, Vatan himoyachisi sifatidagi muqaddas yigitlik burchini chuqr anglab, o'z yurtiga fidoyi inson bo'lib yetishadi.

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdag'i barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorlik bilan e'tirof etmoqda.

Hozirgi kunda onalar, bir vaqtlar bo'lgani kabi, o'z farzandlarini armiyaga ko'zda yosh, yurakda xavotir bilan emas, balki mening o'g'lim haqiqiy Vatan himoyachisi bo'ladi deb, yuksak ishonch va faxr tuyg'usi bilan kuzatmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda olib borilayotgan tub islohotlar natijasida milliy armiyamiz har qanday xavf- xatarga munosib zarba bera oladigan qudratli, tezkor va samarali kuchga aylanib bormoqda.

Albatta, koronavirus pandemiyasi tufayli o'tgan 2020 yil jahondagi barcha davlatlar qatori mamlakatimiz \dun ham jiddiy sinovlar yili bo'ldi.

Ana shunday g'oyat keskin sharoitda Qurolli Kuchlarimiz Sohibqiron Amir Temur bobomizning "Millatning dardiga darmon bo'lmoq - chin vazifangizdur", degan ezgu da'vatini o'ziga shior qilib oldi. Ular xalqimizga yanada yaqin bo'lib, safarbarlikni oshirib, qisqa muddatlarda o'z oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni munosib ado etganini barchamiz cheksiz minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Ayniqsa, bujarayondaharbiy shifokor vaxizmatchilarimiz, xukuq-tartibot organlari va qutqaruv xizmati xodimlari haqiqiy mardlik va jasorat namunasini, yuqori kasbiy mahoratni namoyon etganlari alohida tahsin va e'tirofga sazovordir.

Bunday murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasining tashkil etilgani harbiylar va ularning oilalari salomatligi va hayotini muhofaza qilish borasida oldimizga ko'yilgan dolzarb vazifalarni tezkor va samarali hal etish imkonini beradi.

Mintaqamizda yagona bo'lgan ushbu yangi akademiya harbiy tibbiyot sohasida, favkulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etadigan yuqori malakali va ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Akademiyada jahon andozalariga mos innovatsion ishlanmalar hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan uquv- laboratoriya xonalari va eng zamonaviy moddiy-texnik baza yaratilmoqda.

Mintaqamizda ochiqlik va milliy manfaaglarni o'zaro hisobga olish tamoyillariga asoslangan yangi siyosatni amalga oshirish doirasida Qurolli Kuchlarimiz Markaziy Osiyo va dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi hamkasblari bilan yaqin sheriklik aloqalarini o'rnatdi va mustahkamlamoqda.

So'nggi yillarda biz bir qator qo'shma o'quv mashg'ulotlarini bиргаликда о'tказдик. Shuningdek, yuqori darajadagi harbiy delegatsiyalarining tashriflarini tashkil etdik, tezkor va jangovar tayyorgarlik borasida tajriba almashdik.

Bizning tobora kuchayib borayotgan bunday hamkorligimiz bugungi kunda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni, Markaziy Osiyo deb atalmish umumiy uyimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Dunyodagi eng yuksak standartlar darajasida tashkil etilgan uzluksiz harbiy ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Hozirgi paytda yangidan tuzilgan, mohiyat e'tibori bilan noyob bo'lган Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mamlakatimizdagi zamonaviy oliy ta'lim muassasalari qatoridan munosib joy egalladi.

Shu bilan birga, boshqaruvning tezkor-strategik bo'g'inida xizmat qiladigan ofitser kadrlarni tayyorlaydigan yangi fakultet tashkil etildi, Qurolli Kuchlar akademiyasida ko'shimcha ta'lim infratuzilmalari foydalanishga topshirildi. Maxsus vazifalarni bajaradigan bo'linmalar uchun harbiy xizmatchilar tayyorlaydigan o'kuv markazi faoliyati yo'lga qo'yildi. Milliy gvardianing Harbiy-texnik instituti faoliyati takomillashtirilib, unga universitet maqomi berildi.

Jangovar tayyorgarlikning modernizatsiya qilingan, moslashuvchan tizimini joriy etish bilan uyg'un holda, Qurolli Kuchlarning yangi tashkiliy tuzilmaga o'tkazilishi milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini bir necha barobar oshirdi.

Bugungi kunda bizning harbiyalarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darjasini bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lган irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharaflı kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg'otmoqda.

Ayni paytda jahondagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va bashorat qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko'rishni talab etmoqda.

Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish tizimini yanada mustahkamlash, qo'shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, jangovar tayyorgarlikni tashkil etish samaradorligini oshirish, Qurolli Kuchlarni eng yangi

qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa-sanoat kompleksini rivojlantirish bo'yicha faol olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonlariga ilg'or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda Qurolli Kuchlar faxriyalarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun yaqin yillarda quyidagi strategik vazifalarga e'tibor qaratish zarur:

- milliy xavfsizlik kabi o'ta muhim sohani qonun talablari asosida boshqarish samarasini oshirish;
- Qurolli Kuchlar qurilishining tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish;
- qo'shirlarni tayyorlash borasidagi tadbirlarni rejalashtirishga oid yangicha yondashuvni ishlab chiqish;
- barcha bo'g'indagi professional harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- qo'shirlarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan qayta ta'minlash;
- harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish;
- yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzlusiz ish olib borish.

Shu bilan birga, yuqoridagi strategii vazifalarni amalga oshirish uchun asosiy sa'y-harakatlarimizni quyidagi ustuvor vazifalarga qaratish muhim.

Birinchidan, mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati va joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish va faollashtirish lozim.

Barcha bo'g'indagi hokimiyat organlari rahbarlari qo'shirlarning kundalik hayotida, harbiy shaharchalar barpo etish va ularning infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatchilarda g'urur, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini, jangovarlik ruhi va istalgan paytda Vatan himoyasiga tayyorlik hissini tarbiyalashda faol ishtiroy etishi shart.

Ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqishda asosiy mas'uliyat Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklanadi. Bu borada amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar keng dunyoqarash va yuksak intellektual darajaga ega bo'lgan, o'z fuqarolik burchini ado etishga mas'uliyat bilan yondashadigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilishi darkor.

Shuningdek, harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, jumladan, ularni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Qurolli Kuchlarimiz barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan haqiqiy mardlik va yuksak vatanparvarlik maktabiga aylanishiga erishishimiz zarur.

Ikkinchidan, harbiy okruglar qo'shirlarining jangovar tarkibini yanada takomillashtirish, jangovar shayligi va harbiy qobiliyatini kuchaytirish,

shuningdek, ko'shirlarni boshqarish tizimini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali armiyamizning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish salohiyatini oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash va tashkiliy-shtat tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha konseptual hujjatlar yangilangani munosabati bilan Qurolli Kuchlarni rejalashtirish va ularni ko'llashning me'yoriy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish lozim.

To'rtinchidan, ko'shirlarning jangovar va tezkor tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish, o'quv mashqlari faolligini, ularning samaradorligini oshirish - muhim vazifadir.

O'quv mashg'ulotlari harbiy bo'linmalarni imkon qadar to'liq qamrab olgan va o'zaro hamkorlikda harakat qiladigan tuzilmalarни jalb etgan holdao'tkazilishi lozim. Shu asosda boshqaruv organlari va bo'linmalar imkoniyatlari, askardan tortib komandirgacha bo'lган har bir harbiy xizmatchining xatti-harakati va jangovar vazifalarni bajarishda qo'llanayotgan taktikaning maqsadga muvofiqligi va to'g'ri ekanini baholash mumkin bo'ladi.

Beshinchidan, qo'shirlarning real ehtiyojlarini tizimli ravishda tahlil qilib borish, ularning zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanish darajasini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak. Bu borada Mudofaa vazirligi, Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan 2021-2024 yillarga mo'ljallangan qo'shirlarni modernizatsiya qilish va zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqilishi lozim.

Oltinchidan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirish biz uchun eng muhim vazifa bo'lib qoladi. Bu borada 2025 yilgacha mo'ljallangan Qurolli Kuchlarni ijtimoiy rivoj-lantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish dolzarb ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash hamda bu borada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or innovatsiyalarni keng tatbiq etish borasidagi faoliyatimizni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqamiz.

Jumladan, barcha darajadagi ko'mondonlik va ^boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, kushinlarda avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari va komplekslarni joriy qilish orqali ularning hamkorlikdagi operativ va jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, ax orot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash istiqboldagi dolzarb vazifalardan bo'lib qoladi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qat'iy davom etamiz. Harbiy ilmni rivojlantirish borasida harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbii san'at tarixini chuqur o'rganib, qo'shirlarning tayyorgarlik borasidagi usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifalariga ustuvor ahamiyat beramiz.

Bunda harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlar, jumladan, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirishni dolzarb vazifa, deb bilamiz.

Bu maxsus ta’lim maskanlarida tahlil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg’usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san’atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent shahrida barpo etilgan “G’alaba bog’i” majmuasi va “Shon-sharaf” muzeyini harbiy xizmatchilar, mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlari uchun harbiy tarixni va buyuk ajdodlar qahramonligini o’rganish bo’yicha ilmiy markazga aylantirganimiz zamirida chuqur ma’no bor. Chunki, vatanparvarlik hissi, avvalo, buyuk tariximizdan, ajdodlarimiz jasoratidan oziqlanadi.

Mazkur vazifalarning bajarilishi mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlaydi va pirovardida mustaqilligimizni mustahkamlab, Vatanimiz qudrati, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**2. Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat - ustuvor vazifamiz.** XXI asrdagi global o’zgarishlarning mamlakatimiz tashqi siyosatiga ta’siri muhim masala bo’lib, u O’zbekiston diplomatiyasi uchun o’ta dolzarbdir.

O’zbekiston xalqaro maydonidagi vaziyat va yuzaga kelayotgan har qanday tahlikadan qat’i nazar, o’zining mustaqilligi va suvereniteta, xavfsizligi va barqaror ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti hamda barcha fuqarolarning farovonligi ishonchli tarzda ta’milanishiga qaratilgan siyosat olib bormoqda.

So’nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yaqin qo’shnichilik muhiti tobora mustahkamlanayotgani yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda.

O’zbekistonning chuqur o’ylangan, pragmatik va aniq yechimlarga asoslangan ichki hamda tashqi siyosati o’zining hayotiyligi, oddiy odamlarning ehtiyoj va manfaatlariga javob berishi bilan xalqaro hamjamiyat e’tirofiga sazovor bo’lmoqda.

Bu ezgu maqsadlar amalda o’z ifodasini topayotgani nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqqa xalqlari hayotida muhim o’zgarishlar boshlanayotganidan dalolatdir. Umuman, Yangi O’zbekistonning yangi tashqi siyosati yurtimizni taraqqiy toptirish, fuqarolarimiz uchun munosib turmush

darajasini yaratish, ularning kelajakka bo’lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgani bilan e’tiborga sazovor.

Mamlakatimiz ichki hayotida kuzatilayotgan ochiqlik va yangilanishlar, shuningdek, iqtisodiyotni liberallashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish, ta’lim, ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish, fuqarolar faolligining o’sishi va inson huquqlari himoyasiga e’tibor - bularning barchasi, hech shubhasiz, O’zbekistonning tashqi siyosatiga ijobjiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Ma’lumki, bundan besh yil oldin qabul qilingan Harakatlar strategiyasida davlatimizning tashqi siyosat sohasida quyidagi eng muhim yo’nalishlari belgilab berilgan edi:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do'stona qo'shnichilik munosabatlari muhitini yaratish;
- O'zbekiston Resggublikasining xalqaro nufuzini yukaltirish, dunyo hamjamiyatiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida xolis axborotni yetkazish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-hukuqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- O'zbekiston davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini tartibga solish.

Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, uning tashqi dunyoga ochiqligini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgandir.

O'tgan davrda Rossiya, Xitoy, AQSh, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari kabi dunyoning olis va yaqin mamlakatlari bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlarga erishildi va "yo'l xaritalari" tasdiqlandi.

Oliy va yuqori darajadagi tashriflar davomida mamlakatimizning milliy manfaatlariga mos keladigan hamda xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosiy yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi ustuvor yo'nalishlari va yondashuvlari tashqi siyosiy boshqaruv tuzilishini tubdan isloh qilishni talab etdi. Tashqi ishlar vazirligining faoliyati qayta ko'rib chiqildi, uning tarkibida yangi bo'linmalar tashkil etildi, turli mamlakatlarning yirik shaharlarida vakolatxonalar va bosh konsulliklar o'z faoliyatini boshladi. Diplomatik faoliyatning iqtisodiy tarkibi kuchaytirib borilmoqda.

Xalqaro maydondagi hamkorligimiz, tabiiyki, ilg'or dunyo tajribasini o'rganish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yo'lga ko'iish orqali O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni hal qilishga yordam berish, mamlakatimizda qulay amaliy va investitsion muhitni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Bu borada O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasi xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, chet el investitsiyalarini, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy eksport geografiyasini kengaytirish sohasida yangi ufqlarni ochmoqda.

So'nggi 10 yil ichida birinchi marta mamlakatimiz Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining kredit xavfi reytingidagi pozitsiyasini yaxshiladi.

Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida yurtimiz 7 ta pozitsiyaga yuqori ko'tarildi va biznesni ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 190 ta davlat orasida 8-o'rinni egallab, eng yaxshi islohotchi mamlakatlar safiga kiritildi.

Dunyodagi eng obro'li jurnallardan biri - "Economist" (Buyuk Britaniya) O'zbekistonni yil mamlakati - 2017 yildan e'tiboran islohotlar eng jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan davlat sifatida e'tirof qildi.

O'zbekiston 86 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejimni va 57 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan vizali rejimni joriy qildi. Bu,o'z navbatida, O'zbekistonga sayyoohlар tashrifi 2016 yilga nisbatan 3 barobar o'sishi imkoniyatini yaratdi.

Ma'lumki, yon qo'shnimiz bo'lgan Afg'oniston Markaziy Osiyo mintaqasining bir qismi hisoblanadi. O'zbekiston va Afg'oniston xalqlari asrlar davomida yagona madaniy-sivilizatsion makonda yashab keladi. Afg'oniston hududida ko'plab mutafakkir olimlarimiz yashagan va o'zidan ulkan meros qoldirgan. Shuninguchun ushbu zaminda tezroq tinchlik o'rnatilishi, mamlakatdagi barcha siyosiy kuchlarning manfaatlarini hisobga olgan holda hamda ularning ishtirokida inklyuziv hukumat tuzilishini ko'llab- quvvatlaymiz.

Biz Afg'oniston xavfsizligini mamlakatimiz xavfsizligi va butun mintaqaning barqarorligi va farovonligi kafolati, deb qabul qilamiz va shunday bo'lib qoladi.

Mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo'nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategiyu sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat. Bizning bunday yondashuvimiz iqtisodiyotni modernizatsiyalash, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda hamkorlik uchun kulay shart-sharoitlarni yaratish vazifalarining samarali hal qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston uchun dunyoning Rossiya, Xitoy, AQSh kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiy tilli davlatlar bilan o'zaro manfaatli, samarali va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rossiya Federatsiyasi bilan ko'p qirrali strategik hamkorlik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. Strategik hamkorlik to'g'risidagi, Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar, shuningdek, Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi strategik hamkorlikni chukurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya o'zaro munosabatlarimizni yangi mazmun bilan to'ldirmoqda.

Mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-iqtisodiyot, neft-kimyo, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi, madaniyat, turizm, mehnat migrantlariga munosib sharoitlar yaratish va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston va Rossiya xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-kuvvatlab kelmoqda. Ikki mamlakatning tashqi siyosat, tashqi savdo, mudofaa mahkamalari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatlarimiz BMT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston tovar ayriboshlash hajmini oshirish, sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish, transport va tranzit sohasidagi aloqalarini kengaytirish borasidagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarishdan manfaatdordir.

Rossiya bilan tibbiyot, ilm-fan, ta’lim, madaniyat, sport va turizm sohalari bo'yicha ham o'zaro aloqalarni yanada kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Ikki davlat huquqni muhofaza qilish idoralarining terrorizm va ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik va qurol-yarog'larning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi o'zaro faol hamkorligini davom ettirish biz uchun goyat muhim vazifa bo'lib qoladi.

Biz Rossiya Federatsiyasi bilan xavfsizlik sohasida o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish prinsiplariga asoslangan sheriklik munosabatlarni kengaytirish orqali Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish vazifalarini birgalikda hal etish bo'yicha hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafдоримиз.

Shu bilan birga, harbiy va harbiy-texnik sohalarda amaliy sheriklikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Dunyo siyosati va iqtisodiyotida eng muhim rollardan birini o'ynayotgan Xitoy Xalq Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida yaqin qo'shnichilik, do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanmoqda. O'zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi ko'shma deklaratsiya, Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chukurlashtirish va rivojlantirish haqidagi ko'shma deklaratsiya va boshqalar tashkil qilmoqda.

Ikki tomonlama, mintaqaviy vaxalqaro ahamiyatga molik ko'plab masalalar bo'yicha tashqi siyosat mahkamalarimiz o'rtasidagi yillik siyosiy maslahatlashuvlar o'zaro hamkorlikning muhim bo'g'iniga aylandi.

Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgan O'zbekiston - Xitoy madaniy-gumanitar aloqalari ham yuqori darajaga ko'tarilib bormoqda.

O'zbekiston uzoq muddatli manfaatlariga mos keladigan barcha istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha sheriklikni bundan buyon ham faol rivojlantirish va mustahkamlash, ikki davlatning barqarorligi, xavfsizligi, izchil ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi hamkorlikni davom ettirish siyosatini olib boradi.

O'zbekiston Xitoy Xalq Respublikasi bilan konstruktiv siyosiy muloqotni kengaytirish va barcha sohalarda ko'p qirrali amaliy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kengaytirishga intiladi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni so'zsiz amalgalashish, ikki tomonlama savdoning jadal o'sishini ta'minlash, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari va boshqa sohalarda ustuvor loyihalarni birgalikda ilgari surish O'zbekiston va Xitoy davlatlariningo'zaro hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, madaniy-gumanitar yo'nalishda, avvalo, ilm-fan, ta'lim, innovatsiyalar va turizm yo'nalishlaridagi aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan teng huquqlilik, o'zaro hurmat va ishonch, bir-birining manfaatlarini inobatga olish tamoyillari asosida barqaror rivojlanib borayotgan strategik hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Ikki davlat o'rtasidagi turli darajadagi muntazam muloqotlar ko'p qirrali hamkorlikni samarali rivojlantirish hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, gumanitar va boshqa sohalarda salmoqli natijalarni ko'lga kiritish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasida an'ana tusini olgan siyosiy maslahatlashuvlar doirasida o'zaro munosabatlarga doir keng ko'lamli masalalar, mintaqavii va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb muammolar, jumladan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash borasida hamkorlik davom ettiriladi.

Biz ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kelishuvlarni amalga oshirishga sodiq qolamiz hamda besh yilga mo'ljallangan ilk Harbiy hamkorlik rejasini amalga tatbiq qilish orqali mudofaa sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Mamlakatlarimizning uzoq muddatli manfaatlariga mos keladigan barcha istiqbolli yo'nalishlarda sheriklik va hamkorlikni izchil mustahkamlab, kengaytirib borish tarafdorimiz.

O'zbekiston - Turkiya munosabatlarini har tomonlama mustahkamlash va rivojlantirish Yangi O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'nalishiga to'liq mos keladi. Turk xalqi bilan tilimiz, dinimiz, an'ana va urf-odatlarimizning umumiyligi o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirish va kengaytirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

O'zbekiston Turkiyaga o'zining muhim va uzoq muddatli hamkorli sifatida qaraydi, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, hamkorlikni o'zaro ishonch tamoyillari asosida rivojlantirish tarafdoridir.

Ikki mamlakat o'rtasida uzoq muddatli investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish orqali o'zaro savdo hajmini muttasil oshirib borish va diversifikatsiya qilish O'zbekiston manfaatlariga to'la mos keladi.

O'zbekiston Turkiya bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishslash, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, qadoqlash, qayta ishslash va eksport qilish bo'yicha majmualar barpo etish, to'qimachilik va terini qayta ishslash sanoatida zamonaviy qo'shma korxonalar yaratish, xususan, birgalikda paxta tolasi va teri xomashyosini chuqur qayta ishslash orqali tayyor brendli mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarishni yo'lga qo'yish, farmasevtika sohasida hamkorlikka oid yangi loyihalar tuzish va amalga oshirish masalalarida hamkorlikka tayyordir.

Shu bilan birga, turizm sohasida o'zaro hamkorlik, xususan, zamonaviy sayyohlik ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish, birgalikda sayyohlik mahsulotlarini taklif etish, sohada malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha aloqalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqli.

Transport va logistika masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Mamlakatlarimizni bir-biri bilan bog'laydigan transport yo'laklarini kengaytirish savdo-iqtisodiy aloqalar rivojining muhim omilidir. Ikki mamlakat hududi orqali o'tuvchi xalqaro transport yo'laklarining raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish maqsadida tranzit tariflarini maqbullashtirish va preferensiyalar taqdim qilish masalalarida hamkorlik qilish zarurdir.

Koreya Respublikasi bilan o'zaro yaqin hamkorlikning bugungi yuksak bosqichiga ko'p jihatdan oliy darajadagi muntazam muloqotlar tufayli erishilmoqda.

Koreya Respublikasi mamlakatimizda sanoat va infratuzilmani diversifikatsiya va modernizatsiya qilishga doir ustuvor dasturlarni amalga oshirishda yetakchi investitsion va texnologii sheriklardan biri hisoblanadi.

Ikki davlat o'rtaida ilmiy-texnik, tibbiyat vata'lim, madaniy-gumanitar sohalardao'zaro munosabatlar kengaymoqda.

O'zbekistonda Koreyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qo'shma investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish, eng avvalo, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida mineral va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil qilishni rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlaymiz.

Zamonaviy texnologiyalarni keng ko'llash asosida shaharni boshqarish, transport tizimi va uy-joy communal xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha samarali tizimni tashkil etishda Janubiy Koreyaning ilg'or tajribasidan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shaharsozlik, arxitektura va landshaft dizayni sohalarida o'zaro faol hamkorlik qilish muhimdir.

Bevosita Koreya investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini, imtiyozli kreditlarini faol jalb qilish hamda sanoat, energetika, infratuzilma, avtomobilsozlik, fan va innovatsiyalar, sog'liqni saqlash va turizmni rivojlantirish sohalarida yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy-texnik yordam ko'rsatilishi mamlakatimiz manfaatlariga javob beradi.

Yaponiya bizning muhim strategik sherigimiz hisoblanadi. O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha hamkorlikda ko'p ishlar qilindi. Yaponiya hukumati O'zbekistonidagi islohotlar va iqtisodiy modernizatsiyani qo'llab-quvvatlab kelmoqda va shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashmoqda.

O'zbekistonning Yaponiya bilan ikki tomonlama ko'p qirrali sheriklikni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish borasidagi intilishi qat'iydir.

O'zaro savdo hajmini yanada oshirish, investitsiyaviy, texnologik, moliyaviy va moliyaviy-texnik hamkorlikni kengaytirish msalalari biz uchun ustuvor hisoblanadi.

Energetika, mashinasozlik, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, turizm va boshqa ustuvor yo'naliishlarda, avvalo, Yaponianing yetakchi kompaniya va banklarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb qilgan holda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish muhimdir.

Bundan tashqari, hududlararo aloqalarni, tartibli mehnat migratsiyasi, ta’lim, sog’lijni saqlash, madaniy almashinuv sohalarida hamkorlikni kengaytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O’zbekiston Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorlikni o’z tashqi siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri deb biladi. So’nggi yillarda O’zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan barcha jabhalardagi munosabatlari jadal sur’atlarda rivojlanib borishi natijasida o’zaro manfaatli hamkorlikning yangi davri boshlandi. O’zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o’rtasida sheriklik va hamkorlik kelishuvi asosida siyosiy muloqot, savdo- iqtisodiy aloqalar, sarmoya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik hamda inson huquqlari bo’yicha hamkorlik va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalar jadal rivojlanmoqda.

Yevropa parlamentida siyosiy, ishbilarmon doiralar, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutu vakillari o’rtasida yuqori darajadagi muloqotni ta’minalash orqali O’zbekiston va Yevropa Ittifoqi o’rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida “Yevropa Ittifoqi O’zbekiston parlament hamkorlik qo’mitasi tashkil etildi.

Parlament hamkorlik qo’mitasi faoliyat madaniyat, ta’lim, ilm-fan sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni, shuningdek, fuqarolar o’rtasida aloqalarni rivojlantirish, keng doiradagi konstruktiv uchrashuvlar va parlament diplomatichen orqali O’zbekiston va Yevropa Ittifoqi institutlari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni kuchaytirishga qaratilgan.

Yevropa komissiyasining texnikaviy ko’magida biznes va turizmni rivojlantirish, transport logistikasi, chegaralarni boshqarish, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, xavfsizlik va boshqa sohalarda 40 ga yaqin loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda YeIga a’zo davlatlardan jalb qilingan investitsiyalar ishtirokida mingdan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

O’zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni o’z tashqi siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan va bu siyosat o’zgarishsiz qoladi.

YeI bilan turli sohalardagi o’zaro manfaatli hamkorligimizni teng huquqlilik va sheriklik asosida kengaytirishdan manfaatdormiz.

O’zbekiston ko’p qirrali hamkorlikni, eng avvalo inson kapitali va demokratik yangilanishlar, biznes, investitsiya va innovatsiyalarni ilgari surish, “yashil” taraqqiyot, ekologiya, madaniy almashinuv va boshqa yo’nalishlarda yanada kengaytirishni qo’llab-quvvatlaydi.

O’zbekiston va Yevroittifoq o’rtasida kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to’g’risidagi yangi bitim mamlakatimiz va YeI bilan hamkorlikni yuqori bosqichga ko’tarishiga ishonamiz.

O’zbekistonning Birlashgan Arab Amirliklari, Mier, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Qatar va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari yangi darajaga ko’tarilmoqda. Shuni qayd etish kerakki, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan o’zaro foydali va har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash O’zbekistonning tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi.

Eng muhimi, o'zaro manfaatli, ochiq va amaliy sheriklik ruhidagi tashqi siyosat borasida amalga oshirayotgan salmoqli ishlarimiz mohiyat e'tibori bilan Vatanimizning butunlay yangicha qiyofasini yaratishga xizmat qilmoqda.

Amalga oshirgan ishlarimiz salmog'iga qaramasdan, yaqin kelajakda e'tiborni qaratishimiz lozim bo'lgan bir qancha masalalar ham mavjud.

Biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko'lamli ishlarni - milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz. Olis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko'pqirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz.

Kelgusi yillarda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat beriladi:

Birinchidan, davlatimiz olib borayotgan ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosatni inobatga olib hamda uzoq muddatli strategik maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi takomillashtiriladi.

Ikkinchidan, asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, AQSh, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali vao'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytiramiz.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi ko'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlaymiz.

To'rtinchidan, qo'shni Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatilishiga qat'iy ishonamiz va bu ezgu yo'lida amaliy yordamni bundan keyin ham ayamaymiz.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyonni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Bu yirik loyihaning ro'yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Oltinchidan, inson huquqlarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi bo'yicha erishayotgan yutuqlarimizni tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlab boramiz.

Yettinchidan, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarimizni yanada mustahkamlash ishlariga alohida e'tibor qaratamiz. Yaqinda tashkil etilgan Vatandosh jamoat fondi shu yo'ldagi muhim amaliy qadamdir.

Shuningdek, siyosiy-iqtisodiy munosabatlar doirasini kengaytirish uchun chet davlatlarda O'zbekistonning yangi vakolatxonalarini ochish, xodimlar sonini ko'paytirish ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz.

3. BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik. Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi.

Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan muloqotni va hamkorlikni rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratmoqda. So'nggi yillarda BMT va uning institutlari - Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar boshqarmasi va Inson huquqlari kengashi bilan o'zaro hamkorlik darajasini oshirishga erishdik.

Orol muammosini hal etishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan tuzilgan Orol dengizi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi o'z amaliy faoliyatini boshladi.

Biz qatiy ishonamiz - Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rinni tutadi. O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdir. O'zbekiston Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish bo'yichao'z pozitsiyasida sobit turadi.

O'zbekiston BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish janoblarining mamlakatimizga tashrifi yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ning amaliy ijrosini ta'minlash bo'yicha izchil choralar ko'radi.

BMT tomonidan Orol fofjasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdirimiz.

O'zbekiston tomonidan taklif etilgan globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro hukuqiy xujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilishni tezlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasi"ni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi sharoitida har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratish zarurati yaqqol namoyon bo'ldi. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to'g'risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqish to'g'risidagi taklifimiz dolzarbligicha qoladi.

Biz BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va o'zaro samarali hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi.

MDH O'zbekiston uchun shunchaki muloqot, fikr almashish va qarashlarni solishtirish "maydoni" emas. Bu tuzilma biz uchun ustuvor sohalarda amaliy hamkorlik qilishning g'oyat muhim institutidir, Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar esa bizning doimiy sheriklarimiz, ko'shnilarimiz va do'stlarimizdir.

MDHda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlar natijadorligini oshirish va ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

Bugungi kunda biz MDHda o'z milliy koordinatorimiz darajasini Tashqi ishlar vaziri o'rinosdan Bosh vazir o'rinosdagiacha ko'tardik, MDH Iqtisodiy kengashidagi o'z ishtirokimizni tikladik. Hamdo'stlikning biz avval ishtirok etmagan tarmoq organlari faoliyatida ishtirok etishga tayyormiz.

Bizning pirovard maqsadimiz - O'zbekistonning Hamdo'stlik doirasidagi hamkorligini faollashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishdir.

Shu munosabat bilan MDHda O'zbekiston ishtiroki quyidagi ustuvor iunalishlarga qaratilgan.

Birinchidan. Biz Hamdo'stlik makonida hech qanday istisno va cheklavlarsiz tez fursatda to'laqonli erkin savdo hududini shakllantirish tarafdomiz. O'zbekiston MDHga a'zo mamlakatlar bilan savdo, investitsiya, innovatsiya va moliya sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor. Biz vechur loyihalar va iqtisodiy zonalarni birgalikda rivojlantirishga tayyormiz.

Ikkinchidan. Transport va kommunikatsiyalar sohasi, MDH makonida samarali integratsiyalashgan transport tizimini rivojlantirysh, mintaqamizning ulkan tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish strategik muhim yo'nalishdir. Ma'muriy tartibot va reglamentlarni takomillashtirish, yuk tashuvlari va tranzit uchun o'zaro preferensiyalar taqdim etishni bu boradagi ishlarning muhim jihatlari, deb hisoblaymiz.

Uchinchidan. Amaliy ilmiy-texnik hamkorlik va ta'lim sohasidagi almashinuvni kengaytirishga hamkorlikdagi harakatlarimizning ustuvor yo'nalishi sifatida qaraymiz. Viz Rossiyanine nufuzli oliv ta'lim muassasalari bilan birgalikda to'plagan tajribamiz asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha qo'shma dasturlar, yuqori texnologiyalar sohasida loyihalar, shuningdek, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishni qo'llab-kuvvatlaymiz.

To'rtinchidan. Turizm sohasida katta istiqbollar mavjud. Fikrimizcha, MDHdagi mavjud keng imkoniyatlar va ulkan turizm salohiyati, afsuski, haligacha to'liq ishga solinmagan.

Beshinchidan. Biz harbiy-texnik sohadagi kooperatsiya darajasini oshirish, mamlakatlarimiz o'rtasidagi mavjud shartnomalar va bitimlar doirasida qo'shma dastur va loyihalar ishlab chiqishdan manfaatdormiz.

Oltinchidan. Barcha bunyodkorlik rejalarimizni faqat tinchlik va barqarorlik sharoitida, xavfsizlikka tahdid soluvchi zamonavii xavf-xatarlarga o'z vaqtida munosib javob qaitarish orqali ro'yobga chiqarish mumkinligi ayon haqiqatdir.

Shu munosabat bilan jinoyatchilik, terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va odam savdosiga qarshi murosasiz kurashish sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar yo'nalishidagi hamkorlik muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston MDHga a'zo davlatlar bilan hamkorlikda Afg'oniston muammosini siyosiy yo'l bilan hal qilish bo'yicha ko'maklashishga tayyor.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda Shanxay hamkorlik tashkiloti obro'li, nufuzli tuzilma sifatida xalqaro maydonda mustahkam o'rin egalladi, ko'p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmiga aylandi.

Bizning mamlakatimiz uchun Shanxay hamkorlik tashkilotining iqtisodiyot, jumladan, transport kommunikatsiyalarini qurish va qayta tiklash sohasidagi faoliyatini ham faollashtirish, ushbu tashkilot bilan hamkorlikdan manfaatdor boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

SHHTning roli va mavqeini yanada mustahkamlash bizning "Shanxay ruhi" hamda tashkilotning tamoyil va qadriyatlariga nechog'liq amal qilishimizga bog'liq bo'ladi. Markaziy Osiyo bundan keyin ham ShHTning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi zarur.

SHHT doirasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga oid o'zaro aloqalar, samarali iqtisodiy va transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha ShHT Hamkorlik strategiyasi hamda mamlakatlarimizda zamonaviy resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni keng jorii etish maqsadida ShHTning "Yashil belbog" dasturi qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Ayni paitda, kiberxavfsizlik masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik dasturini ishlab chiqish, mamlakatlarimiz ishbilarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish maqsadida ShHTning Iqtisodiy forumini muntazam o'tkazish kabi tadbirlar kutilgan natijalarga erish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

ShHT Ishbilarmonlar kengashi va Banklararo birlashmasi doirasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ta'minlash borasida, xususan, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoat infratuzilmalarini modernizatsiyalash, sarmoyaviy loyihalarni moliya-lashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ishbilarmon doiralar va moliyaviy tuzilmalar o'rtasida bevosita aloqalarni rivojlantirish orqali amaliy ko'mak berishga yo'naltirilgan faoliyatni kengaytirish bo'yicha o'zaro aloqalarni faollashtirish lozim, deb bilamiz.

Bizningcha, "Bir makon - bir yo'l" loyihasi o'zaro keng hamkorlikning yanada samarali mexanizmlariga asoslangan, yangi xalqaro hamkorlik modelidir. Xalqaro mintaqaviy hamkorlikka doir masalalar Markaziy Osiyo, jumladan, dengiz portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'lмаган bizning mamlakatimiz uchun doimo dolzarb bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shu bois biz "Bir makon - bir yo'l" doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun umumiyl sa'y-harakatlarimiz quyidagi muhim vazifalarni hal etishga qaratilishi lozim:

Birinchidan, "Bir makon - bir yo'l" konsepsiyasini mintaqaviy taraqqiyotga oid aniq dastur va loyihalar bilan boyitish kerak.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyon Xitoy va Rossiya orqali Janubiy, Janubi-sharqi Osiyo va Yevropa davlatlari bilan bog'laydigan transport-logistika yo'nalishlarini tashkil etishda Hamkorlik bo'yicha kompleks harakatlar dasturini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, transport-kommunikatsiya koridorini rivojlantirish bilan birga, avvalo, yuqori texnologiyalar sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirishga e'tibor qaratish zarur.

To'rtinchidan, "Ipak yo'li iqtisodiy yo'nalishi" tashabbusini samarali amalgao shirishchun, bizningcha, "makon va yo'llar" konsepsiyasidan joy oladigan hamkorlik bo'yicha dastur va loyihalarni qabul qilish maqsadida mintaqalararo darajada biznes hamjamiyatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotni har tomonlama rag'batlantirish zarur.

Beshinchidan, "Ipak yo'li iqtisodiy yo'nalishi" tashabbusining amalga oshirilishi nafaqat iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, balki madaniy-gumanitar aloqalarimizni mustahkamlash, mavjud ulkan sayyohlik salohiyatidan faol foydalanishga ham xizmat qilishi lozim.

Shu bilan birga, bugungi sharoitda terrorizm, ekstremizm va narkobiznes tahdidlari tobora kuchayib, yangi shakllar kasb etayotganligini inobatga olib, ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasini tashkilot makonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish zarur.

Shu munosabat bilan vakolatli idoralarning amaliy muloqotlarini bir necha barobar ko'paytirish, hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Joriy vaziyatni muntazam muhokama qilish, shu jumladan, axborot makonidagi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi ko'shma choratadbirlarni kelishgan holda amalga oshirish muhim.

ShHT mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo'shadigan umumiy hissamiz pirovard natijada shunga bog'liq.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha yo'nalishlarda kuzatuvchi mamlakatlar, muloqot bo'yicha sheriklar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni faollashtirishga tayyormiz.

Turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihatni hisoblanadi. 2019-yilda O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston va Turkiy kengash mamlakatlarini azaldan nafaqat madaniyat, til, ma'naviyat mushtarakligi, balki an'anaviy do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlar bog'lab turadi.

O'zbekiston Kengashni bиринчи navbatda savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, turizm, madaniy-gumanitar almashinuvlar kabi dolzarb yo'nalishlarda amaliy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi samarali mintaqaviy tuzilma sifatida baholaydi.

Biz Kengashni Yevropa, O'rta Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo o'rtasidagi keng makonda mintaqaviy hamkorlikning o'ziga xos mexanizmidan iborat subregional birlashmaga aylanishiga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suramiz.

Turkiy kengash bilan hamkorlikning faollashuvi mamlakatimiz uchun ko'shni mamlakatlar bilan ham, mintaqadan tashqaridagi yaqin hamkorlar bilan ham ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochadi, deb hisoblaymiz. Bu, o'z navbatida, nafaqat o'zaro iqtisodiy hamkorlikni

kuchaytirishga, balki turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tashkilot ishida doimiy a'zo sifatida ishtirok qilish bizga xalqaro maydonda o'z tashabbuslarimizni ilgari surish, shuningdek, mamlakatning turkiy-islom taraqqiyoti markazlaridan biri sifatida xalqaro nufuzi va maqomini mustahkamlash uchun qo'shimcha siyosiy-diplomatik resurslar beradi.

Shu bilan birga, Kengash doirasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi darkor.

Birinchidan. Ayni paytda ishlab chiqilayotgan Turkiy dunyo nigohi - 2040" konseptual hujjati asosida hozirgi va pandemiyadan keyingi vaziyatni inobatga olgan holda, a'zo davlatlarga xos, yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan "Iqtisodiy hamkorlik strategiyasi"ni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Bunda asosiy urg'uni kechayotgan global inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, savdo, investitsiya, sanoat, transport aloqalarini tiklash va yangi sharoitlarda rivojlantirish, elektron tijorat hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, biznes va hududlararo hamkorlik imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga qaratish lozim.

Ikkinchidan. Kengashga a'zo davlatlar o'rtaida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Turkiy Kengashning o'z Investitsiyaviy jamg'armasi hamda Taraqqiyot bankiga ega bo'lish fursati yetdi, deb hisoblaymiz. Bu borada amaliy ishlarni boshlash tarafborimiz.

Uchinchidan. Mintaqamizning transport va tranzit salohiyatini oshirish biz uchun strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo hududi orqali dunyoning asosiy bozorlariga, jumladan, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Osyoning boshqa mamlakatlariga, Ozarbayjon va Turkiyadan Yevropa davlatlariga chiqish muhimdir.

Mazkur yo'naliislarda transport yo'laklarini rivojlantirish va yirik logistika infratuzilma loyihalarini Kengashga a'zo davlatlar bilan birgalikda amalga oshirish O'zbekiston manfaatlariga to'liq javob beradi.

O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti bilan ham izchil o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda vauni muqaddas islom dini qadriyatlarini saqlash hamda rivojlantirish, musulmon xalqlar o'rtaida birdamlikni mustahkamlash, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga ko'maklashishga qaratilgan samarali bo'g'in sifatida baholaydi. O'zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning ta'lim va ma'rifat, fan va texnikani rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish sohasida o'zaro faol hamkorligi tarafboridir.

Bu borada biz Islom hamkorlik tashkilotining 2016-2025 yillarga mo'ljallangan O'n yillik harakatlar dasturi va uning ustuvor yo'naliishlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, mazkur nufuzli tashkilotdagi ishtirokimizning eng muhim jihatlari quyidagilardan iborat deb bilamiz:

Birinchi. Aholining hayot darajasi va sifati ko'p jihatdan mamlakat raqobatdoshligining asosiy ko'rsatkichiga aylangan bugungi sharoitda taraqqiyotning muhim omili sifatida ta'limning roli ortib bormoqda. Hozirgi

paytda jamiyat va sivilizatsiyalar, avvalo, ijtimoiy qadriyatlar va ta'lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda.

Shu nuqtai nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaaho hissasini chuqr o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatları va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining insonparvarlik mohiyatini yetkazishda g'oyat muhimdir.

Ikkinci. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko'lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi.

Aynan shuning uchun ilm-fan va texnikani yanada rivojlantirish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning intellektual salohiyatini mustahkamlash tashkilotimiz faoliyatida muhim o'rinnegallashi lozim, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti doirasida hamkor mamlakatlar bilan ilmiy-texnologik almashishni faollashtirish, turli ilm-fan sohalarida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish tarafidir.

Uchinchi. Xavfsizlik muammosi o'ta keskin va fajiali tus olayotgani barchamizni tashvishga solayotganini ta'kidlamoqchimiz.

Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning birdamligini ta'minlash, ular o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish tobora avj olayotgan qaramaqarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz.

Ayniqsa, mavjud yoki yuzaga kelayotgan ziddiyat vato'qnashuvlarni, muzokaralar, xalqaro xukuqningumume'tirof etilgan prinsip va normalari asosida, siyosiy-diplomatik hamda xalqaro xuquqiy mexanizmlardan foydalangan holda, tinch yo'l bilan hal etishga erishish eng muhim vazifa bo'lishi lozim.

To'rtinchi. Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish, yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan bu borada Islom hamkorlik tashkiloti doirasida, shuningdek, Tashkilot hududidagi davlatlarning dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyatga egadir.

Biz davlatlarning xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish masalalari bo'yicha muloqoti uchun muhim xalqaro tashkilot hisoblangan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan o'zaro aloqalarni faol rivojlantirishdan manfaatdormiz.

So'ngi yillarda O'zbekiston bilan YeXHT va uning tuzilmalari o'rtaсидаги konstruktiv hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosining (DIIHB) tavsiyalarini implementatsiya qilishda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini qabul qilish va takomillashtirish doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik olib borildi.

DIIHBning keng ko'lamli missiyasi ilk bor mamlakatimizdagи Prezident va parlament saylovlарини кузатишда ishtirot etdi.

Byuro ekspertlari Inson hukuqlari bo'yicha milliy strategiya hamda Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqishga jalb etildi.

Mamlakatimizning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan aloqalarning ustuvor yo'naliшлари davlat boshqaruв institutlarini isloh qilish, sud-huquq va saylov tizimini takomillashtirish, shuningdek, transmilliy xavflar va tahdidlarga qarshi kurashishdao'zaro konstruktiv harakatlarni rivojlantirish sohalaridagi qo'shma loyihalarni amalga oshirishdan iborat.

Shuningdek, O'zbekiston DIIHB bilan, eng avvalo, inson huquqlari, so'z, din va e'tiqod erkinligi, gender tenglik, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlarning hukuqiy bazasini ilgor xalqaro amaliyat asosida mustahkamlash borasida uzoq muddatli va samarali sheriklikni davom ettirishdan manfaatdordir.

Shu bilan birga, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi bilan o'zaro hamkorlikni aniq va uzoq muddatli ish rejalarini asosida davom ettirishni ustuvor vazifamiz, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston xalqaro moliya institutlari va savdo tashkilotlari - Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon savdo tashkiloti, Jahon sayyohlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan samarali hamkorlik aloqalarini kengaytirish va takomillashtirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan investitsiyaviy va amaliy muhitni yaxshilash, mamlakatimizning kredit reytingini oshirish, valyuta-kredit siyosatini takomillashtirish, bank-moliya sohasida milliy mutaxassislar malakalarini oshirish masalalarida hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdormiz.

Mazkur vazifalarning ro'yobga chiqarilishi tashqi siyosatimiz samarasini yanada yuksaltiradi.

**4. Markaziy-Janubiy Osiyo va O'zbekiston taraqqiyoti.** Mintaqamiz davlatlari bilan ochiq, o'zaro manfaatli va yaqin hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash - tashqi siyosatimizning eng asosiy ustuvor yo'naliшидир.

Biz o'tgan davrda "O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo - bosh ustuvor yo'naliш" tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada, mushtarak siyosiy irodamiz va birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz natijasida mintaqamiz yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik hamda barqaror rivojlanish makoniga aylanib bormoqda.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yo'lida sezilarli yutuqlarga erishdik. Bu amaliy jihatdan yangi mazmunga ega

bo'lgan vazifalarni hal etishga, ya'ni dunyoning boshqa mintaqalari bilan yanada yaqin aloqlar o'rnatishga imkon beradi.

Mintaqamizda yangi siyosiy muhitning shakllanishida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha hamkorligi kengayishi mintaqqa yalpi ichki mahsulotini yaqin 10 yilda kamida ikki barobar oshirish imkonini beradi. Aynan shuning uchun ham mintaqadagi hamkorlikni mustahkamlash barcha mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Ayniqsa, keyingi yillarda bo'lib o'tgan va qator dolzarb muammolarning amaliy yechimini topish, yangi shartnoma va kelishuvlarni imzolash imkonini bergen Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam uchrashuv va muzokaralari prinsipial jihatdan yangi formatdagi hamkorlik uchun mustahkam asos bo'ldi.

Oxirgi to'rt yilda O'zbekistonning ko'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobar o'sdi. 2016 yilgacha O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yillik tovar aylanmasi hajmi o'rtacha 100-150 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020 yil yakuni bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'rtacha 53 foizga ko'paydi. Tovar aylanmasi Qиргизистон bilan 8 barobar, Тоҷикистон va Turkmaniston bilan 5 barobar, Qозог'истон bilan esa 1 milliard dollarga o'sdi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarini bog'lab turgan eng muhim transport yo'llari qayta tiklandi va modernizatsiya qilindi, yangi yer usti va havo yo'llari ochildi. O'zaro joriy qilingan chegirmalar natijasida yuk tashish, avvalo, tranzit hajmi ortib bormoqda.

Mintaqada ekologik, jumladan, suv-energetika masalalarini hal qilish borasida oldinga siljish kuzatilmogda. O'zbekiston Qambar Ota va Rog'un GESlari kurilishi loyihibarida ishtirok etish imkoniyatini ko'rib chiqdi. "O'zbekiston - Turkmaniston - Eron - O'mon" transport yo'lagininguchastkasi kurilishi muhim ahamiyatga ega ishlar sirasiga kiradi. Amudaryo orqali Turkmanobod - Forob" temir yo'l va avtomobil ko'priklari ochildi.

Shu asnoda "O'zbekiston - Turkmaniston - Kaspiy dengizi - Janubiy Kavkaz" yo'nalishi bo'yicha Boku - Tbilisi - Kars hamda Gruziya, Turkiya, Ruminiya va boshqa davlatlarning Qora dengiz portlariga chiqish yo'llari bilan oraliq transport-kommunikatsiya Talabaalini barpo etish uchun kulay imkoniyat yaratildi.

Chegaralardagi o'tkazish punktlari faoliyati qayta tashkil etildi, ularning o'tkazuvchanlik imkoniyati kengaytirilmoqda. Chegara idoralari va bojxona organlarining samarali hamkorligi yo'lga qo'yildi.

O'z faoliyatini qayta tiklagan o'tkazish punktlari orqali ishbilarmonlik va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqlarni faollashtirish doirasida o'z qarindoshlari bilan uchrashish va sayyohlik ob'ektlarini ko'rish maqsadida mintaqqa davlatlari chegaralaridan har kuni o'n minglab fuqarolarimiz o'tmoqda.

Bundan tashqari, chegaralar va yo'llar ochilishi tufayli ichki bozorlardagi tovarlarning alohida turlari arzonlashgani kuzatilmogda.

Hech shubhasiz, bunday imkoniyatlardan, avvalo, fuqarolarimiz foyda ko'rmoqda. Bu - hamkorlikdagi ishlarimizning amaliy samarasidir.

Tizimli muloqot, barcha tomonlarning manfaatlarini inobatga olish va oqilona murosa asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari tomonidan ko'llab- kuvvatlanmoqda. Mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikni, Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash borasida birgalikdagi sa'y-harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida 2018-2021-yillarda BMT Bosh Assambleyasining bir necha maxsus rezolyusiyalari qabul qilindi.

"Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" (2018-yil 22-iyun), "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018-yil 12-dekabr), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019-yil 19-dekabr), "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar xududiga aylantirish to'g'risida" (2021-yil 18-may) kabi BMT rezolyusiyalari xalqaro hamkorligimizning yaqqol misolidir.

Hamkorlikda amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlar, loyiha va dasturlar, hech shubhasiz, o'zaro ishonch va hurmat muhitini mustahkamlab, Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va ularning manfaatlariga to'liq javob beradigan bunday mintaqaviy hamkorlik izchil rivojlanmoqda.

Umuman olganda, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida ko'p yillardan buyon yig'ilib qolgan barcha muammolar - suv resurslaridan oqilona foydalanimishdan tortib, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlaridan o'tish va chegara oldi hududlarida savdoni rivojlantirish kabi juda murakkab masalalarga yechim topish uchun mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit va kulay sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, bugungi Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan dolzarb va zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Birinchi. Bugungi real voqelik Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish yo'lida qat'iy qadamlar tashlashni talab qilmoqda.

Uzoq muddatli istiqbolda yangi o'sish nuqtalari va taraqqiyotimizning yangi drayverlarini belgilab olish g'oyat muhimdir.

Hududlararo savdo-sotiqni yanada kengaytirish zarur. Erkin savdo tartibiga to'liq o'tish maqsadida mavjud to'siqlarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali mustahkam ko'shimcha qiymat zanjirlarini yaratish mumkin bo'ladi. Buning uchun mintaqqa tadbirkorlari va hududlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri biznes aloqalarni o'rnatishni rag'batlantirish hamda muntazam ravishda investitsion va iqtisodiy forumlar o'tkazishni yo'lga ko'yish zarur.

Bu sohada ilgari surilgan muhim tashabbus va takliflarni inobatga olgan holda, Mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi. Markaziy Osiyo davlatlarining mushtarak strategik manfaatlarini hisobga olgan holda, mintaqaning transport va tranzit salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surishimiz zarur.

Markaziy Osiyo davlatlaridagi rivojlangan va bir-biriga integratsiyalashgan transport tizimlari mintaqani Yevroosiyo qit'asining muhim transport xabiga aylantirish bo'yicha ishlarni davom ettiramiz.

Shu nuqtai nazaridan, mavjud transport yo'laklari va infratuzilmalaridan, jumladan, Kaspiy dengizi portlari, yirik transchegaraviy logistika markazlaridan to'liq foydalanish yuzasidan aniq takliflarni ilgari suramiz.

Bundan tashqari, biz kelajakda Termiz-Mozori Sharif-Kobul-Peshovar transafg'on koridori, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston avtomobil va temir yo'llarining imkoniyatlaridan foydalanishni rejalashtirmoqdamiz.

Shuningdek, sanitariya talablariga amal qilgan holda, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida to'laqonli transport qatnovlarini tiklashni muhim, deb hisoblaymiz.

Uchinchi. Milliy iqtisodiyotlar va aholi nufusining o'sishini hisobga olsak, mintaqaning energetik xavfsizligi masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shu munosabat bilan, "yashil" energetika va energiya sohasidagi samarador texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratib, bu borada Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettiramiz. Buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari elektr energiyasini muvofiqlashtirish kengashining faoliyatini kuchaytirish, uning mandat va vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, mintaqalari davlatlarining ushbu tuzilmadagi vakillik darajasini oshirish tarafdorimiz.

To'rtinchi. Pandemiya sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammolari keskin tus olmoqda. Jahonning ma'lum bir mintaqalarida asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshishi vaularning yetishmovchiligi kuzatilmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo davlatlari qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvlarini doimiy ravishda o'tkazib borish haqidagi tashabbusni qo'llab-quvvatlaymiz.

Bu oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning sifatini nazorat qilish, jumladan, xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo'yicha aniq yo'nalishlar va qo'shma dasturlarni belgilab olishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Beshinchi. Afsuski, pandemiya hamon aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazib, iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti prognozlariga ko'ra, biz uning oqibatlarini yaqin yillarda ham his qilishimizga to'g'ri keladi. Bularning barchasi Markaziy Osiyo davlatlaridan yaqin mintaqaviy hamkorlikni va bir- biriga o'zaro yordam ko'rsatib borishni talab qiladi. Buning uchun vaksinatsiya sertifikatlari va test

natijalarini tan olish maqsadida yagona axborot tizimini ishga tushirishni, yuqumli kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda tajriba almashishni hamda tibbiyot xodimlarini tayyorlashni kengaytirishni, hayotiy muhim dori-darmonlarni ishlab chiqarish uchun farmakologiya va kooperatsiya sohasida ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Oltinchi. Mintaqadagi ekologik muammolar doimo mintaqa davlatlarining diqqat-e'tibori markazida bo'lib kelmoqda.

Orol dengizining halokati oqibatlarini yumshatish uchun barcha zarur choralarни ko'rish, hamkorlik ko'lамини kengaytirish lozim.

Biz, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqlim o'zgarishlariga moslashuvi, shu bilan birga, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni kengroq tatbik, etishga ko'maklashadigan "Markaziy Osiyo uchun Yashil kun tartibi" mintaqaviy dasturini ishlab chiqish tarafidormiz.

Yettinchi. Mintaqa aholisining katta qismini tashkil etadigan yoshlarning Markaziy Osiyo mamlakatlari rivojlanishida qanchalik muhim o'rin tutishini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash davom etayotgan bugungi kunda biz Markaziy Osyoning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Shu maqsadda Markaziy Osiyo yoshlari o'rtasida doimiy muloqot maydonini tashkil etish, qardosh xalqlarning yuksak axloqiy qadriyatlari va beqiyos ma'naviy merosini asrab-avaylash, ularni yanada boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishga ko'maklashadi.

Sakkizinchi. Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish Markaziy Osiyo xalqlarining qardoshlik rishtalarini mustax,kamlashning yana bir muhim omili hisoblanadi.

Festivallar, madaniyat va kino kunlari hamda Markaziy Osiyo madaniy merosiga bag'ishlangan kitoblarni qo'shni davlatlar bilan birgalikda nashr etishga bo'lgan talab bugungi kunda tobora ortib bormoqda.

Mana shunday tadbirdurni o'tkazish ezgu an'anaga aylanishi uchun tegishli loyihalarni ilgari surish juda ham yaxshi ish bo'lar edi.

Markaziy Osiyo hududi bo'ylab amalga oshiriladigan turizm mintaqa xalqlarining yaqinlashishiga ko'maklashadigan yana bir amaliy omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda sayyohlik yo'naliшlarining barcha qirralarini qamrab oladigan "Bitta sayohat - butun mintaqa" qo'shma dasturini amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni oldinga suramiz.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga barqaror va ortga qaytmas mazmun baxsh etish, "xalq diplomatiyasi" imkoniyatlarini ko'proq ishga solish, parlamentlar va media sohani jalb qilish g'oyat muhim hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ayollarini muloqotini yanada rivojlantirish, gender tenglik sohasidagi global maqsadlarga erishish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish zarur.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari faqat birgalikda, ahillikda, bir-birini qo'llab-quvvatlagan holda oldidagi turgan muammolarni samarali hal qila olishiga, mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga va mintaqqa xalqlari farovonligini yuksaltirishga erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Toshkentda o'tkazilgan Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqaviy bog'liqligi bo'yicha xalqaro konferensiya natijalari bunday yondashuvni hayotning o'zi taqozo etayotganini yaqqol ko'rsatdi. Jumladan, bugungi kunda dunyo turli tahdidlar, shu bilan birga, yangi imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan global geosiyosiy o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi. Shunday murakkab sharoitda qariyb ikki milliard aholi yashaydigan Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtaсидаги о'заро aloqalarni qayta tiklash muhim hayotiy zarurat va tabiiy jarayonga aylanmoqda.

Ikki mintaqqa tez rivojlanayotgan makon hisoblanib, O'zbekiston tashabbusi mintaqalararo aloqadorlikni kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha strategik loyihadir.

Biz Markaziy va Janubiy Osiyoning mintaqaviy o'zaro bog'liqligining tarixiy, ilmiy, adabiy, diniy, sivilizatsiyaviy mezonlari bo'yicha o'ziga xos mutlaqo yangi konsepsiyasini taklif qildik. Konsepsiya mintaqalar o'rtaсидаги о'заро aloqalarning yangi geosiyosiy, geoiqtisodiy va geotsivilizatsiyaviy asoslari va yondashuvlarini o'zida mujassam etdi.

Xorijiy davlatlarning ekspert doiralari tomonidan Toshkent forumi O'zbekistonning Yevropa va Osiyon o'zaro bog'laydigan bo'g'in sifatidagi tarixiy o'rnini namoyon etmoqda, deb baholanmoqda. Chunki an'anaviy tarzda ko'p asrlar davomida bu zamin Yevropa va Osiyo uchun o'zaro bog'liqlik, savdo aloqalari va madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Bugun o'z vaqtida ilg'or bo'lган mintaqaviy o'zaro bog'liqliknı XXI asrdagi farovonlik va taraqqiyot uchun qayta tiklash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

O'ylaymizki, ikki mintaqqa o'rtaсидаги tarixiy va sivilizatsiyaviy mushtaraklik, xalqlarimiz va mamlakatlarimizning umumiyy manfaatlari farovon kelajakni bunyod etishda mustahkam zamin yaratadi.

Umuman, biz Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko'lami ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz. Olis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko'pqirrali sheriklik asosida quramiz.

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati barqaror,adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatimizning tashqi dunyoga ochiqlik tamoyilini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi.

## **8-Mavzu: O'zbekiston va umumbashariy muammolar Reja:**

1. Davrimizning global muammolari va O'zbekiston taraqqiyoti.
2. Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'hronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati.
3. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm - barqaror taraqqiyot kushandas.
4. Korrupsiyadan xoli dunyo - umumbashariy orzu.

5. Kambag'allik: umuminsoniy va milliy muammolar.
6. Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati.
7. Pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz.

### **1. Davrimizning global muammolari va O'zbekiston taraqqiyoti.**

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch keldi. Ushbu muammolar va ularning yechimlariga doir masalalar bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Avvalo globallashuv hodisasining o'zi alohida mavzuga aylandi va bu haqda alohida globalistika fani shakllandi. Global jarayonlar va muammolarning paydo bo'lish tarixi, bugungi xususiyatlari va darajalari, milliy hamda umuminsoniy jihatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor ortib bormoqda.

Bizning mamlakatimiz uchun ham bunday global masalalar va ularning yechimlariga doyr muhim vazifalarni ado etish zarurati mavjud, albatta. Bu borada nafaqat global daraja, balki milliy muhitda, ya'ni mamlakatimiz hududida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham talaygina.

Qamrovi jihatidan global, ammo mamlakatimiz hayoti va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan bunday muammolarni hal qilishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, umumiy va xususiy manfaatlarni uygunlashtirish lozim. Bu esa, o'z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topishni paysalga solmaslik zarurligidan kelib chiqadi.

Insoniyat tarixinining hozirgi davri va bugungi dunyo taraqqiyoti bundan 40-50 yil oldingi hayot vogeliklaridan keskin farq qiladi. Viz endilikda globallashuv jarayonlari har tomonlama avj olayotgan, butun jahonda u bilan bog'liq o'zgarish va yangilanishlar shiddat bilan sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz.

Xalqaro maydonda turli manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgani, jahon siyosati va iqtisodiyotida muammolar keskinlashayotgani, dunyoning umumiy manzarasini o'zgartirish tarafдорлари tobora ortib borayotgani hozirgi global dunyo taraqqiyotiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bunday murakkab umumbashariy jarayonlarni tahlil qilishda turli mezonlar asosida yondashish mumkin va lozim, albatta. Bu masalaga keyingi yillarda jahonning ham siyosiy-iqtisodiy, ham ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan chuqur yangilanish va o'zgarishlar tahlili nuqtai nazaridan yondashish uning ko'pgina jihatlariga bir qadar oydinlik kiritadi.

Ma'lumki, XX asrning oxiriga kelib sobiq Ittifoqning yemirilishi butun yer yuzi xalqlari taqdiriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ikki qutbli dunyo barham topib, yuzaki qaraganda, turlicha tizim va tuzumda yashayotgan xalqlar va davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch tug'ilgandek bo'ldi.

Natijada shu paytga qadar bir-birida dushman qiyofasini ko'rib kelgan ko'pgina xalqlar va davlatlar orasidagi munosabatlar iliqlashib, o'zaro bordikeldilar ancha jonlanib qoldi. Bunday holat deyarli barcha sohalarda ko'zga tashlana boshladi. Turli maqsad va muddaolarni ko'zlagan loyihalar, ta'lim, tibbiyat, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish singari sohalarga hamkorlik nafasi kirib keldi.

Ziddiyatli munosabatlar hamkorlik aloqalari bilan almashdi. Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar bugungi kunda muayyan bir yirik qurolli mojaro shaklida emas, balki harbiy-siyosiy, iqtisodiy, ekologik va inson resurslariga ta'sir qiluvchi hodisalarining salbiy, tanazzulga olib boruvchi oqibatlari shaklida namoyon bo'lish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqt dunyoda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish, demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlash markaziy o'rinni egallamoqda. Bu, o'z navbatida, mustaqil demokratik institutlar va qonun ustuvorligiga tahdidlar paydo bo'lishining oldini olishda muhim rol o'yнaydi, albatta.

Shu bilan birga, ayrim davlatlarda boshqaruvning zaifligi va mamlakat barqarorligini mustahkamlaydigan ishchan demokratik institutlar faoliyati to'g'ri ta'minlanmagani bir qator tahdidlarga zamin yaratmoqda. Xususan, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining, shuningdek, kam sonli millatlarga mansub shaxslar huquqlarining muntazam ravishda buzilishi oqibatida muayyan xatarlar paydo bo'lmoqda.

Xavfsizlik va barqarorlikka ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fan va texnika sohalaridagi globallashuv, liberallashuv va o'zgarishlar savdo, yuksalish va tarakkiet davlatlar uchun nafaqat yangi imkoniyatlar eshigini ochmokda, balki ayrim hollarda bu mamlakatlar urtasidagi va ichki hayotidagi iqtisodiy tengsizlikning kuchaiishiga ham oli kelmoqda. Globallashuv natijalari hukumatla.r va xalqaro institutlar tomonidan qabul qilingan siesii qarorlarga, shuningdek, xususii sektor va fuqarolik jamiyatining munosabatiga bog'liqdir. Ekologik muammolar ham xavotirni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtida demografik jarayonlar va axoli katta qismining sog'lig'inining yomonlashuvi xavfsizlikni ta'minlashning muhim muammolaridan biriga aylanmoqda.

Harbiy-siyosiy masalalarda ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanmasligi jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qurol-yarog'lar nazorati, ularni tarqatmaslik, quolsizlanish, ishonch va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mavjud bitimlar, xalqaro huquqiy vositalarga to'liq va o'z vaqtida rioya qilmaslik umumiyligi xavfsizlikka sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda.

Tahdidning yana bir manbai terrorchilar va boshqa jinoiy guruhlarning harakatlaridir. So'nggi yillarda sodir etilgan terrorchilik harakatlari bunday tahdidlarning tobora jiddiy tus olayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tahdidlar ko'pincha bir mamlakatning o'zida paydo bo'lmaydi, balki mazkur muammo transmilliy xarakterga ega. Ular jahondagi barcha davlatlar xavfsizligiga va mamlakatlardagi ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Bunday sharoitda mamlakatimizning harbiy-siyosii, iqtisodiy va ekologik, shuningdek, inson resurslari xavfsizligi bo'yicha siyosatini yanada mustahkamlash zarurati kuchaymoqda. Mavjud holatning tahlili bu boradagi bir qator muammolarni aniqlash imkonini berdi, bu esa, ularni samarali hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlarimini kuchaytirish lozimligini anglatadi.

Umuman, bugungi kunda davlatlar va bevosita insonlarga ta'sir ko'rsatayotgan tahdidlarning eng keng tarqalgan turi - davlatlararo va davlatlarning ichki hayotidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelgan tahdidlar bo'lib qolmoqda.

Ular qaerda sodir bo'lmasin, ko'shni hududlar uchun ham xavf tug'dirishi mumkin. Ular beqarorlik va tahdidlarning yaqqol ko'rinishi bo'lmish ekstremizm, terrorizm, ommaviy qирғиңиң qуорларниң tarqalishi, keragidan ortiqcha kurol-yarog'larning yig'ilishi va ularning nazoratsiz tarqalishi, inson huquqlari buzilishi, aholining ommaviy quvg'iñ qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va noqonuniy migratsiyaning o'sishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda xavfsizlik sohasidagi beqaror vaziyatning asosiy sabablaridan biri, ta'kidlab o'tilganidek, terrorizm xavfidir. Terrorizm, ayniqsa, xavfsizlik va mudofaa tizimlarini chetlab o'tish uchun assimetrik usullarga murojaat qilish qobiliyatiga ega ekani sababli ham tinchlik, barqarorlik va davlat hokimiyyati uchun asosiy xatarlardan biri bo'lib qolmoqda. Terrorizmni hech qanday sabablar bilan oqlab bo'lmaydi. Shu bilan birga, terrorizm nafaqat uning ishtirokchilarini, balki u vujudga keltirgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatlarni hisobga olgan holda global yondashuvni talab etmoqda.

Globallashuv uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq tahdid ko'laming kengayishiga sabab bo'lmoqda. Aytish kerakki, uyushgan jinoyatchilik ko'pincha ijro va usullar jihatidan terrorizmga o'xshab ketadi. Odam savdosi, giyohvand moddalar, yengil o'qotar qurollar, shuningdek, yuqori texnologiyalarning noqonuniy savdosi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan jinoiy faoliyatdir. Chegaralarning ochiqligi, odamlarning erkin harakatlari, savdo aloqalarining keng yo'lga qo'yilishi xalqaro hamkorlik uchun foydalidir, ammo noqonuniy migratsiya o'sib borayotgani tahdidlarga sabab bo'layotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Kam sonli millatlarga mansub shaxslar xuquqlarining muntazam ravishda buzilishi va murosasizlik bilan bog'liq amaliyotlar nafaqat fuqarolar xavfsizligiga tahdid solmoqda, balki yanada kattaroq mojaro va zo'ravonliklarga olib kelayotganini barchamiz kuzatmoqdamiz. Bu etnik va diniy nizolar tajovuzkor millatchilik, shovinism va ksenofobiya kabi hodisalar zamirida, shuningdek, irqchilik, antisemitizm va ekstremizm asosida paydo bo'lmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning chuqurlashuvi, qonun ustuvorligining ta'minlanmagani, davlat va korporativ boshqaruvning zaifligi, poraxo'rlik, ommaviy qashshoqlik va yuqori darajadagi ishsizlik mamlakatlarning xavfsizligi va barqarorligiga jiddii ta'sir ko'rsatmoqda. Ular boshqajiddiy tahdidlaruchun zamin yaratmoqda. Atrof-muhit muvozanatining buzilishi, tabiiy resurslardan nomutanosib foydalanish, chiqindilarga beparvo munosabatda bo'lish va ifloslanish ekotizimlarga va aholi salomatligi va farovonligiga, barqarorlik va davlatlar xavfsizligiga ta'sir qilib, salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, bugungi kunda globallashayotgan dunyo va mintaqaviy jarayonlar dialektikasi qonuniyatlarini anglash va bu boradagi qoidalarga rioya qilish masalasi yanada dolzarblashib bormoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar tobora ortib borayotgan beqarorlik va kutilmagan hodisalar bilan izohlanadi. Bunda, ayniqsa, ulkan iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan Osiyo qit'asi va Markaziy Osiyo mamlakatlari murakkab jarayonlarga duch kelmoqda.

Bu, avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tilgan ekologiya, demografiya, migratsiya, hayot va ta'lif darajasi pastligi bilan bog'liq muammolardir. Ular, aslida, ijtimoiy nizolarning assosiy manbai, ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishi uchun sharoit yaratadigan muhitdir. Ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi radikallahuv jarayonlari keng jamoatchilikda jiddiy tashvish uyg'otmasdan qolmaydi.

Globallashuv jarayonida axborot maydonidagi yangilanishlar ta'siri kuchayib, ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Barcha sohalar kabi axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida ham raqobat keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda hayot oldimizga yangi-yangi talab va vazifalarni qo'yamoqda.

Barchamiz jahondagi kuch markazlari o'rtasida raqobat kuchayib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Boz ustiga, ayrim ekspertlar, bu jarayon hatto oshkora kurolli to'qnashuvga aylanib ketish ehtimolini ham inkor etmaydi. Eng dahshatlisi, jamoatchilik ongida ushbu global xatarning ulkan xavfini his qilish darajasi susayib bormoqda.

Nazarimda, butun dunyo siyosatiga xos bo'lgan bir xatarni, ya'ni o'zaro ishonch borasidagi inqirozni bartaraf etish va xavfsizlikni mustahkamlash yo'lida, birinchi navbatda, inson kapitalini rivojlantirish uchun kulay sharoitlar yaratish zarur.

Mamlakatimizning inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlash Yangi O'zbekiston strategiyasining tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Bugungi kunda butun dunyoda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'zaro ishonch muhiti va xavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim.

Birinchidan, o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy aloqalar va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish lozim.

Ikkinchidan, butun mintaqaning tranzit va iqtisodii salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan ustuvor infratuzilma loyihibarini amalga oshirish zarur. Mintaqaviy sheriklikni biznes darajasida rivojlantirish barqaror iktisodiy taraqqiyot drayveri hisoblanadi.

Uchinchidan, Afg'onistonda tinchlikka erishish Osie mintaqasidagi barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Biz shu yo'ldagi har qanday formatdagi muzokaralarni qo'llab-quvvatlaymiz. Afg'onistonda tinchlik o'rnatish va ushbu mamlakatda yirik infratuzilma loyihibarini amalga oshirish butun mintaqqa uchun yangi strategii imkoniyatlar yaratishini yana bir bor qayd etmoqchiman.

To'rtinchidan, yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratish, ular o'rtasida radikallahuvga qarshi kurashish va sifatli ta'lif olish imkoniyatlarini kengaytirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, ilm-fan, ta'lif sohalari va madaniy-gumanitar yo'nalishdagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishimiz lozim. Xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalarni, jumladan, turizm bo'yicha forumlarni tashkil etish orqali

faollashtirishni muhim, deb hisoblaymiz. Shubhasiz, bu xalqlarimiz o'rtasidagi ishonch va o'zaro anglashuvning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, biz dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash, millii ma'naviyat va madaniyatlarni o'zaro boyitish masalalari bo'yicha tizimli muloqotni yo'lga qo'yishga qaratilgan aniq takliflarni ilgari surganmiz. Xususan, Toshkentdag'i O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buning uchun samarali muloqot maydoni bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yettinchidan, bugungi kunda tobora keskin tus olayotgan ekologik xatarlar ham barqaror taraqqiyotga jiddiy tahdiddir. Jumladan, Orol muammosi global miqyosdagi ekologik va gumanitar halokatdir. U allaqachon Orolbo'yi aholisi genofondi, hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq ayanchli oqibatlarga olib keldi. Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etish uchun barcha sa'y- harakatlarni birlashtirish lozim.

Yuqorida aytiganidek, ayni shu maqsadda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT shafeligida donorlik mablag'larini jalb qilish va Orolbo'yi mintaqasida aniq loyihalarni amalga oshirish uchun ko'p sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. Orolbo'yi va dengizning qurigan tubida ko'plab ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda, yashil xududlar barpo etilmoqda, qator loyihalar amaliyotga tatbiq etilmokda.

Barchamiz xavfsizlik - yaxlit tushuncha, ishonch esa uning fundamental asosi ekanini yaxshi bilamiz. Bu borada butun dunyo va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlikning mavjud dinamikasini saqlab qolish juda muhim.

Shuning uchun, o'ylaymanki, hamkorlikda izlanish va o'zaro manfaatlari qarorlar qabul qilish tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash imkonini beradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, dunyoni o'zgartirgan globallashuv jarayonlari uning rang-barangligi bilan birga, yaxlitligi va bir butunligini ham hammamizga qaytadan eslatdi.

Boshqacha qilib aytganda, o'z davlat mustaqilligini ko'lga kiritgan O'zbekiston jug'rofiy kulay o'rni bilan jahonning e'tiborini tortayotgani, dunyoning ko'pgina davlatlari va xalqlarining manfaatlari aynan shu mintaqada kesishgani keyingi paytda yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Keyingi yillarda foydalanish uchun qulayligi va soddaligi, sifati va puxtaligi, tezkorligi va ommaviyligi bo'yicha ustun bo'lgan ko'plab texnika va texnologiyalar tez sur'atlar bilan ommalashib bormoqda.

Xalqaro tajriba almashinuv jarayonlarining bunday tarzda globallashuvi, aytish mumkinki, butun insoniyat hayotida integratsiyalashuvni tobora kuchaytirmoqda.

Boshqa tomondan esa, globallashuv jarayonlari endilikda o'zaro hamkorlik tamoyillariga tayanish taraqqiyot va rivojlanishning g'oyat muhim va hal qiluvchi mezonlaridan biri ekanini eslatdi. Natijada barcha jabhalarda integratsiya jarayonlari, innovatsion uzgarishlarni jadallashtirish davlat va jamiyat boshqaruvinining eng asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

**2. Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'hronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati.** Ma'lumki, 5 iyun - BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni sifatida belgilangan. Mazkur sana jahon hamjamiyati e'tiborini atrof-muhit muammolariga qaratish, ekologiya muhofazasiga jiddiy munosabatda bo'lish tuyg'usini uyg'otishga xizmat qiladi.

"Biz iste'mol qiladigan mahsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim - barchasi tabiat tufayli. Ustiga-ustak, hozir tabiatning o'zi bizga belgi bermoqda - o'z haqimizda qayg'urish uchun avvalo tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak.

Hozir - Uyg'onish davri. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni ko'tarish uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish vaqt. Bu xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni-tabiat vaqtidir", deyiladi "Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish - 2020" kun tartibida.

BMT Atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko'ra, inson faoliyati Yer kurrasi kuruqlik qismining to'rtdan uch qismi, suv havzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o'zgartirgan.

Keyingi besh yil ichida 32 million hektar o'rmon maydoni inson omili natijasida qisqargan.

So'nggi 150 yil davomida global isish negizida suv havzalaridagi korall riflaridan iborat tirik qoplama ikki baravarga qisqargan - ular kurib, rangsizlashib bormoqda.

Dunyo okeanlarining sho'rlanish darajasi ortib boryapti. Muzliklar katta tezlik bilan erimoqda. Bu - okean suvlarining ortishi va suv bo'yiga yaqin hududlarning suvostida qolish ehtimolini oshiradi, issiqlikning namlikka nisbati buzilishiga sabab bo'ladi.

Yovvoyi hayvonot dunyosi qirilib ketmoqda - keyingi 10 yil ichida yovvoyi jonivorlarning tur rang-barangligi chorak qismga qisqarishi mumkin.

Tuproq, suv va havoning haddan ziyod ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, o'simliklar va hayvonot dunyosidagi tashvishli o'zgarishlar ekologik muammoni taraqqiyotga yuz tutayotgan mamlakatlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan omillardan biriga aylantirmoqda.

Shu boisdan, barcha hukumatlar o'z mamlakati hududida ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor bilan qaramoqdalar.

O'zbekistonda ham ekologik muammolar jiddiy tashvish tug'dirmoqda. Aksariyat mintaqalarda tuproq yemirilib, unumdor yerlar qisqarib bormoqda, cho'llanish, suv yetishmasligi, kurg'oqchilik, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash jiddiy muammoga aylanib bormoqda.

Shuningdek, hozirgi vaqtida Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolkum sahrosi paydo bo'ldi. Har yili 100 million tonna kum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa, Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

Bu fojianing otsibatlarini yumshatish, kelgusida insoniyatni bunday ofatlardan ogoh etish uchun barcha choralarni ko'rishimiz kerak. Bu borada tabiat bilan uyg'un bo'lishga intilib yashagan ajdodlarimizning tajribasiga tayangan holda, Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon

qilish bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolyusiyasini hayotga tatbiq etish borasida tizimli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, atrof-tabiiy muhitga, aholi sog'lig'i va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olishni o'z faoliyatimizning ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida belgilab olgan edik.

2019-yil 9-oktabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 11-oktabr kuni Senat tomonidan ma'kullangan O'zbekiston Respublikasining "Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo'yicha Kartaxena protokoliga ko'shilishi to'g'risida" qonuni imzolandi. Ushbu Protokol 2000-yil 29-yanvarda Montreal shahrida qabul qilingan bo'lib, hozirga qadar unga 171 ta davlat hamda xalqaro tashkilot sifatida Yevropa Ittifoqi qo'shilgan. Mazkur Konvensiyaning asosiy maqsadi madaniy o'zini ifodalashning turli xil shakllarini himoya qilish va rag'batlantirish, ushbu sohada xalqaro hamkorlik hamda hamfikrlikni mustahkamlash asosida turli madaniyatlarning erkin hamkorligi uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

2019-2028-yillarda O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Uning asosiy maqsadi biologik xilma-xillik Konvensiyasi talablarini amalga oshirishdan iborat.

Unga ko'ra, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish, ekologik tizimlarni muhofaza qilishni, oziq-ovqat xavfsizligini, aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni, mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun 2030-yilgacha Milliy strategik maqsadlar belgilandi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va milliy vazifalarni amalga oshirish borasida iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish, quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xil-likning yo'qolib ketishi jarayonini to'xtatishga qaratilgan ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmokda.

Aholini, ayniqsa, qishloq joylarda ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi hamon dolzarb bo'lib turibdi. Maishiy chiqindilarni to'plash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalasi ham oldimizda turgan eng og'ir muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, sobiq tuzum davrida uzoqni o'yamasdan kurilgan, bugungi kunda airim vazirlik va idoralar, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlatib kelinayotgan sanoat inshootlari ham zamonaviy ekologik talablarga javob bermaydi.

Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.

Ayni paytda, yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi faoliyat samarasini yanada oshirish choralarini ko'rish lozim.

Yurtimizdagi o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlarining mavjud bo'lishi, turlarining xilma-xilligini, tabiiy turkumlari yaxlitligini va ularning yashash muhitini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratish darkor.

Ushbu yo'nalihsda fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari bilan jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishda hamkorlik qilish samarasini ta'minlashga doir muvofiqlashtirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" prinsiplari asosida yurtimizning jadal rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-ekologik siyosat olib borish kutilgan natijani beradi.

Bu borada respublikamizning to'liq "yashil iqtisodiyot"ga o'tishiga asos bo'lvchi "yashil" energetika, "aqlii" qishloq xo'jaligi tamoyillarini yanada kengroq joriy etish vazifasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ekologik toza transport vositalari miqdorini oshirish va ekologik jihatdan yaxshilangan tavsiflarga ega motor yoqilg'isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, elektr transportni rivojlantirish ham bu boradagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

"Yashil" texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, sanoat korxonalarining shunday texnologiyalarga o'tishini rag'batlantirish va bu jahhada "yashil moliyalashtirish tizimini rivojlantirish lozim.

Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yengib o'tish, "yashil tiklanish va uglerod neytralligini ta'minlash, shuningdek, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va Iqlim bo'yicha Parij bitimi qoidalarini bajarish, Orol dengizi halokatining global oqibatlarini yengib o'tish bu boradagi ustuvor vazifalardan biri sifatida muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Shu munosabat bilan biz mazkur yo'nalihsdag'i ishlarni, shu jumladan, maxsus tashkil etilgan BMTning Trast jamg'armasi, Yashil o'sish global instituta, P4G sheriklik platformasi va boshqa xalqaro institutlar doirasida birgalikda amalga oshirayotgan ishlarimizni yanada faol davom ettirishni maqsad qilib qo'ydik.

Bunda avvalo, "yashil" va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa'y- harakatlarini birlashtirish zarur. Ayni paytda, mintaqada iqlimo'zgarishlari, bug'lanish darajasini oshiruvchi gazlar va atmosfera ifloslanishi muammolari ta'sirida transchegaraviy daryolar oqimi va biologik xilma-xillik qisqarayotgani munosabati bilan jiddiy xavotirlar paydo bo'lmoqda.

Ayni paytda, O'zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga sodiqligini alohida ta'kidlamoqchiman. Shu munosabat bilan "yashil" texnologiyalarni keng joriy qilish va "yashil" energetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda yaqin o'n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko'paytirish lozim, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, zamonaviy resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida ShHTning “Yashil belbog” dasturini ishlab chiqish bo'yicha tashabbusimizni ilgari surishda davom etamiz.

Umuman, ushbu sohadagi maqsad va vazifalarimiz quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bioxilma-xillik masalalarini davlat hokimiysi boshqaruvi organlari va butun jamiyatning faoliyatiga kiritish;
- bioxilma-xillikka to'g'ridan-to'g'ri yuklamalarni qisqartirish, uning komponentlaridan oziq-ovqat landshaftlarida barqaror foydalanish;
- muhofaza qilinadigan tabiiy muhitlar hududi tizimini rivojlantirish, ekotizim xizmatlari tomonidan ta'minlanadigan afzalliklar hajmini ko'paytirish;
- salohiyatni rejalashtirish, yaratish va moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yo'li bilan biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish samaradorligini oshirish.

Biologik xilma-xillik mavzularini davlat hokimiysi boshqaruvi organlari va butun jamiyatning faoliyatiga kiritish uchun:

- atrof-tabiiy muhit davlat monitoringi tizimini takomillashtirish, biologik xilma-xillik komponentlari monitoringi bilan keng qamrab olish hisobiga uning mazmun-mohiyatini kengaytirish;
- biologik xilma-xillik qadriyatlari va ekotizim xizmatlari to'g'risida davlat hokimiysi boshqaruvi organlari, shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlarining xabardorligi va bilimini oshirish;
- biologik xilma-xilliklar qiymati va ekotizimlar xizmatlarini iqtisodiy baholashni ishlab chiqish va uning mexanizmlarini rejalashtirish jarayoniga kiritish;
- tashkiliy-texnik, texnologik yechimlarni o'z ichiga oladigan davlat ekologik ekspertizasi doirasida tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ierarxiyasini nazarda tutuvchi atrof muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonotlar loyihibariga xalqaro talablarni ishlab chiqish va joriy etish zarur.

Biologik xilma-xillikka to'g'ridan-to'g'ri yuklamalarni qisqartirish va uning komponentlaridan oziq-ovqat landshaftlarida barqaror foydalanish uchun:

birinchidan, eng zaif tabiiy ekologik tizimlar tanazzuli va fragmentatsiyasi sur'atlarini pasaytirish bo'yicha kompleks choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini;

ikkinchidan, takomillashtirilgan huquqiy va metodik asosda suv havzalari va boshqa ekotizimlarning biologik resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlash zarur.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, ekotizimlar xizmatlari bilan ta'minlanadigan afzalliklar hajmini ko'paytirish uchun:

- muhofaza qilinadigan tabiiy hudud tizimini muqobil va samarali boshqarishni va tabiiy boglar, kompleks buyurtmaxonalar hisobiga tizim maydonini kengaytirishni;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan biologik xilma-xillik komponentlarini saqlash vaulardan barqaror foydalanish davlat dasturi ishlab chiqilishini ta'minlash zarur.

Uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishga erishish uchun biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish masalalarini zarur tashkiliy va moliyaviy resurslar yaratilgan holda, iqtisodiyotning barcha sektorlarini milliy rivojlantirish rejalariga kiritish dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish, aholi sonining va tabiiy resurslarga bo'lgan talabning o'sishi sharoitlarida faqat "yashil iqtisodiyot" prinsiplariga amal qilish mamlakatning ekologik xavfsizligini, yerning uzoq muddatli mahsulorligini ta'minlashga, biologik xilma-xillikni va ekotizimlarning asosiy xizmatlarini saqlab qolishga qodirdir.

Biologik xilma-xillikning saqlab qolinishi va undan barqaror foydalanishni ta'minlash quidagi asosiy yo'naliishlarni amalgga oshirish bilan bog'liqdir:

- biologik xilma-xillikni saqlab qolish va undan barqaror foydalanish sohasida normativ-hukuqiy bazani takomillashtirish;
- hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastri va monitoringi yuritilishini takomillashtirish;
- ushbu sohaga oid siyosatni shakllantirish va kompleks qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan biologik xilma-xillikning holati va ahamiyati to'g'risidagi zamonaviy ilmiy axborotni takomillashtirish;
- muhofaza qilinadigan tabiiy xududlar tizimini rivojlanirish;
- hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini tiklash tadbirlarini amalgga oshirish;
- hayvonot va o'simliklar dunyosi ob'ektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;
- ekologik turizmni rivojlanirish;
- biologik xilma-xillikka nisbatan aholining xabardorligi va ekologik madaniyati darajasini oshirish.

Shu bilan birga, Orol dengizining qurigan tubida o'rmon-meliorativ ishlarni amalgga oshirish hamda tog' massivlari va to'qaylarning o'rmonlar bilan qoplanishini oshirish yo'li bilan Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish, davom etayotgan fojiali jarayonning oldini olishga qaratilgan tadbirlar dolzarb hisoblanadi.

Orol dengizining qurigan tubida ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida o'rmonzorlar barpo etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlarni amalgga oshirilmoqda. Orol dengizining kurigan tubida "yashil maydonchalar" - himoya zonalari barpo etish ishlarni ushbu hududni to'liq o'rmonzorlashtirishga qadar davom ettirish lozim.

Ekologik turizm O'zbekistonda rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoq hisoblanadi. Ekologik turizm katta iqtisodiy daromad keltirishga qodir.

Mazkur vazifalarning bajarilishi mamlakatimizda ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi, atrof-muhitni ko'z qorachig'idek asrab- avaylashga, keljak avlodlarga bezavol yetkazishga yordam beradi.

**3. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm - barqaror taraqqiyot kushandasi.** XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallahuvi va butun xalqaro munosabatlar tizimining tubdan o'zgarishi, xavfsizlikka tahdidlar doirasining kengayishi, xususan, ekstremizm, radikalizm va xalqaro terrorizmning kuchayishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ekstremizm sohasidagi tahdidlar transmilliy xarakterga ega bo'lib, u o'z xavfining ko'lami bo'yicha butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Bu faqat mahalliy yoki mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, paydo bo'lishi va rivojlanish xususiyatlari, maqsad va vazifalari, tashkiliy tuzilishi va faoliyati, psixologik va ijtimoiy shakllari jihatidan global hodisaga aylangan.

Ekspertlarning xulosalariga ko'ra, so'nggi 10 yil ichida diniy ekstremizm va terrorizm tufayli dunyo iqtisodiyoti 583 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan bo'lsa, 15 yil ichida 100 mingdan ziyod begunoh insonlar terrorchilik xujumlari oqibatida halok bo'lган.

Faqatgina 2019-yilning o'zida dunyo bo'yicha zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizmning umumiyligi salbiy global ta'siri - shunga e'tibor bering - 14,1 trillion AQSh dollarini yoki jahon YalMning 11,2 foizini, iqtisodiy zarar - 33,19 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Shu sababdan ham, jahon hamjamiyatining ekstremistik oqimlarning globallashuvini bartaraf etish bo'yicha sa'y- harakatlari borgan sari kuchayib bormoqda. BMT, YeXHT, ShHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ushbu sohada yuzdan ortiq qaror, shartnomalar va harakat rejali qabul qilindi. Xususan, BMTning global aksilterror strategiyasi va tajovuzkor ekstremizmning oldini olish bo'yicha harakat rejasidagi, YeXHTning terrorizmga olib keluvchi ekstremizm va radikallashuvning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi deklaratsiyasi, Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik konsepsiysi, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlarning MDHga a'zo davlatlarning terrorizm va ekstremizmning tajovuzkor ko'rinishlariga qarshi kurash borasida hamkorlik dasturi va boshqa hujjatlar qabul qilingan.

Umuman, jamiyatdagi muammo va mojarolarning uzoq vaqt mobaynida hal etilmay qolishi, qonunsizlikning avjiga chiqishi, inson hukuqlarini mensimaslik va ularning poymol etilishi, fuqarolarning faol ijtimoiy- iqtisodiy hayotdan chetda qolishi, etnik kelib chiqishi yoki milliy-diniy sabablar bo'yicha kamsitilishi kabi illatlar bir bo'lib, g'oya va qarashlarning salbiy tomonga o'zgarib ketishi va alamzadalik kayfiyatining ekstremistik harakatlarga aylanishiga sabab bo'layotgani kuzatilmogda.

Shu bois, BMTning Tajovuzkor ekstremizmning oldini olish bo'yicha harakatlar rejasida nafaqat terrorizmga qarshi kurashda xavfsizlik choralarini ko'rish, balki ekstremizmni keltirib chiqaradigan holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli choralarini qo'llash zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

Radikal g'oyalar va keskin xatti-harakatlarga moyillik yoshlari, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj eng zaif qatlarni o'rtasida yuqoriligidagi qolmoqda. Ekstremistik va terroristik tashkilotlar o'z saflariga yangi izdoshlarini yollash jarayonida muqaddas diniy aqidalarni buzib talqin qilish barobarida, psixologik hiyla-nayranglardan ham foydalanmoqda. Shuning uchun ruhiy jihatdan beqaror odamlar, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan yoki diniy urf-odatlarga qat'iy amal qilmasa-da, mazkur jinoiy guruhlarning tuzog'iga ilinib qolmoqda.

Ekstremizm va terrorizm tabiatan turli yo'nalishda, ya'ni: qurolli guruhlarda bevosita ishtirok etishdan tortib, to siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy darajadagi

radikalizmni qo'llab-quvvatlashga qadar namoyon bo'lmoqda. Radikal guruhlarning mavjudligidan ayrim davlatlar va ularning oliy darajadagi siyosatchilari manfaatdor ekani ham kuzatilmoxda.

Qayd etish lozimki, radikallashuv, terrorizm g'oyalarining tarqalishi jamiyatning tinchligi va osoyishtaligiga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatar va muammolardan biri hisoblanadi. Radikalizm-terrorizmga olib boruvchi so'nggi bosqich.

Ayniqsa, yoshlar o'rtaсидаги radikallashuv jarayoni katta tashvish uyg'otmoqda. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotgani, bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, ular 2 milliard kishini tashkil etishini e'tiborga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekanini tushunish qiyin emas.

Hozirgi kunda ekstremizm va terrorizm xalqaro hamjamiyatga ham, Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonga ham tahdid solishda davom etmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiي-ma'navii muhitni va aholi tur mu sh sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barcha davlatlar uchun eng asosiy vazifa bo'lib turibdi.

Markaziy Osiyo hududidagi diniy-siyosiy vaziyat, unga ta'sir qilayotgan omillarni o'rganish va tahlil qilish natijalari soha bo'yicha holat dinamik xususiyatga ega ekanligi, ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda salbiy omillar ham vujudga kelayotganini ko'rsatmoqda.

Mintaqa davlatlari jahon hamjamiyatining bir qismi sifatida dinlar va konfessiyalararo ziddiyatlarning kirib kelish xavfiga hamda Markaziy Osiyoda radikal diniy oqimlar faolligi o'sishiga duch kelmoqda.

Diniy radikalizm va ekstremizm Markaziy Osiyo davlatlarining konstitutsiyaviy asoslariga, mamlakatni rivojlantirishning dunyoviy prinsiplariga, xalqlarning ma'naviy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlar soxta g'oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish orqali inson hukuqi va erkinliklarini oyoq osti qilish, insoniyatning diniy, madaniy-ma'rifiy merosiga jiddiy zarar yetkazib, dinlar orasiga nifoq solishga hamda dinlararo munosabatlarga putur yetkazishga harakat qilmoqda.

Xalqaro miqyosda dindan "yumshoq kuch" vositasi sifatida foydalanib, siyosiy, madaniy va gumanitar ta'sir zonalarini kengaytirishga urinishlar kuzatilmoxda.

Shu bilan birga, diniy bilim olishga intilayotgan, ammo diniy ta'limot bo'yicha tasavvurga ega bo'limgan yoshlarning radikallashuv xavfi yuqoriligidcha qolmoqda.

Mintaqa mamlakatlari yoshlari orasida diniy ta'lim olish uchun chet davlatlarga ketish va natijada diniy ekstremistik oqimlar va xalqaro terrorchi tashkilotlar safiga kirib qolish holatlari kuzatilmoxda.

Noqonuniy tarzda diniy ta'lim berish holati o'sib bormoqda va bu Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi, jumladan, O'zbekistonidagi diniy vaziyatga o'z salbiy

ta'sirini ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda belgilangan qonun talablarini buzgan holda, noqonuniy namozxonalar, arab tilini o'rgatish bahonasida noqonuniy diniy ta'lim berish bilan shug'ullanib kelayotgan o'quv markazlari soni ortib bormoqda.

Mintaqa aholisining bir qismi dunyoviylikni ateistik tizim deya talqin qilmoqda. Ekstremistik tashkilotlarning yot g'oyalariga qarshi kurash aholining ayrim qatlamlari tomonidan davlatni dunyoviylashtirish, ya'ni jamiyat hayotida dinning rolini maqsadli ravishda pasaytirish siyosati deb baholanmoqda.

Ayrim dindorlar orasida Konstitutsiyaga rioya qilish va jamiyat oldidagi majburiyatlaridan bosh tortish holatlari kuzatilmoxda. Ularning qonunlarga, davlat ramzlariga, xalqlarning milliy-ma'naviy an'ana va qadriyatlariga, shuningdek, umume'tirof etilgan xulq-atvor me'yorlariga nisbatan hurmatsizlarcha munosabatda bo'lism holatlari tez-tez uchramoqda.

Ekstremistik tashkilotlar va mutaassib guruhrar, hatto ba'zi din vakillari siyosat bilan din ajralmasdir, ijtimoiy hayotning barcha sohalari islom dini qoidalari asosida boshqarilishi kerak, degan demokratiya tamoyillariga zid da'volarini kun tartibiga kiritishga harakat qilmoqda. Diniy me'yorlar doirasini asossiz kengaytirish, davlat boshqarishi lozim bo'lgan sohalarga diniy me'yorlarni kiritish talablari kuiilmoqda.

Diniy ekstremizm mafkurasi ommaviy ongga global axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, Internet, zamonaviy elektron dasturiy ta'minotlar orqali kuchli axborot-psixologik bosim o'tkazmoqda.

Ekstremistik mafkura va g'oyalar ijtimoiy tarmoqlar, videoroliklar va adabiyotlarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish orqali jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada radikal diniy mafkuraning buzg'unchi axborotlari ta'siri ostida jamoatchilik ongi buzilmoqda, fuqarolarning davlatga ishonchi so'nib, vatanparvarlik va hamjihatlik tuyg'ulari yo'qolmoqda, qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'zgarmoqda, oilalar tanazzulga uchramoqda.

Taqiqlangan diniy materiallarning Internet tarmog'ida tarqalishining oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligi yetarli darajada emasligi bunday materiallarni saqlash va tarqatish bilan bog'liq huquqbazarliklar sodir etilishiga sabab bo'lmoqda.

Koronavirus infeksiyäsining mintaqa davlatlari hududiga kirib kelishi, uning oqibatlarini yumshatish maqsadida joriy etilgan qat'iy karantin choralarini natijasida ko'plab aholi qatlamlari asosiy vaqtini o'z uylarida, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishga majbur bo'ldi. Buning natijasida aholi orasida tarmoqdagi buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushish holatlari sezilarli ravishda ortgan, taqiqlangan diniy oqimlar a'zolari esao'z "jamoati" yig'ilishlarini sharoitga moslagan holda, mobil ilovalar orqali o'tkazish yo'liga o'tgan.

Uzoq muddatga chet elga chiqib ketgan shaxslar yaqin qarindoshlari va jamoatchilik nazoratidan chetda qolishi, hayot tajribasiga ega bo'limgani va mutassiblikka moyilligi sababli xalqaro terrorchilik tashkilotlariga yollovchi kimsalar ta'siriga tushib, harbiy harakatlar olib borilayotgan keskinlik o'choqlaridagi jangarilar saflariga qo'shilib qolmoqda.

Shunday murakkab va tahlikali vaziyatda biz uchun oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, yoshlar

tarbiyasi bilan jiddii shug'ullanish, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimizdan g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q.

Nega deganda, aynan shu masalalar bizning bugungi va ertangi kunimizni, farzandlarimiz, nabiralarimiz taqdiri va kelajagini, bir so'z bilan aytganda, hayot-mamotimizni hal qilishi hech kimga sir emas.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillardan boshlab vijdon erkinligini ta'minlash masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. Jumladan, muqaddas dinimiz, millii qadriyatlarimizni, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish bo'yicha juda ko'p ish qilindi va qilinmoqda.

Qiyoslash uchun faqatgina ba'zi bir misollarni keltirmoqchiman. Sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan ortiqni tashkil etmoqda.

O'sha qaramlik yillarda O'zbekistonda sanoqli kishilargina haj qilish imkoniyatiga ega bo'lган edi, xolos. Mustaqillik yillarda esa har yili 5 mingdan ziyod yurtdoshimiz, endilikda esa yiliga 7200 nafar fuqarolarimiz muborak haj safarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar.

O'zbekiston islom sivilizatsiyasi xalqaro markazi, Xalqaro islom akademiyasi, Buxoroda Mir Arab madrasasi, Termizda Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hadis ilmi maktabi hamda Kalom va Hadis, Buxoroda tasavvuf, Qashqadaryoda aqida, Farg'onada fiqh ilmiy maktablari tashkil etildi.

Diniy ta'lim tizimi takomillashtirilib, ilk bor islom fanlari bo'yicha falsafa doktori hamda fan doktori ilmiy darajalarini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va doktorantura yo'naliislari joriy etildi.

Mamlakatimizda 30 ga yaqin yangi masjidlar ochildi va 100 dan ortiq masjidlar ta'mirlandi. Nukus shahridagi "Imom eshon Muhammad", Termiz shahridagi "Imom Termiziy", Urganch shahridagi "Oxun bobo", Toshkent shahridagi "Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf" masjidlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Surxondaryoda Imom Termiziy, Qashqadaryoda Abu Muin Nasafiy, Namanganda Sulton Uvays Qaraniy, Toshkentda Suzuk ota ziyyaratgohlari qayta ta'mirlandi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Fondning asosiy vazifalari etib masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining binolarini qurish, ta'mirlash, tarixiy-me'moriy ahamiyatga ega ziyyaratgohlarni saqlash, obodonlashtirish, diniy soha xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi masalalar belgilandi.

Fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e'tiqodga bo'lган huquqlarini ta'minlash maqsadida muqaddas ziyyatatlarni ado etish bilan bog'liq qator imkoniyatlar yaratildi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan tizimli ishslash, ularning oila a'zolari muammolarini bartaraf etish, xususan, kam ta'minlanganlarga moddiy yordam ko'rsatish, bandligini

ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali mazkur toifa fuqarolarni jamiyatga qaytarish bo'yicha aniq choralar amalga oshirilmoqda.

Ushbu sohadagi islohotlar dunyo miqyosida ham, katta-katta ekspertlar tomonidan ham munosib e'tirof etilib, diniy bag'rikenglikning namunali modeli sifatida baholanmoqda. Xususan, 167 mamlakat o'rtasida barqarorlikni ta'minlash, urushlar, ziddiyatlar, terrorizm va jinoyatchilikni oldini olishga qarshi harakatlarning samardorligini baholash yuzasidan o'tkazilgan reytingda O'zbekiston 52-o'ringa ko'tarilib, MDH mamlakatlari orasida 1-o'rinni egalladi.

Dunyo va musulmon olamidagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, katta obro'-e'tiborga ega bo'lган rasmiy shaxslar bu borada biz bilan hamkorlik qilish istagini bildirmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy hayotimizni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz, buning uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimiz shart. Chunki hozirgi vaqtida dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq tashvishga solmoqda.

Ana shunday keskin va qaltis sharoitda qanday yo'l tutish, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin, degan savol barchamizni jiddiy o'ylantirishi zarur.

Ayniqsa, keyingi paytda turli mamlakatlarda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining ijrochilari qatorida millatimizga mansub kimsalar ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg'otmoqda.

Tinchlik va osoyishtalikni, insoniylikni hamma narsadan ustun qo'yadigan xalqimiz bunday shaxslarni, ularning qilmishlarini keskin qoralaydi. Ularni o'zbek degan nomga nomunosib deb hisoblaydi.

Hozirgi vaqtida yoshlar, ayniqsa, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimiz terrorizm va ekstremizm changaliga tushib qolmasligi uchun biz barcha choralarini ko'ryapmiz.

Avvalambor, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beryapmiz. Bizning maqsadimiz ular bilan raqobat qilish emas, balki hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, umumiy muammolarni birgalikda yechishdan iborat.

Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islam dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islam faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish - bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Alhamdulilloh, hammamiz musulmonmiz, buning shukronasini qilib, farzandlarimizni ham bunday ne'matning qadriga yetadigan insonlar etib tarbiyalashimiz kerak emasmi?

Muhtaram imom-xatiblarimiz Alloh yo'lida xolis xizmat qilishni o'z zimmalariga olganlar. Bu ham mas'uliyat, ham ulkan sharaf. Shuning uchun sog'lom e'tiqod yo'lini targ'ib qilishni avvalo kimdan so'raymiz? Ulamolar, imom- xatiblarimizdan so'raymiz. Shu borada barchamiz kimdan ibrat olamiz? Albatta, imom-xatiblarimizdan.

Mutaassib g'oyalarni targ'ib qilayotganlar muqaddas diniy manbalardan matnlarni yulib olib, ularni noto'g'ri talqin qilgan holda o'z g'arazli maqsadlari yo'lida ishlatmoqda. Ular soxta g'oyalarni da'vat qilish bilan hali hayotiy tajribaga ega bo'lмаган yoshlarda Vatan, oila tuyg'ularini so'ndirib, ularni o'z yurtiga, o'z vatandoshlariga xiyonat qilish yo'liga boshlamoqda.

Afsuski, hayotimizda sodir bo'layotgan noqonuniy xatti-harakatlarni ko'rib ko'rmaslikka oladigan, tinchlikni saqlash faqat davlatning ishi deb o'ylaydiganlar ham bor. Yosh avlodning turli yot diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish to'g'risida g'amxo'rlik nafaqat davlatning vazifasi, balki har bir fuqaro, ayniqsa, imom- xatiblarning ham muqaddas burchidir.

Shu nuqtai nazardan, muhtaram ulamolarimiz, din sohasi vakillari yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni avaylab-asrash yo'lida davlatimizning mutasaddi idoralari tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni to'g'ri qabul qilib, ularni chin dildan qo'llab-quvvatlaydilar, deb ishonaman. Ular mamlakatimizning dinlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosatiga hamohang ravishda faoliyat yuritib, yurtimizdagи tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda davlat va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilishlari darkor. O'z zimmalaridagi vazifalarning ro'yobga chiqishi uchun faqat tinimsiz mehnat qilib, izlanib, bilim va tajribasini oshirib borishlari zarur.

Ma'lumki, ajdodlarimiz o'z vaqtida yuksak ma'naviyati, boy ilmiy merosi, ijodi bilan butun dunyoga ustozlik qilganlar. Yana bir bor aytaman, ular boshqalarga ergashmagan, boshqalarni o'z ortidan ergashtirganlar.

Shuning uchun din peshvolari ham bugun ergashuvchi emas, ergashtiruvchi bo'lishlari lozim.

Ushbu hal qiluvchi masalada befarq va loqayd bo'lish, zaiflik ko'rsatish jamiyatimiz va dinimizga nisbatan xiyonat qilish bilan barobardir. Bu fikr muqaddas kitoblarimizda takror va takror ta'kidlangan.

Shu munosabat bilan imom-xatiblarimiz diniy amallar haqida ran ketganida, yoshlarga birinchi navbatda barcha dinlarning asosini tashkil etuvchi umuminsoniy qadriyatlar, xususan, yaxshilik, mehr-oqibat, sadoqat, saxovatpeshalik, bilim va hunar o'rganish kabi xislatlarni o'zlarida shakllantirib borishga alohida e'tibor qaratsalar, ayni muddao bo'lardi.

Shu bilan birga, diniy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan yoshlarimizning turli yot oqimlarga qarshi kurash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kuchaytirish zarur. Yosh imomlarimiz buzg'unchi oqimlarning mohiyati haqida kerakli tushunchalarga, ularning soxta iddaolarini muqaddas manbalardagi dalillar

va hayotiy misollar bilan fosh etish bo'yicha bugungi kun talablariga munosib bo'lishlari lozim. Bu - avvalo, hayot talabidir.

Diniy soha vakillari avval radikal tashkilotlar tarkibida sodir etgan jinoyatlari uchun jazo o'tab kelgan shaxslarni ijtimoiy-ma'naviy sog'lomlashtirish, ularda sog'lom aqidani shakllantirish borasidagi ishlarda ham faol bo'lishlari kerak.

Yaqin tariximizda, bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasi va yon-atrofimizda bo'lib o'tgan va davom etayotgan qonli voqealar albatta ko'zimizni ochishi zarur.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, din peshvolari aholi bilan ochiq muloqotga kirishib, uning dardu tashvishlarini yengillatish, ma'naviy- ma'rifiy hayot bilan bog'liq muammolariga yechim topishda astoydil g'ayrat qilishlarini istardim.

Barchamiz bir haqiqatni chukur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun ran xalqimiz, mo'min-musulmonlarimizning tinchligi va xavfsizligi, farzandlarimizning kelajagi, ta'lim-tarbiyasi va kamoli haqida bormoqda.

Meni tashvishga solayotgan yana bir holat, ayrim diniy soha vakillari va dindorlar orasida amaldagi qonun- qoidalarga rioya etmaydiganlar borligidir.

Ma'lumki, muqaddas Islom dinimizda "Itoati amr" degan tushuncha mavjud. Ya'ni, Konstitutsiya va dunyoviy qonunlar bilan boshqariladigan mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, shu jamiyat a'zosi sifatida davlatning Bosh qomusi, qonun-qoida va tartiblariga bo'ysunishi hamda boshqalarga ham shuni targ'ib etishi shart.

O'zbekistonda davlat davlatchilagini qiladi, qonun ustuvor bo'ladi. Bu haqiqatni hech kim, hech qachon esidan chiqarmasligi zarur.

Iymon-e'tiqod har birimizning yuragimizda, vijdonimizda bo'lishi lozim. Islomiy hikmatlarda Vatanni sevmoq iymondan ekanligi ta'kidlanadi. Inson iymon-e'tiqodli bo'lsa, yurtiga sodiq bo'lib xizmat qilsa, u haqiqiy vatanparvar bo'ladi.

Afsuski, bugun qancha yoshlar soxta aldrovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz ayting, bu achchiq haqiqat barchamizning yuragimizga xanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi?

Axir, kechagina shu yoshlar, o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi?

Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qaerda xatoga yo'l ko'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima bo'ldiyu ular o'z ota-onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi?

Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi.

Yurtimizda yashayotgan, oilasini, farzandlarining ertangi kunini o'ylaydigan hech bir inson, din arboblari, jamoatchilik vakillari bu hayot-mamot masalasidan chetda turmasligi kerak.

Qur'oni karimda aytilgan: "O'z qo'llaringiz bilan o'zingizni halokatga tashlamang", degan hikmatli so'zlardan hammamiz xulosa chiqarishimiz lozim. Bizning beparvoligimiz, loqaydligimiz faqat fofja keltiradi. Bolalarimiz, oilamiz, butun yurtimiz boshiga falokat keltiradi. Aytinglar, uzini inson deb biladigan, vijdoni, imoni bor hech bir odam buni istaydimi? Yo'q, albatta.

"Bola ota-onha qo'lida bir omonatdir", deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda.

Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib ko'yishimiz hech gap emas.

Biz, ko'pincha bolam mактабда, o'qishda yoki chet elda ishlayapti, deb xotirjam yuribmiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Bizning jonu jahonimiz bo'lган farzandimiz dushmanlar qo'lida qurolga aylanib qolsa, buninguchun avvalo kim aybdor? O'zimiz emassi?

Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bagriga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman.

Shuni alohida ta'kilamoqchiman, ekstremizm va terrorizm xavfi hamda taxidilariga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo'lib, mintaqqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holatlarga bir necha marotaba duch kelgan. Ushbu yo'nalishda xavf-xatar, tahdid va tahlikalar saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda, davlatimiz bundan buyon ham keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda ekstremizm va terrorizm hamda ularni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Bu sohadagi asosiy maqsadimiz O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat bo'lib qoladi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro va mintaqaviy hamkorlik masalalarida quyidagi vazifalarni ustuvor deb bilamiz:

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro- huquqiy asoslarni takomillashtirishga ko'maklashish;

- diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash;

- boshqa davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;
- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;
- faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;
- Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'i- harakatlarni Birgalikdagi harakatlar rejasid doirasida muvofiqlashtirish;
- Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning rolini kengaytirish;
- dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish.

**4. Korrupsiyadan xoli dunyo - umumbashariy orzu.** Yer yuzida davlat vajamiyat paydo bo'lidan buyon odamzot poraxo'rlik va korrupsiyani taraqqiyot va farovonlikning kushandas, jamiyatda adolat, tenglik, sog'lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo'lishiga tusqinlik qiladigan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan vaunga qarshi kurashib yashagan.

Qadimgi Bobilda amaldor va sudyalar, shuningdek, podsho xizmatkorlari hisoblanadigan ibodatxona ruhoniylarining tovlamachilik yo'li bilan g'ayriqonuniy mukofot olishlarining oldini olish choralar ko'rilgan. Podshoh Hammurapi qonunlariga ko'ra, "Agar sudya ishni ko'rib chiqib, qaror qabul qilgan va hujjatni muhrlagan bo'lsa-yu, so'ngra qarorini o'zgartirsa, unda bu sudya fosh etilishi kerak va u ish bo'yicha da'vo summasini o'n ikki baravar miqdorda to'lashi kerak" bo'lgan. Bundan tashqari, u lavozimidan chetlatilib, unga kelajakda sudya lavozimini egallash taqiqlangan.

Poraxo'rlik uchun jazo Misr fir'avnlari, "Kambiz sudi" tufayli nomi tarixga kirgan fors shohi Kambiz qonunlarida ham ko'zda tutilgan. Misr fir'avni Ramzes I davrida korrupsiyon jinoyatlarda qo'lga olingan har bir kishi hayotining qolgan qismini qullikda o'tkazgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Hindiston Maurya imperiyasi amaldori Chanakya davlat boshqaruvi haqidagi "Arthashastra" risolasida davlatdan o'g'irlilik qilishga imkon beruvchi qirq usulni ko'rsatgan. Uning fikricha, "baliq o'zi suzayotgan suvni ichishini aniqlab olish mumkin bo'lmanidek, mansabdar shaxslar o'zlariga topshirilgan mulkni o'g'irlaydimi-yo'qmi, aniqlash oson emas". O'sha davrda poraxo'r mansabdar haqida ma'lumot bergen odam uning musodara qilingan mol-mulkining bir qismini mukofot sifatida olgan.

Olis o'tmishda mintaqamizda dunyoga kelgan zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda "haqqoniy hukm chiqarish, pora olmaslik, to'g'ri guvohlik berish va to'g'ri gapirish" ijobiy xislatlar sifatida ulug'langan bo'lsa, aksincha, "ko'rib

turib adolatsizlik, nohaqlik” qilgan amaldorlarning “aytgan va qilgan yomon fikr, yomon kalom va yomon amallari” qattiq qoralangan.

Yunon mutafakkirlari Platon va Aristotel ham korrupsiyaning siyosiy tizimni yemirishini ta’kidlaganlar.

Qadimgi Rim esa:

- Rim qonunlari kodeksi - “o’n ikki jadval da korrupsiyaga qarshi kurash masalalari ko’zda tutilgani;
- insoniyatga korrupsiyaga qarshi dastlabki sud tizimini taqdim etgani;
- korrupsiya butun boshli kuchli imperiyaning oxir-oqibat qulashi sabablaridan biriga aylangani bilan ham tarixda qolgan.

Milodiy VI asrda imperator Buyuk Yustinian amaldorlar tomonidan lavozimlarni sotib olishni bartaraf etishga qaratilgan ma’muriy islohotni amalga oshirdi. Mo’g’ullar imperiyasi asoschisi Chingizxonning “Buyuk Yasoqlari” da korrupsiya jinoyatlari uchun muqarrar o’lim jazosi ko’zda tutilgan.

Xalq orzu qilgan adolatli jamiyatni qurish uchun korrupsiyani hattoki xoinlik bilan, poraxo’rlarni esa yetti avlodigacha - xoinlar bilan tenglashtirish, la’natlash siyosati ham qo’llanilgan. Jamiyatning “jon tomiri”, himoyalovchi va harakatlantiruvchi kuchi bo’lgan uchta kasb egalari - harbiylar va sud-huquq sohasi vakillari, o’qituvchilar va shifokorlarga eng yuqori haq to’lanishi, ularga hurmat-e’tibor bilan munosabatda bo’lishga alohida e’tibor qaratilgan.

Barcha jahon dinlari korrupsiya va poraxo’rlikni qoralaydi. Masalan, muqaddas islom dinida poraxo’rlik, pora olish, pora bilan ishini bitkazishga harakat qilish jamiyat taraqqiyotiga va farovonligiga ulkan zarar keltiradigan, jamiyatni ichidan yemiradigan illat, deb qaraladi.

Qur’oni Karimda: “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo’l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang”, deb uqtirilgani albatta bejiz emas.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan: “Alloh pora berganni ham, pora olganni ham la’natlagandir”; “Boshliqlarning hadya va sovg’alar olishlari haromdir”; “Biz biror ishga boshliq qilib tayinlagan odam unga belgilangan maoshdan ortiq mol topsa, bu uning uchun haromdir”, kabi hadislarni ajdodlarimiz o’z hayoti va faoliyatida dasturilamal deb bilganlar.

“Temur tuzuklari”da Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davridagi mulkni, xususan, davlat mulkini o’zlashtirganlik uchun javobgarlikni belgilashda o’ziga xos yondashuv ta’kidlab o’tilgan. O’sha davrda amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqt vaqt bilan so’roq, tekshirish, taftish, tergov o’tkazib turilgan. O’z amalini suiiste’mol qilish og’ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Amir Temurning o’g’li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Xalil Sulton ushbu me’yorlarni buzganliklari uchun xalq oldida jazoga tortilgan.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub asarida qozining adolat asosida ish ko’rishi, hayotida shaxsiy manfaatga mayl bo’lmasligi, hukm vaqtida oshnoga ham, begonaga ham bir saviyada qaramog’i, hukmlari hadislarga asoslangan, poraxo’r muftilar uning qoshida tuban va xor, hiylakor vakillar uning qarshisida aybdor bo’lmog’i zarur”ligini ta’kidlagan.

Shu bilan birga, azaldan mintaqamizda ushbu illatga qarshi kurash nafaqat qonunlar va muayyan jazolar orqali, balki ma'naviy-axloqiy choralar ko'rish, jamiyatda poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi o'ziga xos "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelingan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongi shakllantirishda yaqindan yordam bergen. Ularning asarlarida xalqparvarlik, mehr va muruvvat, sabru qanoat, adolat, halollik va poklik, birovning omonati va mulkiga xiyonat qilmaslik kabi tushunchalar xam uz ifodasini toptan.

Bunda, avvalambor, inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish, insonning ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal egasi bo'lishiga u'z berilgan. "Avesto" bitiklari, tasavvuf ilmi, "fozil inson", "komil inson" haqidagi ta'limotlarda ushbu masalaga katta e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, har qanday jamiyat alohida insonlardan tashkil topadi. Adolatlari va yetuk, komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin.

Insoniyat, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz ham, qadim zamonlardan beri poraxo'rlik va korrupsiyadan xoli davlat va jamiyat qurish orzusi bilan yashab kelganlar.

Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni xam tag-tugi bilan yo'qotish qiyin. Bugun biron bir davlat - u kattami-kichikmi, boymi-kambag'almi, qudratlimi- kuchsizmi, rivojlanganmi - rivojlanayotganmi, Shimoldami - Janubdami, G'arbdami-Sharqdami, bundan qat'i nazar, korrupsiyadan mutlaqo xoli emas.

BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasiningma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili 1 trillion dollar atrofidagi mablag' pora sifatida sarf etiladi, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli 2,6 trillion dollargacha zarar ko'radi. Bu jahon yalpi mahsulotining 5 foizi deganidir.

Korrupsiya demokratii institutlar va qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy adolat, qonun ustuvorligiga putur yetkazib, izchil barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sishga, jamiyat va davlatlar barqarorligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Korrupsiya allaqachon lokal muammodan butun dunyo hamjamiyati va barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, transmilliy hodisaga aylangan. U uyushgan va transchegaraviy jinoyatlar uchun ham imkoniyat yaratib bermoqda.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini tug'dirmoqda.

Shu ma'noda, o'tgan asrda yashab o'tgan amerikalik yozuvchi Teodor Drayzerning "Sarmoyador" asarida aytilganidek, "Korrupsiya avj olgan davlat, go'yo ichidan yemirilgan mo'rt daraxtga o'xshab qoladi. Shak shubha yo'qki, u birinchi jiddiy sinovga duch kelishidayoq ag'dariladi". Bu fikrlarning naqadar to'g'ri va o'rinali ekanini bugun hayotning o'zi ko'plab misollarda isbotlab turibdi.

Hozirgi kunda insoniyatning kelajagiga raxna solayotgan ushbu illatga qarshi global, mintaqaviy hamda alohida davlatlar miqyosida keng qamrovli va ko'p taraflama yondashuvga asoslanib kurash olib borilmoqda.

Birgina BMT doirasida korrupsiyaning oldini olish vaunga qarshi kurashish bo'yichao'nlab hujjatlar - konvensiya, deklaratsiya va rezolyusiyalar qabul qilingan. Xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi, Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish deklaratsiyasi, "Korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlarini samarali hal etish va amalga oshirish bo'yicha umumiyligi sa'y-harakatlarimiz nomli siyosiy deklaratsiyalar bu boradagi global hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, mazmun-mohiyati, qonuniy asoslari va uslublarini aniqlab bergen.

Jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasidagi ko'p qoidalarning majburiyligi, ushbu global muammoni hal etishga qaratilgan keng va kompleks yondashuv uni korrupsiyaga qarshi kurashning universal va samarali vositasiga aylantira oldi. Uning doirasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan samarali va ta'sirchan chora-tadbirlarni qabul qilish hamda amalga oshirish, korrupsiyaga asoslangan va noqonuniy yig'ilgan boylik va aktivlarni qaytarish borasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, davlat va jamoat xizmatida halollik va sodiqlik, mas'uliyat tuyg'usini ragbatlantirish, ijtimoiy mol-mulkni talab darajasida asrab-avaylash, himoyalash va boshqarishni ko'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali global xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar doirasida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik olib borilmoqda.

Ushbu tashkilotlar tomonidan bu borada qabul qilingan hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, korrupsiyaga toqatsizlik, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doyr chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari belgilangan.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Shvesiya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya tajribasi shundan dalolat beradiki, aynan korrupsiyaning ildiziga bolta urish davlat siyosati va islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi hamda bu borada tizimli ravishda ish olib borilishi ularning yuksak natijalarga erishishiga xizmat qildi.

Bunda asosiy vazifa sifatida aynan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining, butun jamiyatning birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash belgilangan. Bu albatta ushbu mamlakatlarning "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti" (IHTT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Iqtisodiy

hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar doirasida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik olib borilmoqda.

Ushbu tashkilotlar tomonidan bu borada qabul qilingan hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, korrupsiyaga toqatsizlik, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doyr chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari belgilangan.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Shvesiya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya tajribasi shundan dalolat beradiki, aynan korrupsiyaning ildiziga bolta urish davlat siyosati va islohotlarning eng muhim yo'naliшlaridan biri sifatida belgilanishi hamda bu borada tizimli ravishda ish olib borilishi ularning yuksak natijalarga erishishiga xizmat qildi.

Bunda asosiy vazifa sifatida aynan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining, butun jamiyatning bирgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash belgilangan. Bu albatta ushbu mamlakatlarning investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir qilib, davlatni har tomonlama, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Bugun xalqaro hamjamiyat korrupsiyaga qarshi kurashishning eng to'g'ri va samarali yo'li - korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat yaratayotgan sabab va omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish, deb hisoblaydi.

Bunda korrupsiyaning vujudga keltiradigan quyidagi asosiy omillarga alohida e'tibor qaratiladi.

Birinchidan. Jamiyat va davlatda mavjud muammolarni hal qilish maqsadida ishlab chiqilgan qonunlar va dasturlarning mukammal emasligi, qonunchilikdagi ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarning mavjudligi, qonunlarning to'liq va bir xilda ijro etilmasligi. Korrupsiya rivoji davlatdagi qonunlarning sifatiga bog'liq bo'lib, nomukammal qonunlar ishlamaydi va korrupsiyaga moyil shaxslar bundan ustamonlik bilan foydalanishga intiladi.

Bu qonun talablarining to'laqonli amalga oshirilishi, ijro hokimiyyati, sud-huquq tizimining faoliyatiga, aholining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga ham o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli rivojlanayotgan davatlarda hukuq va sud tizimini takomillashtirish, qonunning mutlaq ustunligi va fuqarolarning hukuqlari kafolatli himoya qilinishini ta'minlash, aholini huquqiy tarbiyalash jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb qaraladi.

Ikkinchidan. Mamlakatda mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlar faoliyati ustidan ortiqcha davlat nazoratining mavjudligi. Bu bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatлari bo'lmish "iqtisodiyotni erkinlashtirish, monopoliyaga yo'l qo'ymaslik va hususiy sektorda davlat nazoratini qisqartirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda davlat xizmatchilariga o'z manfaatini ko'zlab mansabini suiiste'mol qilishi uchun sharoit yaratadi.

Bu har qanday jamiyatda yashirin iqtisodiyot va uyushgan jinoyatchilik kabi salbiy illatlar, korrupsiyaning rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi. Shu sababli xam, korrupsiyaga qarshi kurash iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, halol va qonuniy tadbirkorlik uchun chinakam erkinlikni ta'minlash, uning yo'lidagi byurokratik fob va to'siqlarni bartaraf etishni talab qiladi.

Uchinchidan. Davlat xizmatida moddiy manfaatdorlik, byurokratik to'siqlarning mavjudligi, mansabdar shaxslarning ijtimoiy ta'minlanmagani yoki ular uchun adolatli mehnat sharoiti yo'qligi, faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilmaganligi.

Korrupsiyani keltirib chiqaradigan ijtimoiy sabablarga jamiyatdagi nosog'lom muhit, aholining hukuqiy bilim va madaniyati, ma'naviyatining past darajada ekanligi, diniy - ma'rifiy savodsizligi, uyushqoqlik va jamoatchilikdagi faollikning yetishmasligi ham kiradi. Shunisi e'tiborlicki, jamiyatdagi ijtimoiy ongning o'zgarishi, odamlarda davlat va qonunlarga nisbatan ishonch, mamlakat rahbar xodimlarining o'z vazifalarini qay darajada amalga oshirishlariga ta'sir ko'rsatadi, albatta.

O'z navbatida, ular tomonidan to'g'ri va adolatli qarorlar qabul qilinsa, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklansa, ijtimoiy himoya kuchaytirilsa, xalqning jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonchi ortadi. Uning aksi bo'lsa, odamlar orasida norozilik va hukumatga nisbatan ishonchsizlik yuzaga keladi.

So'nggi yillarda tub islohotlar davriga qadam qo'ygan O'zbekistonda ham taraqqiyot kushandasasi bo'lgan illat - korrupsiyaga qarshi izchil kurash olib borilmoqda. Ushbu kurash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Afsuski, mamlakatimizda hali-hamon korrupsiyaning turli ko'rinishlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning ko'pgina sohalarida butunlay barham topmagani sir emas. Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2020-yilda turli darajadagi mansabdorlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun 1723 shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ular tomonidan yetkazilgan zarar 500 milliard so'mni tashkil etgan. 2021 yilning besh oyida esa 1696 nafar mansabdorga nisbatan jinoiy ish ochilgan. Yetkazilgan zarar 450 milliard so'mni tashkil etmoqda.

Hech shubhasiz, bu moddiy zararlar aybdorlardan undirib olinadi. Lekin, shu o'rinda, bir narsaga e'tibor qaratish zarur. Ushbu raqamlar ba'zi "do'starimiz" ta'kidlayotganidek "korrupsiyaning ko'lami ortayotganligi"ni ko'rsatmaydi, balki jamiyatda korrupsiyaga qarshi toqatsizlik muhiti shakllanayotgani, mamlakatimizda unga qarshi keskin kurashning sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilayotganidan ham darak beradi.

Bu - korrupsiya va poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar keng jamoatchilik yordamida ko'proq va tezkor ochilmoqda, degani. Ya'ni, mamlakatimiz aholisining dunyoqarashi, o'z taqdirini shu yurt, shu Vatan va uning yorqin kelajagi bilan chambarchas bog'liq holda ko'rayotgani, bir so'z bilan aytganda, "bugungi xalqimiz - kechagi befarq va beparvo xalq emas'ligining hayot haqiqatiga aylanayotganidir.

Bu illatga qarshi kurashda davlat organlari qatorida siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro faol qatnashayotgani ham pguni ko'rsatadi.

Zero, Yangi O'zbekiston strategiyasi korrupsiyadan xoli mamlakat barpo etishni nazarda tutadi. Ushbu maqsad bugun butun jamiyatimizni jipslashtiruvchi omilga aylanmoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoxda. Bunda quyidagi asosiy yo'nalihsilarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, bu yaramas illatning oqibatlarini, bunga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Shuningdek, davlat va jamiyat kuriishining barcha sohalarida korrupsiyaga yo'l ochib beradigan omillarga chek qo'yishga qaratilgan 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. "Korrupsiyasisiz soha" loyihalari, "yo'l xaritalari" va dasturlar tasdiqlandi.

Parlament, xalq deputatlari Kengashlari, siyosiy partiylar va nodavlat notijorat tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi roli va ahamiyati oshib bormoqda. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi, qator nodavlat notijorat tashkilotlari bilan amaliy hamkorlik kuchaytirildi.

Bu borada Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha milliy kengash samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ilk bor korrupsiyaga oid xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas'ul bo'lgan alohida organ - Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Davlat hokimiyyati organlari va yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Raqamli texnologiyalar imkoniyatidan keng foidalangan holda turli sohalarda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiya va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar joriy etilmoqda.

Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi.

Bizning korrupsiya ustidan g'alaba qozonish va "toza qo'llar" siyosati borasidagi faoliyatimizning asosiy maqsadi - qonun ustuvorligiga erishish orqali bu illatdan xalos bo'lish, mamlakatimizning korrupsiyani rad etadigan va jamiyatda unga nisbatan mutlaqo toqatsizlik muhitini vujudga keltiradigan davlatlar qatoriga kirishdan iborat.

Ushbu maqsadda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha davlatimizning yaqin va o'rta istiqboldagi asosiy ustuvor vazifalarini

belgilashga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiyani qabul qilishimiz - bugungi kun talabidir.

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan IHTTning korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul rejasiga asoslangan hamkorlikni yanada kuchaytiramiz va sifat jihatidan yangi darajaga ko'taramiz. Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi O'zbekistonning xalqaro shartnomalarini milliy qonunchiligidan qurib oshirishda yanada implementatsiya qilish masalalari diqqat-e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi ishlarni yo'lga qo'yishda:

- davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta'sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish;

- davlat apparati va fuqarolik jamiyatni institutlarining ushbu xavfli illat bilan kurashdagi kuch va imkoniyatlarini birlashtirish;

- davlat va jamiyat boshqaruvining barcha bo'g'inlarida kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini kuchaytirish;

- ularning bilimi va malakasini muttasil ravishda oshirib borish tizimini tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Bu borada quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- siyosiy arboblar va davlat xizmatchilarining mablag'lari va molk-mulkleri haqidagi ma'lumotlarni ochiqlashtirish va deklaratsiya qilish tizimini joriy etish;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunni, elektron xaridlar tizimini takomillashtirish;

- jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish tizimining samaradorligini oshirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha huquqiy va tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, qonunchilikdagi jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid normalarni qo'llash jarayonidagi inson omilini bartaraf etish;

- parlament palatalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari ko'mitalarining vakolat va funksiyalarini kuchaytirish.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mavjud korrupsiya xavfi va unga qarshi kurashish hamda uning oldini olish yuzasidan shakllangan ijobiy tajribalarni keng yoyish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Aholining barcha qatlamlari orasida korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish masalasi ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu yo'nalishda qonunchilik normalari va qabul qilingan ichki xujjalarga rioxha qilish va axloqiy xulq-atvor bilan shaxsan namuna bo'lish tuyg'ularini yanada mustahkamlash zarur, albatta.

Bularning barchasi ushbu jabhada ta'sirchan va samarali chora-tadbirlarini amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi.

Ayni paytda, korrupsiya bilan bog'liq hukuqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish, profilaktika qilish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, korrupsiyaning har qanday ko'rinishi va holatlariga barham berishga qaratilgan hamda bu boradagi huquqiy mezonlarning buzilishiga

yo'l qo'y maydigan asosiy talablar va tamoyillarni yanada mustahkamlashimiz lozim.

Bu borada “Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestri”ning yuritilishi, “Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida”gi qonun qabul qilinishi olib borayotgan sa'y-harakatlarimizning samarasini oshirishga xizmat qiladi. “Korrupsiyani qabul qilish indeksi” reytingida mamlakatimizning egallayotgan o'rirlari bu boradagi harakatlarimizni baholovchi asosiy ko'rsatkichlar sirasiga kiradi.

**5. Kambag'allik: umuminsoniy va milliy muammolar.** Insoniyatni uzoq moziining eng qadimgi davrlaridan buyon muttasil o'ylantirib, qii nab kelgan masalalardan biri kambag'allik bilan bog'liq muammolardir. Jumladan, miloddan avvalgi 384-322 yillarda yashagan mashhur yunon mutafakkiri Aristotel: “Kambag'allik, sevish yoki shunga o'xshash boshqa azoblarga chiday olmay o'z joniga suiqasd qilish - bu mardlik emas, aksincha, qo'rkoqlik belgisidir. Chunki bu - ojizlik, qiyinchiliklardan qochishdir. Ojiz kishi o'limni yaxshiligi uchun emas, azoblardan qutulish uchun bo'yniga oladi”, deb yozgan edi.

Miloddan avvalgi taxminan 551-471 yillarda yashagan, o'zining falsafiy ta'limoti bilan nafaqat Xitoy, balki boshqa xalqlar hayotiga hozir ham chukur ta'sir ko'rsatayotgan donishmand Konfutsiy esa “Boylik yaxshi ko'rilib, qambag'allik yomon ko'rilsa, g'alayon chiqishi mumkin, deb ta'kidlagan edi.

XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili Abdurauf Fitrat o'z asarlaridan birida: “tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir”, degan fikrni ilgari surgan.

Shu o'rinda, zahmatkash xalqimiz kambag'allikka inson, jamiyat, iymone'tiqod, xulq-atvor, tafakkur, madaniyat, oila, bashariyat, xullas, hayotning barcha-barcha sohalariga tahdid soluvchi xatar sifatida qaraganini ham eslash joiz.

Qadimdan ota-bobolarimiz har bir inson farovon va baxtli yashashga haqli ekanligini, insonlarni yaxshi yashashga intilgani uchun ayblab bo'lmasligini, ayni vaqtda, kambag'allik domiga tushib qolgan har bir fuqarodan ham o'z hayotini o'zgartirishga bo'lgan kuchli xohish, yangilanish-lardan qo'rmaslik va doimo oldinga intilish talab etilishini e'tirof etib keladilar.

Afsuski, hozirgi kunda ham jahonning turli nuqtalarida notinchlik saqlanib qolayotgani, ziddiyat va zo'ravonliklar ortib borayotgani, ekologik ofatlar va boshqa zamонавиx xatarlar qashshoqlik va kambag'allikning global muammolarini yanada kuchaytirmoqda.

Bu muammolar, ayniqsa, pandemiya sharoitida keskin tus olmoqda. Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilmoqda.

Buyuk izlanishlar, inqilobiy ixtiolar yoki madaniyat va jamiyatning rivojiga katta hissa qo'shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri bo'lgan Alfred Nobel mukofoti 2019-yilda iqtisod fanlari bo'yicha “Global qashshoqlikka qarshi kurashdagi eng yaxshi yo'llar bo'yicha ishonchli javoblarni olishda yangicha yondashuv” ishlab chiqilganligi uchun

berilganining o'zi ham qashshoqlik masalasi jahoniy muammo ekanidan va unga bo'lган e'tibor aslo susaymayotganidan dalolat beradi.

Ushbu muammo hali-hamon dunyo ahlini, eng yetuk mutaxassislar, olimu fuzalolar diqqatini tortayotganligini bevosita kambag'allik va qashshoqlik tushunchalariga nisbatan hozirda ham jahonda umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rif ishlab chiqilmaganligida ko'rish mumkin. Har bir mamlakat ushbu tushunchalarni o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflamoqda. Jumladan, BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik - insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lган daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklavlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytildi (BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan).

Kambag'allik esa, insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambagallik-bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralangan, xavfxatarlar oldida ojizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining "Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sidan, 2017 yil, Nyu-York, Jeneva).

Bu borada aholining ma'lum qatlamlari o'rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, degan jo'n fikr mavjudligini ham aytish zarur. Bu - bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermaydi. Zero, kambag'allikni kamaytirish - bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rnlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida 700 milliondan ortiq odam qashshoqlikda kun kechiradi. Kambag'allikning yuqori darjasini asosan turli nizolar mavjud bo'lган mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Kambag'allik va qashshoqlikka qarshi kurashish BMT kun tartibidagi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada tashkilot tomonidan bir qator muhim ishlar amalga oshirilganligini aytish zarur.

Xususan, 1992 yilda BMT Bosh assambleyasi 17 oktabrni Xalqaro qashshoqlikka barham berish kuni deb belgiladi. Tegishli rezolyusiyalar asosida 1997-2006, 2008-2017 va 2018-2027 yillar BMTning qashshoqlikka qarshi kurashish o'n yilliklari sifatida e'tirof etildi.

Kambag'allik va qashshoqlikka qarshi kurashish tashkilotning Mingyllik deklaratsiyasi, Addis-Abeba Harakatlar dasturi va 2030-yilgacha bo'lган barqaror

rivojlanish maqsadlari kabi hujatlarda o’z aksini topgan. O’ta qashshoqlikka qarshi kurash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu hujatlarda, jumladan, har bir davlat milliy va global miqyosda kambag’allikka qarshi kurashish sohasida tegishli shart-sharoitlarni yaratish, gender tengligini ta’minlash, ijtimoiy himoya choralarini ko’rish va boshqa qator masalalar bo'yicha zarur choralarni amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

Shu munosabat bilan ta’kidlash joizki, biz shu paytgacha aksariyat fuqarolarimiz haqiqatan ham kambag’al ekanini ko’rib-ko’rmaslikka, bilib-bilmaslikka oldik. Endi yashirish kerak emas, og’ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashini o’zgartirishimiz lozim bo’ladi.

Har qanday mamlakatda bo’lgani kabi bizda ham kam ta’minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob- kitoblarga ko’ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o’rinda ran kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda.

2020-yil mamlakat tarixida ilk bor kambag’allik tushunchasi mamlakat barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi jiddiy muammo sifatida e’tirof etilib, mazkur yo’nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy masalalaridan biriga aylandi.

Bu borada quyidagilar nazarda tutildi:

Birinchidan, kambag’allik jinoyatchilikning o’sishiga ta’sir qiladi. Jinoyatchilik aholining kam ta’minlangan qatlamlari orasida keng tarqaladi va ular “daromad olish” ning jinoiy shakllariga murojaat qilish ehtimoli katta.

Kambag’allikning ikkinchi salbiy oqibati - turmush darajasi past va daromadlari yuqori bo’lmagan aholi qatlamlarining sog’lig’iga salbiy ta’siri.

Uchinchidan, kambag’allik alkogolizm va giyohvandlikning o’sishiga ham bevosita ta’sir qiladi.

To’rtinchidan, kambag’allikning yuqori darajasi jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sababdir.

Kambag’allikning xavfli oqibatlaridan yana biri bu aholining umumiyligi ma’lumot darajasi pasayishi.

Kambag’allikning salbiy oqibatlarini e’tiborga olgan holda, mamlakatimizda unga qarshi kurashning strategik yo’nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda so’nggi yillarda bu sohada qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchidan, O’zbekistonda kambag’allikni qisqartirishning institutsional asoslari yaratilib, kambag’allikni qisqartirish masalalarini muvofiqlashtiruvchi vazirlik hamda ushbu yo’nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy markaz tashkil etildi.

O’tgan davr mobaynida mamlakatda bevosita kambag’allikni qisqartirish borasida xalqaro tashkilotlar (BMT Taraqqiyot dasturi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, YuNISEF va boshqalar), moliyaviy institutlar (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) hamda ushbu yo’nalishda ilg’or tajribaga ega mamlakatlar ilmiy markazlari (Xitoy Kambag’allikni qisqartirish xalqaro markazi) bilan mustahkam aloqalar o’rnatildi.

Ikkinchidan, pandemiya sharoitida ehtiyojmand aholini moddiy va nomoddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida joylardagi to'rtta sektor, mahalla organlari, keng jamoatchilik vakillari hamda deputatlar bilan birgalikda kambag'al va moddii yordamga muhtoj oilalar ruixati - "Temir daftar" tizimi tashkil etildi.

Mamlakat miqyosida "Temir daftar"ga 2,5 millionga yaqin aholini o'z ichiga olgan 594,3 ming oila kiritildi.

Bugungi kunda kam ta'minlangan oilalarning daromad manbaini yaratish orqali 2,2 million kishi "Temir daftar"dan chiqarilgan.

Uchinchidan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi kabi xalqaro tashkilotlarning taklif va tavsiyalari asosida aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibi amaliyatga joriy etilmoqda. Mazkur uslubiyot O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim dastaklardan biri bo'lib, ijtimoiy standartlarni belgilashda foydalaniadi.

To'rtinchidan, o'rta va uzoq muddatlarda kambag'allikni qisqartirishning strategik maqsadlarini belgilash maqsadida, Jahon banki va BMT Taraqqiyot Dasturi ekspertlari bilan birga "2021-2030-yillarga qadar O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

Hujjatda respublikada kambag'allikni qisqartirish uchun kompleks yondashilib, ustuvor yo'nalishlar doirasida chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Albatta, bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Bu borada ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy sohalarning hamkorlikdagi faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta'minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusi o'n yillikda ushbu sohada ijobiy natijalarga erishish uchun yana quyidagilarga alohida e'tibor berishimiz zarurligini yaxshi anglaymiz:

- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030 yilgacha kambag'allik darajasini 2,0 martaga kamaytirish;

- kelgusi o'n yilda kambag'al oilalardagi ishsizlarni tadbirkorlikka jalb etgan holda, 500 ming yangi ish joylarini tashkil etish, ishsizlik darajasini 2,0 marta qisqartirish;

- 2030-yilgacha kambag'al oilalarni 600 mingta kvartiralar bilan imtiyozli asosda ta'minlash, uy sharoitlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish;

- kambag'al oilalardagi bolalarni maktabgacha tarbiyalash muassasalaridagi qamrovini 2020-yildagi 10 foizdan 2030-yilda 30 foizga ko'paytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda aholini,

jumladan, kambag'al oilalarni minimal iste'mol standartlarini davlat tomonidan tulik, ta'minotini ta'minlash;

- kam ta'minlangan oilalarning dehqonchilik qilishi uchun har Yili 30,0 ming hektar qishloq xo'jaligidagi foydalanilmayotgan yer maydonlarini ajratib berish, tomorqa xo'jaligidan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratish;

- 2030-yilgacha barcha muhtoj kambag'al oilalarni maqsadli va samarali ijtimoiy himoyasini amalga oshirish.

Bugungi kunga kelib, kambag'allikni qisqartirishga aloqador tashkilotlar va idoralar faoliyati yanada samarali tashkil etilishiga alohida e'tibor beriladi va bu borada mas'ul xorijiy institutlar bilan hamkorlik yanada rivojlantiriladi.

2021-yilda "Qashshoqlikka barham berish va kambag'allikka qarshi kurashish" masalalariga bagishlangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global sammiti o'tkazilishi, ShHTga a'zo mamlakatlarda sohaga mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda "Kambag'allikka qarshi kurashish" konferensiyasi tashkil etilishi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambagallikni qisqartirish vazirligi bilan Xitoy Xalk. Respublikasining Xalqaro kambagallikni qisqartirish markazi o'rtasida anglashuv memorandumi imzolanishi ana shu sohadagi ishlarning bardavomligidan dalolat beradi.

Xullas, davlatimiz siyosatining barcha ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda kambagallikni qisqartirish muhim o'rinni egallaydi. Ushbu sohadagi faoliyatni tizimli va samarali tashkil etilishi esa, kambag'allikdan chiqib ketishning eng muhim omili bo'lgan insonniig intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakat qilish imkonini yaratdi.

**6. Xavfsiz, tartibli va qonuiy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati.** Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya masalasi dunyo miqyosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb vazifalaridan biriga aylangai. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan migrantlar soni 281 million nafardan oshgan. Ularning aksariyati-uchdan ikki qismi sayyoramizning rivojlangan mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda migratsiyaning oshishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hamda aholi farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi iqlim va haroratning keskin o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi va qishloq xo'jaligi unumdorligining pasayishi kabi omillar bilan bog'liq. Ushbu omillar, ayniqsa, aholining eng zaif qatlamlariga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Migratsiya jarayoni, ayniqsa, uning asosiy qismini tashkil etuvchi mehnat migratsiyasi jarayoni muayyan vaqtarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqasi ijtimoiy hayotigao'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'siri o'tkazadi.

Jahon xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayishi, rivojlangan va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzlusiz chuqurlashib borishi mehnat migratsiyasining tobora intensivlashib borishiga olib keladi.

Dunyo tajribasida ushbu salbiy holatlarning oldini olishning ikkita samarali usuli mavjud. Bu - mamlakatda ko'plab yangi ish o'rinalarini yaratish, aholida tadbirdorlik bilan shug'ullanish va uning hisobidan daromad topish ko'nikmasini oshirish hamda xavfsiz va qonuniy mehnat migratsiyasiga yo'l ochib berishni nazarda tutadi.

Mehnat migratsiyasini tartibli va ilmiy asosda yo'lga qo'yilishi dunyo iqtisodiyoti, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga katta manfaat ham keltiradi:

- ishchi kuchi eksportidan keladigan daromad miqdori keskin oshadi. BMT ekspertlarining tahlillariga ko'ra, xalqaro migratsiya dunyodagi pandemiya inqirozidan keyin iqtisodiy tiklanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Dunyo aholisining atigi 3,5 foizini tashkil etadigan migrantlar jahon yalpi mahsulotining taxminan 9 foizini ishlab chiqaradi;

- yoshlarda malakali ishchi yoki yaxshi o'qib, yuqori kvalifikatsiyali mutaxassis bo'lishga qiziqish ortadi. Xorijda yetarli tajriba to'plagan va malakali ishlarni bajargan yoshlar, o'z yurtiga qaytganda, jamiyat intellektual salohiyatini oshirish va milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo'shadi;

- rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasidagi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, mamlakatdagi ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Dunyo bo'yicha mehnat migrantlarining har yili o'z yurtlariga yuboradigan mablag'lari 551 milliard AQSh dollaridan ortadi va bu ko'p hollarda rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijdan kelayotgan yordam va investitsiyalardan ko'proq bo'ladi.

Shu ma'noda, migratsiya jarayonini tartibga solish, uni boshqarish masalalari alohida e'tibor talab qiladi va jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborida turadi.

Tabiiyki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o'tmishdan qolgan merosning ogir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan O'zbekiston ham asrimizning ushbu fenomeni-mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qola olmaydi.

Shu boisdan, ham Yangi O'zbekiston BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning xavfsiz, tartibli va qonunii migratsiya siyosatini amalga oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, so'nggi besh yilda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro migratsiya tashkilotiga (XMT) a'zo bo'ldi, ushbu tashkilot Konstitutsiyasini ratifikatsiya qildi. Xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabatlarni tubdan o'zgartirib, ilk bor mehnat migrantlari bilan bevosita muloqot o'rnatdik, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy etdildi.

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi, mehnat migrantlarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi. Ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning reintegratsiyasini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun kulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks choratadbirlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu borada biz taqdim etayotgan strategiya asosida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ular qaerda ekanliklaridan qat'i nazar, ishonchli himoyasini ta'minlash masalasi turibdi.

Kelgusi yillarda bu boradagi sa'y-harakatlarimizni yanada jadallashtirib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda faoliyatimizni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqamiz.

Birinchi yo'nalish. Xorijdagi vatandoshlarimiz, o'zbek diasporalari va ularning jamoat tashkilotlari bilan aloqalar mustahkamlanadi.

Xorijdagi vatandoshlarimiz, ya'ni:

- kelib chiqishi O'zbekiston Respublikasidan bo'lgan, chet elga chiqqan va xorijiy davlat fuqaroligini yoki fuqaroligi bo'lman shaxe maqomini olgan;

- tarixiy Vataniga ma'naviy va madaniy nuqtai nazardan mansublikni his qilgan;

- etnik va til nuqtai nazaridan o'zini o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar sifatida identifikatsiya qilgan hamda O'zbekiston bilan har tomonlama aloqa qilish istagida bo'lgan, xorijda istiqomat qilayotgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lman shaxslar bilan tizimli ishlashni yo'lga qo'yamiz.

Bunda:

birinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, vatandoshlarimiz istiqomat qilayotgan mamlakatlarning qonunlari va O'zbekistonning xalqaro shartnomalari asosida vatandoshlarimizning huquq va erkinliklarini himoya qilish;

ikkinchidan, vatandoshlarimiz va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, faoliyatini rag'batlantirish;

uchinchidan, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz duch kelayotgan muammolarni tizimli asosda tahlil qilib borish, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolganlarini moddiy, ijtimoiy, axborot va huquqiy jihatidan qo'llab-quvvatlash, yordam ko'rsatish;

to'rtinchidan, xorijda o'zbek tili, madaniyati va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish, yurtimizning boy ilmii, madanii va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish va ommalashtirish hamda olim va ijodkor vatandoshlarimizning ilmiy, ijodiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash;

beshinchidan, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni O'zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmii, ma'rifi va madaniy faoliyat bilan shug'ullanishga faol jalb qilish;

oltinchidan, xorijda ta'lim olayotgan O'zbekiston yoshlari bilan tizimli ishlashni yo'lga qo'yish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz.

Bu borada Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Mutaxassislarini xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Vatandoshlar" jamoat fondi, O'zbekiston kasabauyushmalari kabi fuqarolik jamiyatni institutlari oldiga qator yangi vazifalar qo'yilgan.

Ikkinchi yo'nalish. Tashqi mehnat migratsiyasi, u bilan bog'liq bo'lgan odam savdosi sohasida xalqaro hamkorlik yanada rivojlantiriladi.

Yangi O'zbekiston XMT a'zosi sifatida migrantlarga yordam ko'rsatish, migratsiya oqimini tartibga solishning Huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish,

mehnat migrantlarini qo'llab-quvvatlash, odam savdosiga qarshi kurashish, ushbu sohalardagi mintaqaviy va global tashabbuslarda faol ishtirok etadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi va ta'lim sohalarida XMTga a'zo davlatlar bilan ko'p tomonlama va naggi tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Rossiya, Qozog'iston, AQSh, Yaponiya, Koreya, Yevroitifoqqa a'zo davlatlar, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlar bilan hamkorlikni kengaytiramiz.

Xorijiy mamlakatlarning migratsiya va boshqa davlat organlari bilan munosabatlar kuchaytiriladi. Chet ellik ish beruvchilar va xususiy bandlik agentliklari, ularning vakillari bilan mustahkam aloqalar o'rnatiladi, bevosita kelishuvlar tuziladi.

Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarga hukuqiy yordam ko'rsatish maqsadida advokatlik firmalari jalb qilinishi, onlayn platforma yaratilishi va doimiy xizmat bilan qamrab oladigan "Call-markaz" tashkil etilishi borasidagi ishlar ko'lami kengaytiriladi. Xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga muntazam yordam ko'rsatib kelayotgan shaxslarni "faxriy konsul" hamda "jamoat maslahatchisi" etib tayinlash hamda ularni davlat mukofotlari bilan taqdirlash amaliyoti kengaytiriladi.

Uchinchi yo'naliш. Xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga uqitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish

borasidagi chora-tadbirlar tizimli ravishda va jadal hayotga tatbiq etiladi. Shuningdek, mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyoti kengaytiriladi.

To'rtinchi yo'naliш. Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar reintegratsiya qilinadi, shu jumladan, ularning bandligi ta'minlanadi, kasbiy malakasi oshiriladi va tadbirkorlik tashabbuslari rag'batlantiriladi.

Ushbu vazifalar, avvalo, mehnat migrantlari muammosini hal etish, barcha davlat tashkilotlari, mutasaddilari, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtai nazaridan o'z yechimini kutayotgan asosiy masalalaridan biri sifatida qaralmog'i lozim.

Barchamiz birgalikda, bir tanu bir jon bo'lib harakat qilsak, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning ravon yo'liga boshlab, migrantlarning haq-huquqlarini samarali himoya qilgan bo'lamiz.

**7. Pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz.** Bugungi kunda insoniyat global ofatni - koronavirus pandemiyasini boshidan o'tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun - har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda.

Ming affuski, bu yukumli kasallik mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi va bizga ham tashqaridan kirib keldi. Bu ofat bilan samarali kurashish uchun mamlakatimizda barcha zaruriy choralar ko'rildi.

Pandemianing birinchi kunlaridan boshlab butun boshqaruv tizimi va barcha tibbiyot muassasalari favkulodda ish rejimiga o'tkazildi.

Qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo'lgan qator davolash maskanlari tashkil etildi. Ular zarur dori-darmon, himoya va eng zamonaviy diagnostika vositalari bilan ta'minlandi. Pandemiyaga qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot xodimi, jumladan, chet ellik yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalb etildi.

Xorijdan 600 mingdan ortiq vatandoshlarimiz yurtimizga olib kelindi. Chet elda qiyin ahvolga tushib qolgan 200 mingga yaqin fuqarolarimizga zarur yordamlar ko'rsatildi.

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 100 trillion so'mga yaqin kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga davlat budgetidan tegishli mablag'lar yo'naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalarini, tadbirkorlik sub'ektlari hamda fuqarolarimizga soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi.

“Saxovat va ko'mak” umumxalq harakati doirasida fidoyi va oljanob vatandoshlarimizning faol ishtirokida bir millionga yaqin ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ko'rsatildi.

Hozirgi vaqtida dunyoning boshqa mintaqalarida kuzatilayotgan “pandemianing navbatdagi to'lqini va u bilan bog'liq xavf-xatarlar hammamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga undamoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tahlillariga ko'ra, pandemiya xavfi hali uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Demak, insoniyat boshidagi sinovlar yana qancha davom etishi noma'lum.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, nufuzli ekspertlar prognoziga ko'ra, pandemiya butun dunyoda inqirozli holatlar, ijtimoiy keskinlik, qashshoqlik kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Barchamizga ayonki, pandemiyadan keyin dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasi, albatta, o'zgaradi.

To'plangan tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, kuchli va samarali boshqaruv tizimiga, bir yoqadan bosh chiqarib yashaydigan aholiga ega bo'lgan davlatlar pandemianing keng tarqalish xavfini o'z vaqtida bartaraf etishga qodir bo'ladi. Buni O'zbekistonning pandemiya davridagi kurash tajribasi ham isbotlab turibdi.

Lekin erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, jahondagi vaziyatga sergaklik bilan qarab, barchamiz - kim bo'lishimiz, qaysi vazifada ishlashimizdan qat'i nazar, mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlash haqida jiddiy o'ylashimiz zarur.

Albatta, bunday sinovli kunlar bir qator xulosalarga olib keladi. Jumladan:

birinchidan, biz pandemiya va shu kabi ofatlar bilan bog'liq jarayonlarning izidan quvib emas, balki uning barvaqt oldini olish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni va barcha resurslarimizni safarbar etishimiz zarur.

Ikkinchidan, mavjud vaziyatni har tomonlama chukur tahlil qilib, bo'lajak xavf-xatarlarni, ular bilan bog'liq muammolarni oldindan prognoz qilishimiz va ularning yechimiga aniq reja va puxta choralarimiz bilan tayyor turishimiz talab etiladi.

Uchinchidan, bu kabi kasalliklarni yengish uchun barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz kerak. Bemorlarni davolash bo'yicha telemeditsina orqali olib borayotgan muloqotlarimizni kengaytirishimiz, xalqaro tajribalar va tavsiyalarni o'zimizda faol joriy etishimiz shart.

To'rtinchidan, mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birga, joylardagi hokimlar, sektorlar rahbarlari koronavirusning qaytdan tarqalishi oldini olish hamda uning iqtisodiyot va insonlar hayotiga salbiy ta'sirini imkon qadar cheklash uchun aholining eng muhim hayotiy ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, narx-navoning oshib ketmasligiga erishish va kam ta'minlangan oilalarni ko'llab-kuvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirishimiz zarur.

Ayniqsa, kam ta'minlangan, ehtiyojmand va yordamga muhtoj oilalarga muruvvat va saxovat ko'rsatish, ularning holidan xabar olish, bu kabi ezgu tashabbuslarni ko'paytirish joylardagi barcha mutasaddi rahbarlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lmos'hish lozim.

Ko'pga kelgan va jahon ahli aziyat chekayotgan bu qiyin kunlar, albatta, o'tadi. Bizning buyuk va ko'pni kurgan xalqimiz ko'p asrlik tarixida ne-ne baloqazolarni, urushlar va ocharchiliklarni mardonavor yengib o'tgan. Bu sinovdan ham munosib o'tib olishimizga qat'iy ishonaman.

## **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 2017.-592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangriyev L. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ, таҳрири остида. - Т.: Маънавият, 2009.
3. Абилов У. Миллий ғоя: маънавий омиллар. – Т.: Маънавият, 1999.
4. Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. - Т.: 2002.
5. Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият курилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўкув-услубий қўлланма). – Т.: 2004.
6. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ. Таҳрири остида. - Т.: Академия нашриёти. 2007.
7. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. - Т.: 2002.
8. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. – Т.: 2002.
9. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий луғат) – Т.: Янги аср авлоди, 2002.
10. Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият куришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. – Т.: Университет, 2001.

### **Axborot manbalari**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi rasmiy sayti
2. [www.senat.uz](http://www.senat.uz) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal
4. [www.mtdp.uz](http://www.mtdp.uz) O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi rasmiy sayti
5. [parliament.gov.uz](http://parliament.gov.uz) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti
6. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati
7. [www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı

8. www.mfa.uz O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy satyi
9. www.edu.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti
10. www.uza.uz O‘zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiyani rivojlanirish vazirligi
11. www.jahon.uz O‘zbekiston Respublikasi MTRK ning “Jahon” axborot agentligi
12. www.uzxdp.uz O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi rasmiy sayti
13. www.adolat.uz O‘zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi rasmiy sayti
14. www.uzlidep.uz O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi rasmiy sayti
15. www.xs.uz “Xalq so‘zi” gazetasi
16. www.mahalla.uz Mahalla xayriya jamoat fondi rasmiy sayti
17. www.yi.uz O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi rasmiy sayti
18. www.kasaba.uz O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rasmiy sayti
19. www.namdu.uz Namangan davlat universiteti rasmiy sayti
20. www.ziyonet.uz Elektron o‘quv resurslari sayti

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


**Namangan davlat universiteti**

**Davlat va huquq tarixi va nazariyasi kafedrasи**

**“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”**

**fanidan**

**amaliy mashg'ulotlar ishlanmasи**



**NAMANGAN**

Mazkur amaliy dars ishlanma 60112100-Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi 3-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, ularga “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanidan tizimli bilimlar berish, jumladan ushbu fan jamiyatimiz taraqqiyoti negizi tamoyillarini ifoda etadi va dastlabki bilimlar, ko’nikma va malakalar berishni belgilab beradi.

Tuzuvchi: PhD E.O. G’apparov

Taqrizchi: f.f.d., prof. B. Talapov

Amaliy mashg’ulotlar ishlanmasi NamDUNing “Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrasining yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

202\_\_ yil \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri: PhD E.O. G’apparov

## O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limgagi o'rni

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" – 60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan tanlov fanlaridan biri bo'lib, o'quv mashg'ulotlari davomida Talabalarda mamlakatimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiriladi.

### O'quv fanining maqsadi va vazifasi

**Fanning maqsadi** - Talabaantlarga O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarish va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyotimiz istiqbollarining mazmun-mohiyatini chuqur singdirish.

**Fanning vazifasi:** Xalqimizning Yangi Uyg'onish davri asoslarini yaratish bilan bog'liq, ezgu orzu-intilishlari, ularni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifalarni atroflicha tahlil etish.

Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:

- O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarish va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyotimiz istiqbollarining mazmun-mohiyati to'g'risida **bilimga**;
- xalqimizning Yangi Uyg'onish davri asoslarini yaratish bilan bog'liq, ezgu orzu-intilishlari, ularni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifalarni atroflicha tahlil etish **ko'nikmalariga**;
- talaba Yangi Uyg'onish davri asoslarini yaratish bilan bog'liq xamda milliy taraqqiyotimiz istiqbollarining muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga **malakasiga ega bo'lishi kerak**.

## “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanidan mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi

3-bosqich II semestrda jami 120 soat; bundan 12 soat ma’ruza, 42 soat seminar mashg’uloti va 60 soat mustaqil ta’limga ajratilgan.

Kurs	Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg’ulotlari turi bo’yicha o’quv yuklamasi taqsimoti(soat)				Mustaqil ta’lim
			Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Laboratoriya mashg’uloti	
3	V	150	60	18	42		60

### 1-mavzu: “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanining predmeti, maqsadi va vazifasi. (2 s)

#### Reja:

1. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanining predmeti.
2. Fanni o’qitishdan ko’zlangan maqsadlar.
3. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanini vazifalari.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.

#### Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo’llanmalar.

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

### 2-Mavzu: Yangi O’zbekiston strategiyasi (4 s)

#### Reja:

1. Yangi O’zbekiston orzusi.
2. Yangi O’zbekiston fenomeni.
3. Yangi O’zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari.
4. Yangilanayotgan O’zbekiston.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.

### **Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

### **3-Mavzu: Xalqparvar davlat (4 s)**

#### **Reja:**

1. “Davlat – inson uchun” tamoyili – demokratik islohotlar mezoni.
2. Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi.
3. Davlat boshqaruvining sivilizatsiyaviy imkoniyatlari.
4. Hududiy masalalarni hal qilish mas’uliyati.
5. Qonun ijodkorligi va huquqni qo’llash amaliyoti.
6. Mustaqil va odil sud tizimi.
7. Erkin va ochiq fuqarolik jamiyatni.
8. Ijtimoiy mas’uliyatli ommaviy axborot vositalari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.**

### **Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

#### **4-mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish (4 s)**

**Reja**

1. Iqtisodiyot – jamiyat hayotining tanasi.
2. Xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish.
3. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish.
4. Qishloq ho’jaligini jadal rivojlantirish.
5. Suv resurslarini samaradorligini oshirish.
6. Hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti.
7. Turizm – O’zbekiston iqtisodiyotining drayveri.
8. Raqamli iqtisodiyot sari.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.

**Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo’llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улугъ халқнинг иши ҳам улугъ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

#### **5- Mavzu: Adolatli ijtimoiy siyosat (2 s)**

**Reja:**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar.
2. Sog’liqni saqlash: muammo va yechimlar.
3. Sog’lom turmush tarzi madaniyati: jismoniy tarbiya va sport.
4. Ta’lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar.
5. Ilm-fan – innovatsion taraqqiyot asosi.
6. Ayol bahtli bo’lsa, jamiyat bahtlidir.
7. Yoshlar – Yangi O’zbekiston buniyodkori.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.

**Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo’llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.

2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

## **6-Mavzu: Ma’naviy taraqqiyot (2 s)**

**Reja:**

1. Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar.
2. Yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar.
3. Ma’rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi.
4. Yangi O’zbekiston va ma’naviy yangilanish.
5. Ma’rifatli jamiyat sari.
6. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg’unligi.

**Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.**

### **Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo’llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

## **7-Mavzu: Xavfsizlik va tashqi siyosat (2 s)**

**Reja:**

1. Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati.
2. Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat – ustuvor vazifamiz.
3. BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.
4. Markaziy-Janubiy Osiyo va O’zbekiston taraqqiyoti.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.**

**Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

**8 - Mavzu: O'zbekiston va umumbashariy muammolar (4 s)**

**Reja:**

1. Davrimizning global muammolari va O'zbekiston taraqqiyoti.
2. Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'hronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati.
3. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm – barqaror taraqqiyot kushandası.
4. Korrupsiyadan xoli dunyo – umumbashariy orzu.
5. Kambag'allik: umuminsoniy va milliy muammolar.
6. Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati.
7. Pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.**

**Mavzuga doir adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalar.**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

## **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 2017.-592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

7. Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangriyev L. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
8. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ, таҳрири остида. - Т.: Маънавият, 2009.
9. Абилов У. Миллий ғоя: маънавий омиллар. – Т.: Маънавият, 1999.
- 10.Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. - Т.: 2002.
- 11.Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият курилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўкув-услубий қўлланма). – Т.: 2004.
- 12.Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ. Таҳрири остида. - Т.: Академия нашриёти. 2007.
- 13.Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. - Т.: 2002.
- 14.Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. – Т.: 2002.
- 15.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий лугат) – Т.: Янги аср авлоди, 2002.
- 16.Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият куришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. – Т.: Университет, 2001.

### **Axborot manbalari**

- 17.www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi rasmiy sayti
- 18.www.senat.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti
- 19.www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal
- 20.www.mtdp.uz O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi rasmiy sayti
- 21.parliament.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti
- 22.www.press-service.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati
- 23.www.my.gov.uz Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

24. www.mfa.uz O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy satyi
25. www.edu.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti
26. www.uza.uz O‘zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiyani rivojlanirish vazirligi
27. www.jahon.uz O‘zbekiston Respublikasi MTRK ning “Jahon” axborot agentligi
28. www.uzxdp.uz O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi rasmiy sayti
29. www.adolat.uz O‘zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi rasmiy sayti
30. www.uzlidep.uz O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi rasmiy sayti
31. www.xs.uz “Xalq so‘zi” gazetasi
32. www.mahalla.uz Mahalla xayriya jamoat fondi rasmiy sayti
33. www.yi.uz O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi rasmiy sayti
34. www.kasaba.uz O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi rasmiy sayti
35. www.namdu.uz Namangan davlat universiteti rasmiy sayti
36. www.ziyonet.uz Elektron o‘quv resurslari sayti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



**Fuqarolik jamiyati va huquq ta'lifi kafedrasи**

**"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"**

**modulidan Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va  
baholash to'g'risida**

**USLUBIY KO'RSATMA**

**Namangan - 2023**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**Namangan Davlat Universiteti**

“Tasdiqlayman”  
Fuqarolik jamiyati va huquq  
ta'limi kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_  
E. G'apparov.  
“ ” 2023 yil

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning “Davlat va huquq tarixi va nazariyasi” kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2024 yil \_\_\_\_\_

Kafedra mudiri:

PhD E.O. G'apparov

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning Yurtidik fakulteti ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2024 yil \_\_\_\_\_

Fakultet dekani:

f.f.d., dotsent B. Talapov

Tuzuvchi:

PhD E.G'apparov

## I. Umumiy qoidalar

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'qishning boshlang'ich qismida Talabaning mustaqil ishini tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma- bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

### Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari

#### **Maqsadi:**

Mustaqil ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanishi; mustaqil ta'limning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini xisobga olgan xolda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va amalga oshirish;

**Mustaqil ta'lim** oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy maxoratlarini zamon talabi darajasida shakllantirish;

**Mustaqil ta'limning** noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy hamda uzlucksiz aloqasini yaratish;

#### **Mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;ta'lim oluvchilarga**

Mustaqil ta'lim jarayoniga nisbatan kasbiy, iqtisodiy, tafakkur etish, ma'naviy va boshqa qiziqishlarini uygotish;mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, echimlarini qidirish; olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy taxlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash;

Mustaqil ta'limda mustaqil ishslash bilan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash; tashkiliy, psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy, axborot, moddiy-texnik ta'minotni o'z ichiga oluvchi mustaqil ish infrakturasini yaratish;

Mustaqil ta'lim-natijalarini baholash tizimini yaratish.

#### **Vazifalari:**

- Bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- Elektron darslik ma'lumotlar bankini yaratish;
- Berilgan topshiriqning muhim echimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalari xulosasini tayyorlash va qayta ishslash;
- Topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

- Ishlab chiqilgan echim, loyihani asoslash va mutaxassislar ishtirokida himoya qilish;
- Pedagogik texnologiyalarni nazariy va amaliy egallash hamda sharoitlarini aniqlash;
- Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkoraliqi.
- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta’minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikni tizimga keltirish;
- ta’lim jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo’yicha vaqt resursining cheklanganligi;
- ta’lim oluvchilar mustaqil bilim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o’quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo’riqnomalar, ko’rsatmalarning etarli emasligi va talaba darajasida ishlanganligini yoritish.

### **Talaba mustaqil ishini nazorat qilish tartibi**

Talabalarning mustaqil ishini nazorat qilib borish kafedrada tuzilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib boruvchi professor-o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishi uchun o’quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo’yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun har bir fan bo’yicha talabalarga ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga etkaziladi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

- o’qish bosqichi, ya’ni talaba qaysi kursda o’qiydi;
- muayyan fanning o’ziga xos xususiyati va o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi;
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi oddiydan murakkabga qarab o’zgarib borishi lozim. Ya’ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasi asta-sekin oshib borishi lozim.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi fani bo’yicha talabaning mustaqil ishi soati o’quv rejada ko’rsatilgan bo’lib, bu soatlar o’quv dasturida mavzular bo’yicha taqsimlangan. 2021-yil tasdiqlangan ishchi o’quv rejaga ko’ra mazkur fan uchinchi bosqich talabalari uchun uchinchi semestrda o’tiladi. Fan to’rt kreditdan iborat bo’lib, umumiy 120 soatni o’z ichiga oladi. Shundan 60 soati auditoriya, 60 soat esa mustaqil ta’limga ajratilgan. Mustaqil ta’lim auditoriya soatiga proporsional ravishda quyidagicha taqsimlanadi:

Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari					Mustaqil ta'lif
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Laboratoriya	Kurs ishi	
III	120	60	18	42	-	-	60
Jami	120	60	18	42	-	-	60

### Mustaqil ishining tashkiliy shakllari

Mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniadi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- kurs ishi loyihasini bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va Talabalik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- berilgan mavzu bo'yicha elektron variantlarni tayyorlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

O'qitilayotgan fanning xususiyatidan kelib chikib, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalinish mumkin.

Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan, ilmiy adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalanim ushbu mavzuga taylorlanib keladilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladilar. Talabalarning tayyorlab kelgan mavzulari bo'yicha fan o'qituvchisi savol-javob tarzida og'zaki, yozma va boshqa usullardan foydalangan holda talabalarning bilimini baholaydi.

### Talabalar mustaqil ishini baholash

**Talaba** mustaqil ish natijalari 2023-2023 o'quv yilida 1-3-bosqich talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIning 2021 yil 15-yanvardagi 30- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar na'munalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga asosan baholab boriladi.

Talabalarning mustaqil ishi har bir fakultet va kafedra oynasida yoritib boriladi. Talabalarning mustaqil ishi har bir kafedrada 6 oy mobaynida saqlanadi.

Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari institut Web sahifalarida e'lon qilinib boriladi.

Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari

Talaba tomonidan mustaqil ta'limni belgilangan reja asosida bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqish bo'yicha topshiriqlar berish;

Asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etish;

Mustaqil ishiga o'zi rahbarlik qilayotgan talabalar bilan jadval asosida maslahatlar o'tkazish;

Mustaqil ta'limning bajarilish jarayoninatijalari to'g'risida kafedra yig'ilishlarida muntazam axborot berib borish;

### **Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlarlik ko'rish**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha amaliy yoki seminar mashg'ulotlariga tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi.

### **Hisob-grafik ishlarini bajarish**

Talabaga shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hisob-grafik ishlari beriladi. Bunda talaba shu mavzu bo'yicha mustaqil ravishda mavzuni chuqr o'rganadi, material yig'adi, tahlil qiladi, kerak bo'lganda internet ma'lumotlaridan foydalanadi va bu hisoblash, so'ngra grafik ishlarini bajaradi. Bunda talab imkoniyatidan kelib chiqib hisob-grafik ishlarini elektron varianti ham qilinishi mumkin. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladi.

### **Ko'rgazmali vositalalar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l- yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning mikdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish mumkin.

Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriklar tayyorlash

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun- qoidalari, qanday maqsad kuzda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beriladi. Maslahat paytida bajarilgan ishlarni talabga javob berish darajasi nazorat qilib boriladi.

## **Ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarini tayyorlash**

Talabaga biron mavzu bo'yicha ilmiy (referativ) xarakterdagi maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tatqiqtishlari, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi va o'z fikrlarini bayon qiladi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

### **Amaliyotdagি mavjud muammolar echimini topish**

Talabaga bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha noan'anaviylikni tahlil qiladigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliyotdagи mavjud muammolar, ijodiy yondashish talab qiladigan ilmiy- ijodiy vazifalar topshiriladi. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal usulini izlashga va topishga qaratilgan bo'lisi kerak. Bunda o'qituvchi talaba bilan hamkorlikda ishlaydi.

### **Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish.**

- talabalar mustaqil ishini tashkil qilishga tizimli yondashish;
- talabalar mustaqil ishini barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uziylashtirish;
- talabalar mustaqil ishini bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Talabalar mustaqil ishini muvaffaqiyatli yakunlashi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- Maqsad bilimning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va uslublaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo'lisi, maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi;
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqtin, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etadi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Talaba mustaqil ishini nazorat qilish**

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos ravishda baholanadi. Har bir fan bo'yicha mustaqil ishning shakllari kafedra majlislarida muhokama etiladi va tasdiqlanadi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari har bir kafedrada muhokama etiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishilarida muhokama qilib boriladi.

### **"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" fanidan III-bosqich Talabalari uchun mustaqil ish mavzulari**

№	Mavzular	Adabiyotlar bilan ishlash	Internet materiallari	Ko'rgazmali qurol	Referat	Yakuniy ball	Jami	Soati
		Max-1 ball	Max-2 ball	Max-2 ball	Max-4 ball	Max-1 ball	Max-10 ball	
1.	"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" fanining predmeti.							3
2.	"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" fanining maqsad va vazifalari.							3
3.	Yangi O'zbekiston strategiyasi.							3
4.	Yangi O'zbekiston orzusi.							3
5.	Yangi O'zbekiston fenomeni.							3
6.	Yangi O'zbekiston: yangilanish va taraqqiyot omillari.							3
7.	Yangilanayotgan O'zbekiston.							3
8.	Xalqparvar davlat							3
9.	"Davlat – inson uchun" tamoyili – demokratik islohotlar mezoni.							3
10.	Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi							3

11.	Davlat boshqaruving sivilizatsiyaviy imkoniyatlari.							3
12.	Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati.							3
13.	Qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti.							2
14.	Mustaqil va odil sud tizimi.							3
15.	Erkin va ochiq fuqarolik jamiyatni.							2
16.	Ijtimoiy mas'uliyatli ommaviy axborot vositalari.							3
17.	Iqtisodiyot – jamiyat hayotining tanasi.							2
18.	Xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish.							3
19.	Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish.							3
20.	Qishloq ho'jaligini jadal rivojlantirish.							3
21.	Suv resurslarini samaradorligini oshirish.							3
22.	Hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti.							3
23.	Turizm – O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri.							3
24.	Raqamli iqtisodiyot sari.							2
25.	Adolatli ijtimoiy siyosat							3
26.	Kuchli ijtimoiy siyosat: mohiyat va imkoniyatlar.							3
27.	Sog'liqni saqlash: muammo va yechimlar.							
28.	Sog'lom turmush tarzi madaniyati: jismoniy tarbiya va sport.							
29.	Ta'lim va tarbiya: yangi imkoniyatlar							
30.	Ilm-fan – innovatsion taraqqiyot asosi.							
31.	Ayol bahtli bo'lsa, jamiyat bahtlidir.							
32.	Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkori.							

33	Ma'naviy taraqqiyot						
34	Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar.						
35	Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar.						
36	Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi.						
37	Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish.						
38	Ma'rifatli jamiyat sari.						
39	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi.						
40	Xavfsizlik va tashqi siyosat						
41	Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati.						
42	Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat – ustuvor vazifamiz.						
43	BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.						
44	Markaziy-Janubiy Osiyo va O'zbekiston taraqqiyoti.						
45	O'zbekiston va umumbashariy muammolar						
46	Davrimizning global muammolari va O'zbekiston taraqqiyoti.						
47	Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'hronlar, Orol va ona tabiatni asrash zarurati.						
48	Kambag'allik: umuminsoniy va milliy muammolar.						
49	Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati.						
50	Pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz						
<b>Jami</b>							<b>60</b>

Bunda talabaning mustaqil ishlarini baholash asosan 5 ta ko'rsatkich bo'yicha amalga oshiriladi:

**I. Adabiyotlar bilan ishlash darajasi -1 ball**

1. Talabaning viloyat va universitet kutubxonalariga a'zoligi - 0,3 ball
2. Talabaning kartotekalardan foydalana olish darajasi - 0,3 ball
3. Adabiyotlar bilan ishslash holati - 0,4 ball

**II. Internet materiallaridan foydalana olish darajasi - 2 ball**

1. Kompyuter savodxonligi - 0,5 ball
2. Internet saytlarining ro'yxati - 0,5 ball
3. Tanlangan materiallarning mavzuga mos kelishi – 0,5 ball
4. Materialni tarjima qilish imkoniyati – 0,5 ball

**III. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash - 2 ball**

- I. Ko'rgazmali kurolning standart talabiga moskelishi 0,5 -ball
2. Ko'rgazmali qurolning originalligi (o'ziga xosligi) 0,5 -ball
3. Ko'rgazmali qurolning mavzuga mosligi -1 ball

**IV. Referatning ilmiy jihatdan yoritilishi - 4 ball**

1. Referatda ijtimoiy-siyosiy voqyelikning aks ettirishi 1-ball
2. Referatda ilmiy nazariy manbalarning yoritilishi - 1 ball
3. Referatda ilmiy amaliy manbaalarning yoritilishi - 1 ball
4. Xulosa va tavsiyalarning mavjudligi - 1 ball

**V. Yakuniy nazorat (referat himoyasi) - 1 ball**

1. Talabaning o'z mavzusini chuqr egallaganligi 1- ball
2. Talabaning erkin va mustaqil fikrlay olishi 1- ball

## **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 2017.-592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

7. Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangriyev L. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
8. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Назаров Қ, таҳрири остида. - Т.: Маънавият, 2009.
9. Абилов У. Миллий ғоя: маънавий омиллар. – Т.: Маънавият, 1999.
- 10.Исломов З.М. Фуқаролик жамияти: кеча, бугун, эртага. - Т.: 2002.
- 11.Мамашокиров С. ва бошқалар. Ўзбекистонда янги жамият курилишининг ғоявий-мафкуравий масалалари. (Ўкув-услубий қўлланма). – Т.: 2004.
- 12.Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Назаров Қ. Таҳрири остида. - Т.: Академия нашриёти. 2007.
- 13.Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. - Т.: 2002.
- 14.Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. – Т.: 2002.
- 15.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. (Қисқа изоҳли тажрибавий лугат) – Т.: Янги аср авлоди, 2002.
- 16.Мустақиллик мафкураси ва Ўзбекистонда демократик жамият куришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. – Т.: Университет, 2001.

### **Axborot manbalari**

- 17.www.lex.uz О‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi rasmiy sayti
- 18.www.senat.uz О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti
- 19.www.gov.uz О‘zbekiston Respublikasi hukumat portal
- 20.www.mtdp.uz О‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi rasmiy sayti
- 21.parliament.gov.uz О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy sayti
- 22.www.press-service.uz О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati

# Glossariy

## “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanidan Glossariy

**Abolitsionizm** – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQShda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o‘zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o‘zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma’muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

**Agregatsiya-** (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularniqondirish chora va tadbirlariko‘riladi.

**Advokatura**-huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining advokatura to‘g‘risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

**Adliya**-(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

**Adolat** (arab. – odillik, to‘g‘rilik) – u yoki bu qadriyatlarning o‘zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o‘rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo‘lgan jamoa tartibi.

**Aktor** - (lot. —actorl - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa sub'ekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va sub'ekt tushunchalari sinonim sifatida ishlataladi.

**Alarmizm** – intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamонавиј g‘oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yaroviylar, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi

**Amnistiya**-jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya’ni amnistiya akti bilan

belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

**Anaxronizm** – (yunon. ana-orqaga,chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqyea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo‘yish.

**Apatiya** – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

**Artikulyasiya** – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirishjarayonini anglatadi.

**Axborot** – (—informatio) lotinchadanma'lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma'muriy, tashkiliy tadbirdilar o'tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqyealar) to'g'risidagi ma'lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma'lumot (belgi) olish natijasida o'rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta'minlaydi.

**Axborot-** (informatsiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kinnidir faoliyati, nimadir faoliyati yokiishning ahvoli haqida habar, habardorlik.

**Axborot madaniyati** – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bilim, mahorat, ko'nikma va refleksli ko'rsatmalar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

**Axborot makoni** – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishslash va uzatish bo'yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari majmuasi.

**Axborot sohasini liberallashtirish** – (libera lis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, shuningdek ularning faoliyatidagi cheklovlarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

**Axborot erkinligi**-fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingen axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O'z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliği uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo'l qo'yilmaydi (67-modda).

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig'ish, ishslash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish

maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislari, Internetdan foydalanishni ta'minlash, Internet axborot resurslarini ta'minlash kiradi.

**Bill** – ingl. Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e'tiboriga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

**Bipartizm**-ijtimoiy sheriklikning ikki sub'ekti o'rtasidagi kelishuv

**Bozor** – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bundesrat** – nem. GFRda yerlar palatasi. Germaniya yerkandi hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat. Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

**Bunyodkor g'oya** — jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

**Vayronkor (buzg'unchi) g'oya** — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuuni ifodalovchi tushuncha.

**Vatan** ( arabcha —Vatanı — ona yurt ) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muh it va ichki kechinmalar hamda tushunchalarini o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy,

**Vatan ravnaqi** – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

**Vatanparvarlik** – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona

xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

**Verbal** – (lot.) og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning sub'ektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

**Veto** – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig'i yoki parlament oliy palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to'xtatib qo'yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

**Vijdon erkinligi** – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda vijdoni

buyurgani bo'yicha yashash, ishslash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

**Vijdon erkinligi** – fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

**Genezis** - yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

**Gildiya tizimi** – (nem. korporatsiya) elitalarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) yepiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog'onaviyiligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko'plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovnini alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi sigarilar xos.

**Gipotetik** – faraz qilingan, taxmin qilingan.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

**G'oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

**G'oyaviy bo'shliq** - deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarining qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmishtan kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytildi.

**Gumanizm** (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

**Guruh** - manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo'yicha birlik va umumiylilik kasb etgan shaxslar yig'indisi, birlashmasi.

**Davlat** – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ma'lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o'z

vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo'naltiradi va nazorat qiladi.

**Davlat tessarrufidan chiqarish** - davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

**Daxldorlik hissi** – fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

**Demokratik institutlar** – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi.

**Demokratik institutlar** - jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

**Demokratik kuchlar bloki** – parlamentdagи ko‘pchilikni tashkil etish maqsadida o‘zdasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holdabir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o‘z sa'y- harakatlarini birlashtirishi.

**Demokratiya** (yunoncha, —demos— xalq, —kratos— hokimiyat) – xalq hokimiyati ma’nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e’lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e’tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

**Detsentralizatsiya** - nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvnibo‘shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

**Diaspora** – yun. diaspora -tarqalish ma’nosida bo‘lib, ma’lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o‘z davlat tuzilmasiga ega, ma’lum bir xalq millat vakillarining yig‘indisi (masalan O‘zbekistonda yashovchi rus, ukrainmillatining diasporasi).

**Diversifikatsiya** – lot. diversification – o‘zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo‘nalishlarda rivojlantirishga strategik mo‘ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag‘larni turli ob’ektlar o‘rtasida bo‘lib-bo‘lib joylashtirish.

**Diniy bag‘rikenglik** - bizning dunyomizdagи turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi.

**Diskurs** - ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

**Differensiatsiya** – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo‘laklarga bo‘linish.

**Dualizm** – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta’limot).

**yevropotsentrizm** - G‘arbiy yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na’muna, deb qarovchi konsepsiya. Unga ko‘ra G‘arbiy yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

**Jazo** – huquqbazarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma’naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan majburlov chorasi.

**Jamiyat** – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma’naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiylorzu-maqsadlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

**Jamoa manfaati** – kishilar guruhi, korxona va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

**Jamoat birlashmalari** – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlarning jamiyatları, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

**Jarayon** – muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar, voqyea va hodisalarning davomiyligi. J.lar uzlukli va uzlucksiz, tabiiy va sun‘iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo‘lishi mumkin.

**Jinoyat** – qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. zamin, o‘lkadir.

**Identifikatsiya** – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

**Ijtimoiyadolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

**Ijtimoiy manfaat** – bu barcha jamiyat a’zolarining birgalikda ro‘yobga chiqadigan manfaatlaridir.

**Ijtimoiy uyushmalar** – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyorilik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiylar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlari, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir.

# **Illovalar**



## **“Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” fanidan tarqatma materiallar:**

1. Mamlakatimizda baynalmilal madaniyat markazi qachon tashkil topgan?  
A) 13 yanvar, 1992 B) 25 dekabr, 1992 V) 16 aprel, 1992 G) 18 sentyabr. I993
2. Qaysi xalqaro tashkilot va qachon «Bag`rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi» qilgan?  
A) YUNESKO, 1995 B) Evropa kengashi (EK), 1990 V) Birlashgan Millatlar
3. Tashkiloti (BMT), 2000 G) Evropa Xavfsizlik va Xamkorlik Tashkiloti (EXXT) 1998
4. «Bagrikenglik» tushunchasining ma’nosini aniqlang.  
A) xamma javoblar to`g`ri B) chidamlilik V) bagrikenglik G) sabr
5. Xozirgi kunda O`zbekistanda qancha millat va elat vakillari istiqomat qiladi?  
A) 137 B) 150 V) 126 G) 140
6. O`zbekistonda matbuot nashrlari nechta tilda chop etiladi?  
A) 5 B) 7 V) 8 G) 14
7. BMT qaysi yilni «Bag`rikenglik yili» deb e’lon qilgan edi?  
A)1995 B)2000 V)1999 G)2001
8. Bugungi kunda mamlakatimizda nechta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladi.  
A) 15 B) 16 V) 17 G) 21
9. Yuridik xizmatning shartnomaviy munosabatlar xuquqiy jixatdan ta’minlashni tashkil etish sohasidagi vazifa va xuquqlarini tartibga soluvchi xujjatni tanlang  
A) «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonun  
B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Davlat boshqaruvi organlari va maxalliy davlat xokimiyyati organlarining yuridik xizmati to‘g‘risida»gi qarori  
V) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Xo‘jalik boshqaruvi organlar- korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati to`g`ri sida»gi karori  
G) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan tashkillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori
10. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF-2733-son Qarorida yuridik xizmatua qanday imtiyozlar berildi?  
A) davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlarining mazkur mutaxassislik yillik stajiga ega bulgan xodimlari, litsenziya olish uchun advokat makomiga ega bulishga ta; sifatida malaka imtixonida tegishli stajirovka utmasdan ishtiroy etish xuquqiga ega  
B) yuridik xizmat xodimi sifatidagi mexnat staji xodim bo‘lsha davlat organlari, iugu xuquqni muxofaza kiluvchi va nazorat organlariga ishga utganda martaba darajalari va kuya xizmat ustamalarini tulash uchun muljallangan mexnat staji xisobga olinadigan buldi

V) yuridik xizmat xodimlari xar chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va foydasiga xal kilingan nizolar yuzasidan undirilgan pulning 5 foizi, birok eng kam xakining 50 barobaridan kup bulmagan mikdorda mukofotlanadigan buldi.

G) barcha javoblar to`g`ri

11. Nikohdan ajralishni qayd etish qaysi organlarga taalluqli?

A) faqat FXDYO organida amalga oshiriladi

B) faqat sud tartibida amalga oshiriladi qonun xujjalarda belgilangan xollarda

V) FXDYO organida xamda sud tartibida rilishi mumkin

G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

12. Nikohni qayd etish vakolatiga ega bo`lgan organni tanlang.

A) FXDYO organida amalga oshiriladi

B) faqat sud orqali qayd qilinadi qonun xujjalarda belgilangan

V) FXDYO organida xamda sud tomonidan qayd etilishi mumkin

G) diniy rasm-rusumlar asosida amalga oshiriladi

13. Xarakatlar strategiyasida advokatura institutini takomillashtirishga qaratilgan yurdik-tadbirlar qaysi javobda to`g`ri keltirilgan?

A) advokatlarga xakamlik sudlarida xakam sifatida ishtirok etish xuquqi beriladi, advokat ishni ko`rib chiqish tartibi va muddatlari aniqlashtiriladi, advokatlar va advokatlik tuzilmalar daromadlarini soliqqa tortish tizimini maqbullashtirish,

B) advokatga litsenziya berish va uni Intizomiy javobgarlikka tortish masalasida davlat organlarining roli kamaytiriladi, advokatlik litsenziyasi faoliyatini to`xtatish, tugatishning sud tartibi bosqichma-bosqich joriy etiladi va advokatlik tuzilmalarining yangi tashkiliy-xuquqiy shakllari joriy etiladi, xalqaro-xuquqiy, fuqarolik-xuquqiy va xujalik-xuquqiy masalalar bo`yicha yuridik yordam kursatish maksadida xori- jiy fuqarolarga advokatlik litsenziyalarini berish tartibi joriy etiladi

V) «Advokatura to`g`ri sida»gi qonun yangi taxrirda ishlab chikiladi

advokatlarga bir vaktning uzida sudyda sifatida ishtirok etish xuquqi beriladi

G) xalqaro-xuquqiy, fuqarolik-xuquqiy va xujalik-xuquqiy masalalar bo`yicha yuridik yordam kursatish maksadida xorijiy fuqarolarga advokatlik litsenziyalarini berish tartibi joriy etiladi

15. 2017-2021 yillarda O`zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Xarakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturiga ko`ra notarial idoralar faoliyatini tako- millashtirish bo`yicha kanday chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan?

A) notarial idoralar faoliyatini avtomatlashtirish

B) barcha notarial bitimlar xisobini markazlashgan xolda yuritish

V) idoralararo elektron xamkorlikni xisobga olgan xolda, axoli va tadbirkorlarga notariat soxasida interaktiv davlat xizmatlari kursatishni yo`lga qo`yish

G) barcha javoblar to`g`ri

16. Notarial idoralarga elektron murojaat qilish tartibi kelajakda qanday muammolarning oldini oladi?

A) fuqarolarga kam vaqt va mablag sarflash V) uzundan-uzun navbatlarda turmaslik B) ortikcha kogozbozlikning oldini olish G) barcha javoblar to`g`ri

Xuquqni muxofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish deganda nima tushuniladi?

- A) tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini kelishuvchilik asosida olib borish
- B) surishtiruvni, dastlabki tergovni, tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiradigan organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish
- V) tezkor-kidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyatini xamkorlik asosida olib borish
- G) mansabdar shaxslarning xuquqni kullash bilan boglik faoliyatini xamkorlik asosida muvofiqlashtirish

17. Afrika, O'rta Sharq va Markaziy Osiyodagi nechta diniy ekstremistik va terrorchil tashkilotlari ISHIDning xatti-xarakatlarini qo'llab-quvvatlab, ularga yordam berib kelmoqda?

- A) o'n beshdan ortiq B) yigirma beshdan ortiq V) o'ndan ortiq G) yuzdan ortiq
- 18. O'zbekistonda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi qurashish borasida qanday qonunlar qabul qilingan?

  - A) Terrorizmga qarshi kurash to`g`risidagi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to`g`risidagi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va uni oldini olish to`g`ri sidagi qonunlar
  - B) Terrorizmga qarshi kurash to`g`ri sidagi qonun
  - V) Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashti rishga qarshi kurashish to`g`risidagi qonun
  - G) B va V javoblar to`g`ri

19. 2017-2021 yillar mobaynida qaysi mutasaddi idoralar ishtirokida diniy ekstremizm terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish amaliyotini o'rganish nazarda tutilgan?

- A) O'zbekistan Respublikasining IIV, Mudofaa vazirligi, DXX, DBQ, Bosh prokuratur, OO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, MTRK, «Maxalla» jamgarmasi,
- B) Axborot texnologiyalari vazirligi, Mexnat vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, vazirlik va idoralar
- V) Qoraqalpogiston Respublikasi Juqorgi Kengesi, viloyatlar va Toshkent shaxar xokimliklari. Ijtimoiy tadqiqotlar institutlar, DBA, SMTI, FJSHMKMI, «Ijtimoiy fikr» markazi
- G) Mexrat vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Adliya vazirligi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

20. O'zbekistan Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo'shilgan?

- A) 2017 yil B) 2001 yil V) 2003 yil G) 2008 yil

21. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar xamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?

- A) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi
- B) Korrupsiyani oldini olish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi

- V) Bosh prokuratura xuzurida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha departament  
G) Barcha javoblar to`g`ri
22. Xuquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muxim mezonlaridan birini ko`rsating.
- A) Jamiyatda axoli xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyati darajasining yuksakligi  
B) Axolining isloxitlardan xabardor ekanligi  
V) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha qonunning mavjudligi  
G) Axolining xuquqiy madaniyati darajasining yuksakligi
23. 2017-2021 yillarda kabul qilingan qonun xujjalarni axoli va ijrochilarga o`z vaqtida yetkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida qanday xuquqiy xujjaloyixasini ishlab chiqish nazarda tutilgan?
- A) Jurnalistning kasbiy faoliyatini ximoya qilish to`g`ri sidagi qonun  
B) Jamoatchilik nazorati to`g`ri sidagi qonun  
V) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha qonun  
G) Xuquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to`g`risidagi qonun
24. 2017-2021 yillarda fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari xodimlari xamda axolining xuquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularga qabul qilingan yangi qonun xujjalarning mazmun-moxiyatini tushuntirish maqsadida maxallalarda qanday ishlar amalga oshirish ko`zda tutilgan?
- A) Xaftada uch marta «Jinoyatdan saqlaning!» uquv mashg`ulotini joriy etish va doimiy o`tkazib borish  
B) Xaftada bir marta «Xuquqiy bilimlar» o`quv mashg`ulotini joriy etish va doimiy o`tkazib borish  
V) Xaftada ikki marta «Diniy ekstremizm va terrorizm - yoshlар kelajagiga taxdid» mavzularida uchrashuv va davra suxbatlarini tashkil etish  
G) Xaftada bir marta «Maxallamiz jinoyatchilikka qarshi turadi» aksiyalarini o`gkazish
25. O`zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida jamotchilik nazorati keltirib o`tilgan?
- A) 48 B) 51 V) 32 G) 18
26. Jamoatchilik nazorati bu ....
- A) davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining o`zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiylatlarni ijro etishi bilan bog`liq faoliyatidir.  
B) davlat organlari faoliyatining qonuniligini ta'minlash, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan O`zbekistan Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi qonun xujjalariга rioya qilmaslik xolatlarini aniqdashga qaratilgan faoliyatdir.  
V) davlat va uning nomidan maxsus vakolatli organlarning qonun bilan belgilangan tartibda xuquqiy ta`sir chorasi kullaq orkali qonuniylikni, xuquqiy tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va boshka fuqarolik birlashmalarining xuquq va qonuniy manfaatlarini muxofaza kilish, fuqarolarni xuquq va erkinliklarini ximoya kilish, jinoyatchilik va boshka xuquqbazarliklarga qarshi kurashish soxasidagi faoliyatdir, deyish mumkin.

G) to`g`ri javob yo`q

27. O`zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida O`zbekistan Respublikasi xududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O`zbekistan Respublikasining Bosh prokurori va unga bo`ysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi deb ko`rsatilgan?

A) 110-modsa B) 115-modda V) 118-modda G) to`g`ri javob yo`q

28. Xuquqbuzarliklar profilaktikasining turlari -...

A) xuquqbuzarlarning umumiy va maxsus profilaktikasi

B) xuquqbuzarlarning yakka tartibdagi profilaktikasi

V) xuquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi

G) barcha javoblar to`g`ri

30. Insonparvarlik prinsipiga to`g`ri ta`rif berilgan qatorni toping.

A) xech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas

B) shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo`ladi

V) qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan xar bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart

G) jazo va boshqa xuquqiy ta`sir choralar jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko`zlamaydi

31. O`zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksiga yarashuv instituti qachon kiritildi?

A) 2000 yil 21 avgust B) 2001 yil 29 avgust V) 2002 yil 30 avgust G) 2003 yil 24 avgust

32. O`zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslar uchun qanday jazo choralar tayinlanishi mumkin?

1. jarima; 2. muayyan xuquqdan mahrum qilish; 3. axloq tuzatish ishlari; 4. xizmat bo`yicha cheklash; 5. qamoq; 6. ozodlikni cheklash; 7. intizomiy kolloniyaga junatish; 8. ozodlikdan maxrum qilish; 9. umrbod ozodlikdan maxrum kilish.

A) 1,2, 5, 7, 9. B) 2, 4, 5, 7, 8. V) 4, 6, 7, 8, 9. G) 1,3, 5, 6, 8.



## **“Yangi O’zbekistonni rivojlanish strategiyasi ” fanidan talabalar bilimini baholash mezoni**

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rtalik maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagagi 19-2018-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug’i hamda shu buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo’yicha YO’RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o’qituvchisi tomonidan birinchi mashg’ulotda Yo’riqnomma talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

### **Nazorat turlari:**

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo’limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko’nikmalarini baholash maqsadida o’quv mashg’ulotlari davomida hamda mashg’ulotlardan keyin o’tkaziladi.

Talabalar mashg’ulotlarda faolligi fan o’qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg’ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o’zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg’ulotlarda olgan baholari barchasi qo’shiladi va olinishi shart bo’lgan baholar soniga bo’lgan holda o’rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg’ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta’limiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

**Oraliq nazorat** fan o’qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o’tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o’quv mashg’ulotlari (seminar mashg’ulotlari, mustaqil ta’lim, ma’ruza mashg’ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o’rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo’lgan o’rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'B = \frac{MO'B + MTB + ONB}{3}$$

bu yerda: O’B- semestrda talabalarning olgan o’rtacha bahosi;  
MO’B – mashg’ulotlarda to’plagan o’rtacha bahosi;  
MTB – mustaqil ta’limdan olgan bahosi;  
ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg’ulotlar, mustaqil ta’lim va oraliq nazorat shakllari  
 Agar talabaning o’rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini o’zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish shakli Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasni tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul’tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo’yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

#### **Talabalar bilimini baholash mezoni (TBBM):**

Baho	Talabalarning bilim darajasi
5 – “A’lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilgandayu
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimini amalda qo’llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o’zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo’yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

#### **Talabala bilimini baholash:**

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko’chirish uchun asos bo’lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo’lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib borgan professor-o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o’tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o’qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo’yicha talabaning bilimini baholash o’quv mashg’ulotlarini olib bormagan professor-o’qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo’llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo’yicha yukuniy nazoratlarni o’tkazadigan professor-o’qituvchilar ro’yxatini shakllantiradi va ro’yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo’yicha mashg’ulot o’tgan professor-o’qituvchi(lar)dan boshqa

fan bo'yicha mutaxassis bo'lмаган hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo'yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan takdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinci marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo'lган talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lган taqdirda, baholash natiasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natiasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagani ko'rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

### **Baholash natijalarini qayd etish:**

Talabalar bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejlashtirilgan safar va shunga o'xhash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning baholash daftariga yozilmaydi.